



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**“GLOBALASHUV  
DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR  
MUNOSABATI” MAVZUSIDA**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
ANJUMAN MATERIALLARI**

Navoiy-2023



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI  
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“GLOBALLASHUV DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR  
MUNOSABATI” MAVZUSIDAGI  
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
M A T E R I A L L A R I**

**BIRINCHI KITOB**

**Navoiy-2023**

## **XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MAS'UL MUHARRIRLARI**

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

## **XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAHRIR HAY'ATI**

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
X.Qurbonova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, p.f.n.
N.Yarashova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
F.Yo'ldoshev	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
R.Sharopova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
G.Norova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

## **XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAQRIZCHILARI**

N.Yarashova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
G.Ernazarova	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

*Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.*

## SO‘ZBOSHI

Bugun globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy-madaniy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo, o‘z madaniyatini, qadimiy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida ahamiyat qaratmoqda. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgandan so‘ng o‘tgan 33 yil davomida hukumatimiz tomonidan ham o‘zbek tilini har tomonlama takomillashtirish, mavqeyini mustahkamlash, uning jahon tillari darajasidagi nufuzini ko‘tarishga katta e’tibor qaratilib, ko‘plab samarali ishlar amalga oshirildi. Shu ma’noda, Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi 5850-son qarorida “xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biri” ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoniga ilova qilingan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan ushbu ilmiy-amaliy anjumanga yuzga yaqin materiallar taqdim etilgan bo‘lib, maqolalarda o‘zbek tilining xususiyatlari xalq og‘zaki ijodi namunalari, yozma adabiyot tili misolida, shuningdek, tarixiylik, qolaversa, lingvomadaniy, lingvopragmatik, psixolingvistik, lingvopoetik aspektlarda ochib berilgan.

Ishonamizki, ushbu maqolalar tilshunoslik sohasi bilan shug‘ullanayotgan ilm ahlini befarq qoldirmaydi.

**Tashkiliy qo‘mita**

## TIL – MILLAT MA’NAVIYATI TIMSOLI

Assalomu alaykum, muhtaram mehmonlar, ilmiy anjuman ishtirokchilari! O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 34 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga xush kelibsiz!

Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri bo‘lib, til mavjud ekan, millat mangu yashaydi; tilning tirikligi, aytish mumkinki, millatning, xalqning mavjudligidir. Demakki, o‘zbek tilining tirikligi – o‘zbek millatining mavjudligi, davlat tili esa o‘zbek davlatchiligining borligidan dalolatdir. Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, ma’naviyatimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shu sabab 1989-yil 21-oktabr – “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kun har yili boshqa bayramlar qatori Navoiy davlat pedagogika institutida ham yuqori ko‘tarinkilik bilan nishonlanib kelinmoqda. Bu qutlug‘ kun barchangizga muborak bo‘lsin, deyman.

O‘zbek tilimiz dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida, Ahmad Yassaviy hikmatlarida, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa” asarlarida, Boburning “Boburnoma” asarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va asrimiz adiblari ijodida madh etib kelinmoqda.

“Davlat tili haqida”gi qonun o‘zbek tilining taraqqiysi, erkin rivojlanishi, davlat va jamoat organlarida asosiy ish yuritish tiliga aylanishi va tilimiz muhofazasi yo‘lida qilingan huquqiy harakat bo‘lib, tilimizni davlat tili maqomi bilan mustahkamladi. Bu qonun o‘zbek xalqi milliy ongining taraqqiysida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosimiz hamda ma’naviyatimizning tiklanishida muhim rol o‘ynadi. Mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasida va davlat tili to‘g‘risidagi qonunning yangi tahririda til masalasi bugungi kun talabi darajasida o‘z aksini topdi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida davlat tili to‘g‘risidagi qoidalar: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, degan zalvorli jumalarda mustahkamlandi. Mazkur qoida 1995-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi qonunining yangi tahririda mufassal yoritib berildi.

Demakki, o‘zbek tilining rivoji va ravnaqi uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida “Davlat tili haqida”gi qonunning barcha moddalari to‘liq amalga kiritildi.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarning, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san’ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa, mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo‘ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko‘pgina yo‘nalishlari bo‘yicha qat’iy me‘yorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko‘pgina munozarali masalalar o‘zining nazariy asosiga qo‘yildi.

Bugun o‘tkazilayotgan “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ham xalqaro hamda respublikamizning yetakchi olimlari tilshunoslikning dolzarb masalalari va muammolarining yechimlari, ona tilimizning kelgusi istiqbolli rejalari xususida o‘z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etadilar.

Ruxsatingiz bilan bugungi ilmiy-amaliy anjumanni ochiq deb e‘lon qilaman.

**Bahodir Boypulatovich Sobirov**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti rektori**

**1-SHO‘BA**  
**KOMPARATIVISTIKA VA JAHON TILSHUNOSLIGI: MUAMMOLAR,  
YECHIMLAR VA STRATEGIYALAR**

---

**TURKIY AREAL LINGVISTIKANING BA‘ZI METODOLOGIK MASALALARI**

*Murodova Nigora Quliyevna,*  
*NavDPI professori, filologiya fanlari doktori*  
*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Areal tilshunoslik lingvistik makonni, uning tuzilishi, shakllanish xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi, shuningdek, tillar va dialektlarning o‘ziga xos tasnifini tuzadigan tilshunoslikning mustaqil tarmog‘idir. Areal tilshunoslik dialektologiya, lingvistik geografiya va arealogiyaning elementlarini birlashtiradi, ularning har biri lingvistik makonni o‘rganib, o‘z obyektini lingvistik makonga xos bo‘lgan tomonlar asosida belgilaydi.

**Kalit so‘zlar:** izoglassa, hudud, dialekt, mikrotizm, chegara, tarqalish nuqtasi, xarita, tekislik, maydon, atlas.

**Аннотация.** Ареальная лингвистика-самостоятельная отрасль языкознания, изучающая языковое пространство, его структуру, особенности формирования и закономерности развития, а также составляющая специфическую классификацию языков и диалектов. Ареальная Лингвистика сочетает в себе элементы диалектологии, лингвистической географии и ареологии, каждая из которых, изучая языковое пространство, определяет свой объект на основе аспектов, присущих языковому пространству.

**Ключевые слова:** изогласса, территория, диалект, микротизм, граница, точка распространения, карта, плоскость, площадь, атлас.

**Abstract.** Areal linguistics is an independent branch of linguistics that studies the linguistic space, its structure, features of formation and patterns of development, as well as constituting a specific classification of languages and dialects. Areal Linguistics combines elements of dialectology, linguistic geography and archeology, each of which, studying the linguistic space, determines its object on the basis of aspects inherent in the linguistic space.

**Keywords:** isoglossa, territory, dialect, microtism, border, distribution point, map, plane, area, atlas.

Jahon tilshunosligida, turkiyshunoslikda, o‘zbek tilshunosligida areal lingvistika sohasida juda katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bunday tadqiqotlar B.A.Serebrennikov, N.I.Tolstoy, A.B.Desniskaya, R.I.Avanesov, V.M.Jirmunskiy, E.R.Tenishev, E.A.Makayev, M.A.Borodina, N.Z.Gadjiyeva, S.B.Bromley, D.I.Edelman N.A.Baskakov, O.N.Moraxovskaya, G.F.Blagova, T.S.Sharadzenidze, S.V.Smirniskaya, G.A.Sixun, G.Kurat, P.Tradgil, Y.Cheymbres, S.Sanderson, A.Shermatov, Q.Muhammadjonov, A.B.Jo‘rayev va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

M.Bartolning areal nazariyasi, bir tomondan, ekstralingvistik omillarning o‘rnini oshirib baholab, qiyosiy tarixiy tilshunoslik asoslarini qayta ko‘rib chiqsa, ikkinchi tomondan, lingvistik geografiya nazariyasiga qator takomillashtirishlar kiritib, tilshunoslikning o‘ziga xos bo‘ladi va lingvogeografik tadqiqotlar lingvistik makonni aniqlashga xizmat qildi. Tilshunoslikda areal

bilimlarning o'sishi areal tilshunoslik va qiyosiy tarixiy tilshunoslik metodlarining birlashuviga olib keldi.

Areal lingvistikaning metodi va manbai lingvistik xaritalashtirishdan iborat bo'lib, lingvistik xaritalash tabiiy ravishda lingvistik xaritalarning talqiniga amal qiladi. Bu yuqorida qayd etilgan sohalarning birlashishi natijasida amalga oshadi. Turkologiyada lingvoareal tadqiqotning usul va uslublari N.Z.Gadjiyeva va G.F.Blagova tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda ham amalda foydalanilmoqda. J.Jileron boshlagan lingvistik xaritalarni talqin qilish va bir biriga bog'liq holda tahlil qilish, shuningdek, kartografik modellashtirish (arealogizatsiya) lingvoareal qidiruvni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tardi. Metakartografiya jarayonida obektning ontologik o'ziga xosligining o'zgarishi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etiladi, shuning uchun lingvistik metakartografiya ko'pincha lingvistik geografiyada yangi bosqich deb ataladi va bu tasodif emas. Agar lingvistik geografiya o'z mohiyatiga ko'ra faktografik fan bo'lsa, uning M.A.Borodina tomonidan arealogiya deb nomlangan yangi bosqichi kartografik modellar ko'rinishidagi kognitiv tuzilmalar bilan identifikatsiyalangan til makoni tuzilishining bir parchasi sifatida tushuniladigan soha bilan bog'liq.

Arealogiyaning yangi fan sifatida vujudga kelishi lingvistik makonda faoliyat yurituvchi ilgari noma'lum bo'lgan qoliplarning kashf etilishini bildiradi. Yangi bilimlarning o'sishi bilan birga bo'lgan hududiy fanlarning rivojlanishi umumlashtirish jarayonlari, bilimlarni ifodalashning tobora umumlashtirilgan shakllarining rivojlanishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, areal bilimlar tarkibiga bo'ysunuvchi tizim (dialektologiya - lingvogeografiya-arealogiya) shaklida umumlashtirishning ma'lum bosqichlarini ajratib ko'rsatish tobora kuchayib bormoqda. Bunda har bir bosqich oldingi bosqichning olib tashlangan shakldagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Yangi bosqichga o'tish esa umumlashtirishning yangi bosqichiga tilshunoslikning nazariy kotsepsiyasiga kiritilgan mavjud tushunchalarni aniqlashtirish va yangi tushunchalarni shakllantirish bilan birga yuzaga keladi.

Turkiy tillar va dialektlarni o'rganishning obektiv rivojlanishi hududiy bilimlarni integratsiyalashuvi va umulashtirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, bu muqarrar zarurat bilan so'nggi yillarda areal tilshunoslikning yaxlit konsepsiyasini shakllanishiga olib keldi. Ma'lumki, Areal lingvistika umumiy areal lingvistika va taksonomik areal lingvistika qismlaridan iborat. Turkiy tillarda bugungi kunda umumiy areal lingvistika rivojlanib bormoqda. Biroq umumiy areal lingvistikaning mazmuni va tuzilishini tashkil etuvchi jihatlari, elementlari va aloqalari hali aniqlanmagan, garchi areal tilshunoslikning nazariy tarkibiy qismi bo'lsa-da, bu nafaqat ilmiy jihatdan to'plangan turli xil faktlar to'plamini bog'lash imkonini beradi, balki ularni tushuntirish va lingvistik makonning yangi, hali noma'lum qoliplarini bashorat qilish, ham uning tarixini barcha bosqichlari mumkin.

So'nggi yillarda areal lingvistika sohasida turli til massivlarini jadal va maqsadli o'rganish hamda lingvistik atlaslar materiallarini tahlil qilish bo'yicha ishlarning kuchayishi munosabati bilan umumiy areal tilshunoslikni yaratish yo'llari haqidagi fikrlar sezilarli darajada o'zgardi. Nazariy fikrlarning qayd etilgan xususiyatlarini an'anaviy dialektologiya va lingvogeografiya doirasida echib bo'lmaydigan yangi muammolar va vazifalarni birinchi o'ringa qo'ygan zamonaviy ilmiy paradigmaning bevosita natijasi deb hisoblash mumkin.

Turkiy tilshunoslik metodologiyasini boyitish jarayonlari makon g'oyasini harakatga keltiruvchi, vujudga kelayotgan konseptual asosga mos keladigan an'anaviy va yangi tadqiqot usullari va uslublarning birlashishini shakllantirish sifatida metodlarni kompleks o'zgartirish sifatida davom etadi. Turkologiyada lingvoareal tadqiqotning mohiyatini, uning usul va uslublarni



anglash turkiy dialektologiyani yuksak tafakkur ostonasiga olib keladigan ana shu jarayonlar bilan bog'liq. Shu o'rinda A.Jo'rayev ta'kidlaganlaridek, turkiy lingvoarealogiyani tashkil etish va qo'llashga qaratilgan metodologiyasini jiddiy qayta yo'naltirishga olib keladigan doimiy mulohaza bo'lmasa, yangi g'oyalarning areal tilshunoslik atamalariga bo'lgan munosabati boshqacha bo'lishi mumkin.

Turkiy areal lingvistikaning metodologiyasida taksonlash katta o'rin egallaydi. Taksonlashning mohiyati til makonining iyearxik diskretlanish zamirida yotadi va har qanday dialekt hodisa taksonomik xarakterga ega bo'lishi kerak, ya'ni ma'lum bir hududiy darajada ko'rib chiqilishi kerak. Turkiy til makonining tarixan shakllangan mintaqaviy taksonlarining soni, tabiati va ichki parchalanishi masalasi to'liq hal qilinmagan bo'lsa-da, taksonlashtirish urinishlarining o'zi juda muhim, chunki ular lingvistik makonning tuzilishini tushunishga qaratilgan, uning taksonlashish aloqalarini ochib berishda, ularning iyearxik bo'ysunishini aniqlashda, til makonining o'z tabiatidagi o'ziga xoslik bor. Taksonizatsiya o'zida bir qator muammolarni mujassam etgan, jumladan taksonlarning differensiallashuvi va tizolyatsiyasi sabablarini o'rganish, ularning tuzilishi va ularda sodir bo'layotgan dialekt-lingvistik jarayonlarni o'rganish, yaxlitligini o'rnatish, bog'lanish chegaralarini belgilashdir. Shuningdek, lingvoareal ma'lumotlarni yanada matiqiy guruhlash maqsadida ham amalga oshirilishi mumkin, masalan, O'rta Osiyo, Kavkaz, Sibir, turkiy tillarni mintaqaviy o'rganish natijalarini izchil taqdim etish turkologiyada allaqachon olib borilayotgan maqsadli ishlardan biridir. O'rta Osiyo mintaqasi takson sifatida bir qancha til massivlarini o'z ichiga oladi, jumladan, o'zbek tilida so'zlashuvchi massiv takson sifatida dialekt zonalarini va boshqalarni qamrab oladi. Lingvoareal taksonlar – reallik bo'lib, istalgan turkiy zamon massivni bir nechta sifat jihatidan farqlanuvchi qismlar-dialekt maydonlari (yadro-fokus nuqtalariga qarab) va azonal maydonlarga ajratish mumkin.

Turkiy tilshunoslik uchun tizimlashtirish – sistematikaning hududiy birliklari ya'ni taksonometrik birliklar (mintaqa, til massivi, dialektal mintaq, azonal maydon) yaxlit tuzilishga ega bo'lganligi, dastlabki tahlilsiz tizimlashtirilmasligi sababli areal sistematika taksonning ichki tarkibini o'rganishga asoslanib, turli xildagi tahliliy harakatlarni aks ettiradi. N.Gadjiyeva va Blagovalar ta'kidlaganlaridek, turkiy areal lingvistikaning yutuqlari O'rta Osiyo va Kavkaz turk tillari va shevalarini ularning shakllanish va tuzilishidagi butun farqlari asosida o'rganish bilan bog'liq. Ma'lumki, u yoki bu til massivini tadqiq qilish uchun, agarda tadqiqot areal planda o'tkazilayotgan bo'lsa, til massivining hududiy tafovuti, bir til massivi doirasidan boshqasiga o'tish jarayonida vujudga keladigan farqlari, joydan joyga qarab so'zlashuv uslublarining faolligi va passivligini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. (A.Jo'rayev).

M.M.Borodina tomonidan ilgari surilgan areal tilshunoslik kotsepsiyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, dialektologiya, lingvogeografiya va arealogiya metodologiyasi sohasidagi har bir yirik taraqqiyot, provardida, tilshunoslik tadqiqoti metodologiyasini yaratishga qaratilgan harakat edi. Turkiy tilshunoslikda areal tadqiqotlarni amalga oshirishda an'anaviy turkiy dialektologiyadagi tadqiqot manbalarini kengaytirish lozim. Chunki unda makon g'oyasi faktik materiallarni yig'ish bosqichida, uni tizimlashtirishda kam e'tibor berilgan. Yangi paradigmaga asoslangan tadqiqotlar, yaratiladigan xaritalarda bunga e'tibor qaratilishi lozim.

Xaritalar yaratishning yangi usuli mohiyatan ma'lumot bir takson doirasida amalga oshiriladigan quyidagi tamoyillar zanjirini amalga oshirishdan iborat: lingvo-arealga nisbatan maqsadni shakllantirish, tadqiqot-faktik materiallarni to'plash, qiyosiy-tizimli tavsifdagi materiallarni tizimlashtirish. Bu erda xaritalash – kartografik modellashtirish sotsiolingvistik, statistik va boshqa ma'lumotnomalar bilan boyitiladi. Xaritalashtirish uchun tuziladigan

anketalardagi savollar adabiy tilni tavsiflashning an'anaviy shakli: fonetika, morfologiya, leksika, sintaksisdan tashqari avvalgi anketalardan farqli ravishda xalqning moddiy madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, marosimlari, ma'lum bir hududiy muammo, uning echimi ustida ishlashni ham e'tiborga olishi kerak. Lingvogeografik tadqiqot usullari faqat xaritalashtirishga qaratilgan bo'lib, makondagi dialektlarni o'rganishga yordam beradigan boshqa usullar va vositalar: dendrogrammalar, jadvallar, diagrammalar, turli xil sxemalar yo'q edi. O'zbek dialektologiyasida shevalarning o'zaro bog'lanishlari, o'zaro ta'sirlari kam o'rganilgan. Shuningdek, sheva materiallarining mahalliy xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar keng yoritilmagan, ular orasida izchillik yo'q edi. Xaritalarda ifodalash maqsadga muvofiq bo'lgan mavzular aniqlanmagan edi. An'anaviy tadqiqot paradigmasida dialektal faktlar tavsifi asosiy o'rin egallagan. Faylasuf X.G.Gadamer: "Shubhasiz, tadqiqotning mohiyati va ahamiyati faqat faktlarning ko'lami bilan o'lchanmaydi. Aksincha, biz uchun faktlar ularni tasvirlay olgan kishi tufayligina haqiqatdan ham ahamiyatli bo'lib tuyuladi. Shuning uchun bizning qiziqishimiz, albatta, faktlarga tegishli, ammo faktlar faqat bizga ko'rsatilgan nuqtayi nazar tufayli ahamiyatlidir", – degan fikrlarni bildiradi.

Tarixiy manbalarga asoslanib, mazkur hududlardan Buxoro va Xiva ikkita dialekt zonalari hududlari qadimdan karvon yo'llari orqali bog'langanligini aytish mumkin. Bu ikkita dialekt zonalari hududlarining uzluksizligini belgilaydi. Buxoro va Xiva o'rtasidagi savdo aloqalari to'g'risida I.I.Demezov shunday ma'lumotlarni keltiradi: Xivadan juda ko'p ot, buqa va tuya terilari olinadi; yarim ipak chiziqli gazlamalar, Buxoro fabrikalarida ishlab chiqarilgan gazlamalar kabi yupqa emas, balki ancha bardoshli va amaliy, ularni qirg'izlar va xitoylar bajonidil sotib oladilar; Buxorodan Xivaga sifatli olmalar, ko'p miqdorda indigo, ko'k choy va ayniqsa, tamaki, quritilgan mevalar, ipak belbog'lar, ipak va paxta matolari, shakar xom ashyosi va boshqa narsalar eksport qilinadi. Ipak, guruch, jugari va juda ko'p bug'doy bilan tikilgan paxta ro'mollari ham sotiladi. Mazkur hududlar shevalaridagi sohaviy so'zlarning o'xshashligi ular o'rtasidagi aloqalarning natijasi deb baholash mumkin. Bunday ma'lumotlardan lingvistik hodisalarning lingvo-areali to'g'risida xulosalar chiqarsa bo'ladi. Yoki yuqorida ko'rsatilgan hudud shevalarining o'xshashli sabablari ularning hududiy jihatdan yaqin bo'lganligidadir. Dialektal so'zlarni areal o'rganish ayrim so'zlarning qadimdan bizgacha qanday tovush o'zgarishlar bilan etib kelganini, tilimizning tarixini bilishimiz uchun, lingvistik hodisalarning areal tarqalishidagi sabab mohiyatini aniqlash uchun zarur. Shuningdek, o'zbek xalq shevalari bo'yicha atlaslashning aniq tematik yo'nalishlarini aniqlash, o'zbek tilida so'zlashuvchi massivni to'g'ri shakllantirish, keyingi lingvo-areal paradigmasiga o'tish – makon-zamon tushunchasi maqsadlarni belgilash va amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy tilshunoslikning yangi paradigmasiga o'tishda yuqorida keltirilgan bir qancha muammolar ustida ishlash ham talab qilinadi. Buning uchun har bir dialekt zonasi va azonal hudud uchun dialekt-lingvistik to'plam zarur bo'ladi. Ular asosidagi chuqur ilmiy tahlillarning amalga oshirilishi areal lingvistikaning rivojlanishiga olib keladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бартоли М. Введение в неолингвистику (принцип – ссопи-методи). – Генева, 1925, 108.
2. Благова Г.Ф. О несходствах типологически подобных ареалов (-иш- как показатель множественности в среднеазиатских тюрских говорах) //Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 83–91.
- 3.Бородина М.А. О типологии ареальных исследований //Проблемы картографирования в языкознании и этнографии. Л.,1974.С 44-5

4. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадари в ареальном освещении: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986. – 16 с.
5. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадари в ареальном освещении: Дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986<sub>1а</sub>. – 237 с.
6. Джураев А.Б. Ареалогия и исследование узбекских народных говоров // Советская тюркология. 1987<sub>1</sub>. № 1. – С. 45–51.
7. Джураев А.Б. Методологические регулятивы тюркской ареальной лингвистики и внутренняя совокупность методов на разных этапах ее развития // Типы коммуникации и содержательный аспект языка. – Москва, 1987<sub>2</sub>. – С. 96–103.
8. Джураев А.Б. Теоритические вопросы ареальной лингвистики // Актуальные вопросы развития науки и техники в Узбекистане: тезисы докладов научной конференции молодых ученых и специалистов АН Уз ССР. – Ташкент, 1987<sub>3</sub>. – С. 99.
9. Джураев А.Б. Ареальная лингвистика: сущность и структура // Советская тюркология. 1988. № 6. – С. 21–27.
10. Freudenberg R. Isoglossus. Pragung und Problematis eines sprachwissenschaftlichen Terminus // Seitschrift fur Mundartforschung. 1966. Vol. 33, 219-232.
11. Trubetsky N.S. Reponse a la question // Astes du Preimer Songress Internacional de Linguistes a la Vie du 10-15 Avril 1928. Leidan, 1928, 17-18.
12. Chambers J., Hard workers 11 P. Dialectology. Cambridge, 1980, 218.

## BADIY MATNNI LINGVOSTILISTIK METODLAR ASOSIDA TADQIQ QILISH

*Yusubova Rano Norboyevna,  
NavDPI dotsenti, filologiya fanlari doktori  
(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lingvopoetik tahlil metodikasini ishlab chiqishda lingvostilistik metodlarni modellashtirish, ularning tahlil qilish tamoyillarini belgilash, lingvostilistik tahlil metodlari lingvopoetik vazifalarni aniqlashga yo‘naltirilganligi, ushbu tahlil metodlari, asosan, badiiy matnda shakl yoki mazmunning o‘rnini ochib berish maqsadi bilan harakatlanishi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** badiiy matn tahlili, stilistik tajriba metodi, semantik-stilistik metod, qiyosiy-stilistik metod, statistik-stilistik metod.

**Аннотация:** В данной статье моделирование лингвостилистических методов при разработке методики лингвопоэтического анализа, определение принципов их анализа, то, что методы лингвостилистического анализа направлены на определение лингвопоэтических задач, и основное назначение этих методов анализа выявить место языковых уровней в художественном тексте.

**Ключевые слова:** анализ художественного текста, метод стилистического эксперимента, семантико-стилистический метод, сравнительно-стилистический метод, статистико-стилистический метод.

**Abstract:** In this article, the modeling of linguo-stylistic methods in the development of the methodology of linguo-poetic analysis, the definition of the principles of their analysis, the fact that the methods of linguo-stylistic analysis are aimed at determining linguo-poetic tasks, and the main purpose of these analysis methods to identify the place of language levels in a literary text.

**Key words:** literary text analysis, stylistic experiment method, semantic-stylistic method, comparative stylistic method, statistical-stylistic method.

Filologiyaning uzluksiz taraqqiy etib borishi, turli paradigmalarning vujudga kelishi natijasida fanda yangi sohalarining yuzaga kelishi va kengayishi, tabiiy, fanning mukammal o'z tadqiq metodlari majmuasiga egaligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijasining samarali bo'lishida o'rganilayotgan obyektga aniq nuqtai nazar asosida yondashish, buning uchun metodni to'g'ri tanlash va qo'llash zarur. Lingvopoetika soha sifatida shakllangunga qadar badiiy asarni filologik tadqiq qilish an'anaviy metodlarda amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar kuzatilganda, ayrim olimlar matnning forma qismini o'rganishni, ayrimlar mazmun qismini o'rganishni vazifa sifatida belgilab olganlarki, bu tematik tahlillarga ko'proq e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi, natijada tadqiqot obyekti bo'lgan badiiy matni shakl va mazmun birligida kompleks o'rganish vazifalar doirasiga kiritilmasdan qolgan.

Lingvopoetik tahlil metodlari rus tilshunosligida dastlab R.Yakobson, V.Vinogradov, V.Jirmunskiy, R.G.Piotrovskiy, O.Axmanova, V.Zadornova, N.A.Morozov, keyinchalik V.Zadornova, A.Lipgart, o'zbek tilshunosligida S.Karimov, M.Yo'ldoshev, S.Umirova tadqiqotlarida kuzatiladi.

Rus tilshunosi A.A.Lipgart badiiy matni lingvopoetik tadqiq etish yo'nalishi matnning g'oyaviy-badiiy mazmunini ta'minlash va estetik effekt yaratishda lingvistik birliklarning qiyosiy ahamiyati va stilistik vazifalarini aniqlashga yo'naltirilganligini ta'kidlagan[1]. M.Yo'ldoshev lingvopoetikaning obyekti bo'lgan badiiy matni lisoniy tahlil qilishning tamoyil va tahlil usullari haqida bahs yuritgan [2].

Nafaqat ilmiy tadqiqot faoliyati, hatto insonga xos hech bir faoliyat metodologiyasiz bo'lishi mumkin emas, shu bois o'tgan asrning 50-yillarida dunyo fanining filologiya, sistemologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida metodologik yo'nalishlar shakllandi[3]. Zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarni ilmiy va amaliy jihatdan birmuncha obyektiv ravishda amalga oshirish uchun tilshunoslikda mavjud bo'lgan an'anaviy, sistem-struktur, antropotsentrik tahlil metodlaridan integrativ tarzda o'rni bilan foydalanilmoqda.

Lingvopoetikani sohaning so'nggi yutuqlaridan, tadqiq etishning yangi metodlaridan foydalangan holda keng ko'lamda o'rganishni, o'zbek tilshunosligi oldida lingvopoetikaning zamonaviy tahlil metodlari masalasi ko'ndalang turganligini ham tan olish vaqti keldi. Shu ma'noda, lingvopoetikaning tahlil metodlari ishlab chiqildi.

Lingvopoetika va lingvostilistika o'zaro yaqin sohalar bo'lgani sababli lingvopoetikada lingvostilistik tahlil metodining *stilistik tajriba*, *semantik-stilistik*, *qiyosiy-stilistik* va *statistik-stilistik* metodlaridan foydalaniladi. Badiiy matni o'qish, tushunish va baholash uchun, til haqidagi bilimlarning o'zi yetarli bo'lmaydi, ijodkor va kitobxondagi idrok, avvalo, matnda qo'llangan til birliklarining matniy mazmunini, ijodkor matnda nega aynan shu til birligini tanlaganining sababini bilishi kerak bo'ladi.

Lingvopoetikada lingvostilistik tadqiq metodlaridan *stilistik tajriba metodi* bir so'zni boshqasi bilan yoki bir so'zning joylashuv tartibini almashtirish bilan bog'liq tarzda matnda yuzaga keluvchi semantik va estetik farqlarni aniqlaydi. Ushbu o'zgarishlar so'zning funksional ahamiyatini, matn qurilishini pragmatik omillar bilan aloqadorlik masalalarini o'rganadi. M.Peshkovskiy har qanday badiiy matn, agar chinakamiga badiiy bo'lsa, biror bir so'zni, biror bir grammatik shaklni, biror bir so'z tartibini boshqasiga almashtirishga o'rin qoldirmaydi, degan fikrni qayd etadi[4]. Fonetik, morfemik, leksik-semantik, grammatik variantlarni o'ransiz almashtirish va

eng muhimi, matnda o‘rinsiz qo‘llangan variantlarni aniqlash va baholash matnning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini tushunishga olib keladi. Agar matnlar yirik hajmli bo‘lsa, metodik talab quyidagicha bo‘ladi: matnning faqat kichik bir parchasi tahlil qilingan taqdirda ham tahlil qiluvchi badiiy matnning to‘liq varianti mazmuni va til qurilishini, iloji bo‘lsa, shu muallifning yoki o‘sha davrning boshqa mualliflarga oid asarlari bilan tanishishi asosida amalga oshirishi kerak bo‘ladi. Bunday o‘rinlarda biror bir formani matndan olib tashlash yoki sinonimi bilan almashtirish ham ko‘zda tutiladi. Til mahorati yuqori bo‘lgan matnlarda almashtirishlar shakl va mazmun uyg‘unligiga putur yetkazishi mumkin. Uyg‘unlikning buzilishiga sabab bo‘lgan jihatlar tahlil qilinganda, matnda biror bir formaning almashtirilishiga ehtiyojning yo‘qligidir. Shakl o‘zgarishi natijasida matnda yuz bergan buzilishlar asl matnning mukammalligiga ishora qiladi. O‘quvchi badiiy matndagi shakl va mazmun uyg‘unligini his qilishi, so‘zlar, iboralar, konstruksiyalarning semantik farqlarini anglashi uchun muallif tanlagan formalar betakror bo‘lishi lozim. *Tong titraydi kech kuzakning quchog‘ida, Yulduzlarni o‘chirmoqda gulgun shafaq, Jonim, qalbim she‘riyatning pichog‘ida... Zamin – tilsim, osmon – tilsim... she‘r – beshafqat (Usmon Azim). Misralardagi har bir so‘z shunday tanlangan va joylashtirilganki, so‘z yoki so‘zlar o‘rnini almashtirish badiiy mazmunga putur yetkazadi, deyarli har bir so‘zni poetizm (kuzak, gulgun, shafaq, zamin) darajasida baholash mumkin, har bir so‘zda metaforik ko‘chim (titramoq, quchoq, o‘chirmoq, pichoq, tilsim, beshafqat) vujudga keltirilgan va ularning birikuvidan poetik talablarga mos keladigan obrazli ifodalar yuzaga keltirilgan.*

*Semantik-stilistik metod.* Ushbu metodga ko‘ra, tildan foydalanishda tilning umumiy (lingvistik) tamoyillari saqlangan holda individual jihatlar bilan muvofiqlashtiriladi. Ushbu metodda adabiy til qoidalaridan chetga chiqish, mavzu va mazmun uyg‘unligi, denotativ va konnotativ ma‘no elementlari kombinatsiyasi, matnda so‘zning yangi semantikasi vujudga keltirishi kabilar hisobga olinadi. Masalan, Faxriyorning she‘ridan olingan “*So‘nggi yaproq kabi osilib turar vujudga yurak – yupun umid*” misralarida *yupun* so‘zi yangi semantik yuk olib metaforik epitetni hosil qilgan. So‘zning atash semalari ob‘ektiv olamdagi narsa, buyum, belgi-xususiyat, miqdor kabilarni nomlaydi hamda kishi xotirasidagi tushunchalar bilan semalar aloqasini belgilaydi. So‘z kontekstda o‘zining funksional qo‘llanish o‘rnini o‘zgartirishi bilan atash semasi o‘rnida so‘zlovchining konkret munosabatini bayon qiluvchi ifoda ma‘nosi birinchi darajali mavqeni egallaydi. Baholash va munosabat bildirish ifoda semasining asosiy belgilari hisoblanib, ijodkor tafakkuri tadriji natijasi o‘laroq yuzaga chiqadi. Bunda *yupun* so‘zining “tanani yaxshi isitmaydigan, yupqa, yengil-yelpi” hamda “ust-boshi xarob, kambag‘al” [5] semalari kuchsizlanib, bir semantik qurshovga mansub bo‘lmagan *yupun* va *umid* so‘zlari kombinatsiyasi *umid* so‘zida yangi semantikaning vujudga kelishiga, individuallikni ijodkorning badiiy intensiyasi bilan omixtalanishiga olib kelgan. Semantik-stilistik metod vakillari til birliklarini tushunish va tartibga solish sistemasi muallifning estetik-ijodiy tanlovi asosida amalga oshishi va bu orqali ijodkor idiositili namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydilar.

Bugungi kunda semantik-stilistik metod doirasida muallif leksikografiyasi va ijodkor asarlari tili lug‘atlarini yaratish keng tarqalgan. Bunday ishlarning natijasi o‘zbek tilshunosligida ham ko‘zga

tashlanmoqda, D.Xudayberganova hamda D.Andaniyozova tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati”ni keltirish mumkin [6].

Bugun “A.Qodiriy asarlari tili lug‘ati”, “A.Qahhor asarlari tili lug‘ati”, “S.Ahmad asarlari tili lug‘ati” va boshqa ijodkorlar tili lug‘atlarini yaratish zarurati mavjud.

*Qiyosiy-stilistik metod.* Bu metoddan bir g‘oyaviy-badiiy qurilishga ega matnlarning til zaxirasidan tanlangan birliklarining o‘xshash va farqli tomonlarini belgilash, muallifning mazmunga mos tarzda til shakllarini tanlash mahoratini aniqlash uchun foydalaniladi. Masalan, ma‘lum bir matnning g‘oyaviy-badiiy qurilishi xuddi shu g‘oyaviy-badiiy mazmunni shakllantirgan ikkinchi bir matn bilan solishtiriladi, bunda ularning lingvistik strukturalaridagi o‘xshash va farqli jihatlar e‘tiborga olinadi. Natijada mualliflarning idiosтили, badiiy uslubi, olamning badiiy konseptual manzarasini yaratishdagi individualligi ochib beriladi.

Ushbu tahlil lingvistik vositalarning semantik va stilistik xususiyatlaridan ularning matnda tashkil etilishini o‘rganishga o‘tishni o‘z ichiga oladi. Qiyosiy-stilistik metodning obyektini bir xil mavzu ostida yozilgan badiiy asarlardan olingan parchalar yoki asarning to‘liq matni tashkil qiladi. Bunday o‘rinlarda aynan bir mavzuni gavdalantirish uchun tanlangan til birliklari tahlilga tortiladi. Shoir uchun “she‘r nonday tabarruk” (Charxiy), shu sabab aynan *she‘r*, *she‘riyat* mavzusiga e‘tibor qaratmagan ijodkorlar bor deb bo‘lmaydi va aynan ushbu so‘zlar stimul so‘z sifatida ijodkor assotsiatsiyasini yuksak pafos bilan ochib beradi. Masalan, *she‘riyat* va *she‘r* inson kabi tirik va tiniq tuyg‘uki, shoirlar murojaat birligi sifatida qo‘llaydilar: Usmon Nosirda: 1. ***She‘rim***, yana o‘zing yaxshisan. 2. ***She‘rim***, yaxshisan. 3. ***She‘rim***, sen – Layli. A.Oripovda: *Onajonim, she‘riyat*. A.Qutbiddinda: *Mungimda mungimsan, she‘riyat*. Usmon Azimda: *O, she‘riyat! O, ozodlik! Sen ham qulliksan asli!* S.Sayyidda: ***She‘riyat***, sen abadiy *Ranj-u ozor yo‘limsan*. Ko‘rinib turibdiki, murojaatlar o‘zaro chog‘ishtirilganda, ijodkorlar murojaat birligini misra boshi yoki misra oxiriga joylashtiradilar, baho munosabati ham turlicha: ba‘zi ijodkorlar tarixiy shaxslarga, yaqinlariga yoki badiiy asar qahramonlariga o‘xshatish yoki tenglashtirish orqali baho ifodalashsa, ayrim ijodkorlarda mavhum tushuncha, his-tuyg‘u ifodalovchi leksemalar semantik tarkibida bahoga ishora qiluvchi sema asosiy o‘rinni egallaydi.

She‘riyat tili tabiiy til mavjudligining eng yuqori shakli bo‘lib, olam haqidagi individual bilimlarni yuzaga chiqaradi. Olamning badiiy manzarasi ijodkor tomonidan yaratilgan badiiy asarda ifoda etilar ekan, ijodkorning idrok mahsulini kitobxon ham o‘zlashtira bilishi va tafakkurida jonlantira olishi lozim. *Shoir* va *she‘r* tushunchalarini badiiy obrazlashtirishda E.Vohidov va U.Azim qarashlari persektiv planda mushtarak: E.Vohidovning “She‘r qalbi” she‘rida *Shoir qalbi go‘yo anor, She‘ri uning sharbati. Bo‘lmas ekan she‘r ahlining O‘z qalbiga shafqati* misralari Usmon Azimning ushbu mavzuga bag‘ishlangan “Tong titraydi kech kuzakning quchog‘ida...” deb boshlanuvchi she‘rida *Tong titraydi kech kuzakning quchog‘ida, Yulduzlarni o‘chirmoqda gulgun shafaq. Jonim, qalxim she‘riyatning pichog‘ida... Zamin - tilsim, osmon - tilsim... she‘r - beshafqat!* misralariga monanddek. E.Vohidov shoir va she‘rni anor va uning sharbatiga qiyos etadi, E.Vohidov shoirni o‘ziga nisbatan beshafqat deb atasa, U.Azim uchun she‘r – beshafqat, she‘r – she‘riyatning pichog‘i. Bu ikkala she‘rda mazmun go‘yo bir-birini inkor etgan individual metafora, o‘xshatish va parafrazalardan tuzilgandek, aslida maqsad bitta: individual betakror obraz yaratish.

Shuningdek, ushbu metod vositasida bir xil sarlavha ostida yozilgan asarlarning til tarkibi tahlil etiladi, sababi sarlavha intermatn sifatida mazmuniy o‘q sanaladi, masalan, A.Qahhorning “Anor” hikoyasi va Yasunari Kavabataning “Anor” hikoyasi; Ch.Aytmatovning “Jamila” qissasi va Mirmuhsinning “Jamila” hikoyasi; H.Olimjonning “O‘rik gullaganda” she‘ri bilan Zulfiyaning “O‘rik gullaganda” she‘ri va hok. Yoki asarlar mazmunan bir mavzu ostida ifoda etilgan bo‘lishi mumkin, masalan, Zulfiyaning “Sen bahorni sog‘inmadingmi?” she‘ri bilan A.Oripovning “Bahor” she‘ri, Zulfiyaning “Tun” she‘ri bilan U.Azimning “Bezovta tun” she‘ri, U.Azimning “Muhabbatning tabiati” she‘ri bilan A.Qutbiddinning “Qasam” she‘ri va hok.

*Statistik-stilistik tahlil metodi.* Bu metod tabiiy-ilmiy metod sifatida matn obrazlilikini oshirishga xizmat qilgan elementlarning hisob-kitobini o‘zaro taqqoslash asosida amalga oshiradi. Til va nutq hodisalarini o‘rganishda statistik metodlardan foydalanish nisbatan uzoq tarixga ega. K.Shannonning "Inglizcha bosma matn prognozi va entropiyasi" (1951) maqolasi nashr etilganidan so‘ng, matnning matematik, lingvistik va psixologik tartiblashning bir qator alohida muammolarini aniqlashtirish maqsadida ehtimollar nazariyasi yondashuvining qo‘llanishi yetakchilik qila boshlagan.

O‘tgan asrning 60-yillarida asosiy e‘tibor markaziga ko‘tarilgan ushbu metod matndagi istalgan til birligining miqdoriy tomonini tahlil qilish bilan shug‘ullangan. Bunda til birliklarining qo‘llanish qonuniyatlarini kuzatish, ya‘ni matn muallifi tanlagan har bir til va nutq birliklarining (fonetik, leksik, semantik, affiksial, morfologik, sintaktik) tuzilishi va turlari, qo‘llanish chastotasiga e‘tibor qaratiladi. Metod asosida til birliklarini qo‘llashdagi mahorat bilan bir qatorda, kamchiliklar ham aniqlashtiriladi. Masalan, matnda qo‘llanilgan grammatik ma‘lumotlarni hisoblash natijasida R.G.Piotrovskiy rivojlangan Yevropa tillarida grammatik affikslarning sezilarli darajada ortiqcha qo‘llanishini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlarga ega bo‘ladi. Olim shunday xulosaga keladi: “Agar shunday bo‘lsa, bu affikslarga xos grammatik ma‘nolar boshqa vositalar bilan, birinchi navbatda, yordamchi so‘zlar vositasida uzatilishi kerak.” [7]. Yoki plagiatlik holatlari aniqlashtiriladi, masalan, N.A.Morozov ushbu metod asosida ijodkorlar asarlarida qo‘llangan til birliklarini grafik jadvallar asosida qiyoslab haqiqiy muallif va plagiatni farqlashda foydalangan [8].

O‘zbek tilshunosligida B.Bafoyev Alisher Navoiy 26035 ta so‘z qo‘llaganligi haqidagi xulosalari statistik-stilistik tahlil metodi tahlili asosida aniqlashtirgan [9]. Kompyuter texnologiyalari takomili mazkur metod yordamida ijodkor idiositili, individual qo‘llanishlarni aniqlashda muayyan qulayliklarni yaratmoqda va leksikografiya sohasini yangi pog‘onaga olib chiqmoqda. G.Jumanazarova tadqiqotida keltirishicha, «Orzigul» dostoni matnining elektron varianti kompyuterga kiritilganda, kompyuter unda 23036 ta lug‘aviy birlik borligini ko‘rsatgan. Tuzilgan lug‘atda esa bu raqam 22660 tani tashkil etgan. Oradagi farq 376 tadan iborat, deb ko‘rsatiladi.

Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqishda muhim o‘rinni uning mazmunini belgilovchi tamoyillar egallashi lozim, bunda badiiy matnning badiiy-estetik spesifikasini hisobga olish, ya‘ni ularni g‘oyaviy mazmun-obraz-til uchligida tekshirish, adabiy til va individual yaratilmalarni farqlash va izohlash zarur.

Lingvopoetik tahlil metodlarining metodikasini to‘liq ishlab chiqish mumkin, degan xulosaga ham nisbiy qarash kerak, negaki har bir badiiy matn – individual nutqiy tuzilma, individual kognitiv makon yaratilmasi. Shu o‘rinda aytish joizki, V.Красных “individual kognitiv makon” tushunchasini har bir til sohibi, har qanday so‘zlovchi kognitiv makoniga tegishli bo‘lgan bilim va tasavvurlar majmuasining tarkiblashtirilishi, u yoki bu sotsiumga tegishli bo‘lgan barcha shaxslar ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan bilim va tasavvurlarning tarkiblashtirilishi deb tavsiflaydi [10]. Shunday ekan, lingvopoetikada tahlil metodlarining yana yangi ko‘rinishlari vujudga kelishi shubhasiz, deyish mumkin.

Lingvopoetik tahlil jarayoni lisoniy poetika tilining o‘ziga xos kompleks metodlariga ega ekanligi bilan murakkablashadi, o‘zbek lingvopoetikasi o‘z taraqqiyotining yangi bosqichida lingvopoetik tadqiqotlarni zamon talablariga javob beradigan metodlar asosida olib borayotganligi bu boradagi kuzatishlarni navbatdagi pog‘onaga olib chiqadi.

## ADABIYOTLAR

1. Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале англ. лит. 16 – 20 вв.): Дисс. ... д-ра филол.наук: [в 2 т.]. – М., 1996. – С. 23.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -T.: Fan, 2007. – B.104-114.
3. Новая философская энциклопедия. 2-том. – М.: Мысль, 2010. –С. 554.
4. Пешковский А. М. Принципы и приемы стилистического анализа и оценки художественной прозы. — М. : Гос. акад. художеств. наук, 1927. –С. 30.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 5-jild. – T.: O‘zME, 2008. – B.87.
6. Xudoyberganova D., Andaniyozova D. O‘zbek tili poetionimlarining izohli lug‘ati. -T.: Turon zamin ziyo, 2016. – 132 b.
7. Пиотровский Р.Г. Информационные измерения языка. — Л.: Наука, 1968. –С.92.
8. Морозов Н.А. Лингвистические спектры : Средство для отличения плагиатов от истин. произведений того или др. известного авт. / Н.А. Морозов. - Петроград : тип. Имп. Акад. наук, 1916. - [2], – 42 с.
9. Bafojev V. Navoiy asarlari leksikasi. -T.:Fan, 1983. -B.19.
10. Красных В.В. Понятие концептосферы.- М.: Изд-во МГУ, 2003. – С. 61.

### ORONIMIYA VA GIDRONIMIYADA METAFORA HODISASINING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARIGA DOIR (Janubiy O‘zbekiston materiallari asosida)

*O.T.Begimov,*

*QarMII O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori  
(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Maqolada oronimiya va gidronimiyada metafora hodisasining namoyon bo‘lish xususiyatlari Janubiy O‘zbekiston materiallari asosida tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** toponimika, oronimiya, gidronimiya, metafora, termin-metafora, orografik obyekt, gidrografik obyekt.

**Аннотация:** В статье на материалах Южного Узбекистана изучаются особенности проявления феномена метафоры в оронимии и гидронимии.

**Ключевые слова:** топонимия, оронимия, гидронимия, метафора, термин-метафора, орографический объект, гидрографический объект.

**Abstract:** The article uses materials from Southern Uzbekistan to study the features of the manifestation of the phenomenon of metaphor in oronymy and hydronymy.

**Key words:** toponymy, oronymy, hydronymy, metaphor, term-metaphor, orographic object, hydrographic object.

Toponimiya sohasida olib borilgan kuzatishlar geografik obyektlarning nomlanishida metafora hodisasi ko‘proq gidronimiya va oronimiya sohasida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Ma‘lumki, metafora bu obyektlarning o‘xshashligi yoki individual xususiyatlari, joylashuvi va boshqalar asosida nomni bir obyektidan boshqasiga o‘tishidir.

Toponimik nominatsiyada metaforalashuv jarayoni apellyativning onimga o‘tishidan iborat. Tilshunoslikning boshqa sohalarida bo‘lgani kabi, onomastika sohasidagi metaforaziya "ko‘p



jihattan til egalarining dunyo manzarasi tasviri, ya'ni xalq ramziyligi va so'zning konnotatsiyalarini tashkil etuvchi voqelik, belgilar, harakatlar haqidagi mavjud g'oyalari bilan belgilanadi" [1].

Toponimik nomlar uchun mavjud lingvistik metaforaning uchta, ya'ni nominativ, kognitiv, obrazli turidan obrazli metafora eng xarakterli bo'lib, u "narsa-hodisalar ma'nosining belgi ifodalovchi so'zlarning semantik kategoriyasiga o'tishi" bilan tavsiflanadi. Masalan, Dastortosh (Dehqonobod tuman, balandlik), Zingirak (Shahrisabz tuman, cho'qqi), Kelintosh (Dehqonobod tuman, balandlik) oronimlari denotatning shaklini bildiradi, ya'ni bu nomlar obyektning shakliga ko'ra dastor (tojikcha salla)ga, zingirak (tojikcha otning egari)ga, tazim qilayotgan kelinga o'xshatilishidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, toponimik metaforalashuv geografik obyektning barqaror o'xshashligini, doimiy belgisini ifodalaydi va nominativ funktsiyadan tashqari, shaxs tomonidan nominatsiya paytida subyektiv tushunishdan o'tgan ma'lum bir geografik obyektning ham tavsiflaydi.

Toponimik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, toponimiyaning barcha turlarida ham metafora hodisasi bir xil darajada uchramaydi. Bu hodisa ko'proq toponimiyaning gidronimiya va oronimiya sohasida sodir bo'ladi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Bu sabablarning birinchisi, relief shakllari va suv havzalarining nomlari aholi punktlariga qaraganda qadimiyroq ekanligidir. Ikkinchi sababi shundaki, gidronimlar va oronimlar boshqa turdagi obyektlar nomlariga qaraganda nisbatan kam o'zgarishga uchraydi. Chunki ular o'zlarining fizik-geografik tabiatiga ko'ra, o'zgarish yoki yuqolishga moyilroq bo'lgan oykonimlar (aholi punktlari nomlari)ga qaraganda, barqarordir. Uchinchidan, tog'lar, tog' tizmalari, cho'qqilar, vodiylar, daryolar, ko'llarning tashqi belgilari inson his-tuyg'ularining real dunyo hodisalari va dunyoni tushunishi bilan bog'lanib ketadi. Oykonimlarda esa ular asosida ob'ektning geografik xususiyatlarini solishtirish mumkin bo'lgan belgilar mavjud emas[3]

Shu nuqtayi nazardan, nazarimizda, tabiiy-geografik jihatdan o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan Janubiy O'zbekiston oronimiyasi va gidronimiyasida metaforik hodisalarning kuzatish dolzarblik kasb etadi. Metaforik nomlar toponimning har bir turida ham u yoki bu nisbatda uchraydi. Bunday nomlar o'zlarining g'ayrioddiylik, emotsional-ekspressivlik bo'yoqdorlikka egaligi bilan ko'proq kishilar e'tiborni tortadi. Biz bu kuzatishlarimizda o'rganilayotgan hudud materiallari asosida toponimika sohasida mazmuni, tuzilishi, obraz turlari va boshqalar jihatidan metaforalashuv hodisasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Kuzatiladiki, Janubiy O'zbekiston oronimiyasi va gidronimiyasi insonning real borliqdagi obyektlar bilan assotsiatsiyasiga asoslangan turli xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bunday toponimlar obyektlarning shakli, hajmi, ularning makonga munosabati va boshqalarni o'z ichiga oladi. Masalan, oronimiyada: Beshiktepa, Xumdonak, Yalpoqtapa, O'tovtosh, Tobatosh va boshqalar; gidronimiyada: Damariq, Bo'zariq, Sho'rjo'y, Shakarbuloq, Oqsuv va b.

Janubiy O'zbekiston toponimiyasini o'rganish metaforalar asosidagi obrazlar va belgilarning juda xilma-xilligini ko'rsatadi. Ularning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1) orografik va gidrografik obyektlarning rang-tusi bo'yicha o'zaro o'xshashligi asosida nomlanishi: Qizilshiram(Dehqonobod,balandlik), Qizilgaza (Qamashi, tog dovoni). Sariqtapa (Barcha tumanlarda tepa), Sariqtuz (Shahrisabz, tog'), Oqdovon (Qamashi, tog' tizmasi), Oqjar (Chiroqchi, jar), Kuhisafed (Boysun, tog'), Ko'kjar (Boysun, jar), Ko'kkamar (Boysun, tog'), Ko'kko'tal (Boysun, dovon) va b.; Qizilsuv (daryo), Oqsuv (daryo), Qorasuv (soy) va b.

2) orografik va gidrografik obyektlarning shakli va hajm belgilarining o'zaro o'xshashligiga asosida nomlanishi: Kichikdapsan (Chiroqchi, tepa), Kichiktarpi (Chiroqchi, balandlik), Kattatarpi

(Chiroqchi, balandlik), Kattataxta (Dehqonobod, balandlik), Kattataqir (Dehqonobod, balandlik); Kattaariq Shahrisabz, ariq), Kattasoy (Shahrisabz, soy), Egrisuv (Qamashi, soy) va b.

3. Geografik obyektlarning insonga xos xususiyatlar va holatlarga o'xshatish asosida nomlanishi: Ko'rdara (Dehqonobod, dara), Ko'rqapchig'ay (Qamashi, dara), Yetimoq (Dehqonobod, balandlik), Yetimtaxta (Dehqonobod, tog') va b.

4. Orografik obyektlarning hayvonlarga nisbat berish asosida nomlanishi: Tuyaboshi (Kitob, balandlik), Tuyabo'yin (Qamashi, balandlik), Tuyasingir (Chiroqchi, balandlik), Tuyatosh (Shahrisabz, adir), Tuyashoti (Dehqonobod, balandlik) va b.

Shunday qilib, geografik ob'ektlarning nomlari asosidagi obraz va belgilarni tahlil qilish natijasida biz metaforik toponimlarning ma'lum bir assotsiativ informativlikka egaligini e'tirof etishimiz mumkin. Bu esa nomlangan obyektни boshqa o'xshash obyektlardan ajratib turadigan xarakterli belgilarini ko'rsatadi.

Ko'pgina toponimlar ko'plab miqdordagi metafora asosida hosil bo'lgan geografik atamalardan tarkib topgan bo'ladi. E.M. Murzayevning fikricha, "ma'nolarning ko'chirilishi ma'lum bir qonuniyatga bo'ysunadi", "metafora atamaları o'xshash turkumlarga kiritilgan, ularda inson va hayvon tanasining qismlarni bildiruvchi so'zlarni geografik terminlarda aniq ko'rsatadigan universal qobiliyat mavjud..." [10]. Janubiy O'zbekiston toponimiyasida odam yoki hayvon tanasining qismlarini ifodalovchi so'zlardan kelib chiqqan quyidagi metaforik terminlar mavjudligi kuzatiladi: bag'ir//bovir, bel, bosh, burun, tumshuq, bo'yin, kindik, og'iz//oviz, sar, etak, qangshar//qanshar, qovoq, qosh, qo'l, shox//shax, barmoq, panja.

Bu metaforik terminlar o'zni bilan oronimlar va gidronimlar tarkibida indikator vazifasida keladi. Janubiy O'zbekiston hududida oronimlarning asosini tashkil etuvchi anatomik xarakterdagi ko'plab termin-metaforalar mavjud bo'lib, biz ulardan ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

Bel orografik termin-metafora sifatida tog'larda uncha baland bo'lmagan keng dovon; uzun cho'zilgan, qirralari sezilmaydigan do'nglik ma'nosida qo'llanadi [5].

O'zbek tilining izohli lug'atida ham uning geografiyaga oid so'z sifatida terminlik ma'nosiga egaligi qayd etilgan: «Bel geogr. Tog' va tepaliklarning egarsimon eng baland joyi» [7].

Janubiy O'zbekiston hududida Olabel (Dehqonobod, balandlik), Qorabel (Shahrisabz, tog' tizmasi) oronimlari uchraydi.

Burun orografik termin-metafora sifatida tog' burni, bo'rtib chiqqan do'nglik, yirik balandlikning qirrali tomoni, quruqlikning okean, dengiz, ko'llarga eng ko'p turtib kirgan uchli qismi kabi tushunchalarni ifodalaydi. Tog' burni birikmasi Maxmud Koshg'ariy lug'atida ham tog' burni ma'nosida izohlangan [8].

Tumshuq – tog' tizmasi yoki yirik balandliklar, cho'ziq qirlar bag'rida turtib chiqqan, bo'rtib turgan do'nglik [5]. Janubiy O'zbekiston toponimiyasida bu atamalardan yasalgan Tumshuq (G'uzor, Chiroqchi, Boysun, balandlik), Aylanatumshuq (Kitob), O'rtatumshuq (Shahrisabz), Qiziltumshuq (Qamashi, Boysun, Sherobod), Kichiktumshuq, Mergantumshuq (Dehqonobod, balandliklar), Tumshuqtog' (Boysun, tog'), Oqtumshuq (Sho'rchi).

Bo'yin oronimiyada metaforik termin sifatida uzunasiga cho'zilgan do'nglik, qir, usti yassi balandlik kabi orografik obyektlarni ifodalaydi. Shu so'z asosida oronimiyada bo'ynoq atamasi ham kelib chiqqan. Maxmud Koshg'ariy lug'atida buynaq – "tog' bo'yni" deb izohlangan [8]. Uning shu ma'nolari asosida oronimlar hosil qilingan: Tuyabo'yin (Qamashi, balandlik), Tuyabo'yin (Shahrisabz, balandlik).

Kindik soʻz oʻzbek tilida inson qornining oʻrta qismi maʼnosidagi anatomik tushuncha ifodalaydi. Shu xususiyati asosida oronimiyada metaforik termin sifatida tepalik, balandlik joylarning oʻrta qismini bildiradi: Kindiktepa (Chiroqchi, Shahrisabz, tepa).

Ogʻiz//oviz orografik termin-metafora sifatida ogʻiz > oviz > ovuz – daralarga, togʻning ichki qismlariga oʻtish mumkin boʻlgan soʻqmoq, guzar [5]. Janubiy Oʻzbekiston oronimiyasida bu indikatordan yasalgan Birovuzli (Qamashi, dara), Birogʻiz (Yakkabogʻ, dara) kabi oro-gidronimlar uchraydi.

Etak termin-metafora sifatida daryo quyi oqimidagi yerlar (daryo etagi), shahar, qishloq yoki biror joyning pastki yoki chekka qismi, togʻ etagi tushunchasini ifodalaydi [5]. Bu atamaning fors-tojikcha shakli doman, domana – har bir narsaning quyi qismi, etagi, tagi, togʻ etagi. Tarixiy yodgorliklarda, masalan, «Boburnoma»da domana togʻ yonbagʻri, togʻ etagi maʼnosida qoʻllanilgan [4]. Janubiy Oʻzbekiston toponimiyasida Etak (Sherobod, Koson, qishloq), Etakovul (Chiroqchi, Koson, qishloq) kabi nomlar uchraydi.

Qovoq metaforik termin sifatida gidrografik obyektlar, yaʼni daryo va koʻllarning baland qirgʻogʻi; orografik obyektlar, yaʼni jarlik, daralarning cheti, tegrasi; ust qismi yassi tarzda boʻlib, koʻrinishi inson qovogʻiga oʻxshash shaklga ega boʻlgan qavariq joy, balandliklarni ifodalaydi [5].

Demak, qavoq soʻzi orografik termin sifatida balandlikning bir turini bildiradi. Janubiy Oʻzbekiston togʻli hudud aholisi nutqida bu termin usti yassi, old tomoni tik tushgan balandlik tushunchasini ifodalaydi. Qavoq tushunchasini ifodalaydigan balandliklardan yaylov sifatida foydalaniladi. Shuning uchun bu soʻz yaylov soʻzi bilan maʼnodoshlik xususiyatini namoyon etadi. Bu metaforik termin Husanqovoq, Kattaqovoq, Toshqavoq, Archaliqovoq (Dehqonobod, balandlik), Moʻngqavoq (Boysun, balandlik), Yakkaqavoq (Sarosiyo, balandlik) kabi oronimlar tarkibida indicator sifatida qoʻllanilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, A.B.Superanskaya taʼkidlaganidek, "nominatsiya odatda turli xil assotsiatsiyalar boʻyicha baʼzan tushunib boʻlmaydigan va faqat ism qoʻyganlar uchun tushunarli nutq vaziyatida sodir boʻladi" [11]. Xalq fantaziyasiga koʻra yaratilgan obrazlar bilan assotsiatsiyalar obyektning moʻjizakot shakli, gʻayrioddiy rangi, kutilmagan joylashuvi va boshqa oʻziga xos xususiyatlariga ega boʻlgan hollarda paydo boʻladi. Oronimiya va gidronimiyada metaforik koʻchishning namoyon boʻlish xususiyatlari murakkab va kam oʻrganilgan hodisadir. Har bir tarixiy davrda nom ijodkorlari boʻlgan mahalliy aholi uchun u yoki bu obyektning nomlashning oʻziga xos motivlari boʻlgan. Metafora yoʻli bilan yasalgan nomlar obyektning nomlanish motivi haqida aniq tasavvur beradi.

## ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Метафора // Русский язык. Энциклопедия / Под ред. Ф.П. Филина. — М., 1979. —С. 140 — 141.
2. Атаниязов С.А. Туркменистаныннг географик атларыныннг душундиришли сўзлуги. — Ашхабад, 1980. —Б.87.
3. Metafora oronimlarning shakllanishida muhim motivatsiya vositasi sifatida (Janubiy Oʻzbekiston oronimlari misolida)// QarDU xabarlar, 2022, 6/2 (56). —B.150.
4. Bobur. Boburnoma. — T.: Fan, - 1960. —B. 51.
5. Geografik terminlar va tushunchalar izohli lugʻati (tuzuvchilar: Qorayev S., Gʻulomov P., Rahimbekov R.). T., 1979. —B. 150.
6. Конкобаев К. Топонимия Южной Киргизии. Фрунзе, 1980. —С.94.
7. Koshgariy M. Devonu lugʻatit turk. Toshkent: Fan, T. I, 1960. —B. 341.
8. Koshgʻariy M. Devonu lugʻatit turk. Toshkent: Fan, T. III , 1963. —B. 190.

9. Малов С. Е. Памятнике древнетюркской письменности. М. – Л., 1951. –С.412.
10. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. — М., 1974. —382 с.
11. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. М., 1973.

## GLOBALLASHUV JARAYONI TILLAR MUNOSABATIGA TA’SIR ETUVCHI MUHIM FAKTOR SIFATIDA

*Shukurov Otabek Ulashevich,  
Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari doktori (DSc)  
(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Maqola globallashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalari xususida bo‘lib, o‘zbek tilining istiqbol yo‘nalishlarini belgilashda globallashuv jarayonining ta’sir etuvchi omillari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, leksika, o‘zlashma so‘z, tillar, tilning boyishi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются тенденции безопасности и развития языков в условиях глобализации, а также факторы, влияющие на процесс глобализации в определении будущего направления развития узбекского языка.

**Ключевые слова:** глобализация, лексика, заимствованное слово, языки, обогащение языка.

**Abstract.** The article discusses trends in the security and development of languages in the context of globalization, as well as factors influencing the process of globalization in determining the future direction of development of the Uzbek language.

**Key words:** globalization, lexix, loan word, languages, language enrichment.

Globallashuv – bu ma’lum hudud, mamlakat, mintaqa yoki jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o‘zaro yaqinlashuvi, yagona umumiylik atrofida birlashishi. Globallashuv sivilizatsiyalar o‘zaro munosabatining natijasi bo‘lsa, sivilizatsiya – globallashuvning natijasi. Bu ikki jarayonning o‘zaro munosabati tarixiy sharoitdan kelib chiqib, “sivilizatsiya – globallashuv” yoki “globallashuv – sivilizatsiya” sifatida amalga oshgan. Bu jarayonga tortilgan millatlar tez rivojlangan[3].

Mazkur jarayonning ijobiy va salbiy xususiyatlaridan kelib chiqib, soha vakillarining bu boradagi ayrim munozarali qarashlari kuzatilyapti. Xususan, tarixchilar bu jarayonni kapitalizm rivojlanishidagi bosqichlardan biri sifatida talqin qilishsa, iqtisodchilar moliyaviy bozorlarni transmilliylashtirish, siyosatshunoslar demokratik institutlarning tarqalishi, axborot texnologiya soha vakillari yagona raqamli makon sifatida idrok etishadi. Yana boshqalar orasida esa bu jarayonni madaniyatning g‘arbiylashuvi bilan bog‘laydiganlar ko‘p.

Ta’kidlash joizki, globallashuvning ijobiy jihatlari sezilarli darajada bo‘lib, ularning muhimi sifatida xalqaro miqyosdagi sohalar integratsiyasi, yangi va yuksak texnologiya, innovatsiyalarni jamiyatga tez singdirish, raqamli infratuzilmaga ega bo‘lish kabilarni tushunish mumkin.

Ingliz tilining dunyo miqyosida globallashuvi haqida so‘z ketganda Internet sahifalarida “ingliz tili imperializmi” tushunchasi haqida munozarali fikrlar ko‘zga tashlanadi. Til imperializmi bu – hukmron tilning zaif tilga maqsadli holda yo‘naltiriladigan kuchli ta’siri. Angliyalik olim Robert Fillipson fanga bu tushunchani “lingvistik imperializm” (“linguistic imperialism”) atamasi

bilan ommalashtirdi[6]. U til imperializmini ingliz tili va boshqa tillar o'rtasidagi tarkibiy va madaniy tengsizliklarning o'rnatilishi va bardavom hukmronligi sifatida izohlaydi.

Robert Fillipson o'zining "Lingvistik imperializm" ("Linguistic Imperialism") asarida dominant tilning boshqalariga nisbatan mutlaq ustun turishi, uni o'rganuvchilar, afzal biluvchilar uchun iqtisodiy va boshqa turdagi imkoniyatlar berilishi, bu tilni o'rgangan shaxslarga mo'ljallangan istiqbolli o'quv kurs dasturlari mavjud bo'lishi kabilarni tilshunoslik imperializmining asosiy belgilari deb hisoblaydi va uni tanqid qiladi[5].

Hozirgi paytda Hindiston maktablarida ta'lim 80 ga yaqin tilda olib borilishi, bularning ko'pchiligi mahalliy til ekani aytiladi. Yevropada esa ta'lim jarayoni Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat tillari doirasida tashkil etilishi bilan cheklab qo'yilgan. Jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlarga ehtiyoj ortib borar ekan, ko'plab tillarda sifatli ta'lim olish imkoniyatining chegaralanib qolishi sababli mahalliy tillar o'z auditoriyasini yo'qotib xalqaro tillarga bo'shatib berayotganini alohida e'tirof etish zarur. XXI asr davomida jahonda mavjud tillarning yashab qolishi va istiqboli uchun ta'limning naqadar muhim ahamiyat kasb etishi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylandi.

Ozarbayjon tilshunoslari globallashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalarini o'rganar ekan, madaniyat, fan, til, tarix kabi sohalarining global axborot makonida munosib o'rin egallashi uchun ayrim muhim masalalarni ustuvor vazifa sifatida ko'rsatadilar:

- Ozarbayjon tilidagi Internet tarmog'i axborot resurslarining yillik sarhisobini monitoring qilish, ilmiy tahlil asosida kamchilik, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbiri rejasini ishlab chiqish;

- milliy Internet resurslarini AKTning zamonaviy yutuqlariga asoslanib qayta tashkil etish, ularning sifati, yuklanishi, dizayni va samaradorligini oshirish;

- tilshunoslikning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olib ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- tilshunoslik sohasida jahondagi yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirish;

- til taraqqiyoti va ta'lim masalalarini muvofiqlashtirish va takomillashtirish;

- tilshunos olimlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishini ta'minlash;

- global tendensiyalarning tilga salbiy ta'sirini pasaytirish uchun konseptual chora-tadbirlar dasturini yaratish;

- tilning kibermakondan uzulmasligi uchun faol milliy siyosatni ishlab chiqish;

- AKT atamalarini tartibga solish maqsadida maxsus terminologiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan lug'atlarni Internet tarmog'iga joylashtirish[1] dan iborat.

Ta'kidlanganlar global axborot makonida tillarning muhofazi va istiqbollari uchun muhim mezon. Bularga qo'shimcha ravishda o'zbek tilining bugungi kun manfaatlaridan kelib chiqib, ayrim masalalarga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi:

- 1) O'zbekiston va Afg'oniston o'zbeklari tilining mushtarakligi va taraqqiyot tendensiyalaridan kelib chiqib, mahalliy tilshunoslar hamkorligida qat'iy meyorga asoslangan, barcha uchun umumiy, grammatik jihatdan tartibga solingan, uslubiy jihatdan adekvat adabiy til normalarini ishlab chiqish;

- 2) xalqaro miqyosdagi o'zbeklar uchun onlayn til o'rgatish va so'zlashish platformasini yaratish;

- 3) dunyo miqyosidagi turkiy oilaga birlashuvchi tillarning umumiyligi va farqlarini ko'rsatib beradigan platforma tashkil etishdan iborat.

Globalashuv asrida dunyoning nufuzli tillari doirasida ta'limni tashkil etishning salbiy va ijobiy jihatlari mavjud. Birinchisi pozitiv mazmunga ega, ilg'or texnologiya va yuqori sifatli ta'limga asoslangan davlat tillarining ommalashishi, auditoriyasining kengayishidir. Ikkinchisi esa xalqaro tillar doirasida ta'lim oluvchilarning "nufuzli" tillar ta'sirida o'z ona tillariga e'tibori susayishi hisoblanadi. Kishilarning aynan o'zga xalq madaniyati, mentaliteti ta'siriga tushib qolish holati xorijiy til o'rganishning ziddiyatli jihatini bo'rttirib ko'rsatishga sabab bo'lyapti. Bu esa tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmasligi va har qachon ham uning bardavom bo'lishini nazarda tutadi.

Tilimizdagi mustaqillik davri o'zlashmalari yadro-periferiya munosabatlari asosida o'rganiladigan bo'lsa, Yevropa til o'zlashmalari markaz (yadro), boshqa til unsurlari esa chekka (periferiya) qismni tashkil etadi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek tiliga so'z o'zlashtirishda rus tilining vositachilik roli pasayganini ko'rish mumkin. Buning o'rniga raqamli media motivida inglizcha o'zlashmalarning to'g'ridan-to'g'ri o'zlashishi faollashdi.

Globalashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalari muhim, o'zbek tilining istiqbol yo'nalishlarini belgilashda globalashuv jarayonga ta'sir etuvchi omillarni alohida e'tiborga olish zarur bo'ladi.

Har bir til muayyan lug'at tarkibiga ega, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy yoki iqtisodiy o'zgarishlarini o'zida aks ettiradi, u bilan birga taraqqiy etadi. Til evolyutsiyasi, asosan, leksik sathda boshqalariga nisbatan sezilarli ta'sirga ega, shu bois ham unga o'zini yangilab turuvchi, yangilanishlarga nisbatan tez va tayyor turuvchi soha sifatida qaraladi. Ta'kidlanganidek, "Bugungi globalashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"[4].

Tilning leksik fondiga ta'sir etuvchi qator omillar mavjudki, asosan, jamiyatning taraqqiyot mezonlariga asoslanadi. Bunday faktorlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

**jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar;**

**iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi;**

**fan va texnika taraqqiyoti;**

**Internet diskursining keng jabhada yoyilishi;**

**ijtimoiy tarmoqlarning insonlar turmush tarziga kirib borishi kabilar.**

Tillar xalqlarning o'zaro savdo-sotiq, madaniy aloqa, migratsiya jarayoni, hatto davlatlar o'rtasidagi urush va hokozolar ta'sirida ham stixiyali tarzda omixtalashadi, taraqqiy etadi. Bu esa ularning differentsiatsiya yoki integratsiya hodisalari asosida amalga oshadi. Differentsiatsiya hodisasi – xalqlarning keng hududlarga tarqalishi sababli tillar va lahjalarning farqlanishi. Bugungi kungi dunyo tillari oilasidagi muayyan guruh tillari misolida buning yaqqol tasdig'ini ko'rish mumkin. Integratsiyaga esa tillarning birga yashashi, aralashishi yoki bir tilga aylanib ketishi, mujassamlashish hodisasi sifatida qaraladi.

Tillar va lahjalar texnogen holatda o'zaro ta'sir xususiyatga ega, bu hodisaga ularning rivojlanishidagi eng muhim stimol sifatida qarash mumkin. Hatto tillarning chatishuvidagi substrat (kelgindilar tilining mahalliy tilni siqib chiqarishi) yoki superstrat (kelgindilar tili mahalliy tilga sezilarli darajada ta'sir o'tkazishi) hodisalarida ham mag'lub tilning g'olib tildagi elementlari yashab qoladi.

Qozon tilshunoslik maktabining asoschisi I.A. Boduen de Kurtene dunyo tillari orasida "hech qanday o'zlashtirish mavjud bo'lmagan sof tilning o'zi yo'q va mavjud bo'lishi ham mumkin emas"[2] deb yozgan edi. Mavjud til borki, ularning barchasi qaysidir darajada o'zga bir til ta'sirini o'ziga singdirgan. Ana shunday ta'sir darajasi tillar uchun muhim mezon bo'lib, ba'zilarining

istiqboli uchun yangi imkoniyatlar paydo qilgan bo'lsa, ayrim tillar tabiatining keskin o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Umuman olganda, leksikasiga bir qancha omillar o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazayпти. Bu ta'sirlar tilning milliy tabiatini o'zgartirishga asoslanmasligi masalaning muhim jihati hisoblanadi. Bundan tashqari, til va milliy madaniyat uzviyligi, leksikada o'zga til birliklari ulushini ehtiyoj darajasidan oshirmaslik, tilning sofligi kabi muammolar ham tilshunoslik vazifalarining umumiy mundarijasidan tushmasligi lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев С.Г., Кязимов Т.Г., Абасова С.Е. Безопасность и тенденции развития языка в условиях глобализации // Безопасность информационных технологий. – Том 26. – № 2. – 2019. – С. 114.
2. Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2 томах. Том II. – Москва: АН, 1963. –С. 16.
3. Юлдашева Ф.Х. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: фалсафа фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент: 2019. –Б. 30.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. Phillipson R. Linguistic imperialism. Oxford: Oxford University Press, 1992. –P. 120.
6. [https://www.researchgate.net/publication/31837620\\_Linguistic\\_Imperialism\\_R\\_Phillipson](https://www.researchgate.net/publication/31837620_Linguistic_Imperialism_R_Phillipson)

#### О‘ZLASHTIRILGAN SO‘ZLAR BO‘YICHA IMLO QOIDALARINING O‘ZIGA XOSLIGI

*Ravshan Jomonov,*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori v.b.,*

*filologiya fanlari nomzodi*

*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Hozirgi paytdagi eng muhim, murakkab masala, yozuv amaliyotida chalkashliklar keltirib chiqarayotgan muammolarning ildizi rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar imlosiga borib taqaladi. Chunki ilmiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalar natijasida bunday so'zlarning salmog'i ortib bormoqda. Shunday ekan, yangi imlo qoidalarida “O'zlashtirilgan so'zlar imlosi” bo'limi bo'lishi, unda yuqorida ko'rsatib o'tilgan so'zlar imlosidagi eng murakkab holatlar konkret tarzda ko'rsatib berilishi maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so'zlar:** yozuv, alifbo, imlo qoidalari, so'z o'zlashtirish, transliteratsiya, transkripsiya, o'zlashtirilgan so'zlar imlosi, yolashgan unlilar imlosi, -eё shaklidagi qo'shimchalar imlosi.

**Аннотация.** В данное время самым важным и сложным вопросом в орфографии узбекского языка является транслитерация заимствованных слов из Европейских языков. Так как каждый день прибавляются новые слова и термины в результате политических, экономических и культурных отношений между народами. Учитывая вышеизложенные факты необходимо составить специальные правила заимствованных слов.

**Ключевые слова:** письмо, алфавит, правила орфографии, заимствование слов, транслитерация, транскрипция, орфография «йотированных» букв.

**Abstract.** The most important, complex issue at the moment, the problems that cause confusion in the practice of writing, are rooted in the Russian language and the spelling of words borrowed from European languages through the Russian language. Because as a result of scientific,

political, economic relations, the weight of such words is increasing. Therefore, it is appropriate to have a section "Spelling of acquired words" in the new spelling rules, where the most complicated cases of spelling of the above-mentioned words are concretely indicated.

**Keywords:** writing, alphabet, spelling rules, word acquisition, transliteration, transcription, acquired words.

Imlo qoidalari har qanday tilning rivojlanish yo'llarini belgilab beradi. Shu boisdan ham o'zini anglagan xalq imlo qoidalarini takomillashtirish, til va yozuv munosabatini to'g'ri aks ettirish yo'lidan boradi. Jumladan, o'zbek tili tarixida ham bir necha marta imlo qoidalari yaratilgan. Mana, bugungi kunda ham lotin yozuviga asoslangan alifbo asosida yangi imlo qoidalarini yaratish vazifasi turibdi. Bu juda mas'uliyatli, mashaqqatli, ammo kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan sanaladi.

Nazarimizda, yangi imlo qoidalari hozirgi til amaliyotidan kelib chiqqan holda ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlangan, obyektiv til hodisalariga tayangan bo'lishi lozim. Binobarin, imlo qoidalari biror-bir guruhning subyektiv qarashlarini emas, balki umummilliy manfaatlarni hisobga olgan holda tuzilishi shart. Buning uchun til, alifbo, imlo masalalari bo'yicha hozirga qadar aytilgan fikr-mulohazalarni chuqur o'rganib chiqish, ulardagi rasional fikrlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha, yangi imlo qoidalarida rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilayotgan so'zlar imlosi alohida bir bo'limda berilishi kerak. Chunki hozirgi paytdagi eng muhim, murakkab masala, yozuv amaliyotida chalkashliklar keltirib chiqarayotgan muammolarning ildizi yevropacha so'zlar imlosiga borib taqaladi. Chunki ilmiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalar natijasida bunday so'zlarning salmog'i ortib bormoqda. Shunday ekan, yangi imlo qoidalarida "O'zlashtirilgan so'zlar imlosi" bo'limi bo'lishi, unda yuqorida ko'rsatib o'tilgan so'zlar imlosidagi eng murakkab holatlar konkret tarzda ko'rsatib berilishi maqsadga muvofiqdir.

Biz ushbu maqolada rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar imlosi bo'yicha ayrim mulohazalarni bildirib o'tamiz. Bunday tipdagi so'zlar kelib chiqishi, o'zlashtirish darajasi va qo'llanish doirasiga ko'ra xilma-xil bo'lib, yozuv amaliyoti uchun juda dolzarb hisoblanadi. Masalan, birgina familiya yasovchi – **ев** qo'shimchasini lotin yozuvida aks ettirishning o'ziyoq tilshunoslar oldida bir qator orfografik muammolar mavjudligini ko'rsatib turadi.

Qayd etish joizki, o'zlashtirilgan so'zlarning bir qismini ruscha ism- familiyalar tashkil etadi. Ayni mana shunday antroponimlar orasida **-ев** bilan yozib kelinadigan so'zlar borki, ular lotincha imlomizda alohida yondashuvni taqozo etadi. Masalan, *Горбачев, Сичев, Лигачев, Хрущев* tipidagi familiyalarni yozishda qanday yondashuv zarur: mazkur birliklar transliteratsiya qilinadimi yoki transkripsiya? Agar ushbu familiyalarni bevosita lotin yozuviga harfma-harf o'girsak – transliteratsiya amalga oshirilsa quyidagi orfogrammalar yuzaga keladi: *Gorbachev, Sichev, Ligachev, Xrushchev*. Lotincha imlodagi mazkur orfogrammalar hozirgi o'zbek tilida quyidagi tarzda o'qiladi: [горбачэв], [сичэв], [лигачэв], [хрущэв]. Vaholanki, biror o'zbek yuqorida zikr etilgan familiyalarni bu taxlitda talaffuz qilmaydi. Biz rus tilida qanday talaffuz etilsa, o'sha taxlitda aytishga o'rganganmiz.

Ayni paytda ushbu familiyalarni o'zbek lotin alifbosida Gorbachyov, Sichyov, Ligachyov, Xrushchyov shaklida yozish tarafdorlari ham uchraydi. Xo'sh, bu taxlitda yozish qanchalik to'g'ri? Keling, buni ham mazkur orfogrammalarining transkripsiyasi orqali ko'rib chiqaylik. Ya'ni *Gorbachyov, Sichyov, Ligachyov, Xrushchyov* shaklidagi yozuvlar [горбачйов], [сичйов], [лигачйов], [хрущйов] taxlitda aytiladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, mazkur



orfogrammalardagi [y] tovushining ortiqchaligi sezilib turibdi. Demak, bu variantlar ham o‘zbek adabiy tilining talaffuz me’yorlariga mos kelmaydi [1, 86].

*Горбачев, Сичев, Лигачев, Хрущев* so‘zlari, aslida, o‘zbek tilida [горбачов], [сичов], [лигачов], [хрущов] tarzida talaffuz etiladi. Shunday ekan, o‘zbek lotin alifbosida mazkur tipdagi so‘zlarni talaffuzga muvofiq *Gorbachov, Sichov, Ligachov, Xrushchov* shaklida berish mumkin bo‘ladi. Nazarimizda, aynan mana shu shakllar haqiqiy o‘zbekcha talaffuzga ega bo‘ladi, hozirga qadar qo‘llanib kelayotgan talaffuz ham saqlanib qoladi. Negaki, “Xorijiy so‘z oluvchi til qonuniyatlariga moslashtirib (yoki tovush tarkibi uyg‘un) olingan bo‘lsa, “o‘zlashtirma so‘z” terminini qo‘llash hodisa mohiyatiga mos keladi, chunki xorijiy so‘z bunday holatda o‘zlashtirilgan, ya’ni oluvchi tilning o‘ziniki qilib olingan bo‘ladi. Muayyan xorijiy so‘z xuddi shu ikkinchi holatdagiday o‘zlashtirilsa, tilning yaxlit milliy tabiati zaxa yemaydi, til lug‘at boyligining umumiy milliy tusiga katta ta’sir bo‘lmaydi, tilning milliy tarovati sog‘lom saqlanadi”. [2, 2011, 13]

Yuqoridagilar asosida ta’kidlash joizki, *Горбачев, Сичев, Лигачев, Хрущев* kabi so‘zlarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan uch xilda yozilishi yozuv amaliyoti uchun ma’lum qiyinchilik va qator chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, bunday tipdagi so‘zlar maxsus o‘rganib chiqilishi, kirill va lotincha imlodagi o‘ziga xos jihatlariga e’tibor jiddiy qaratilishi zarur. Binobarin, bunday tipdagi so‘zlar imlosi uchun maxsus orfografik qoidalar yaratilishi va “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalaridan” joy olishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda talaffuzdagi birlik yozuvda o‘z aksini topmay qoladi. Natijada yozma savodxonlikka putur yeta boshlaydi.

Nazarimizda, yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda, “O‘zlashtirilgan so‘zlar imlosi” bo‘limida quyidagi orfografik muammolar o‘z aksini topishi kerak:

1. Yolashgan unlilar imlosi. 2. Цц harfi imlosi. 3. Ayirish (ь) belgili so‘zlar imlosi. 4. Yumshatish (ь) belgili so‘zlar imlosi. 5. Kishi ismlari va joy nomlari imlosi. Masalan, “Yumshatish (ь) belgili so‘zlar imlosi” bo‘yicha quyidagicha imlo qoidasi berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. *мебель, альбом, январь* kabi so‘zlarda ь belgisi o‘rniga hech qanday belgi qo‘yilmaydi: *mebel, albot, yanvar* kabi.

2. *сеньор, бульон, батальон, медальон, павильон* kabi so‘zlarda talaffuzga mos tarzda y harfi yoziladi: *senyor, bulyon, batalyon, medalyon, pavilyon* kabi.

Ko‘rinadiki, o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosi ancha murakkab bo‘lib, uni hal etish uchun, avvalo, o‘zlashtirilgan va o‘zlashtirilayotgan so‘zlar maxsus to‘planishi, tasniflanishi, ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganib chiqilishi, shundan keyingina imlo qoidalari tuzilib, maxsus muhokamadan o‘tkazilishi zarur. Buning uchun nafaqat tilshunos olimlar, balki amaliyotchi o‘qituvchilar, matbaa-nashriyot xodimlari, o‘z sohasida o‘zlashtirilgan so‘zlarni ko‘p foydalanadigan mutaxassislar fikri ham hisobga olinishi lozim.

#### ADABIYOTLAR:

1. Жомонов Р. Ўзбек тилида сўз ўзлаштириш ва имло муаммолари. – Т.: Ўзбекистон, 2013.
2. Махмудов Н. Сўз ўзлаштиришда меъёр ва миллийлик // Хорижий сўз ва терминлардан фойдаланишда меъёр ва миллий-ассоциатив фикрлаш муаммолари. –Тошкент, 2011.

## MILLIY TIL KORPUSLARIGA EHTIYOJ

*Umirova Svetlana,*

*Samarqand davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

*Tirkashev Jasurjon,*

*Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi*

*(O'zbekiston)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy til korpuslari, jahondagi globallashtirish natijasida ularga bo'lgan ehtiyoj, milliy tilni sof holatda saqlash, turli lingvistik va leksikografik amallarni bajarishda til korpuslarining o'rni va ahamiyati, shu bilan birga ularni yaratishdagi turli muammolar va o'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** til, milliy til, til korpusi, lingvistika, lingvistik tadqiqot, nutq, matn.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются национальные языковые корпуса, необходимость в них в результате мировой глобализации, сохранение национального языка в чистом виде, роль и значение языкового корпуса в выполнении различных лингвистических и лексикографических операций, а также различных проблемы в их создании и исследованиях, проводимых в области корпусной лингвистики в узбекском языкознании.

**Ключевые слова:** язык, национальный язык, языковой корпус, лингвистика, лингвистические исследования, речь, текст.

**Abstract.** This article discusses national language corpora, the need for them as a result of globalization, the preservation of the national language in its pure form, the role and importance of the language corpus in performing various linguistic and lexicographic operations, as well as various problems in their creation and research conducted in the field of corpus linguistics in Uzbek linguistics.

**Key words:** language, national language, language corpus, linguistics, linguistic research, speech, text.

Bugun jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, shubhasiz, tillarning yashash tarziga ta'sir ko'rsatmoqda. Olamning lisoniy manzarasi o'zgarib, globallashtirishning hozirgi bosqichi xalqlar tili va madaniyati o'rtasidagi chegaraning asta-sekinlik bilan yo'qolib borishiga olib kelmoqda. Bu jarayonda xalqaro tillarning ahamiyati yanada ortmoqda. Ingliz tili iste'mol darajasiga ko'ra oldingi o'rinda turibdi. Rus, xitoy, arab, ispan, nemis va fransuz tillarining esa xalqaro va mintaqaviy tillar sifatida ahamiyati oshib bormoqda. Boshqa millat va elatlarning tillari bugungi globallashtirish davrida milliy mavqeyini oshirish va sof ko'rinishini saqlab qolish maqsadida, tilning lug'at sathini, shu tilda yaratilgan barcha uslub va janrdagi asarlarni bir joyga to'plashni boshladilar. Shu bilan birga to'plangan matnlar ustida turli xil lingvistik amallarni ham bajarib, tilning ichki imkoniyatlarini ko'rsatishni ham maqsad qilganlar. Bu elektron matn ma'lumotlari va ular ustida bajarilgan amallarni milliy xalq tilida yaratilgan korpuslar o'z ichiga oladi.

Dunyo tilshunosligida tilning axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi, uni qayta ishlash, raqamlashtirish, elektron shaklda saqlash va turli tadqiqotlar olib borishda milliy til korpuslaridan samarali foydalanilmoqda. Chunonchi, til korpuslari nafaqat elektron jamlanma, balki til o'rganuvchilarga, unda turli lingvistik tadqiqotlarni olib boruvchilarga qo'llanma hamda leksikografik manba hamdir. Dastlabki korpuslar kartoteka ko'rinishida, keyinchalik yozma lug'at

va elektron lug‘at shaklida paydo bo‘lgan. Bugunga kelib esa millionlab so‘z va so‘z-shakllarni qamrab olgan haqiqiy til korpuslari yaratildi. Milliy til korpuslari bugun tilshunoslikning ajralmas qismiga aylandi.

Til korpuslari har qanday til uchun yaratilishi mumkin, u turli xil matnlar – badiiy asarlar, ilmiy va publisistik maqolalar hamda og‘zaki til – so‘zlashuv nutqi materiallarini qamrab olgan matnlar to‘plami sanaladi.

Til korpuslaridan turli maqsadlarda barcha soha vakillari foydalanishi mumkin. Korpuslar, ayniqsa, lingvistik tadqiqotlar uchun muhim vosita bo‘lib, turli ilmiy farazlarni asl matn asosida umumlashtirib, obyektiv natija va aniq xulosalar beradi. Bunda tadqiqotchilar katta hajmdagi matnlardan foydalanib, turli lingvistik amallarni bajaradi, to‘plangan misollarni haqiqiy matnlardan o‘rganadi. Korpus yordamida ma‘lum bir tilning leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini o‘rganish, so‘z va iboralarning qo‘llanilishi, chastotasi, semantik taraqqiyoti hamda nutqdagi pragmatikasini tahlil qilish, shuningdek, turli dialekt va tillar o‘rtasidagi o‘xshash yoki farqli tomonlarni qiyoslash, vaqt o‘tishi bilan tilda bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash mumkin. Bundan tashqari korpus tabiiy tilni qayta ishlash, tilning turli kompyuter modellarini yaratish va avtomatik tarjima sohalarida ham foydalidir.

Til korpuslari kompyuter lingvistikasi, korpus tilshunosligi, amaliy tilshunoslik kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, ular til, uning tuzilishi, nutq jarayonida qo‘llanilishi haqidagi bilimlarimizni yaxshilashga, tilni tadqiq etishda yangi uslub va yondashuvlarni ishlab chiqishga amaliy hissa qo‘shadi.

Bugungi globallashtirish davrida milliy til korpuslariga ehtiyoj ortib bormoqda va bunga bir nechta sabablarni keltirishimiz mumkin:

- lingvistik korpuslar turli tillarda yaratilgani, ko‘plab janrlarni qamrab olgani bois tadqiqotchilarga katta hajmdagi real matnlarga kirish, tilning turli dialektlari va uslublarini o‘rganish, tildan yanada kengroq va har tomonlama foydalanish, uni asl matn asosida tahlil qilish imkonini beradi;

- tilning grammatikasi, lug‘at sathi, stilistikasi kabi sohalarni korpus orqali o‘rganish vaqt va makondagi o‘zgarishlarni aniqlash, shuningdek, turli tillarni bir-biri bilan solishtirish mumkin;

- korpus til birliklarining stilistikasini, chastotasini aniq ko‘rsatgani bois olingan ilmiy natija va xulosalar ishonchli bo‘ladi;

- korpus nafaqat lingvistik tahlilda, balki tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tarjima, tilning boshqa kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va modellashtirish tizimlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Korpus tilshunosligi masalasi keyingi yillarda o‘zbek tilshunoslarini ham qiziqtirib kelmoqda, bu borada talaygina tadqiqotlar yaratilmoqda. B.Mengliyev, S.Bobojonov, Sh.Xamroyevlar milliy korpus haqida e‘lon qilingan dastlabki maqolalarida korpusga on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan vosita sifatida qarab, mazkur fikrni bildirishadi: “Korpus – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo‘ysundirilgan matnlar majmuyi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga ishlaydigan matnlar jamlanmasi” [8].

B.Mengliyevning “Ma‘rifat” gazetasida e‘lon qilingan o‘zbek tili milliy korpusi haqidagi maqolasi [8], Sh.Xamroyevaning mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari va o‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta‘minoti [10, 11], M.Abjalovning korpus matnlariga dastlab ishlov berish bosqichini ifodalovchi o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning lingvistik modullari (Rasmiy va ilmiy uslubdagi matnlar tahriri dasturi uchun) [4],

A.Eshmo‘minovning o‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasini tuzish [7], G.Toirovaning o‘zbek tili milliy korpusini yaratishning nazariy va amaliy masalalari [9], N.Abdurahmonovanning o‘zbek tili elektron korpuslarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari [2, 3], O.Xidirovning o‘zbek tili sintaktik teg kategoriyalari, sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplarni lisoniy-sintaktik qolip asosida sintaktik teglash tamoyillari [12], O.Abdullaevaning o‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari [1], G.Begmatovanning o‘zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish [6], N.Atabayevning COCA korpusi leksik birliklarning fonetik, orfografik, grammatik va leksik-semantik xususiyatlarini leksikografiya sohasi taqdim etgani hamda ingliz tili lug‘atlarini takomillashtirishdagi ahamiyatini haqidagi tadqiqotlari [5] til korpusini ishlab chiqishdagi metodik tavsiyalari bilan ahamiyatli.

Qisqa qilib aytganda, til korpuslari lingvistik tadqiqotlarning ajralmas qismi bo‘lib, turli ilmiy faraz va gipotezalarni tekshirish, aniq ma’lumotlarni olish, haqiqiy matnlar orqali tilni o‘rganish va asosiysi, uni sof shaklda avlodlarga yetkazuvchi vositadir.

### ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева О. Ўзбек тилининг интернет ахборот матнлари корпусини шакллантиришнинг назарий ва амалий асослари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дис. афтореф. – Тошкент, 2022. – 25 б.
2. Абдурахмонова Н. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти: Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. афтореф. – Тошкент, 2018. – 47 б.
3. Абдурахмонова Н. Ўзбек тили электрон корпусининг компьютер моделлари: Филол. фан. доктори (DSc) диссер. – Тошкент, 2022. – 168 б.
4. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дис. автореф. – Фарғона, 2019.
5. Атабаев Н. Инглиз тили корпусининг функционал хусусиятлари (СОСА мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2020. – 58 б.
6. Бегматова Г. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. – Термиз, 2021. – 145 б.
7. Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. афтореф. – Қарши, 2019.
8. Менглиев Б., Бобожонов С., Хамроева Ш. Ўзбек тили миллий корпуси. 2018 йил, 26 апрель, <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/1241.htm>
9. Тоирова Г. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари: Филол. фан. доктори диссер. – Бухоро, 2021. – 165 б.
10. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. афтореф. – Қарши, 2018. – 53 б.;
11. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. – Тошкент, 2020. -253 б.
12. Хидиров О. Миллий корпус учун парсинг дастури яратишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. афтореф. – Жиззах, 2021. – 26 б

## AMALIY VA TATBIQIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

*Akmal Tursunov Raxmatullayevich,*

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti*

*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Maqsadi va vazifasiga ko‘ra, tilshunoslikning bir nechta sohalari bor. Amaliy va tatbiqiy yo‘nalishlardan tashqari tilshunoslikning har bir tildagi muayyan sathlar va birliklarni o‘rganuvchi ko‘plab tarmoq va bo‘limlari mavjud. Tilshunoslikning har bir bo‘limida yanada kichikroq (maydaroq) maxsus bo‘limchalar bo‘lishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Amaliy, qo‘llash, asosiy, nazariy, belgi-xususiyatlarini, yo‘nalishlardan, so‘z, tilshunoslik.

**Аннотация.** По цели и задачам существует несколько разделов языкознания. Помимо практических и прикладных направлений, существует множество разделов и кафедр языкознания, изучающих отдельные уровни и единицы в каждом языке. Каждая кафедра языкознания может иметь более мелкие (меньшие) специальные отделы.

**Ключевые слова:** практические, прикладные, основные, теоретические, знаково-свойства, направления, слово, лингвистика.

**Abstract.** According to the purpose and objectives, there are several sections of linguistics. In addition to practical and applied areas, there are many sections and departments of linguistics that study individual levels and units in each language. Each Department of Linguistics may have smaller (smaller) special departments.

**Keywords:** practical, application, basic, theoretical, character-characteristics, from directions, word, linguistics.

**Tilshunoslik,** „Lingvistika“ - til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fandir. Maqsadi va vazifasiga ko‘ra, tilshunoslikning bir nechta yo‘nalishlari (sohalari) bor: umumiy tilshunoslik - tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o‘rganuvchi, asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi-xususiyatlarni aniqlash va yoritish bo‘lgan soha; xususiy tilshunoslik - ayrim bir til belgi-xususiyatlarini o‘rganuvchi soha; amaliy tilshunoslik - tildan foydalanish bilan aloqador amaliy masalalarni (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliteratsiya va boshqalar) hal qilish metodlarini ishlab chiquvchi yo‘nalish; matematik lingvistika, strukturaviy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va boshqa paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar so‘zlovchi (shaxs)ning jamiyatdagi faoliyati bilan aloqador til xususiyatlarini o‘rganadi [1].

**Amaliy** tilshunoslikning har bir tildagi muayyan sathlar va birliklarni o‘rganuvchi ko‘plab tarmoq va bo‘limlari bor: semasiologiya til birliklari ma‘nolarini o‘rganadi; fonetika va fonologiya tilning tovush qurilishini tekshiradi; leksikologiya va frazeologiya tilning lug‘aviy materialini tadqiq etadi. So‘z yasashining tadqiqot obyekti so‘zlarning yasash usullari va ushbu usullarning mahsuldorligi bo‘lsa, grammatika (morfologiya va sintaksis) so‘z o‘zgarishlarini va so‘zlarning gaplar va so‘z birikmalari sifatida birikishi qonuniyatlarini o‘rganadi.

Tilshunoslikning har bir bo‘limida yanada kichikroq (maydaroq) maxsus bo‘limchalar bo‘lishi mumkin. Masalan, leksikologiya doirasida onomastika bo‘limchasi bo‘lib, u o‘z navbatida antroponimika, toponimika va boshqalarga bo‘linadi. Muayyan tilning hududiy farqlanishi (differentsiatsiyasi)ni dialektologiya o‘rganadi. Mazkur bo‘limlarning har birida tilning hozirgi

ahvoli va uning tarixiy taraqqiyoti tadqiq etiladi (Diaxroniya, Sinxroniya). Jahon tillari, ularning oilalari va guruhlarini o'rganuvchi tilshunoslik tarmoqlari: arabistika (arabshunoslik), germanshunoslik, turkiyshunoslik, slavyanshunoslik, finugorshunoslik va boshqa Tillarning o'zaro ta'sirlashuvi, yordamchi xalqaro tillarni yaratish nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish muammolarini interlingvistika va tarjima nazariyasi o'rganadi [2].

Tilshunoslik fan sifatida ona tili va xorijiy tillarni o'rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda, mashina tarjimasida muhim ahamiyatga ega; mavjud va xayoliy narsalar (moddiylik va g'oyaviylik)ning o'zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongini va ijtimoiy mavjudot bo'lmish insonning o'zini to'g'ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon berdi. Til va tafakkurning, lisoniy va mantiqiy birlik (kattalik)larning o'zaro aloqasi muammosi Tilshunoslik va falsafa tomonidan baravar, bir vaqtning o'zida o'rganiladi. Asosiy lingvistik metodlar sifatida tavsifiy (qiyosiy, konfrontativ, kontrastiv, tipologik), tarixiy (qiyosiy-tarixiy, komparativ) va normativstilistik (me'yoriyuslubiy) metodlarni ko'rsatish mumkin [3].

Tilshunoslikda yana maxsus tadqiqot usullari-lisoniy hodisalarni kuzatish, lisoniy eksperiment, lingvistik modellashtirish, lingvistik talqin usullari ham mavjud. Tilshunoslik falsafa va filologiya fanlari tutashgan chegarada paydo bo'lgan.

Tilshunoslik muammolarini o'rganish dastlab Qadimgi Hindistondan boshlangan. Qadimgi Hind tilshunosligi mil. avv. VI asrdan oldin yaratilgan vedalarni til nuqtai nazaridan sharxlash natijasida vujudga keladi va mil. avv. V-IV-asrlarda yashagan Paninining grammatikasi tufayli yuksaklikka ko'tarildi. Bu asar nazmda yozilgan 3996 ta qoidadan iborat bo'lib, unda sanskrit fonetikasi va grammatikasi tavsif etilgan. Yunonistonda til mantiqqa bog'liq holda, shuningdek, uning grammatik qurilishi nuqtai nazaridan o'rganilgan.

So'zlarni turkumlarga ajratish Aristoteldan boshlangan (mil. av. IVasr). Qadimgi Yunon tilshunosligining kamoloti Iskandariyadagi, qisman Pergan (Kichik Osiyo)dagi yunon tilshunoslarining faoliyati bilan bog'liq. Iskandariya grammatika maktabi (mil. av. III-II-asrlar) vakillari tomonidan yunon tili grammatikasi yozildi. Yunon tilshunosligi asosida Lotin tilshunosligi vujudga keldi (M. T. Varron, E. Donat, Prissian va boshqalarning asarlari).

O'rta asrlarda tilshunoslikning rivoji arab, shuningdek, arab tilida ijod etgan arab bo'lmagan filologlar nomi bilan bog'liq. Arab Tilshunosligining rivojlanishida Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Javhariy singari o'rta osiyolik olimlarning ham hissasi katta bo'lgan. Ibn Sino tovushlarni fonema nuqtai nazaridan tekshirgan bo'lsa, Javhariy, Koshg'ariy va Zamaxshariylar leksikologiya va leksikofafiya sohasida jahon tilshunosligiga katta yangiliklar kiritdilar [4].

Maxmud Koshg'ariy va Zamaxshariy o'zlarining „Devonu lug'otit-turk“, „Muqaddimat uladab“ asarlari bilan turkiy lahjalarni hamda boshqa-boshqa oilalarga mansub tillarni qiyoslash va chog'ishtirish bilan tilshunoslikda qiyosiytarixiy metod va tipologiyadan foydalangan dastlabki tilshunoslar sifatida nom qozonganlar. Filologik fanlar Uzoq Sharqda, xususan, Xitoy va Yaponiyada ham rivojlandi. Rossiyada Tilshunoslik XV-XVI asrlardan boshlab taraqqiy qildi.

Qiyosiy metodika va tarixiylik tamoyilining qo'llanishi qiyosiytarixiy tilshunoslikka asos soldi, bu soha tillarning qarindoshligini o'rganishda, tillarning genealogii: tasniflash ishlab chiqishda, qarindosh tillarning, tillar oilalarining asosan, hindevropa tillari oilasining tarixiy taraqqiyotini o'rganishda, tillarning qadimgi holatini qayta tiklashda va boshqalarda muvaffaqiyatlarga erishdi. Tilshunoslikdagi qiyosiytarixiy yo'nalishning rivojlanishiga nemis

olimlari F. Bopp, Ya. Grimm, A. F. Pott, A. Shleyxer, A. Dits, daniyalik R. K. Rask, chexiyalik Y. Dobrovskiy, avstriyalik F. Mikloshich, rus olimi A. X. Vostokov va boshqa katta hissa qo'shdilar.

**Amaliy va tatbiqiy** tilshunoslik asoslari, tilni „faoliyat“ va „faoliyat mahsuli“ sifatida tushunish, tilning tashqi va ichki shakli haqidagi ta'limot, tillarning tipologi tasnifi va boshqa muammolar nemis olimi V. Gumboldt tomonidan ishlab chiqildi. Uning fikrlari XIX-XX asrlar g'arb tilshunosligining bir qancha yo'nalishlari rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Gumboldt T. mantiqiylikdan qutulishi va o'z metodiga ega bo'lishi kerakligini, tilning tizim xususiyatiga egaligini, uning 2 jihati - tovush va ma'nosi borligini qamda ijtimoiy hodisaligini asosli bayon qildi. XIX asr o'rtalarida A. Shleyxer tilshunoslikda biologik nazariyalarni qo'llashga urinib ko'rdi.

Lingvistik naturalizmni tanqid qilish negizida yosh grammatikachilar (nemis olimlari A. Leskin, K. Brugman, G. Ostxof, B. Delbryuk, G. Paul va boshqalar) maktabi shakllanib, u asosiy e'tiborni jonli tillarni o'rganishga qaratdi. Ushbu maktab vakillari qiyosiytarixiy tilshunoslikning rivojini yangi bosqichga olib chiqdilar [5]

O'zbek tilshunosligi tarixi Mahmud Koshg'ariy va Zamaxshariylarning izlanishlaridan boshlanib, uzoq, tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. XV asrdan 20 asr 20-yillarigacha o'zbek tilini o'rganishning amaliy jihatlariga alohida e'tibor berildi ko'plab ikki tilli (o'zbekcha-forscha, o'zbekcha-turkcha, o'zbekcha-ruscha va aksincha tartibda) lug'atlar tuzildi - tilshunoslikning leksikologiya va leksikofafiya bo'limlari rivojlandi. O'zbek tilini hozirgi ma'noda o'rganish XX-asrning 20-yillaridan boshlangan. O'zbek tilshunosligi rivojiga Fitrat, K. Ramazon, Otajon Hoshim, S. Ibrohimov, Olim Usmon, 3.Ma'rufov, Faxri Kamol, A. G'ulomov, F. Abdullayev, Sh. Shoabdurag'monov, G'. Abdurahmonov, A. Rustamov, M. Asqarova, X. Doniyorov, Sh. Shukurov, Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojdiyev, E. Begmatov kabi olimlarimiz, rus tilshunoslaridan Ye. D. Polivanov, A. K. Borovkov, K. K. Yudaxin, A. N. Kononov, A. M. Shcherbak, V. V. Reshetov va boshqa katta xissa qo'shdilar[6]

Amaliy tilshunoslik sanaladi. Uning eksperimental fonetika, lingvistik tahlil, Leksikografiya kabi yo'nalishlari mavjud. Nazariy tilshunoslik - tilshunoslikka doir asosiy qarashlar, g'oyalar, nazariyalar Haqidagi tizimdir. Unda til haqidagi asosiy tushuncha va tamoyillar, qarashlar Umumlashtiriladi. Tilning asosiy muammolari va dolzarb masalalari haqidagi yangi Nazariyalar olg'a suriladi. «Tilshunoslik nazariyasi» kursida tillarni o'rganish sohasida quyidagi muammolar Doirasida mavjud bo'lgan nazariyalar haqida ma'lumot beriladi.

Tilshunoslik tarixida mavjud bo'lgan **amaliy va tatbiqiy masalasi** til muammolarining o'rganilishi, tilshunoslikdagi falsafiy yo'nalish, tilning nazariy masalalari, Til va nutq. Til va tafakkur. Tildagi belgining tabiati Haqida. Mantiqiy va grammatik kategoriyalar, til va jamiyat, tilda shakl va mazmun, til qurilishi masalalari, til qurilishida pragmatika va sintagmatika, til Fonologiyasi, leksikologiyasi, grammatikasi so'z yasalishi, lingvistik tipologiyalari paydo bo'ldi.

Paydo bo'lishi, tilning jamiyatdagi o'rni va vazifasi kabi masalalarni tadqiq etadi. Shuningdek, bu fanda konkret tillarni, til gruppalarini, qardosh tillarni o'rganish natijasida aniqlangan lingvistik faktlar umumiyashtirilib, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

Umumiy tilshunoslik - inson tilini ilmiy o'rganadigan fan bo'lib, uning asosiy Maqsadi tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari, tilning mohiyati, tilning tuzilishi, til va nutq, til va tafakkur, tildagi belgilar tizimi, til va jamiyat, til taraqqiyoti, tilshunoslik Maktablari va yo'nalishlari, tillarni ilmiy tadqiq etish usullari haqida ma'lumot berishdan iboratdir.

## ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 136 b.

2. Abdusaidov A. O‘zbek tilining ijtimoiy mohiyati. Samarqand, 2008.
3. Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umrqulov B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. - Toshkent: Fan, 1988. - 192 b.
4. Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilshunosligi tarixi. T., Kamolot-Qatortol, 2000. 1-kitob.
5. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. T., O‘zbekiston, 2002. 2-kitob.
6. O‘rinboyev B., Qurbonov T. O‘zbek tilshunosligi tarixi. O‘quv qo‘llanma, Samarqand, 2006.
7. Tojiyev Y. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Ma‘ruzalar matni, T., Universitet, 2000.
8. Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских памятников (УД-1X вв.), Л., 1980.
9. Кононов А. Н. О фузиив тюркских > языках. -Сб. «Структур й история тюркских языков. М., 1971.

## DINIY-MA'RIFIY LEKSIKA VA MUAYYAN MUALLIFNING IDIOSTILINI O'RGANISH BOSQICHLARI VA USULLARI

*Xolmuxamedov Baxtiyor,*  
*SamDU doktoranti, f.f.f.d. (PhD)*  
*(O'zbekiston)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada diniy-ma'rifiy leksika va uning boshqa uslublardagi leksikadan ajralib turishi, diniy matn mualliflarining so'z qo'llash va tanlash mahorati, nutqining o'ziga xosligi, stilistik vositalardan foydalanishi, shuningdek boshqa millat va e'tiqodlarning lingvomadaniy jihatdan ham farqlanishi xususida so'z boradi.

*Cosmonomics* is the name of celestial bodies, which are stars, and planets are the names of planets. The change in the position of the celestial body has been known to scientists since ancient times. In the absence of a compass, trade caravans traveled day and night, targeting the stars. In folk tales, heroes find their way to the stars at night by looking at their locations.

It is known to everyone that cosmonyms have their characteristics and have been noticed by many artists and scientists. For example, Musa al-Khorazmi, who lived in Khorezm in the second half of the 8th century, wrote an astronomical table called “Zij”.

Farobi wrote works on astronomy and described the peculiarities of celestial bodies. As an excellent astronomer, Abu Rayhan Beruni made an invaluable contribution to the development of the science of astronomy in Central Asia with the works “Astronomy Key” and “Masud’s Table”. The roundness of the earth, its gravity, and the changing of the seasons approached the scientific idea that the earth and other planets revolve around the sun, and exposed astrology.

Yusuf Khos Hajib, a wise man of the 11th century, in the preface of his 73-chapter epic entitled “Qutadgu-Bilik”, written in 1069-1070, made a special mention of the seven heavenly bodies. 1. Moon. 2. Mirrix-Mars 3. Zukhra-Venus 4. Sun 5. Aturod, Mercury 6. Mushtari-Jupiter 7. Kaivon-Saturn.

Muhammad Taragai, who became famous as Ulugbek, took astronomy science to a new level of development with his astronomical table known as Ziji Ulugbek. He studied the position and

motion of 1018 stars. He left behind the successes of Erastosthenes, Hipparchus, Ptolemy, al-Bottoniy, Ibn Yunus, Tusi, and other astronomers in this field.

The Russian scientist who studied the names of celestial objects Y.A. According to Karpenko, the naming of planets and stars by the names of gods originated from the East, and only in the era of Aristotle (384-322 BC) did the Greeks begin to name stars by the names of their gods [4]. Cosmonyms in the book "Avesta" further confirm these ideas. Viewing the stars and planets as deities, and adapting to them, also occupies an important place in "Avesta".

All this confirms that scientists in our country pay serious attention to astronomy. Nowadays, astronomers are discovering and naming new celestial bodies with modern telescopes. Thus, from ancient times, our Ancestors called each celestial body and star by specific names and created various mystical ideas and beliefs about them. And at the same time, they made a great contribution to the development of Uzbek cosmonomy.

#### LIST OF USED LITERATURE

1. Begmatov E. Orthology of Uzbek Names –T., 1972. –P64
2. Begmatov E., Uluqov N. Annotated Dictionary of Uzbek Onomastics Terms –Namangan, 2006. –P18-19
3. Dadaboyev X., Hamidov Z., Xolmanova Z. History of the Lexicon of the Uzbek Language –T., 2007. –P76-79
4. Karpenko Yu. The name of the starry sky - M., 1985. P.11
5. Lexicology of the Uzbek language. -T., 1981. -P.44
6. Primov A.I. Linguistic features of cosmonomies of the Uzbek language: f.f.n. dis. autoref. Tashkent, 2009.
7. Primov A.I. The branch of onomastics that studies the names of celestial bodies and the terms// Issues of literary text research. Proceedings of the Scientific Conference of Young Scientists of the Republic –T., 2009. –P. 90-92.

#### INTERVYU DISKURS VA NUTQ MADANIYATI

*Dilfuza Shonazarova,  
O‘zMU tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqola intervyu diskurslarni nutq madaniyati haqida. Nutq madaniyatida qanday vazifalar zurligi, bu borada tilshunos olimlar nimalarga alohida ahamiyat qaratganligi, nutqning estetik vazifasi hamda kommunikativ sifati, nutqning to‘g‘ri bo‘lishida qanday miyorlarga e‘tibor berilish zarurligi hamda nutq madaniyatida graduonimiya, gipe-giponimiya, partonomiyaning ham o‘rni borasida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** nutqda denotativ hamda konnotativ ma‘nolar, graduonimiya, gipe-giponimiya, partonomiya

**Abstract:** This article is about the discourse culture of interview discourses. What tasks are necessary in speech culture, what linguists pay particular attention to in this regard, the aesthetic function and communicative quality of speech, what criteria should be paid attention to in order to be correct in speech, and the role of graduonomy, hyper-hyponomy, and partonomy in speech culture are discussed.

**Key words:** denotative and connotative meanings in speech, graduonomy, hyper-hyponomy, partonomy.



Intervyu diskurslarni nutq madaniyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning bir necha sabablari bor. Intervyu oluvchi, birinchi galda, to'kis bilimga, intervyu olinayotgan soha va uning vakili mansub bo'lgan jarayondan to'liq boxabar bo'lishi talab etiladi. Agar intervyu oluvchi va beruvchining bu boradagi bilim va ma'lumotlari mutonosib bo'lsa, yuzaga keladigan intervyu matn jonli chiqadi va tinglovchiga aniq yetib boradi. Ayni chog'da, intervyu matnlari nutq madaniyatiga muvofiq kelishi uning jozibasi hamda ta'sirchanligi kuchaytiradi. Tilshunoslikda "nutq madaniyati" termini, asosan, ikki xil ma'noda qo'llanadi, ya'ni: 1) tildan bemalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami, deb tushunish; 2) tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda kommunikativ maqsadlarda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatlarni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o'rganish va belgilash bilan shug'ullanuvchi bo'limi tarzida anglash. Biz uchun nutq madaniyatining tilga olingan xususiyatlari yuzasidan fikr yuritish emas, uning uzviy tomonlaridan intervyu diskurlarda qay tariqa istifoda etish zarurligini o'rganish muhimdir. Birinchi galda, nutq madaniyati, madaniy nutq, adabiy til, so'z, gap, jumla, mikromatn, makromatn, takt, urg'u, pauza, uslub, nutqning ravonligi, nutqning tozaligi, nutqning aniqligi, individual nutq, ommaviy nutq, notiqlik va boshqa atamalar nutq madaniyati sohasining uzvlari sanalar ekan, ular intervyu diskurs jarayonida mutlaq qo'llanadigan vositalarga aylanadi.

Birinchi navbatda shuni ta'kidlash lozimki, "nutq" terminini "til" termini bilan aralashtirmaslik darkor. "Nutq" so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina tilga bog'liq sanalmasdan, shu bilan birga, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko'zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo'lgan muddaoning to'liq borib yetishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirishda nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi. Bu talabalar grammatik jihatdan nutqning to'g'ri bo'lishini, so'zlar ko'zlangan ma'noni aniq aks ettirishini, tushunarli muloyim, yorqin va ta'sirchan bo'lishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi. Nutq haqidagi ta'limot – ortologiya ana shu sifatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. "Til" esa ma'lum bir millatning etaloni bo'lib, bu millatni boshqa millatlardan ajratib turadigan shakl hisoblanadi. Biror millatning tavsifi uning tili bilan aniqlanadi. Shuning uchun o'zbek tili, qozoq tili, ingliz tili, fransuz tili, hitoy tili, tay tili deb, o'sha millatni boshqa millatlardan ajratib olinadi. Nutq individual hodisa bo'lsa, til umumiy hodisa sanaladi. Nutq muayyan bir kishiga tegishli bo'lsa, til umumiy millatga daxldor jarayon hisoblanadi. Har qanday til adabiy til va umumxalq tiliga ajraladi. Nutq esa ana shu til tafvutlarini ma'lum bir o'zanga solib, kommunikativ jarayonda ulardan foydalanadigan hodisadir. Shuning uchun "madaniyat" atamasi "nutq" so'zi bilan birikma hosil qilib, muayyan maqsadni amalga oshirishda ishlatiladi. Demakki, "nutq madaniyati" bilan "til madaniyati" terminlarini aralashtirish yaramaydi. Til madaniyati keng tushuncha, nutq madaniyati esa unga nisbatan tor tushuncha hisoblanadi. Nutq madaniyati tilni tushunish didining rivoji, undagi me'yor, marom va mezonni anglash, ravshan va ifodali nutq usullarini egallash va uni o'zining og'zaki va yozma nutqida amalga qo'llay olishni hamda o'zgalarning nutqini chuqur va aniq ajrata olishni bilishi lozim. Yuqorida so'zlar nutqda denotativ hamda konnotativ ma'nolarda ishlatilishi masalasiga qisman to'xtab o'tildi. Ko'rsatib o'tilganidek, denotativ ma'no so'zlarni nutqda o'z ma'nosida ishlatish hisoblanadi. Konnotativ ma'no nutqni baholash mezonii sanaladi. Shuning uchun bu bir-birini to'ldiruvchi bu lingvistik hodisalar nutq madaniyatida muhim ahamiyat kasb etib, intervyu diskurslarni ham muvaffaqiyatli chiqishida alohida rol o'ynaydi.

Konnotativ ma'no so'zning baholash ma'nosi bo'lar ekan, unda so'z ekspressivlik, emotsionallik, ta'sirchanlik mezonida nutqda namoyon bo'ladi. Bu esa til hamda nutqning naqadar boy va ta'sirchan ekanligini tasdiqlaydi. "Nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki boshqa tilshunosliklarda ham lisoniy belgi semantik strukturasi ikki yirik uzvdan, ya'ni denotativ va konnotativ uzvlardan tarkib topishi e'tirof etish an'anaga kirgan. Albatta, leksik ma'noning denotativ uzvi muayyan tushunchani ifoda etadi, konnotativ uzvi esa, so'zlovchining yoki til sohibining unga munosabatini aks ettiradi. Mutaxassislar konnotatsiyani nutq pragmatikasi bilan bog'liq ekanligini, konnotatsiya til sohibining baholash nigohining mahsuli ekanligini, konnotatsiyani antropometrik asosga egaligini qayd etadilar. Konnotatsiyaning turlari ko'p: ijtimoiy konnotatsiya, siyosiy konnotatsiya, ijtimoiy-siyosiy konnotatsiya, sotsial konnotatsiya, badiiy konnotatsiya, gender konnotatsiya, etnokonnotatsiya v.h. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, konnotatsiyaning kattagina qismi subyektiv xarakterga ega bo'ladi. Lekin ularning barchasi ijtimoiy qimmatga molik bo'ladi.

O'zbek xalqining urf-odat va tutumlarida iste'molda bo'ladigan bir qator so'zlar borki, ular adabiy tilga alohida fayz bag'ishlaydi va til sohibining nutqini madaniylashtirishga xizmat qiladi. Bu esa nutq madaniyatining konnotatsiya bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydiki, buni intervyu diskurslar bilan aloqadorligini ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslikning rivoji nutq madaniyati fanining ham takomiliga turtki berganligini inkor etib bo'lmaydi. Nutq madaniyatida graduonimiya, gipe-giponomiya, partonomiyaning ham o'rni bor. Graduonimiyada so'zlarning muodilligiga yaqinlik, ya'ni darajalanish xususiyati birlamchi o'ringa ko'tarilib, nutqning serjilo qilishga xizmat qiladi. Agar masalaga sotsiolingivistik yoki lingvokultrologik nuqtai nazaridan e'tibor qilinib intervyu diskurslar bilan bog'liq holda ko'zdan kechirilsa, so'zlarning darajalanishi ana shu jarayonda alohida mavqe tutganligini kuzatish mumkin bo'ladi. Negaki nutq madaniyatining shakllanishi va uning ijrosida so'zlarni almashtirib, ularning darajalanish o'rniga qarab istifoda etish intervyu matnining ham mazmundor hamda ta'sirchan bo'lishiga sabab bo'ladi. Nutqning ijro etilishida unga ma'lum bir voqea-hodisa haqida ma'lumot berishdan tashqari, yana bir maqsad – tinglovchi ongiga va ruhiyatiga ta'sir etish vazifa qilib qo'yiladi. Bu nutq madaniyatining estetik aspekti sanaladi. Shuning uchun ham ta'sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi hamda to'g'rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, tinglovchiga yoki o'quvchiga ta'sir etishiga qaratilgan bo'ladi. Bu sanab o'tilgan xususiyatlarda til omillari birinchi o'rinda tursa, ularning barchasidan foydalangan holda ta'sirchanlik keng doirada tildan tashqaridagi omillarni ham qamrab oladi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya'ni intervyu oluvchi auditoriyani hisobga olishi – ularni bilim darajasidan yoshigacha, hatto nutq so'zlanayotgan paytdagi kayfiyatgacha kuzatib turishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishini nazoratga olib borishi lozim bo'ladi. Malakali bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan auditoriya oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi. Va butun diqqat-e'tibor ifodalamoqchi bo'lgan fikrni to'laligicha tinglovchilarga yetkazish vazifa qilib qo'yiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs / Teoriya metaforы. – M.: Progress, 1990. – S. 5-32.
2. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti. –1989, №6.-B.35-40.

3. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – B.141.
4. Komlev N.G. Komponenty soderjatelnoy struktury slova. – M: MGU, 1960. - S. 118.
5. Qilichev B. O‘zbek tilida partonimiya. Filol.fan.nomz...diss. –Toshkent, 1997.
6. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – B.29.
7. Mirtojiyev M. Ko‘rsatilgan asar. – B. 43.
8. Nikitin N.V. Osnovy lingvisticheskoy teorii znacheniya. –M.: Vyssh.shk., 1988, s. 88.
9. Sayfullaeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: 2009. – B.109.

## 2- SHO‘BA

### BUGUNGI TILSHUNOSLIK RIVOJINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

---

#### ИССЛЕДОВАНИЕ ПРАЯЗЫКОВОЙ РЕКОНСТРУКЦИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.НАВОИ

*Равшанов Махмуд,  
профессор Навоийского государственного горного университета  
(Узбекистан)*

**Аннотация.** Творчество великого поэта, просветителя и государственного деятеля XV века Алишера Навои- замечательный вклад узбекского народа в сокровищницу мировой культуры. Светлый образ выдающегося гуманиста и борца за справедливость оставил глубокий след в истории узбекской литературы и культуры всех народов Центральной Азии. Память о Навои и его делах до сих пор живет в народном творчестве узбеков – песнях и преданиях. Доныне огромной популярностью пользуются в народе поэмы и другие произведения Алишера Навои.

**Ключевые слова:** праязыковая реконструкция, сокровищницу мировой культуры, развитие узбекского языкознания.

**Abstract.** The work of the great poet, educator and statesman of the 15th century Alisher Navoi is a wonderful contribution of the Uzbek people to the treasury of world culture. The bright image of an outstanding humanist and fighter for justice left a deep mark on the history of Uzbek literature and culture of all peoples of Central Asia. The memory of Navoi and his deeds still lives in Uzbek folk art - songs and legends. To this day, the poems and other works of Alisher Navoi are extremely popular among the people.

**Key words:** proto-language reconstruction, treasury of world culture, development of Uzbek linguistics.

**Annотatsiya.** XV asrning buyuk shoiri, ma’rifatparvar va davlat arbobi Alisher Navoiy ijodi o‘zbek xalqining jahon madaniyati xazinasiga qo‘shgan ajoyib hissasidir. Atoqli insonparvar, adolat uchun kurashchining yorqin qiyofasi o‘zbek adabiyoti va Markaziy Osiyodagi barcha xalqlar madaniyati tarixida chuqur iz qoldirdi. Navoiyning xotirasi, uning qilgan ishlari o‘zbek xalq amaliy san’ati – qo‘shiq va rivoyatlarda hamon saqlanib qolgan. Alisher Navoiyning she’rlari va boshqa asarlari shu kungacha xalq orasida nihoyatda mashhur.

**Kalit so‘zlar:** prototil rekonstruksiyasi, jahon madaniyati xazinasini, o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti.

Эпоха Навои – вторая половина XV века – один из наиболее сложных периодов истории Центральной Азии, отмеченный бурными событиями. В 1447 году умер правитель Хорасана Шахрух, последний сын завоевателя миром Тимура. Двумя годами позже, в 1449 году, погиб сын Шахруха Улугбек, правитель Самарканда и крупный ученый, астроном. Мавераннахр и Хорасан (территория в Центральной Азии и северо – восточном Иране) стали ареной жестких междоусобиц, кровавых распрей, разрушительных войн. Лишь в конце шестидесятых годов XV века, когда правителем Хорасана становится Хусейн Байкара, наступает относительная стабилизация политического режима в стране. Внутреннее

положение в Хорасане при Хусейне характеризуется непрерывным соперничеством различных групп феодальной знати и мусульманского духовенства, их происками и интригами, подрывавшими силы государства и губительно отражавшимися на жизни простого народа. Именно в этот период выступает на государственном поприще навои, проявляя большую волю и настойчивость в борьбе за высокие гуманистические идеалы. Его жизнь, наполненная суровой борьбой с темными силами эпохи и отмеченная подвижническим трудом, являет собой яркую страницу истории узбекского народа[1.38-41].

Гений Навои был почти универсален: поэт, ученый, музыкант, большой знаток и покровитель архитектуры, живописи и художественных ремесел. Но главная заслуга навои, ставящая его в один ряд с великими классиками мировой литературы, состоит в том, что он явился основоположником узбекской литературы и создателем узбекского литературного языка.

В течение длительного времени на всем Переднем Востоке ведущим языком художественной литературы был таджикско-персидский. Этот же язык преобладал и в литературной жизни эпохи тимуридов. Но в то же время, когда Навои начинал свою литературную деятельность, высшие достижения таджикско-персидской классической поэзии, расцвет которой относится к X-XIII векам, были уже в прошлом. Были в эту эпоху и крупные поэты, как например, друг и наставник Навои – Абдурахман Джами, но число заурядных стихотворцев было несравненно более велико.

Навои, писавший также и на таджикско-персидском языке, прекрасно владевший современным ему искусством стихосложения и сам отдавший день увлечению стихотворной техникой. Не мог тем не менее не видеть тех разрушительных тенденций, которые проводили к измельчанию литературы. Начав свою литературную деятельность с таджикско-персидских стихов, Навои с течением времени все отчетливее осознает необходимость создания литературы на языке своего родного народа[2.47-81].

И до Навои были поэты, слагавшие стихи на староузбекском языке. Это поэты первой половины XV века Амири, Атаи, Гадаи, Саккаки, Лютфи и некоторые другие. Но нужен был творческий подвиг Навои, чтобы узбекский язык был признан полноправным языком, а произведения, созданные на нем, встали бы в один ряд с творениями лучших мастеров таджикско-персидской поэзии.

Навои явился первым поэтом, создавшим на узбекском языке не только огромное количество первоклассных лирических стихов, но и дерзнувшим приступить к сочинению на родном языке «Пятерицы» - цикла поэм, который сложился как жанр в творчестве великих поэтов, писавших на таджикско-персидском языке. Эта задача была блестяще разрешена Навоиб права узбекского языка оказались прочно утвержденными, а его достоинства – общепризнанными. Так были заложены основы узбекской классической литературы и узбекского литературного языка[3.19-31].

Навои не только практически решает эту задачу, но и обосновывает ее теоретически в знаменитом трактате «Суждение о двух языках» (1449 г.) «...богатство тюркского языка, - пишет в этом сочинении А.Навои, - подтверждается многими доказательствами, и нужно было бы, чтобы появившиеся из среды народа даровитые люди приложили бы способности и дарования свои к собственной речи, а не проявляли бы себя в иных языках и не стремились бы к этому делу. А раз уж у них есть способности писать на обоих языках, им надо было бы больше писать на своем языке».

В «Суждение о двух языках» Навои подвергает глубокому анализу свой родной язык и, сравнивая его с таджикско-персидским, утверждает, что словарное богатство его неисчерпаемо. Он приводит многочисленные примеры разветвленной синонимии узбекского языка и перечисляет такие его возможности, которые отсутствуют в других языках.

#### ЛИТЕРАТУРЫ

1. Навои Алишер. Сочинения. В десяти томах. Ташкент: Фан, 1970. Т.Х
2. Маллаев Н.М. История узбекской литературы. Ташкент: Укитувчи, 1970.
3. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. М.: Наука, 1970,
4. Узбекско-русский словарь. Ташкент: 1988.

#### O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA ANTROPONIMLAR

*Jo‘rayeva Bibish,*

*Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi*

*Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari*

*filologiya fanlari doktori, professor*

*Xolova Munisa*

*Buxoro davlat universiteti 1-bosqich talabasi*

*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarining inson hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati, xalq maqollarida antroponimlarning qo‘llanganligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maqol, antroponim, ism, familia, Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otut turk”.

**Abstract.** This article talks about the role and importance of Uzbek folk proverbs in human life, the use of anthroponyms in folk proverbs.

**Key words:** Proverb, anthroponym, name, family, Mahmud Koshgari, "Devonu lughotut turk".

**Аннотация.** В данной статье говорится о роли и значении узбекских народных пословиц в жизни человека, использовании антропонимов в народных пословицах.

**Ключевые слова:** пословица, антропоним, имя, род, Махмуд Кошгари, «Девону лугхотут турк».

Maqollar xalqimizning ijtimoiy turmush tarzini ko‘rsatib beruvchi ko‘zguidir. Zero, maqollarda xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy va madaniy hayoti, urf-odatlarini yorqin aks etadi. Maqollar insoniyat aqlini, zehni o‘tkirlashtiradi, nutqini aniq va ta‘sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur hazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir. “Maqol” atamasi arabcha qavlun - aytmoq, gapirmoq so‘zidan olingan. Maqollar mavzu jihatdan turli xil va rang-barangdir. Ular yaratilish jihatdan juda qadimiy zamonlarda yashagan buyuk ajdodlarimiz ijodini tashkil etadi. Bu o‘rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Masalan, ulug‘ ajdodimiz bo‘lmish Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida kitobni “hikmatli so‘zlar, saj‘lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar” bilan bezaganligini aytadi. Ushbu asarda turkiy xalqlar orasida juda keng

tarqalgan 275 ga yaqin maqol va matallar keltirilgan. Muhammad Sharif Gulxaniyning beqiyos xazinasini bo‘lmish “Zarbulmasal” asari tarkibida 300 dan ortiq maqollar mavjud. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. Xalqimiz tomonidan qo‘llanadigan har bir maqol hayot tajribasidan o‘tgan, zamonlar sinoviga bardosh bergan so‘z san‘ati namunasi hisoblanadi. Yurtimiz boy ma‘naviy merosining ajralmas qismi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq turmush tarzini, insoniy fazilatlar tasvirini namoyon qilish har doim dolzarflik kasb etib kelgan. Maqollar kishilar ongini, ma‘naviyatini o‘stiradi va insonni to‘g‘ri harakatlanishga undaydi. Inson hayotida xalq maqollarining o‘rni beqiyosdir.

Xalqimiz juda qadimdan farzandga ism qo‘yishni katta mas‘uliyat deb hisoblagan. Farzandga nom qo‘yish, shak-shubhasiz, milliylik, shaxsning orzu-istaklari, dunyoqarashi va tasavvurlari bilan bog‘liqdir. Har bir ism bejiz vujudga kelmagan. Ularning yaratilish tarixi va alohida ma‘nosi bo‘ladi. Insonning nomi uni boshqa kishilardan farqlashga xizmat qiladi va butun hayoti davomida unga har jihatdan ta‘sir qilishi mumkin. O‘zbek tili lug‘at boyligining kattagina qismini kishilarga qo‘yiluvchi maxsus nomlar tashkil qiladi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim (lotincha: antropos - odam, onima - ism, nom) kishi nomi demakdir. Kishi nomlariga xos xususiyatlarni o‘rganuvchi onomastikaning bir bo‘limi antroponimikadir. Antroponimika (yunoncha: antropos - odam, onima - ism, nom)da kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, laqablari o‘rganiladi. Atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham, o‘z navbatida, boshqa kichik sistemalarga bo‘linadi. Bular quyidagilar:

1. Ismlar.
2. Familyalar.
3. Ota ismlari.
4. Taxalluslar.
5. Laqablar.

Xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lmish maqollarda quyidagi singari antroponimlarning qo‘llanishi ko‘zga tashlanadi:

Ayoz, ko‘rgan kuningni unutm, ko‘n chorig‘ing quritma.

Ali jinni, Ali jinnining bari jinni.

Alixo‘ja - Xo‘jali.

Bir tangamning borida, Xolmat farang dedilar,

Bir tangamning yo‘g‘ida, Xolmat garang dedilar.

Ishni Eshmat qiladi,

Toshmat lof uradi.

Ma sanga, ma sanga, Nima qoldi Hasanga.

Ishni qilar Mahammadsharip, Go‘shini yer terib-terib.

Noz-noz-kal Niyoz.

Boyag‘i-boyag‘i, Xidirning tayog‘i,

Boyag‘i-boyag‘i, Hasan buvaning tayog‘i.

“Bo‘g‘” degani bo‘ji yo‘q,

Qo‘rqitgani Jo‘ji yo‘q.

Suvdan kechguncha echkiga “Rustam-doston” derlar.

Suvdan o‘tguncha yo Bahovuddin,

Suvdan o‘tgach, qoch Bahovuddin.

Ish buyurdim Alitozga, Alitoz qo‘ydi yozga.

Qiyomat yaqinlashsa, echkining oti “mulla Abdukarim” bo‘ladi.  
Zamona oxir bo‘lsa, uloqning otini “Abdakarim” qo‘yadilar.  
Iso ham o‘z yo‘liga,  
Musos ham o‘z yo‘liga.  
Abdulkakim ovga chiqdi,  
Orqasidan g‘avg‘o chiqdi.  
Suv tilasang,  
Sulaymondan tila.  
Yettining biri – ayyor,  
Yettining biri – Xizr.  
Sulaymon o‘ldi,  
Devlar qutuldi.

Ko‘rib turganimizdek ushbu maqollarning barchasida kishi nomlari turli xil ma‘nolarda qo‘llangandir. Masalan, “Ayozi, ko‘rgan kuningni unutmadi, ko‘n chorig‘ing quritma’”, mazkur maqolning ma‘nosiga e‘tibor qarataylik. Qadimda Ayozi ismli oddiygina bir cho‘pon bo‘lgan ekan. U donoligi va zukkoligi tufayli xon vaziri bo‘ladi. Ayozi cho‘ponlikda kechirgan mushkul damlarini unutmash uchun o‘z chorig‘ini doimo xonasining eshigi tepasiga osib qo‘ygan ekan. Har gal chorig‘iga ko‘zi tushganida o‘ziga o‘zi: Ayozi, ko‘rgan kuningni unutmadi, ko‘n chorig‘ing quritma’”, derkan. Ushbu maqol biror bir yuqori mansabga erishgach yoki katta boylikka ega bo‘lgach, o‘zining o‘tmishini unutib, o‘zidan past mansabda bo‘lganlarni mensimay qo‘ygan insonlar uchun aytilgan. Bu maqolda kibrli bo‘lmashlik va hozir qay darajada bo‘lishidan qat‘iy nazar inson hech qachon o‘z o‘tmishini unutmashligi kerakligi g‘oyasi ilgari surilgan. Zero, xalqimizda shunday maqol bor: “Kamtarlik ko‘kka ko‘tarar, manmanlik yerga kiritar’”. Darhaqiqat, kibrli kishilar o‘zlarini barchadan doim ustun qo‘yadilar va bu eng yomon illatdir. Har bir maqol negizida ana shunday chuqur ma‘no yotadi. O‘zbek xalq maqollari millatimizning urf-odatlarini, qadriyatlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Xalq maqollari garchi qisqa bo‘lsada, unda pur ma‘no, mazmun bo‘ladi. Maqollar qaysi tilda va qanday mavzuda bo‘lishidan qat‘iy nazar, insonlarni ezgulikka undaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash mumkinki, maqollar inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollarda o‘sha xalqning an‘analari, urf-odatlari va o‘z qarashlari namoyon bo‘ladi. Xalqimiz tomonidan qo‘llangan har bir maqol zamirida ibratli ma‘no aks etadi. Maqollar insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Maqollarni kuzatar ekanmiz, ijtimoiy sharoit taqozosi bilan har bir davrdagi siyosiy, maishiy, diniy o‘zgarishlar maqollar tarkibidan turli xildagi antroponimlarning o‘rin olishiga zamin yaratgan. Bu kabi holatlarni tadqiq qilish kelgusidagi vazifalardandir.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Sharq nashriyoti, 2005, 257-bet.
2. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma‘nolar maxzani. O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2001, 448-bet.



**SUKUTNING FALSAFIY TALQINI**  
*Dilorom Nigmatovna Yuldasheva,*  
*Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi*  
*va jurnalistika kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi*  
*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** lisoniy vositalarning moddiy shaklda voqelanmagan muloqot turlari so‘zsiz muloqot deb baholanadi. Shunday nutqiy muloqot ko‘rinishlaridan biri sukutdir. Sukut ichki nutqning noverbal yuzaga chiqishi bo‘lib uning falsafiy talqini sharq faylasuflari e‘tiborini totib kelgan

**Kalit so‘zlar:** nutqiy muloqot, lisoniy omillar, nolisoniy omillar, verbal va noverbal, sukut.

**Аннотация.** Виды общения, не реализующиеся в материальной форме языковых средств, оцениваются как невербальное общение. Одной из форм речевого общения является молчание. Молчание – невербальное проявление внутренней речи, и его философская интерпретация привлекла внимание восточных философов.

**Ключевые слова:** речевое общение, лингвистические факторы, невербальные факторы, вербальное и невербальное, молчание

**Annotation.** Types of communication that are not realized in the material form of linguistic means are assessed as nonverbal communication. One of the forms of speech communication is silence. Silence is a nonverbal manifestation of inner speech, and its philosophical interpretation has attracted the attention of Eastern philosophers.

**Key words:** speech communication, linguistic factors, nonverbal factors, verbal and nonverbal, silence

Sukut hodisasi qadimdan sharq faylasuflari e‘tiborini ham tortib kelgan.

Sharq falsafiy adabiyotida muloqot jarayoni, muloqot jarayonida sukutning o‘rni xususida so‘zlovchi ham, tinglovchi ham o‘zligini – saviyasini, madaniyatini, bilimini va hatto dinini, mafkura va ijtimoiy mansubligini namoyon qilishi haqida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Abu Abdullo Rudakiy, ibn Rushd, ibn Arabiy, Abdurauf Fitrat kabi yuzlab adiblarning qimmatli mulohazalarni bayon qilganlari fikrimiz dalilidir [2].

Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” falsafiy asarida podsho Kuntug‘di (Elig) va vazir Oyto‘ldi (Hojib) orasidagi munozalardan biri muloqot madaniyatida so‘zlash, tinglash, sukut saqlash madaniyatiga bag‘ishlanganligini kuzatamiz:

Элиг йарлықамас нәкү сөзләйин  
Айытмаста ашну нәкү өтнәйин  
Билиглиг сөзи сән эшит узнама  
Айытмаста ашну сөзүн сөзләмә  
Кишиг ким оқыса кэрәкляб тиләб  
Ул-оқ сөзләгү ашну сөзни улаб  
Айытмаста ашну сөзүн сөзләмә  
Көни сөзләди ким э йылқы тәсә  
Тақы тәлвә мундуз киши бу билин-  
Айытмастаы бәгләркә ачса тилин.  
Tavsifi–  
Elig buyurmasdan qanday qilib so‘zlayin,

So‘ramasdan avval qanday qilib arz qilayin.

Sen bilimli so‘zni eshit, bo‘yin tovlama,  
So‘ramas(lar)dan oldin so‘z(lar) ingni so‘zlama  
Kimda-kim (biror) kishi lozim topib, istab chaqirsa,  
U (chaqirgan)gina so‘zni ulab avval gapirishi kerak.  
So‘ramas(lar)dan oldin so‘z(lar)ingni so‘zlama,  
(Agar so‘zlasang) kim, ey yilqi, desa, u to‘g‘ri gapirgan bo‘ladi  
Yana telba, tentak kishi shuki, bilgin,  
(So‘z) so‘ramagan beglarga so‘zga til ochsa [5].

Mazkur o‘rinda sukut saqlash, jim turush fazilat, ortiqcha so‘zlash esa telbalik deb baholanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘zboshi muallifi Boqijon To‘xliyev “Tilingni avayla – omondir boshing” deb nomlanuvchi bo‘limda juda oz so‘zlash, hech qachon ko‘p gapirmaslik, sukut saqlash haqida shunday deydi:

Talay so‘zda aslo bo‘larmi foyda  
Ziyondan bo‘lak yo‘q so‘z ortiq joyda [6].

Yusuf Xos Hojib:

Yetarli so‘zla so‘z, ko‘p so‘zlashdan qoch,  
Tuman so‘z ma‘ninin bir so‘z bilan och

baytida ham “ko‘p so‘zlashdan qoch”deganda jim turishga, sukut saqlashga ishora qiladi.

Sharq faylasuflari keraksiz o‘rinda so‘zlash, ya‘ni sukut saqlay olmaslik kishini halokatga yetaklashini mashhur tarixiy voqea bilan ham izohlaydilar. Masalan, Mansur Xalloy (858-922): “Anal-haq” – “Men haqman” degan fikrni aytgani uchun shariat fatvosi bilan dastlab dorga ostirilib, so‘ngra kuydiriladi va kuli Dajla daryosiga oqizib yuboriladi [8]. Mansur Xalloyning “Anal-haq”idan ko‘ra dahshatliroq (shariat nuqtayi nazaridan) shiorni, ya‘ni: “Subhoni, subhoni, lo, iloha illa aniy” (“subhonman, subhonman, mendan o‘zga Alloh yo‘q”) degan fikrni aytgan eronlik olim Boyazid Bistomiy (801-875) esa avliyolar peshvosi bo‘ladi. Asrlar davomida, bahs-u munozaralardan keyin, Mansur Xalloyning haq yoki nohaqligi masalasida tasavvufda fors faylasufi Abdulloh Ansoriy(1006-1088)ning qarashi ustuvorlashdi.

Faylasuf olim va shayx, adib xoja Abdulloh Ansoriydan shogirdlari: “Kim haq, Mansurmi, mullalarmi?” deb so‘raganlarida xoja Abdulloh: “Suxan ba ahli suxan boyad guft” (“So‘zni so‘z ahliga aytish lozimdir”), deb javob beradilar; Mansur Xalloy “Anal-haq” g‘oyasini shu tushunchani ilg‘ay oladiganlar, ya‘ni tariqat ahli doirasida aytganida jazolanmas edi. U esa “Anal-haq” – “Men haqman”, ya‘ni “Men xudoman” g‘oyasini avomga aytdi va haqli ravishda shariat qonunlari asosida jazolandi.

Bu xulosani Kaykovus “Qobusnoma”da shunday yozadi: “Gar so‘zni va hunarni yaxshi bilsang ham, hech bir so‘zni sindirmag‘il, to‘g‘ri ta‘rif qilg‘il va uni bir rangda aytg‘il: xosga xos so‘z, omiyga omiy so‘z deg‘il, toki u hikmatga muvofiq bo‘lsun va eshitg‘on kishiga og‘ir kelmasin, yo‘qsa, so‘zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag‘aylar. Undin so‘ng ularning rizosiga qarab so‘zlag‘il yo sukut saqlag‘il, to salomat bo‘lg‘aysan”[1].

Demak, nutqiy muloqot jarayonida o‘z o‘rnida jim turish, suhbatdoshlarning saviyasidan kelib chiqqan holda sukut saqlay olish ham juda muhim ekan.

Navoiy hazratlari “Devoni Foni”da yozadilar:

Сухан харчанд чонпарвар бувад, хомушӣ авлотар,  
Тариқи авлӣ ар дорӣ нигах, **СОКИТ** шавӣ Фонӣ[4].

Ya'ni

So'z tanlarga har qancha jon baxsh etsa ham xomushlik yaxshiroqdir.

Ey Foni, yaxshilik yo'lini tutsang, yaxshisi **sukut**dir.

Bu o'rinda ulug' alloma sukutni so'zdan yuqoriroq qo'yadi.

Barcha sharq allomalari kabi mir Alisher Navoiy ham nutqiy muloqotda sukut saqlamoqni fazilat deb hisoblaydilar. Jumladan "Nasoyim-ul muhabbat"[3]da sukut bilan bog'liq quyidagilarni o'qiymiz:

1) Abulabbos Ibn Ato ta'rifinda –

So'zlasa, so'zining bari ma'noli

Va gar sukut qilsa, bari malohat. (94-b.)

Bu shayxning har bir so'zi ma'noli: besabab va besamar so'zlamaydi va agar sukut saqlasa ham, sukuti nihoyatda go'zal fazilatdir. Bu o'rinda sukut falsafiy odob mezoni bilan bog'langan.

2) Abu Amr Nujayd ta'rifinda –

Aning so'zidurkim, **sukut** so'zga nisbataya ta'sirliroq va tezda yetib boradi. (155-b.)

Sukut insonning tug'ilishidan toki oxirgi nafasigacha unga hamroh bo'ladigan universal hodisalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy turmushda insonning so'zlay olish qobiliyati, nutqiy muloqotga kirisha olishi imkoniyati qay darajada tabiiy bo'lsa, uning sukuti va sukutdan foydalanish holati ham shu darajadadir. Sharqning faylasuf allomalari buni aksioma darajasida deb bilishganligi ularning o'gitlarida, hikmatli so'zlarida qabariq holatda turadi.

3) Xoja Muhammad Porso ta'rifinda –

Dedilarki: til behuda gapdan **sukut** qilsa, qalb Alloh bilan tillashadi. Agar til gapga tushsa, qalb **sukut** qiladi.

**Sukut** ikki xildir: tilning **sukuti** va qalbning dunyo andishalaridan **sukut** qilishi. Kimki, tilida **sukut** qilsa-yu qalbda **sukut** qilmasa, uning gunohi yengil bo'ladi. Kimki, tilda ham qalbda ham **sukut** qilsa, unga sirlar zohir bo'ladi, ulug' va qudratli Parvardigor unga tajalli qiladi. Kimki, tilida ham, qalbida ham **sukut** saqlamasam, shaytonning mulki va qo'g'irchog'i bo'ladi. Bundan barchamizni Allohning o'zi asrasin!

Kimki, qalbda **sukut** qilib, tilda **sukut** qilmasa, behuda gapdan tiyiladi, hikmat tili bilan gapirguvchi bo'ladi. Allohu Taolo o'z fazl-u karami ila ulardan bizni nasibador qilsin!

Bu o'rinda nutqiy muloqot jarayonida sukut va so'z so'zlash tenglashtiriladi va sukutning inson tafakkuri bilan aloqadorligiga ishora qilinadi.

Faylasuf alloma "Hayrat-ul abror" dostonida shunday yozadi:

Garchi yetib jomi hidoyat manga,

So'zda **sukut** o'ldi bag'oyat manga[4].

Ya'ni, shoir demoqchiki, garchi haqiqat jomiga qo'lim yetgan bo'lsa-da, ko'p vaqt so'zda sukut saqlamoqni afzal bildim.

Umuman, sharq madaniyatida sukut sharqona etiket, odob qonun-qoidalarining tarkibiy qismi sanalgan. "G'arb-u sharq mintaqalari odobida yana bir katta farq borki, bu hozirgi paytda G'arbda huquqning axloqdan, Sharqda axloqning huquqdan ustuvorligi masalasi. G'arb yoshlari balog'atga yetgach, ota-onaga teng huquqli fuqarolar sifatida munosabat qiladi, o'zining qarshi fikrini to'ppa-to'g'ri, ota yo onasining yuziga tik qarab bayon qiladi va buni inson huquqlaridan, shaxs erkinligidan foydalanish deb biladi. Sharq yoshlari, masalan, yapon yoki o'zbek ota-onaga tik gapirishni, to'g'ridan to'g'ri qarshi chiqishni an'anaviy axloqiy qoidalarining oyoqosti qilinishi deb tushunadi, padari yo volidasiga ko'zini yerga tikib, muloyim, o'z fikrini tovush ko'tarmay aytishni, ba'zan esa sukut saqlashni afzal deb biladi, ularga bo'ysunishni burch sifatida olib qaraydi"[7].

Sharq filosofiyasida yaratilgan asarlarda sukutning falsafiy talqini ko‘p asrlar davomida rivojlangan diniy amaliyotda va mutafakkirlarning diniy asarlarida ushbu hodisaga munosabat bilan bog‘liqligi yuqorida keltirgan misollarimizda ham ko‘rinib turibdi.

#### ADABIYOTLAR

- 1.Кайковус У. Қобуснома/форсчадан Муҳаммад Ризо Огаҳий таржимаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1986. –Б.41.
- 2.Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан.доктори ... дисс. – Тошкент, 2000. – 235 б.
- 3.Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 17-том. –Тошкент: Фан, 2003. – Б. 4, 155, 265.
- 4.Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. –Тошкент: Фан, 2003. – Б. 267.
- 5.Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг/Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов/ 2-нашр. –Тошкент: Фан., 1972. –Б.196-197.
- 6.Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўз боши муаллифи Б.Тўхлиев. –Тошкент: Баёз, 2014. – Б.14-15.
- 7.Шер А., Ҳусанов Б. Ахлоқ фалсафаси. Нафосат фалсафаси. –Тошкент, 2008. –Б.19.
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Halloj\\_Husayn\\_Ibn\\_Mansur](https://uz.wikipedia.org/wiki/Halloj_Husayn_Ibn_Mansur)

### URSULA LE GUIN ASARLARIDA FANTAZIYA JANRINING LINGVOMADANIY QIYOSI

*М.М.Жо‘раева,*

*BuxDU professori, filologiya fanlari doktori;*

*Х.В.Ҳасанова,*

*NavDPI tadqiqotchisi*

*(O‘zbekiston)*

**Аннотация:** Мақоллада Ursula Le Guin asarlaridagi fantaziya janrining lingvomadaniy taqqoslanishi ko‘rib chiqilgan. Ursula Le Guin asarlarda adabiy manba obrazlari tizimining o‘zgarishi nuqtai nazaridan tahlil va qiyoslash amalga oshiriladi. Fantaziya, xususan, ichki ziddiyatning tashqi tekislikka o‘tishi, urg‘uning personajlarning shaxsiy o‘zgarishlaridan ularning sarguzashtlariga o‘tishi, hikoya asosidagi qahramon sayohatining o‘zgarishi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Fantaziya janrining lingvomadaniy qiyosi tahlil qilinganda keng auditoriyaga mo‘ljallangan asarlar ushbu janrning aniq xususiyatlarini o‘z ichiga olgan o‘rtacha fantaziya formulasiga yaqinligi bilan ajralib turadi.

**Калит со‘злар:** Fantaziya, Ursula le Guin, tasvirlar tizimi, lingvomadaniy taqqoslash ijodi, ilmiy fantastika, virtual dunyo

**Аннотация:** В статье рассматривается лингвокультурологическое сопоставление жанра фэнтези в творчестве Урсулы Ле Гуин. Произведения Урсулы Ле Гуин анализируются и сравниваются с точки зрения изменения системы образов литературных источников. Для фэнтези, в частности, характерны такие черты, как перенос внутреннего конфликта во внешнюю плоскость, смещение акцента с личных изменений героев на их приключения, изменение пути героя по сюжету.

При анализе лингвокультурологического сопоставления жанра фэнтези произведения, рассчитанные на широкую аудиторию, отличаются своей близостью к усредненной формуле фэнтези, включающей в себя специфические черты этого жанра.

**Ключевые слова:** фэнтези, Урсула Ле Гуин, образная система, лингвокультуросоопоставительное творчество, научная фантастика, виртуальный мир.

**Abstract:** The article examines the linguistic and cultural comparison of the fantasy genre in the works of Ursula Le Guin. Ursula Le Guin's works are analyzed and compared in terms of changes in the system of images of literary sources. Fantasy, in particular, is characterized by such features as the transfer of internal conflict to the external plane, the shift of emphasis from the personal changes of the characters to their adventures, and the change of the hero's journey based on the story.

When analyzing the linguistic and cultural comparison of the fantasy genre, the works intended for a wide audience are distinguished by their closeness to the average fantasy formula, which includes the specific features of this genre.

**Key words:** Fantasy, Ursula Le Guin, image system, linguistic and cultural comparative creativity, science fiction, virtual world

Oxirgi yillarda adabiy asarlarning parallel voqelik sifatida namoyon bo'lish tendentsiyasi kuzatilmogda, bunda muallif ijodkor sifatida ishtirok etib, o'z tarixi, madaniyati va turli ixtiro tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlariga ega bo'lgan o'ziga xos dunyo yaratadi. Bunday badiiy ijod nisbatan yangi adabiy janrlarga - ilmiy fantastika va fantaziyaga tegishli.

XX asr madaniyat shakllanishining muhim omili sifatida mifga qiziqish ortishi belgisi ostida o'tdi. Mif ko'plab fanlarning, jumladan, madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya va filologiyaning o'rganish ob'ekti bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarzda ushbu hodisaning butun insoniyat va alohida xalqlar tarixi va madaniyatidagi o'rnini aniqlashga harakat qiladi. ayniqsa. Alohida o'rinni badiiy adabiyot egallaydi, u asosan afsonaga tayanadi va uni zamonaviy jamiyat uchun dolzarb bo'lib qoladigan syujetlar, mavzular, ramzlar manbai sifatida ko'radi. Mifologik material haqiqatni aks ettirishning yagona printsipli tufayli fantastik adabiyot tomonidan eng faol tarzda olinadi, bunda voqelik elementlari mo'jizaviy va g'ayritabiiy tarzda birlashtiriladi. Bu tadqiqot uchun material tanlashning sabablaridan biri edi.

XIX asrda paydo bo'lgan ilmiy-fantastik asarlar, keyinchalik XX asr boshlarida kichik janr sifatida paydo bo'lgan fantastik romanlar ilk bor XX asrning 2-yarmidagina adabiy-lingvistik tadqiqot ob'yektiga aylandi. Bu adabiy oqimning nazariy xususiyatlari va o'ziga xos badiiy uslublari aniqlandi.

Fantaziya - zamonaviy san'at janri, ilmiy fantastika turi. Fantaziya mifologik va ertak motivlaridan zamonaviy shaklda foydalanishga asoslangan.

Fantastika janri adabiyotda yuqorida aytib o'tganimizdek 20-asrda shakllangan, ammo u qadim zamonlardan kelib chiqqan va xalqlarning urf-odatlarini va an'analari bilan chambarchas bog'liq. Bular mashhur afsonalar, afsonalar, ertaklar. Ushbu janrning tarixdan oldingi davri ritsarlik romanslari bilan boshlangan deb ishoniladi. Ularning harakati tarixiy davrda sodir bo'lgan, ammo ular haqiqiy geografiya va chegaralar muhim bo'lmagan shartli "maftunkor" makonda sodir bo'ladi. Bu odatda ritsarlar sehrgarlar va gigantlariga qarshi turadigan qandaydir shohlik edi. Aynan ritsarlik romanlarida zamonaviy fantaziyaning naqshlari va an'analari paydo bo'la boshladi.

Hozirgi vaqtda ushbu mavzu doirasidagi tadqiqotlarning dolzarbligi shubhasizdir, chunki butun dunyo bo'ylab yangi asarlarning paydo bo'lishi va ularning filmga moslashuvi bunday

adabiyotning tobora ommalashib borayotganidan dalolat beradi. Fantastik janrda yozilgan asar syujeti sarguzasht tamoyiliga asoslanadi, bunda qahramon o'z vazifasini bajarib, ichki uyg'unlikni topadi.

Shunga qaramay, fantaziya janrining adabiy mustaqilligi masalasi hali oxirigacha hal qilinmagan, bu shubhasiz bu ikki yo'nalishning noaniq chegaralari bilan bog'liq. An'anaga ko'ra, ilmiy-fantastik nasr insoniyat sivilizatsiyasining kelajakdagi ilmiy-texnik taraqqiyotini tasvirlaydi, fantastik romanlar esa tarixiy yilnoma, ertak va qahramonlik dostonlari chorrahasida muvozanatlashgan qadimgi sehrli sivilizatsiyalar davrini qayta tiklaydi. Shu bilan birga, har ikkala janr xususiyatlarini o'zida mujassam etgan asarlar mavjudki, bu ularni har ikki yo'nalishga so'zsiz bog'lash imkonini bermaydi.

Fantastika janrini o'rganish uchun uning lingvostilistik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish uchun biz birinchi navbatda lingvosmadaniy qiyoslash va tahlil kabi vositaga murojaat qildik. Matn turli pozitsiyalardan tahlil qilinganligi sababli lingvistik va stilistik tahlilga ham turlicha yondashuvlar mavjud.

Lingvistik va stilistik tahlil matnni sathlardan tashkil topgan tizim sifatida o'rganadi. Keyingi tadqiqotlar jarayonida bu darajalar ham bir-biridan ajratilgan holda, ham o'zaro ta'sirda ko'rib chiqiladi. Badiiy matnning vizual vositalarini, ularning sintezi beradigan estetik effektni o'rganish.

Keng kitobxonlar auditoriyasini o'ziga jalb etayotgan fantaziya janri zamonaviy adabiyotning eng mashhur janrlaridan biridir. Ushbu janr doirasida ko'plab yo'nalishlar mavjud bo'lib, ularning xilma-xilligi hatto eng talabchan o'quvchilarning ehtiyojlarini qondira oladi. Biroq, fantaziya janri o'zining ko'rinishlarida juda xilma-xil bo'lishiga qaramay, ushbu tadqiqotda biz uni boshqa janrlardan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarni ajratib ko'rsatishga harakat qilamiz. Bu xususiyatlar, odatda, hikoya qurish va ikkinchi darajali dunyolarni yaratish bilan bog'liq.

Ushbu tadqiqotda biz Ursula Le Guin asarlarida fantaziya janrining lingvomadaniy qiyosi xususiyatlari fantastika tomonidan qanday amalga oshirilganligini tasvirlab beramiz.

Shunga qaramay, "fantaziya" va "ilmiy fantastika" atamalarining etimologiyasidan kelib chiqib, bu ikki adabiy oqimni bir-biridan farqlash o'rinli ko'rinadi. Fantaziya olamlari geografik o'ziga xoslikdan mahrum, ya'ni voqealar realda emas, balki ko'pincha xayoliy bo'lgan shartli dunyoda sodir bo'ladi. Bu xususiyat, ayniqsa, Ursula K. Le Guin asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi, ular fantastik olamlarning puxta o'ylangan geografik maydoni bilan ajralib turadi.

Ko'pgina tanqidchilar va adabiyotshunos olimlar V.Le Guin asarlarini, birinchi navbatda, "Geyn sikli" romanlarini ilmiy fantastika janriga bog'laydilar. Shubhasiz, Le Guin romanlarida an'anaviy ilmiy-fantastik unsurlar mavjud. Bular kosmik sayohat, begona tsivilizatsiyalar va dunyolar bilan aloqa qilish haqidagi klassik ilmiy fantastika g'oyasi, ilmiy-texnika taraqqiyoti va boshqalar. Biroq, tsiklning biron bir asarining birinchi sahifalaridanoq, ular klassik ilmiy fantastika deb ataladigan narsa doirasiga mos kelmasligi aniq bo'ladi. Turli va murakkab masalalar, psixologizm, personajlar teranligi, tasvirlangan voqealarga har tomonlama baho berish - bu Le Guin nasri xususiyatlarining kichik bir qismidir. Qolaversa, yozuvchi shunchaki fantastik o'zga olamlarni yaratibgina qolmay, balki o'ziga xos til, din, madaniyat kabi ko'plab detallarni rivojlantiradi. Mashhur ingliz yozuvchisi J.R.R. Tolkien singari, Jle Guin ko'pincha o'quvchini bu dunyo tarixi, mifologiyasi va adabiyoti bilan tanishtiradigan qo'shilgan hikoyalar yoki "ikkinchi darajali hikoyalar" usulidan foydalanadi. Bu intellektualizatsiya, asosan, sarguzashtli elementlarga ko'proq e'tibor qaratiladigan an'anaviy G'arb ilmiy fantastikasiga xos emas.

Muammoga shunday yondashish V.Le Guin ilmiy-fantastik romanlarini “qo‘sh tub va qo‘shimcha ma‘no”ga ega bo‘lgan chuqur falsafiy asarlar darajasiga olib chiqadi, yozuvchining o‘zi esa uning asarlari ikki darajada: ongli va ongsiz ravishda yaratilganligini tan oladi. V. Le Guin 1983 yilda bergan intervyusida uning intellekti “etarli darajada tarbiyalangan, biroq intellekt o‘z o‘rnini bilishi kerak”, dedi. Xuddi his-tuyg‘ular, axloqiy g‘oyalar va sezgi kabi. Bilimning har xil turlari mavjud va javonlarda oqilona saralash ijodkorlik jarayoniga taalluqli emas”. Uning har bir asari bu so‘zlarning tasdig‘idir.

An'anaviy ravishda "fantaziya" bilan bog‘liq - amerikalik yozuvchi Ursula K. Le Guinning Yer dengizi haqidagi tsikli: "Yer dengizi sehgari" (1968), "Atuan maqbaralari" (1971), "So‘nggi qirg‘oqda" (1972), "Texanu" (1992), "Boshqa shamollarda" (2002) asarlari fantastic jihatdan yondoshilgan .

Shunday qilib, ushbu ilmiy maqolaning dolzarbligi Ursula Le Guin asarlarida fantaziya janirining lingvomadaniy qiyosida ijodini o‘rganishda bo‘lib, uning asarlari mamlakatimizda juda kam o‘rganilgan. V. Le Guinning asarlari madaniy jihatda katta qiziqish uyg‘otadi, chunki muallif tuzilmaviy va muhim element sifatida afsonaga asoslangan turli dunyo va madaniyatlarni modellashtirishga qaratilgan. V. Le Guin barcha asarlarida ko‘rsatilgan masalalar tub umuminsoniy qadriyatlarga taalluqli bo‘lib, uning asarlari chuqur ma‘naviy-tsivilizatsiya inqirozini boshidan kechirayotgan zamonaviy dunyoda alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchining roman va hikoyalari ommaviy adabiyot va madaniyat doirasidan ancha oshib, zamonaviy ilmiy fantastika va fantaziyani “yuqori” (klassik) fantastika darajasiga ko‘taradi, kuchli falsafiy-estetik salohiyatga ega.

Yozuvchi Ursula Le Guin jahon adabiyotiga ilmiy fantastika va fantaziya janrida yozilgan asarlar muallifi sifatida kirib keldi. Mashhur antropolog va yozuvchi oilasida tug‘ilgan va yaxshi ma‘lumotli Ursula Le Guin o‘ziga xos adabiy uslubni yaratdi. Har bir asarda u nafaqat hikoya qahramonlarining shaxsiy xususiyatlarini ochib beradigan hikoya chizig‘ini chizibgina qolmay, balki global universal xarakterdagi savollarni ham ko‘taradi. Yozuvchi madaniy manfaatlarining ziddiyatlari, inson taraqqiyotining falsafiy yo‘llari, ayollarning jamiyatdagi o‘rni haqida gapiradi. Uning barcha ishlari ikkita asosiy yo‘nalishga bo‘lingan: ilmiy fantastika va fantaziya.

Ursula Le Guin ijodining yana bir jihati fantaziya janirining lingvomadaniy qiyosi an‘analarida fantaziya janrida yozilgan romanlar silsilasi bo‘lib, ularning rivojlanishi XX asrning o‘ziga xos hodisasiga aylangan. Ko‘pgina kitobxonlar va hatto yozuvchilar ongida "fantaziya" atamasi hikoyaning mashhur shakli bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘lami ancha cheklangan, lekin kitob bozorida katta talabga ega. Bir qarashda, romanlar bu tavsifga juda mos keladi va syujetida nihoyatda sodda, ular asosan ertak formulasiga amal qiladi. Ammo Ursula Le Guin yaratgan dunyoning soddaligi aldamchi, yozuvchi o‘z-o‘zini bilish, shaxs kamoloti, hayot va mamot, ezgulik va yomonlik haqidagi mulohazalar kabi muhim, murakkab va jiddiy mavzularga to‘xtalib o‘tadi.

Ursula Le Guin yaratgan fantaziya olami shu qadar aniqlik bilan tasdiqlangan va o‘ziga xosdirki, uni har qanday o‘ziga xos fazo-zamoniy voqelik bilan bog‘lash qiyin. Yer dengizining tarixi, mifologiyasi va falsafasi er yuzidagi qadimgi xalqlarning turli falsafiy va mifologik tizimlariga tegishli bo‘lgan fantastik va elementlarni organik ravishda birlashtiradi: Skandinaviyaliklar, Keltlar, qadimgi Xitoylar, Shimoliy Amerikaning mahalliy hindulari.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ursula Le Guin asarlari har qanday adabiy janr doirasidan tashqarida, xoh ilmiy fantastika, xoh fantastika va hokazo. Yozuvchining fikricha, yaxshi adabiyotni, jumladan, ilmiy-fantastikni, umuman olganda, janr prozasi deb bo‘lmaydi. Ijodiy faoliyatga ana shunday yondashuv Ursula Le Guinni boshqa fantast yozuvchilardan ajratib turadi.

Fantastik olamlarni yaratayotib, yozuvchi ularning mavjudligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, chunki ularning barcha g'ayrioddiylik va g'ayrioddiylikiga qaramay, bu olamlar odamlarning yagona dunyosining ajralmas qismlaridir va shuning uchun ular haqiqatdir. Qolaversa, yozuvchi madaniy tizim yaratish orqali xalq madaniyati barhayot ekan, dunyo borligini, har xilliklarga qaramay, barcha madaniyatlar, xalqlar bir-biri bilan bog'lanib, bir butunlikni tashkil etishini anglab etadi. Bu birlikni saqlab qolish, har biri o'ziga xos bo'lgan har qanday madaniyatning yo'q bo'lib ketishining oldini olish, aloqa – madaniyatlar muloqoti yordamida mumkin.

Ishning asosiy maqsadi Ursula Le Guin ijodining yana bir jihati fantaziya janirining lingvomadaniy qiyosi bo'lib, yozuvchi Ursula Le Guin nasrini lingvomadaniy qiyosi ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat. Bu tahlil, birinchi navbatda, yozuvchining har bir insonni ma'lum umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan lingvomadaniy qiyosining kelib chiqishiga qaytarish uchun mo'ljallangan "madaniy afsona" qurilishining xususiyatlariga taalluqlidir. Shu munosabat bilan tadqiqotda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- lingvomadaniy qiyosi sifatida mif nazariyasi bo'yicha materiallarni o'rganish va umumlashtirish;

- mif tipologiyasini o'rganish va adabiy afsonaning alohida turi sifatida ajratish, madaniy yo'nalishdagi yozuvchilarning asarlarida to'liq namoyon bo'ladi;

- mazkur asarlarda lingvomadaniy qiyosini qurish xususiyatlarini va ular bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish;

- madaniyatlararo muloqot, madaniyatlarning o'zaro ta'siri va multikulturalizm muammosini, ularning sinishi.

Ushbu muammolarni hal qilish orqali Ursula Le Guin badiiy olamining o'ziga xosligi va o'ziga xosligini, shuningdek, zamonaviy dunyoning bir qator eng muhim madaniy muammolarini hal qilishga yondashuvining xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Ursula Le Guin asarlarining taklif etilayotgan lingvomadaniy qiyosi tahlilining tugallangan deb hisoblash mumkin emas. Yozuvchining ijodiy yo'li davom etmoqda, u romanlar bilan birga o'zini qiziqtirgan masalalar doirasini to'ldiradigan va kengaytiradigan, ilgari ko'targan mavzularini chuqurlashtiradigan hikoyalar yozishda davom etmoqda. Yozuvchining g'oyaviy-badiiy olamiga sho'ng'ish tadqiqotchi oldida ko'plab savollar tug'diradi, shuning uchun mavzuni yanada rivojlantirish, shuningdek, bir qator tegishli tadqiqotlar mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Bernardo, Susan M.; Murphy, Graham J. (2006). Ursula K. Le Guin: A Critical Companion. Greenwood Press. ISBN 978-0-313-33225-8.

2. Bloom, Harold (1987). "Introduction". In Bloom, Harold (ed.). Modern Critical Interpretations: Ursula Le Guin's the Left Hand of Darkness. Chelsea House Publications. pp. 1–10. ISBN 978-1-55546-064-8.

3. Cadden, Mike (2005). Ursula K. Le Guin Beyond Genre: Fiction for Children and Adults. Routledge. ISBN 978-0-415-99527-6.

4. Cummins, Elizabeth (1990). Understanding Ursula K. Le Guin. University of South Carolina Press. ISBN 978-0-87249-687-3.

5. Erlich, Richard D. (December 2009). Coyote's Song: The Teaching Stories of Ursula K. Le Guin. Wildside Press LLC. ISBN 978-1-4344-5775-2. Archived from the original on February 3, 2021. Retrieved September 18, 2018.



6. Kuznets, Lois R. (1985). "'High Fantasy' in America: A Study of Lloyd Alexander, Ursula Le Guin, and Susan Cooper". *The Lion and the Unicorn*. 9: 19–35. doi:10.1353/uni.0.0075. S2CID 143248850.
7. Le Guin, Ursula (1978). *The Wind's Twelve Quarters Volume I*. Granada Publishing. ISBN 978-0-586-04623-4.
8. <https://uz.eferrit.com/biography-ursula-k-le-guin/>
9. [Official website](#)
10. [Worlds of Ursula K. Le Guin](#). PBS American Masters. August 2, 2019.
11. [Ursula K. Le Guin papers, circa 1930s–2018 at the University of Oregon Libraries](#)

**O‘ZBEK TILIDA SHAXS SOTSIAL BELGILARINI IFODALOVCHI NOLISONIY  
VOSITALAR XUSUSIDA**  
*Hasanova Dilfuza Odilovna,*  
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti,*  
*filologiya fanlari doktori (DSc)*  
*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada noverbal muloqot – bu so‘zlarni ishlatmasdan odamlar orasidagi aloqa (axborotlarni yuborish yoki bir-birlariga tasvirlar, intonatsiyalar, imo-ishoralar, yuz ifodalari, pantomimikalar), ya’ni nutq va til vositalarisiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etiladigan aloqa haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so‘zlar:** shaxsning sotsial belgilari, shaxs tili fenomeni, til rivojlanishi, tilning kommunikativ ehtiyoji, axborotlarni yuborish yoki bir-birlariga tasvirlar, intonatsiyalar, imo-ishoralar, yuz ifodalari, pantomimikalar.

**Аннотация:** Эта статья представляет собой обзор общения, которое люди использовали со дня их использования (выпуски новостей или изображения один на один, интонации, жесты, выражения, пантомимика), речи и языка.

**Ключевые слова:** персонализация, языковой феномен, развитие языка, коммуникативные потребности языка, информационные бюллетени или образы, интонации, жесты, слова, пантомимика.

**Abstract:** In this article, the most important thing is that people talk about these things without the use of information (news or pictures, gestures, gestures, pantomimics), speech and language.

**Key words:** personalization, linguistic phenomenon, language development, communication needs of a language, newsletters or images, intonations, gestures, words, pantomime.

Bugungi kunda paralingvistika fani nolisoniy vositalarni til hodisalariga, vositalariga bog‘lab tadqiq etadigan soha hisoblanadi. Paralingvistika atamasi grekcha “tilga yondosh” ma’nosini ifodalab, ilk bor A.Xill tomonidan tavsiya etilgan. Keyinchalik Y.Treyger mazkur sohaga oid maxsus asar yozib, uning mohiyatini asoslab bergan.

So‘zlovchining kommunikativ maqsadi qanday ekanligi, muloqot jarayonida uning qanday usul va vositalarni qo‘llashi, qanday til birliklaridan foydalanishida tilning ta’sir etish vazifasi yetakchilik qiladi. Nutq qaratilgan shaxsga fikrlarning so‘zlovchi maqsadiga mos holda yetkazilishi va mazkur muloqotdan ko‘zlangan pragmatik samaraga erishilishida, nutqning mazmun jihatdan

ma'lum darajada mukammal bo'lishida yordamchi sifatida boshqa nolisoniy vositalar ham ishtirok etadi. Xuddi til kabi nolisoniy vositalar ham fanlararo muammo sifatida bir qator fanlarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Etnograflar nolisoniy vositalarni ma'lum bir xalq, elat, millatning ko'p asrlilik tarixi bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlarini, miliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi ishoralar tarzida tushunsalar, psixologlar uchun nolisoniy vositalar o'zaro muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Psixologlar nolisoniy vositani ishtirokchilarning o'zaro muloqotga kirishishida namoyon bo'luvchi psixologik munosabatlari asosida tadqiq etadilar. Tarixchilar nolisoniy vositalarning paydo bo'lishi va shakllanishini ma'lum bir xalq o'tmishi, tarixi bilan bog'lab talqin qiladilar. Adabiyotchilar esa ularga badiiy asar g'oyasini, personajlar xarakter-xususiyatlarini ochishga xizmat qiluvchi vosita sifatida munosabatda bo'ladilar.

Olim S. Mo'minov o'zbek erkak kommunikantlari uchun xos bo'lmagan nolisoniy vositalar sifatida qosh uchirib, chimirib gapirish; noz qilishni ifodalovchi ko'z suzish; sababsiz og'izni to'sib gapirish; hayronlik, bexabarlik, mensimaslik ma'nosida lab burish; achinish ma'nosida tilni tishlab, boshni qimirlatish; o'pishib (ayniqsa, o'z jinsiga mansub kishilar bilan) ko'rishish; jimjiloqni labga tekkizib uyalib yerga qarab turish; ko'rsatkich barmoqni iyakka qo'yib, o'y surish; suhbatlashib turganda o'ng yoki chan tomonga bir siltanib qayrilib va boshni hiyol pastga egib suhbatdoshdan arazlash; kommunikant bilan o'ta yaqin (50-60 santimetrdan qisqa) masofada turib so'zlashish kabi belgilarni, ayol kommunikantlari uchun xos bo'lmagan nolisoniy vositalar sifatida esa kommunikantning yuziga tik boqib turib gapirish (tinglash); qo'lni arra (paxsa) qilib gapirish; qo'lni siltab, mahkam qisib, tortib... so'rashish; ichkilik ichishga ishora ma'nosida tomoqqa chertish; baland ovozda "xo-xo"lab kulish; bosh barmoqni orqaga qayirib "men" ma'nosida ko'kragiga ishora qilish; muhabbat izhori ma'nosida "do'st" deb ko'krakka urish kabi holatlarni qayd etadi.

Aloqa jarayonida nafaqat so'zlar, balki noverbal aloqa vositalari ham muhim rol o'ynaydi. Inson his qiladigan hamma narsa qandaydir tarzda uning yuzida, ko'zlarining ifodasida, xulq va tana harakatlarida aks etadi.

Noverbal muloqot – bu so'zlarni ishlatmasdan odamlar orasidagi aloqa (axborotlarni yuborish yoki bir-birlariga tasvirlar, intonatsiyalar, imo-ishoralar, yuz ifodalari, pantomimikalar), ya'ni nutq va til vositalarisiz to'g'ridan-to'g'ri taqdim etiladigan aloqa. Bunday "aloqa" vositasi insonning o'zini namoyon qilishining barcha shakllarini o'z ichiga olgan axborot uzatish yoki uni almashish vositalari va usullarining keng doirasiga ega bo'lgan inson tanasidir. Odamlar orasida ishlatiladigan keng tarqalgan nom – bu og'zaki bo'lmagan yoki "tana tili". Psixologlar, og'zaki bo'lmagan signallarni to'g'ri talqin qilish samarali muloqotning eng muhim sharti deb hisoblashadi.

Imo-ishora va imo-ishora tilini bilish nafaqat yaxshiroq tushunishga, balki (bundan ham muhimi) bu mavzuda gapirishdan oldin unga qanday taassurot qoldirishini oldindan aniqlashga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, bunday so'zsiz til kerakli natijaga erishish uchun xatti-harakatlarni o'zgartirish yoki boshqa biror narsa qilish kerakligi haqida ogohlantirishi mumkin.

Noverbal aloqani tushunishda ikkita muammo mavjud:

1) birinchidan, tilshunoslik va og'zaki aloqada axborotni uzatish va olish jarayoni ikkala tomondan amalga oshiriladi – bu ushbu hodisani tushunishda ba'zi bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va "aloqa" tushunchasidan foydalanishni asoslash masalasini tug'diradi. Shu sababli, noverbal aloqa haqida gap ketganda, ba'zi ekspertlar boshqa "og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar" tushunchasini qo'llashni maqbul deb bilishadi.

2) ikkinchidan, ko'pgina ilmiy ishlarda ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladigan "og'zaki bo'lmagan aloqa", "og'zaki bo'lmagan kommunikatsiya", "og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar"

tushunchalarida chalkashliklar mavjud. Biroq bu tushunchalarni ajratish va kontekstni aniqlashtirish muhimdir.

V.A. Labunskaya taklif etgan ta'rifga ko'ra, "nolisoniy aloqa – bu nolisoniy xatti-harakatlar va nolisoniy axborotni uzatishning asosiy vositasi sifatida ishlatish, o'zaro munosabatlarni tashkil etish, sherikning obrazi va konsepsiyasini shakllantirish va boshqa odamga ta'sir qilish bilan tavsiflanadigan aloqa turi".

Nolisoniy aloqa vositalari:

- 1) aloqa jarayonining borishini tartibga solish, sheriklar o'rtasida psixologik aloqani yaratish;
- 2) so'zlar orqali berilgan ma'nolarni boyitadi, og'zaki matnni sharhlashga yo'naltiradi;
- 3) his-tuyg'ularni ifoda etadi va vaziyatning talqinini aks ettiradi;
- 4) o'quv faoliyatida yordam beradi;
- 5) o'z roziligingiz yoki noroziligingiz haqida xabar beradi;
- 6) kar (eshitmaydigan) odamlar bilan aloqa qilishda yordam beradi.

Til birliklaridan foydalanish ko'p hollarda nolisoniy ijtimoiy-ruhiy (sotsial-psixik) tomonlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganuvchi sotsial tilshunoslikdan (ijtimoiy tilshunoslikdan) farqli o'laroq, lisoniy birliklarning nutqda yashash shart-sharoitlarini o'rganuvchi maxsus fan - lingvistikaning yaigi sohasi sotsiolingvistika shakllandi.

Shaxs sotsial belgilarini namoyon etuvchi ko'zgu muloqotdir. «Muloqot» atamasi ko'p holarda verbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so'zsiz, nolisoniy vositalar (imo-ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish va bir-birining ta'siriga ko'ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi.

Nolisoniy vositalar ham shaxs sotsial belgilarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Muloqot jarayonida lisoniy vositalar "ojizlik" qilganda nolisoniy vositalar yordamga keladi va nutq intensiyasini ifodalab keladi.

Otabek o'ziga qattig' tikilib turg'an Hasanalidan yuzini chetka burishka majbur bo'ldi. Go'yo bu sehrgar chol hamma sirni betdan o'qub olar edi. Hasanalini hamon o'ziga tikilib turg'anini bilib, manglayini qashig'an bo'ldi: — Xo'sh, davom etingiz... — Bu sirringizni mendan yashirmoqchi bo'lasiz, — dedi tamom qanoat bilan Hasanali, chunki, endi o'z kashfiga juda ishong'an edi.

— Xayr, yashirmoqqa ham balki haqqingiz bordir... ammo shu ko'yi sir saqlash bilan birar natijaga yetish mumkinmi?

— ...

Otabek qip-qizil qizarib gunohkorlardek yerga qarag'an edi. Hasanalining yuziga padorona tarahhum tusi kirib, keksalarga maxsus ohangdor bir tovush bilan bekning ustidagi og'ir yukni ola boshladi:

— Aybi yo'q, o'g'lim, — dedi, — muhabbat juda oz yigitlarga muyassar bo'ladig'an yurak javharidir... (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

Otabekning Hasanali savoliga sukut saqlashi orqali uning o'zbek yigitlariga xos bo'lgan andishasini, uyatini ifodalaydi. O'zbek millatida yigit-qizlar odatda, muhabbatini ochiq aytmaydi. Chunki bu uyat sanalib, ular sevgisini boshqa yo'llar bilan ko'rsatishadi. Otabek ham Hasanaliga "yashirgan siri"ni (Kumushbibini bir ko'rganda oshiq bo'lib qolganini) aytishga iymnadi. Shu o'rinda sukut saqlaydi. Ammo uning yuragidagi so'zlarini "qip-qizil qizarib gunohkorlardek yerga qarag'an"i oshkor etadi. Til birliklari orqali ifodalay olmagan tuyg'ulari noverbal vosita orqali reallashadi.

Dasturxon yonida Kumushbibining latif bilagiga Otabek oltin uzuk solur ekan, ul yerga qaragʻan holda edi.

— Men sizga hech narsa ham hozirlamagʻan edim...

— Hozirlamagʻaningiz uchun oʻkinasizmi?

— ...

— Oʻkinmangiz, — dedi bek, — sizdan bir narsani soʻrasam ayamassiz? — Ayamayman.

Otabek Kumushbibining lablari ustidagi qora xoligʻa ishorat qilib: — Shu yerdan bir oʻpish bersangiz, siz ham katta esdalik hozirlagʻan boʻlur edingiz, — dedi. Kumushbibi qizarindi (A.Qodiriy, Oʻtkan kunlar, 32-bet).

#### ADABIYOTLAR

1.Нурмонов .А Танланган асарлар.2- жилд –Т.: 2012. -215 б.

2.Эшқуватов Ж. Бадий матнда паралингвистик воситаларнинг функционал-парагматик хусусиятлари ҳақида // <http://library.ziyouet.uz>

3.Мўминов С.Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари//филол. фан. д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б.34.

4.Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007.

#### LEKSIK SATHNI TIZIM SIFATIDA OʻRGANISHNING LISONIY IMKONIYATLARI

*F.Yuldashev,*

*NavDPI dotsenti, f.f.d. (DSc)*

*(Oʻzbekiston)*

**Annotatsiya.** Maqolada til satlaridagi tizim va uning strukturasi haqida fikr yuritilgan. Mazkur tizim leksik kategoriya misolida dalillangan. Ushbu satning sistemasi “maʼnaviyat” leksik kategoriyasi misolida yoritilgan hamda kategoriyaning semantik xususiyati aks ettirilgan.

**Kalit soʻzlar:** tizim, leksik sath, pogʻonali munosabat, paradigmatic munosabat, leksik-semantik kategoriya, leksik tizim, “maʼnaviyat” leksik kategoriyasi.

**Abstract.** The article discusses the language system and its structure. This system is proved on the example of lexical category. The system of this class is explained on the example of the lexical category "spirituality" and the semantic features of the category are reflected.

**Key words:** hierarchical relationship, paradigmatic relationship, lexical-semantic category, lexical system, lexical category "spirituality", "enlightenment" general noun system

**Аннотация.** В статье рассматривается языковая система и ее структура. Эта система доказывается на примере лексической категории. На примере лексической категории «духовность» поясняется система этого класса и отражаются семантические особенности категории.

**Ключевые слова:** система, лексик система, иерархическое отношение, парадигматическое отношение, лексико-семантическая категория, лексическая система, лексическая категория «духовность», «просвещение», обще именная система.

Biz yashab turgan olam va undagi barcha hodisalar shunday tizimki, ular oʻzaro aloqador boʻlgan maxsus guruhlariga boʻlinadi. Ushbu guruhlarning shakllanishida esa oʻziga xos qoidalar mavjud. Bu har bir fanning ichki sistemasi va xususiyatidan kelib chiqib

belgilanadi. Ushbu tizim bir-birini taqazo etadigan elementlar munosabatidan tashkil topadi hamda yagona tizimni shakllantiradi. Ana shu yagona tizimning kichik qismlarga bo‘linish imkoniyati mavjud. Bunday bo‘linishlar soddadan murakkabga qarab bo‘linuvchi va ayni holatda birlashuvchi xususiyatga ega tizim[1]. Bu barcha yo‘nalishlarda bo‘lgani kabi sistem-struktur tilshunosligimizda ham o‘z ifodasini topadi.

Tilshunoslikdagi mazkur tizim turli sath birliklariga oid kategoriyalarning lingvistik xususiyatlarini yoritishga, uning lisoniy imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. O‘rganilayotgan obyektning til sistemasidagi o‘rni, vazifasi, maqsadi, tildagi lisoniy va nutqiy imkoniyatlarini “oynadek” aks ettirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolamizda bugungi kunda leksik kategoriya sifatida shakllanib, tizimlashib borayotgan “Ma’naviyat” kategoriyasi haqida ayrim mulohazalarni bayon etamiz. Sababi hozirga qadar “ma’naviyat” kategoriyasining lisoniy imkoniyatlari haqida tadqiqotlar olib borilgan[3], uning milliy, ma’naviy, ijtimoiy xususiyatlari haqida tadqiqotlar[2] olib borilgan, biroq hozirga qadar semantik tizimlashtirish masalasi tadqiq obyekti bo‘lmagan. Zero, har qanday leksik kategoriyaning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Xususan, maqolamiz obyekti hisoblangan “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining tizim sifatidagi umumiy va xususiy sifatlari mavjud. Quyida mazkur kategoriyaning tizimlashtirish masalasi va unga xos xususiyatlar haqida to‘xtalamiz. Avvalo, ushbu kategoriyaning tizim ekanligi quyidagi lingvistik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi:

1. “Ma’naviyat” sistemasining yaxlit tizim ekanligi paradigmatic, sintagmatic va iyerarxik tuzilmasiga egaligida. Ushbu tizimning nafaqat ichki sistemalarini ifodalash, balki ular o‘rtasidagi leksik bog‘lanishlarni muvofiqlashtirish masalasi ham mavjud.

2. “Ma’naviyat” sistemasining murakkab tizim ekanligi. Murakkabligi shundan iboratki, semantik kategoriyasining iyerarxik manzarasi, tizimiy munosabatlari, differensial va integral semalari, sistemaning yadrosi, sistemaning markazi, sistemaning periferiyasi kabi alohida bo‘limlardan iborat, ularning yana ichki qismlardan tashkil topganligida namoyon bo‘ladi.

3. “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasiga a‘loqador leksemalarning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da hamda maxsus lug‘atlarda izohlanishi, ularning o‘zaro qiyosiy tahlili masalasini amalga oshirish masalasi mavjud.

4. “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi birliklarini til korpuslarida teglash masalasi, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi birliklarining ekstralingvistik razmetkasi, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi birliklarini semantik teglash masalasi, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi birliklari birlamchi birikuvchilarini modellashtirish masalasi muhimligini aks ettirishning amaliy vazifalari mavjud.

5. “Ma’naviyat” kategoriyasining sistemali xarakteri. Bu tizimdagi har bir elementlarning bevosita va bilvosita aloqada ekanligi tadqiq qilinadi. Natijada uning periferik xususiyatlari aniqlanadi hamda kategoriyaga biriktirish masalasi izohlanadi.


6. “Ma’naviyat” tushunchasi va uning dunyodagi lisoniy manzarasi ilmiy tasvirini qiyosiy aspektda tahlil va tadqiq qilish tizimli tahlil orqali mohiyati yanada ravshanlashadi[4].

O‘zbek tilidagi “ma’naviyat” kategoriyasini tavsiflash, tasniflash, sistemaga solish va qiyosiy o‘rganishda leksik-semantik kategoriya sifatida yondashish muhimdir. Bu esa uni tizim shaklida tushunishga, til elementlari orasidagi turli bog‘lanish va munosabatlarni yoritishga yordam beradi. Bunday tahlil asosida “ma’naviyat” umumiy semali birliklar orasidagi leksik munosabat ham yoritiladi.

“Ma’naviyat” sistemaviylik tabiatiga ega leksik-semantik kategoriya, uning mazmun-mohiyati tarkibiy qismlarga ajratish yo‘li bilan ochiladi.

Uni quydagi jadval orqali aks ettiramiz.

1-jadval



Izoh. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasining qolgan mavzuiy guruhlari ham shu yo‘sinda shakllanib boradi.

“Ma’naviyat” umumiy ma’noli til birliklari, uning tarkibiga kiruvchi milliy lisoniy ifodalar – so‘z, maqol, matal, iboralar uzoq yillar davomida xalqimiz nutqiy boyligi sifatida boyib kelgan hamda yozma va og‘zaki ijodida faol qo‘llangan[5].

Tilning leksik sohasi keng, ko‘p funksiyali, u turli sohalarda namoyon bo‘ladi va sohaning keng qamrovli ekanligi leksik sathda aks etadi. Til birliklarini tavsiflash va o‘rganishda qo‘llanadigan leksik-semantik kategoriya tilni tizim sifatida idrok etishga, tildagi leksik elementlar o‘rtasidagi turli xil aloqa va munosabatlarni tushunishga yordam beradi. “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi semantik jihatidan o‘ziga xosligi bilan boshqa leksik kategoriyalardan farqlanadi. Sababi, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi har bir xalq uchun o‘ziga xos va takrorlanmasdir. To‘g‘ri, ayrim tomonlari bilan umumiylik hosil qilishi mumkin, biroq xususiy tomonlaridagi o‘ziga xoslik millatning mentalitetini belgilab beradi.

“Ma’naviyat” leksik kategoriyasi leksik tizim sifatida bir-biri bilan bog‘liq. Ushbu leksik-semantik kategoriyaning tarkibiy qismlari, yadro va chegarasi, uning maydon hosil qilishi va paradigmatic munosabatlari leksik imkoniyatlarini ochishga hissa qo‘shadi. Bu munosabatlar leksemalarning lug‘atdagi o‘rni, ularning etimologiyasi, semantik xususiyatlari bilan bog‘liq.

#### ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B. “Taraqqiyot va ma’naviyat” // “Ma’rifat” gazetasi, 2018 yil, 8 yanvar.
2. Erkayev A. “Ma’naviyat va taraqqiyot modeli”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005. – 192 b
3. Tojiyeva G. “O‘zbek tili ma’naviy-ma’rifiy leksikasining mustaqillik yillardagi taraqqiyoti (“milliy g‘oya” atov birliklari)”: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Samarqand, 2017. – 48 b.
4. M. Axmedova. “O‘zbek tilidagi “ma’naviyat” va ingliz tilidagi “spirituality” umumiy semali atov birliklari tipologiyasi”: Filol. fan. bo‘yicha fals. .dokt.(PhD)... diss. avtoref. – Buxoro, 2019. – 7 b.

5. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi Jildlar. – Toshkent: O‘zME, 2008.

## O‘ZBEK TILIDA FE’L YASALISHI VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

*Zaripov B.P.,*

*NavDPI dotsenti, f.f.n.*

*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek tilida fe’l yasovchi affikslar sinonimiyasi va ularning semantik xususiyatlari, badiiy asarlarda mualliflarning so‘z qo‘llashi natijasida hosil qilingan yasama fe’llarning matndagi uslubiy imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** fe’l yasalishi, sinonimiya, noodatiy yasama fe’llar, uslubiyat.

**Abstract:** The article analyzes the synonymy of verb-forming affixes in the Uzbek language and their semantic properties, as well as the stylistic possibilities of artificial verbs in the text created as a result of the authors' use of words in artistic works.

**Key words:** verb formation, synonymy, unusual verbs, methodology.

**Аннотация:** В статье анализируется синонимия глаголообразующих аффиксов в узбекском языке и их семантические свойства, а также стилистические возможности искусственных глаголов в тексте, созданных в результате использования авторами слов в художественных произведениях.

**Ключевые слова:** глаголообразование, синонимия, необычные глаголы, стилистика.

Fe’l turkumi boshqa turkumlar ichida grammatik jihatdan ham, leksik jihatdan ham murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu albatta fe’l yasalishiga ham ta’sir etmay qolmaydi. Fe’l yasovchi affikslarda [1] sinonimiya hodisasi juda kam uchraydi. Lekin fe’l yasovchi affikslar ba’zan fe’l turkumiga oid so‘zlar bilan yoki qo‘shma fe’l hosil qiluvchi yordamchi fe’llar bilan sinonimiyani hosil qilishi mumkin. Lekin bunday hollarda ular turli ma’no qirralari bilan farqlanadi. Masalan:

Undovlardan **-la** affiksi bilan yasalgan fe’llarda shu undovga xos his- hayajon, buyruq-xitob, murojaat kabilarni bajarish ma’nosini ifodalaydi. Bunday fe’llar semantik xususiyatiga ko‘ra nutq fe’llari sirasiga kiradi: **-la** affiksi **demoq** fe’li bilan ma’lum darajada ma’nodoshlikni hosil qiladi: **dodlamoq (dod demoq), voyvoylamoq (voy-voy demoq), chuhlamoq (chuh demoq), uflamoq (uf demoq).**

Taqlid so‘zlardan **-la** affiksi bilan yasalgan fe’llarda taqlid so‘z bildirgan tovush yoki holatning yuz berish ma’nosi ifodalanadi. Bunda **-la** affiksi **etmoq** yoki **qilmoq** fe’li bilan ma’lum darajada sinonimlikni hosil qiladi: **lapanglamoq (lapang-lapang etmoq / qilmoq), qisirlamoq / qisir etmoq.** Etmoq so‘zi bilan yasalgan fe’llar semantikasida ham farq bor: **shitirlamoq, gumburlamoq - davomli harakat ma’nosini ifodalaydi; shitir etmoq, gumbur etmoq – bir marta sodir bo‘ladigan harakatni ifodalaydi.**

**-ira,- illa/-ulla** affikslari taqlid so‘zlardan fe’l yasaydi. Masalan: **yarqiramoq, yaltiramoq, mo‘ltiramoq; cirqillamoq, chirsillamoq, likillamoq, shuvillamoq, mo‘ltillamoq.** Bu fe’llar taqlid so‘zlar bildirgan tovush yoki obrazning yuz berishini ifodalaydi. Ba’zan bu yasalmalar tarkibidagi affikslar **etmoq** yoki **qilmoq** so‘zlari bilan sinonim bo‘lishi mumkin: **Yarqiradi-yarq etdi / yaltiradi-yalt etdi.**

**-ira, -illa / -ulla** affikslari bilan yasalgan soʻzlarda harakatning davomiyligi ifodalanadi; etmoq soʻzi bilan hosil qilingan qoʻshma feʼllarda esa shu harakat-holat jarayonining bir marta roʻy berishi ifodalanadi: yarqiradi– yarq etdi yaltilladi –yalt etdi// shuvilladi-shuv etdi.

**-illa/ulla** affikslarida harakat-holatning takroriyliigi kuchliroq ifodalanadi. Yalt etmoq, shuv etmoq, chirs etmoq kabi qoʻshma feʼllarda shu harakat-holatning bir marta boʻlishi ifodalanadi.

Badiiy asarlarda muallif tomonidan soʻz qoʻllash natijasida yangi-yangi yasama soʻzlar hosil qilinib qoʻllanadi. Bunday holatlarda soʻz yasovchi affiks bilan soʻz birikmasi oʻrtasidagi maʼnodoshlik kuzatiladi. Ayniqsa bu holat feʼl turkumiga oid soʻzlarda kuchli. Masalan: Otabek ogʻir holga tushdi, bu toʻgʻri soʻz uni tamoman esankiratdi va haqiqatga qarshi borish, yaʼni **yolgʻonlash** yana ogʻir edi. Shunday boʻlsa ham , **yolgʻonlamay** chorasi boʻlmadi. (A. Qodiriy)

Bu oʻrinda ravish +feʼl tarzidagi soʻz birikmasi—“yolgʻon gapirmoq” maʼnosi yolgʻonlamoq soʻzi orqali ifodalangan. Aslida bu soʻz birikmasi anglatadigan maʼno yasalmadan anglashilgan dastlabki maʼnodir va u semantik jihatdan nutq feʼliga oid guruh doirasida. Ammo unga badiiy matn nuqtai nazaridan qarajak, bu qoʻllanishga yana bir qancha semalar yuklatilganki, bu uning holat feʼliga oʻtish semasini ham bildiradi. Yoʻlgonlamoq yolgʻon soʻzlayotgan odamning tushgan , tushadigan ahvolini ham aks ettiradi. Bunday soʻz qoʻllash kontekstda anglashilgan harakatning soʻzlovchi qiyofasidagi oʻzgarishlar holatini (masalan, koʻz qarashi, imo-ishora va b.) ham ifodalaydi.[2]

Sharq qizarib, chiqmoqda quyosh,

**Oltinlandi** terakning uchi. (Zulfiya)

**Oltin tusga kirmoq** birikmasidagi maʼno “**oltinlanmoq**” soʻziga yuklatilgan. Bu jarayonda oltin tus /rang/ birikuvidagi ikkinchi tus/rang komponenti tushirilgan. Oltin polisemantik soʻzi tarkibida “rang” semasi borligi bu ixchamlashishga asos boʻlgan. Demak, oltin – belgi bildiruvchi soʻz sifatida **-lan** affiksi bilan feʼl yasaliib shu belgining yuzaga kelishi ifodalangan .Poetik metafora sifatida tabiat hodisasini , manzarani muallif obrazli tarzda ifodalagan.

Boʻyrachi ariq boʻyida **soyalaydi**. (T.Murod.) **Soya** – ”quyosh tushmaydigan salqin joy” maʼnosini ifodalaydi,unga **-la** qoshimchasi qoʻshilishi natijasida: soyalamoq soʻzi“ issiq kunda soya-salqin joyga borib dam olmoq” maʼnosini ifodalagan. Muallif “soyada dam oldi/ yoki soyada salqinladi” tarzida qoʻllashdan koʻra bu maʼnoni **soyaladi** soʻzi bilan ixcham holda ifodalagan. Bunda soʻzlashuv uslubiga xoslik semasi ham bor.

**Oyoqlanib** qalqib-qalqib oldi. (T.Murod.) “oyoqda turmoq, tikka turmoq; oʻrnidan turmoq” maʼnosini ifodalash uchun **oyoq+lan** affiksi vositasida yasalgan feʼl Qalqib oldi soʻzi bilan birikishi natijasida “oyoqda turmoq, tikka turmoq; oʻrnidan turmoq” maʼnosi yanada kuchaytirilgan.Qoshi uzra kaft soyabon eta-eta moʻltaydi. (T.Murod.) bu oʻrinda soyabon et(moq) qoʻshma feʼli ravishdosh formasida kelgan. Muallif bu qoʻshma soʻzni aynan takrorlamay ikkinchi komponentni – etmoq yordamchi feʼlini (ravishdosh shaklida) takror keltirgan. Bu oʻrinda bosh maʼnoda zontik, shamsiya” maʼnosini ifodalovchi soyabon soʻzi ham metaforik maʼnoda qoʻllangan. “Kaftini peshonasiga qoʻyib koʻzlarini quyoshdan panalamoq” maʼnosi“ kaft(ini) soyabon etmoq“ birikuvi bilan ifodalangan.

**Moʻltaydi** soʻzi holatga taqlidni ifodalovchi **moʻlt** soʻziga **-ay** qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan va “ayanchli qaramoq, maʼyuslanib, ezilib qaramoq” maʼnosi ifodalangan. Oʻzbek adabiy tilida shu soʻzning maʼnodoshi sifatida moʻltiramoq[3] soʻzi bor. Lekin bu soʻzga nisbatan moʻltaymoq soʻzida obrazlilik kuchli.

Yoʻl ariq yoqalab oʻtadi. Bobomiz ana shu yoʻldan sahar **dalalaydi**. (T. M.) dalalaydi feʼli “dalaga boradi” birikmasidagi maʼnoni ifodalaydi. Boradi feʼlining maʼnosi **-la** affiksiga



yuklatilgan. G‘aflatda yotmishlar **tashqarilaydi**. (T. M.) “tashqariga chiqadi” birikmasi o‘rnida bir so‘z-- tashqarilaydi qo‘llangan. **-la** yasovchi affiksi “chiqmoq” harakat semasini qo‘shmoqda.

Fe‘l yasovchi affikslarning boshqa fe‘l yasovchi vositalar bilan sinonimiyasida yasalmalarning umumiy ma‘nosi bir xil bo‘lsa-da, lekin ular o‘ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bu farqlar sinonim affikslarning yoki boshqa birliklar masalan yordamchi fe‘llar bilan yasalgan so‘zlarning ma‘no otkenkasida , qo‘llanish doirasining keng yoki torligida va boshqalarda ko‘rinadi.

Badiiy matnda hozirgi o‘zbek adabiy tilida odatiy yasama so‘z sifatida uchramaydigan holatlarni ko‘plab uchratish mumkin. Muallifning so‘z qo‘llashi natijasida hosil qilingan bunday yasama fe‘llar ma‘no jihatdan serqirraligi, uslubiy jihatdan o‘ziga xosligi bilan matn badiiyatini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fe‘l yasalishi haqida qarang: Hojiyev A. O‘zbek tilida so‘z yasalsihi. –T., O‘qituvchi. 1989. 47-b.
2. Rixsiyeva G. O‘zbek tilida ba‘zi noodatiy fe‘l yasalmalar poetikasi. O‘zbek tili va adabiyoti. 2007. 2-son. 76-78-b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. –T., 2006. 669-b.

## IDEONIMLARNING LEKSIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Nuritdinova Ra‘no Sevdievna,  
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek tili ideonimlarning leksik va semantik xususiyatlari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Nomlash (nominatsiya), ism, familiya, laqab, taxallus, kriptonom, apellyativ leksika, motiv, transmonizatsiya.

Atoqli otlar bir tip yoki jinsga mansub obyektlar, narsa va hodisalardan bittasini alohida ajratib yakka holda nomlash asosida, uning boshqalaridan farqlash ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan lisoniy birliklardir. Borliqdagi mavjudotlarni umumlashtirib, tipiklashtirib nomlash (turdosh otlar) qanchalik zarur va muhim bo‘lsa, bunday narsalardan bittasini alohida, yakka olingan holda nomlash (atoqli otlar) ham shunchalik zaruriy obyektiv ehtiyojdir. Atoqli otlar ham xuddi turdosh otlar kabi tilning kommunikativ talabini qondirish maqsadida paydo bo‘lgan onomastik birliklardir.

Har qanday xalq tarixida muayyan tarixiy qimmatga ega bo‘lgan badiiy, ilmiy, san‘at asarlari yaratiladi, hujjat qabul qilinadi. Shuningdek, xalq tarixida ulkan o‘zgarishlarga olib kelgan davrlar, tarixiy bosqichlar, o‘zgarishlar bo‘ladi. Mana shunday xususiyatlar ba‘zi yakka olingan nodir qurollar, asbob-uskunalar uchun ham tegishlidir. Keltirilgan narsalar, voqea-hodisalar, asarlarga maxsus nomlar beriladi, ular ajratib ataladi, nomlanadi. Mana shu nomlar onomastikada *ideonimlar* deb yuritiladi. “Ideonim (yun. idea – g‘oya + onoma – atoqli ot) – tarixiy asarlar, hujjatlar atoqli oti”<sup>1</sup>. Demak, ideonim insonning aqliy, g‘oyaviy va badiiy faoliyati mahsuli bo‘lgan narsalar bir donasining atoqli otidir.

---

<sup>1</sup> Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. –Namangan, 2006.– B. 33.; Oxunov N. Ideonimlar va ularni o‘rganishga doir / Ta‘lim va texnologiya. Ilmiy uslubiy maqolalar to‘plami. – Farg‘ona: Farg‘ona, 2006. – B.49-52.

Ideonim makroko‘lami ancha keng tushuncha bo‘lib, unga ktemotonim, dokumentonim, xrononim, geortonim, gemeronim, bibliionim, artionim, poetonim, musiqa san’ati asarlari atoqli oti kiradi.

Keltirilgan tip atoqli otlar ideonim makroko‘lamiga uch xususiyatiga ko‘ra birlashadi: 1) ular o‘zida muayyan g‘oyani tashiydi; 2) xalq tarixi uchun alohida qimmatga ega bo‘ladi; 3) alohida (yakka) olingan bir dona narsa, hodisa, ob’ekt nomi bo‘ladi.

Ideonimlar onomastikaning yetarli tadqiq qilinmagan. Ular tarkibiga kiruvchi atoqli ot tiplari ham to‘liq belgilangan emas<sup>1</sup>.

Ideonim makroko‘lamiga kiruvchi atoqli ot tiplari quyidagilar.

**1. Ktematonimlar.** Onomastik terminlarning izohli lug‘atida “Ktematonim – xalq tarixi, madaniyati uchun ma’lum ahamiyatga molik bo‘lgan ba’zi yakka nusxadagi nodir qurollar, asbob-uskunalar, buyumlarning atoqli oti xrematonim deb izohlanadi<sup>2</sup> (O‘OTIL, 41-bet). N.V.Podolskaya *ktematonim* termini ma’nosini alohida izohlamagan va xrematonim termini izohiga havola qilgan<sup>3</sup>. *Xrematonim* va *ktematonim* terminlari anglatuvchi ma’nolar deyarli bir xildir: “Xrematonim (yun. xrematos – narsa, buyum + onoma – atoqli ot) – xalq tarixi, madaniyati, kasb-kori uchun ahamiyatli bo‘lgan noyob qurollar, asbob-uskunalar, san’at va musiqa asarlari, qimmatbaho toshlar noyob nusxasining atoqli oti”<sup>4</sup> (O‘OTIL, 90-bet).

Onomastik tadqiqotlarda ktematonim termini ma’nosi va uning tarkibiga kiruvchi onomastik birliklar xilma-xil, ko‘p holda doirasi keng tushunilmoqda Bizning nazarimizda, ktematonim tushunchasini chegaralash va uning tarkibiga kiruvchi atoqli otlarni quyidagilardan iborat deb bilish maqsadga muvofiqdir:

**1) tarixiy, madaniy qimmatga ega bo‘lgan ba’zi yakka nusxadagi qurollar, asboblar, zebu ziynat buyumlari, qimmatbaho toshlarning atoqli oti.** Ba’zi tarixiy yozma manbalarda, folklorda toshlarning atoqli oti uchraydi: Yada toshi<sup>5</sup>, Sigur toshi – ko‘zmunchoq yoki tumor bo‘lsa kerak deb taxmin qilinadi (“Avesto”), Sangi la’nat toshi, Sangi Juman xarsangi, “Oshiq-ma’shuq” toshi, “Quruq” toshi<sup>6</sup>, “Bahrom olovi”// Ozari Bahrom – Erondagi yetti mashhur otashkadalardan biri (Avesto); Funduqiy joynamozi (Bux.tar., 101), Isrofil karnayi (Samariya, 53), G‘itriif kumushi (tanga, Bux.tar., 114), Nishopur dirhami (Bux.tar., 164), “Bibishak” (bezak buyumi, UzME, 2, 16), “Bodomoy” (bezak buyumi, O‘zME, 2, 98);

**2) rassomchilik san’ati asarlarining atoqli oti:** “*Buxoro timi*”, “*Xivalik qiz*”, “*Dugonalar*” (P.Benkov); “*O‘tovda*”, “*Moviy manzara*”, “*Tungi sug‘orish*”, “*Chirchiq vodiysida*”, “*Qadrdon dalalar*” (O‘.Tansiqboyev) va b.;

**3) musiqa san’ati asarlari nomi: a) kuylar nomi:** “*G‘alaba*”, “*Alyor*” (S.Yudakov); “*Mo‘g‘ulchai navo*”, “*Talqini ushshoq*”, “*Bayot uforisi*”, “*Munojot*”, “*Ushshoq*”, “*Zikri ushshoq*”, “*Abadiy xotira*” *rekviyemi* (M.Burhonov), “*Qahramonlik*” *simfoniyasi* (M.Tojiyev) va b.; **b) qo‘shiq (ashulalar) nomi:** “*Muxammas*”, “*Saqil*”, “*Tarona*”, “*Suvoriy*” va b.;

**4) sahna asarlari (opera, libretto, balet, pesa) nomi:** “*Oyjamol*” (I.Hamroyev), “*Yoriltosh*” *operasi* (S.Boboyev), “*Al-Farg‘oniy*” *operasi* (M.Bafoyev), “*Afsonalar*

<sup>1</sup> Superanskaya A.V. Apellyativ – onoma / Imya naritsatelnoye i sobstvennoye. – M.: Nauka, 1978. – S. 25.

<sup>2</sup> Begmatov E., Uluqov N. Keltirilgan lug‘at. – B.41.

<sup>3</sup> Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. – S. 110.

<sup>4</sup> Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B. 90.

<sup>5</sup> Sattorov M. O‘zbek udumlari. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 146.

<sup>6</sup> Umirov S. O‘sha yerda. – B. 29.

vodiysida” baleti (U.Musayev), “Sohibqiron” pesasi (A.Oripov), “Chimildiq” pesasi (E.Xushvaqtoʻv);

**5) raqs va oʻyinlar nomi:** “Beshqarsak”, “Chittigul”, “Katta oʻyin”, “Fargʻonacha”, “Fargʻona ruboiysi”, “Nozli”, “Laylo”, “Orazibon”, “Goʻzal”, “Tong malikasi”, “Intizor”, “Gulruh”, “Dil kuylasin”, “Nozanin”, “Munojot”, “Larzon”, “Lazgi”, “Tanovar”, “Rohat” va b.;

**6) haykaltaroshlik asarlari nomi:** “Tush vaqti”, “Suvchi Uzoqov” (A.Boymatov), “Navoiy portreti”, “Ulugʻbek”, “Mashrab”, “Kurash”, “Raqs”, “Chavondoz” (T.Toshxoʻjayev asarlari), “Ayol”, “Oqqush”, “Avesto” (J.Qutlimurodov asarlari); “Temur Malik”, “Behzod” (M.Mirtojdiyev asarlari) va b.

Hozirgi oʻzbek tili atoqli otlarga nihoyatda boy boʻlib, ular bu til leksikasi tizimida oʻziga xos onomastik qatlamni tashkil qiladi. Jonli va jonli deb tasavvur qilinadigan mavjudotlar atoqli otlari koʻlami va jonsiz obʻektlarning atoqli otlari koʻlamiga ajratilgan holda tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Jonsiz obyektlarning atoqli otlari koʻlamiga kiruvchi atoqli ot guruhlarini jonli mavjud otlar atoqli oti koʻlamiga kiruvchi atoqli ot tiplariga nisbatan miqdoran koʻpdir. Ammo jonli mavjudotlar atoqli otlarini tashkil qiladigan onomastik birliklar jonsiz obʻektlarning atoqli otlari yigʻindisiga nisbatan miqdoran ustun turadi va bir necha oʻn minglab atoqli otlarni oʻz ichiga oladi.

## OʻZBEK ILMIY FONETIKASIDA FONETIK HODISALAR MUAMMOLARI TALQINI

*Furqat Nurmanov,*

*NavDPI dotsenti, f.f.n.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada fonetik hodisalar, ularning turlari haqida ilmiy adabiyotlardagi nazariy qarashlar tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** tovush oʻzgarishlari, singormonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, proteza, epenteza, epiteza, prokopa, sinkopa, reduksiya.

**Abstract:** This article analyzes theoretical views on phonetic phenomena and their types in scientific literature.

**Key words:** sound changes, synharmonism, assimilation, dissimilation, metathesis, prosthesis, epenthesis, epithesis, procope, syncope, reduction.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические взгляды на фонетические явления и их виды в научной литературе.

**Ключевые слова:** звуковые изменения, сингормонизм, ассимиляция, диссимиляция, метатезис, протез, эпентез, эпитез, прокопе, обморок, редукция.

Tovush almashinuvi uzoq vaqtlardan buyon lingvistlar tomonidan oʻrganilib kelinadi. Qiyosiy tilshunoslik oʻzining dastlabki taraqqiyot bosqichidayoq tovush almashinuviga katta eʼtibor berdi. Tilshunoslik tarixida tovush almashinuvi nazariyasining ishlanishida I.A.Boduen de Kurtene va N.V.Krushevskiyalar alohida oʻrin egallaydi. Ular tilshunoslik tarixida birinchi boʻlib tovush oʻzgarishlari va almashinuvlarini bir-biridan farqlab oʻrganadilar. I.A.Boduen de Kurtene tildagi barcha tovush almashinuvlarini ikki kategoriyaga boʻladi: 1) kombinator xoslangan alternatsiyalar; 2) traditsiyaga asoslangan alternatsiyalar. U birinchi tipdagi alternatsiyalarni fonetikaga, ikkinchi tipdagilarni esa morfologiyaga kiritish lozimligini tavsiya qiladi. Tovush oʻzgarishlarini, avvalo, unlilar oʻzgarishi va undoshlar oʻzgarishiga ajratish maqsadga muvofiqdir. Unlilar oʻzgarishiga

unlilar reduksiyasi, unlilarning cho‘zilishi, unlilar labializatsiyasi, unlilar delabializatsiyasi singari hodisalar mansubdir.

So‘z tarkibidagi fonetik o‘zarishlar, asosan, tovushlarning o‘zaro bir-biriga ta’siri natijasida yuz beradi va ularning turlari ilmiy adabiyotlarda turlicha tasniflangan.[1.268]

Nutq jarayonida yuz beradigan fonetik o‘zgarishlar va ularning turlari til tarixining barcha davrlarida tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Bunday o‘zgarishlarining boisi tilda tejamkorlikka erishishdir.

Manbalarda keltirilishicha, tovush o‘zgarishlarining tarixan bir necha ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan:[2.77]

So‘z ichida unlilarning tushishi: o‘g‘lan – o‘g‘illar <o‘g‘ul so‘zidan.

So‘zning boshida:

b//m, b>m hodisasi: ben>men.

So‘z ichida:

d>δ>y//g hodisasi: adaq >ayaq; bedüg > büyüg >buyuk.

ğ>w hodisasi: qağun > qawun >qowun.

Unlidan avval [h] yoki [x] ning hosil bo‘lishi: öküüz >höküz; öl >höl.

ğ, g ning tushishi: qulğaq >qulqaq>qulxaq>qulaq.

So‘z oxirida undoshlarning tushish hodisasi: qapu – eshik, qutlu–baxtli, issi – issiq, köprü – ko‘prik.

Tovushlarning o‘rin almashinuv (metateza) hodisasi: yağmur > yamğur >yamğir.

Muayyan fonetik sharoitda so‘z o‘zaklari yoki negizlaridagi yondosh tovushlarning bir-biriga ta’siri, birikuvchi bo‘g‘in yoki so‘zlardagi tovushlarning to‘qnashuvi, ohangdoshlik va shu kabilar orqasida yuz beradigan tovush o‘zgarishlari fonetik hodisalar hisoblanadi. Fonetik hodisalar ma’lum qonuniyat zaminida vujudga keladi va ularning singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, proteza, epenteza, epiteza, prokopa, sinkopa, reduksiya, sinerezis, apakopa, eliziya kabi turlari mavjud.

Shuningdek, so‘z asosiga biror qo‘shimcha qo‘shilganda, asos va yasalma tarkibidagi ayrim tovushlar o‘zgarishga uchraydi. Bunday o‘zgarishlar unli tovushlarda ham undosh tovushlarda yuz beradi.[3.57]

Nutq jarayonida tovushlar turli o‘zgarishlarga uchraydi: ba’zilari qisqa aytiladi, ayrimlari esa biri ikkinchisi tomonidan moslashtiriladi, assimilyatsiya qilinadi. Ba’zan ayrim tovushlar boshqacha shakl olishi yoki tushib qolishi, ba’zan esa yangi tovush paydo bo‘lishi mumkin. Nutq jarayonida sodir bo‘luvchi bunday o‘zgarishlar tovushlarning kombinator-pozitsion o‘zgarishlari deyiladi. Bunday fonetik hodisalar qatoriga assimilyatsiya, dissimilyatsiya, proteza, reduksiya, eliziya, metateza, apakopa, sinkopa kabi hodisalar kiradi. Ularning ko‘rinishlari, mohiyati, kelib chiqish sabablari turlichadir. Chunonchi, bunday hodisalarning sodir bo‘lishiga nutqda ixchamlikka intilish, bo‘g‘inga urg‘uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar kabi omillar sabab bo‘lishi mumkin.[4.71]

Keltirilgan fonetik hodisalarning ayrimlari turkiy tillarga tarixan xos bo‘lsa(singarmonizm), ayrimlari so‘z urg‘usining o‘rni bilan bog‘liq, ayrimlari o‘zbek tiliga rus tili va rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlar talaffuzi bilan bog‘liq.

So‘z tarkibidagi fonetik o‘garishlar, asosan, tovushlarning o‘zaro bir-biriga ta’siri natijasida yuz beradi. So‘zlarni talaffuz qilish jarayonida unlilar, jarangli va jarangsiz undoshlar ma’lum fonetik qonuniyat asosida bir-biriga o‘xshashlik yoki noo‘xshashlik tomon o‘zgaradi, natijada kombinator va pozitsion tovush o‘zgarishlari vujudga keladi. So‘z tarkibida yuz beradigan fonetik

o'zgarishlarga singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, tovush tushishi, tovush qo'shilishi, tovush o'zgarishi kabilar kiradi.[5.29]

Professor H. Jamolxonovning "O'zbek tilining nazariy fonetikasi" (2009) darsligida fonetik hodisalarning quyidagi asosiy turlari ko'rsatilgan:

I. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan o'zgarishlar (assimilyatsiya, akkomodatsiya, dissimilyatsiya, nazalizatsiya).

II. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar (reduksiya, so'z oxiridagi ochiq bo'ginda tor unilarning bir oz kengayishi, jarangli undoshlarning so'z oxirida jarangsizlanishi).

III. Turkiy so'zlarning an'anaviy fonetik tarkibiga moslashish hodisasi: (proteza, epenteza, epiteza).

IV. Fonetik hodisalarning boshqa turlari (prokopa, ankopa, sinkopa, apokopa, eliziya, sandxi hodisasi, aferezis, gaplologiya, metateza, geminatsiya, degeminatsiya, sinerezis, spirantizatsiya).

So'z tarkibida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar fonologik qimmatga ega bo'lmasa-da, morfonologik qimmatga egadir. Asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'z asosi fonologik tarkibida ro'y beradigan o'zgarishlar fuziya elementlaridan dalolat beradi.

Tovush yoki komponentning tushib qolishiga olib keladigan sabablar tilda tejamkorlikni ta'minlash bilan birga fonatsion energiyani tajash, ixchamlikka erishish omili bo'la oladi.

O'zbek adabiy tilida so'zlarning so'zlarning imlo va talaffuzida qonuniylashtirilgan bunday fonetik hodisalarni hozirgi davr og'zaki nutqi va shevalardagina emas so'z yasash, so'z asosiga turli qo'shimchalar qo'shilganda ham ko'rish mumkin. Demak, tilning uzoq o'tmishida mavjud bo'lgan hodisalar hech qachon izsiz yo'qolmaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Неъматов Ҳ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, Ўзбекистон, 1992.; Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. -Тошкент: Фан, 2009; Миртожиёв М. М. Ўзбек тили фонетикаси. -Тошкент: Фан, 2013.
2. Раҳмонов Н., Содиқов Қ. Ўзбек тили тарихи Т.2009. 77-б.
3. Ҳозирги ўзбек адабий тили I. Фонетика, лексикология, морфология. Тошкент, Фан, 1966.57-б
4. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 71-б
5. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, Ўзбекистон, 1992. 29-б.

#### KICHRAYTIRISH-ERKALASH SHAKLLARINING BOLALAR FOLKLORIDA QO'LLANILISHI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Yusupova Orziboni Sunnatovna,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichraytirish-erkalash shakllarining bolalar folklorida qo'llanilish xususiyatlari o'rganilgan. Kichraytirish, erkalash ma'nosini beradigan *-cha, -choq, -chak, -gina, -jon, -xon, -oy, -bek, -boy, -voy, -toy, -loq* kabi affiks va affiksoidlar alla, erkalash, ovutmachiq, bolalar aytishuvlarida nafaqat kichraytirish-erkalash, balki onaning bolasiga cheksiz mehr-muhabbatini ochib berish; erkalovchining holatini, ya'ni bolaga nisbatan samimiy munosabatini ifodalash; kichkintoyning ko'rinishini aks ettirish;

bolalarning bir-biriga o‘zaro hurmatini ko‘rsatish kabi vazifalarni bajarishi misollar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichraytirish-erkalash shakllari, alla, erkalash, ovutmachiq, emotsional-ekspressivlik, subyektiv munosabat.

**Abstract:** In this article, the characteristics of the use of diminutive-caressing forms in children's folklore are studied. Affixes and affixoids such as -cha, -chak, -chok, -gina, -jan, -khan, -oy, -bek, -boy, -woy, -toy, -lok, which mean to shrink, caress, alla, caress, in children's play, not only petting, but also revealing the mother's infinite love for her child; express the state of the caresser, that is, her sincere attitude towards the child; reflect the appearance of a baby; children's performance of tasks such as showing mutual respect to each other is analyzed on the basis of examples.

**Key words:** diminutive-caressing forms, alla, caressing, flirting, emotional-expressiveness, subjective attitude.

**Аннотация:** В данной статье изучаются особенности употребления уменьшительно-ласкательных форм в детском фольклоре. Аффиксы и аффиксоиды, такие как -ча, -чак, -гина, -джан, -хан, -ой, -бек, -бой, -вой, -той, -лок которые используются не только в колыбельных, в детской игре, поощрения, но и проявления бесконечной любви матери к своему ребёнку; выразить состояние ласкателя, то есть его искреннее отношение к ребёнку, отражать внешний вид малыша. На основе примеров анализируется выполнение детьми таких заданий, как проявление взаимного уважения друг к другу.

**Ключевые слова:** уменьшительно-ласкательные форма, колыбельная, ласка, эмоциональная выразительность, субъективное отношение.

Xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan xalq qo‘shiq-lari, bolalar folklori, xalq dostonlari, asotir va miqlar, ertak va masallar, maqol va matallar, topishmoqlar, tez aytishlar – barchasi o‘ziga xos til xususiyatlari bilan ajralib tursa-da, jonli xalq tilining barcha ko‘rinishlarini o‘zida aks ettirishi bilan umumiylik kasb etadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqlarida aytgan quyidagi fikrlari mulohazalarimizning yaqqol isbotidir: “Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiq-lariga quloq tutsin” [1]. Darhaqiqat, umumxalq tiliga xos bo‘lgan tabiiylik, jonlilik, samimiylik va emotsional-ekspressivlik hamda turli modal munosabatlar xalq og‘zaki ijodiga tegishli barcha janrlarda mavjud. Bundan tashqari tilimizning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda ham xalq og‘zaki ijodi namunalariga tayanamiz. Folklor namunalarining til xususiyatlarini o‘rganish orqali boy va ko‘hna tilimizning nutqiy jarayonda qanday foydalanilganini, tilimizda mavjud bo‘lgan barcha birliklar qay tarzda shakllangani va qanday vazifaga bo‘ysundirilganligini bilib olishimiz mumkin. Chunki “Folklor tili – muttasil harakatdagi jonli so‘zlashuv tili bo‘lib, hamma zamonlarda ham adabiy tilning boyish manbayi bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi”[4. –B.32]. Shu sababdan o‘ziga xos modal munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladigan -cha, -choq, -chak, -gina, -jon, -xon, -oy, -bek, -boy, -voy, -toy, -loq kabi kichraytirish-erkalash shakllarining bolalar folklorida qay tarzda ishtirok etishi va qanday subyektiv munosabatlarni ifodalashini o‘rganishga harakat qildik. Dastlab kuzatishlardan shuni aytish kerakki, bu affiks va affiksoidlar xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan aksariyat janrlarda mavjud. Biroq janr talabi bilan ayrimlarida juda faol qo‘llanilgan hamda ma’lum

lingvopoetik vazifa bajargan. Masalan, bolalar folkloriga xos bo‘lgan “Alla”, “Erkalash”, “Ovutmachiq” kabilarda bu affikslarning qo‘llanishi juda zarur. Bu qo‘shimchalar onaning bolaga bo‘lgan qaynoq mehrini, bolaning yoqimtoy ko‘rinishi, jajji qomati, samimiy, odamga zavq bag‘ishlaydigan harakatlari, holati, shirin tili va shu kabi jarayonlarni ochib berishga xizmat qilgan. “Alla” qo‘shig‘ida *-jon, -xon, -cha, -choq, -gina* affikslari suyish, erkalash kabi subyektiv modallikni ifodalash uchun qo‘llanilgan: Zero, “Alla – onaning farzandi bilan his-tuyg‘ular orqali munosabatda bo‘lish vositasidir. Ular lirik asarlar sifatida kuylovchilarning ichki kechinmalarini ifodalaydi”[4. –B.229]. *Kela qolsin allasi-yo, alla-yo, / Dadajonisining bolasi-yo, alla, / Dadajoni qayga ketdi-yo, alla, / Onajonisin lolasi-yo, alla* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 29). Bolaga alla aytayotgan onalar mehri jo‘shib, turli narsa, o‘simlik, jonivor va parrandalarni o‘xshatish o‘rnida qo‘llagan. Ammo shunchaki ularning nomini qo‘llamasdan, kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari, egalik qo‘shimchasini qo‘shishgan va bu qo‘shimchalar turli narsa, o‘simlik, jonivor va parrandalar aynan onaning go‘dagi uchun qo‘llayotganini, xoslikni ifodalashga xizmat qilgan: *Ko‘ldagi o‘rdakkinam, alla, Cho‘ldagi churrakkinam, alla, Bulbulim, g‘o‘rrakkinam, alla, Sho‘x toychog‘im, alla, Alla-yo, alla* (36); *Jon bolam, erkatoyim, / Bulbulginam, alla. / Uxlab qolsin shu oyim, / Sumbulginam, alla. / Onajonisi gulbog‘i, alla, / Erkatoyginam, alla. / Otajonisi zo‘r tog‘i, alla, / Yop-yorug‘ oyginam, alla* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 37). Ba‘zan suyish, erkalash ma‘nosidagi so‘zlar va ularga qo‘shilgan subyektiv baho shakllari bolaning qizcha yoki o‘g‘ilcha ekanligini ham ifodalagan: *Alla deb tebratay oyimchani, Alla deb uxlatay begimchani*. (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 35). “Alla” qo‘shig‘ida ko‘pincha bola so‘ziga *-jon* qo‘shimchasi qo‘shilgan va onaning bolasiga cheksiz mehr-muhabbatini ochib berishga xizmat qilgan. Shu bilan birga allaning ayrim namunalarida bola ismiga *jon, -xon, -oy, -bek, -boy* kabi subyektiv baho shakllari qo‘shilgan: *Shirin bolam, alla, / Jonu dilim, alla, / Taxti ravonim bo‘lsin, / Ota-onasi kulsin, / Mavludajonim, alla* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 35).

Yosh bolalarni suyish qo‘shiqlari – “Erkalamalar”da kichraytirish-erkalash affikslari janr talabi bilan juda faol qo‘llanilgan. “Erkalamalar” matnidagi bu qo‘shimchalar olib tashlansa, subyektiv munosabat yo‘qolib, qo‘shiqning mazmun-mohiyati ham butunlay o‘zgaradi: *Munchagina, tunchagina, / Kunchagina, shunchagina, / Yashnab turgan g‘unchagina*. (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 58). Haqiqatan ham erkalama mazmunini o‘zida tashiyotgan, qo‘shiqning qofiya, ohangdorligini ta‘minlayotgan vosita ham mana shu qo‘shimchalar sanaladi: Quyidagi “Erkalama” misralariga e‘tibor qarataylik: *Shuginagina kim ekan o‘zi, / Shuginagina –puchuqchami, / Shuginagina – kuchukchami, / Shuginagina –mushukchami, Shuginagina shirin puchuqchami, / Yoki shumshuk, shumshukchami?! (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 58). Endi bu misralardagi kichraytirish-erkalash qo‘shimchalarini olib, qaytadan o‘qiylik-chi: Shu kim ekan o‘zi, / Shu –puchuq, / Shu – kuchuk, / Shu –mushuk, Shu shirin puchuq, / Yoki shumshuk, shumshukmi?! Bu holatda bolani erkalash, suyish emas, haqoratlashga yaqin holat yuz beradi, mazmun yo‘qoladi. Quyidagi “Erkalamalar”da esa *-cha* kichraytirish-erkalash qo‘shimchasi nafaqat erkalash, suyish ma‘nosida qo‘llanilmoqda, balki erkalovchining holatini, kichkintoyning ko‘rinishini aks ettirmoqda: *Baybay ekan ko‘ylakchasi, / Ko‘ylakchasi, mo‘ylakchasi, / Chiqa qolsin mo‘ylabchasi*. (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 60); *Mishiqcham-o, mishiqcham, Mishiqchamdan aylanay, Mishiqcham-o, puchuqcham, Puchuqchamdan aylanay, Mishiqcham-o, mushukcham, Mushukchamdan, aylanay* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 61); *Sadqaman-u sadqaman, Shu qizchaga sadqaman, Qirmizchaga sadqaman, Ko‘zchasi og‘rib qopti. Endi boray qatga man*. (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.*

Boychechak”, 79). “Erkalama”larda nafaqat *-cha, -gina* affikslari, balki *-jon, -xon, -toy* kabi affikslar ham bola yaqinlarining bolaga nisbatan samimiy munosabati, suyib erkalashlarini ifodalaydi: *Muharramxon – podsho qiz, Oshga qoshiq, nonga tuz. Muharramxonim – jonim, Asalli nonim.* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 70); *Akbarjonim shu joyi, Bozorda xolli toyi. Kokillari tilloyi, O‘zim aylanayin, iloyi* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 72).

Bolalar folklorlaridan biri “Ovutmachiq”larda ham subyektiv baho shakllari faol qo‘llaniladi: *Obov-obov, qizginaginam, Mendan qolar izginaginam, Obov-obov, shugina obov, Jonim obov, qizginam obov!* (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Boychechak”, 83); *Alitoyning beshigi, toldan emas, archadan. Alitoyning o‘ziyam / Esli bola barchadan* (“Chittigul”, 30). Bunday paytda bu shakllar erkalash ma‘nosini kuchaytiradi va bolani ovutayotgan buvi yoki onaning qalb kechinmalarini to‘liq aks ettirishga xizmat qiladi.

Bolalarga xos og‘zaki ijod namunalaridan biri “Aytishuvlar”da ham subyektiv baho shakllari, ayniqsa, o‘zida hurmat ma‘nosini ifodalaydigan *-jon, -xon* kabilar faol qo‘llaniladi. Bu bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat bo‘lishi zarurligini (garchi nomi “Aytishuv” bo‘lsa-da) eslatish vazifasini bajaradi: – *Salimjon, Salimjon!– Labbay. – Betingizmi yo qozonning kuyasimi? – Halimjon, Halimjon!– Hovva. – Burningizmi, voyvayakning uyasimi? – Salimjon, Salimjon! – Labbay. – Qulog‘ingizmi, yerto‘laning eshigimi? – Halimjon, Halimjon! – Hovva. – Ko‘zingizmi yo po‘stakning teshigimi?* (“Chittigul”, 31); *Sottivoy sotdi.— Nimani sotdi? — Otini sotdi. — Sottivoy sotdi. — Nimani sotdi? — Molini sotdi.* (“Chittigul”, 32). So‘z aytishayotgan bolalar ismiga bu qo‘shimchalarning qo‘shilayotgani bolalar o‘z gaplarini shunchaki bolalar o‘yini yo‘lida aytayotgani va bir-birlarini kamsitib, mazax qilmayotganlaridan darak beradi. Shuning uchun bu qo‘shiq bolalar qo‘shig‘i sifatida og‘izdan og‘izga o‘tib, barchaga xizmat qiladi: *Umidaxon oy, O‘ng qo‘lida choy./ Chap qo‘lida non./ Voy, lablarida loy!../ Ozodaxon oy, Rost qo‘limda choy./ Chap qo‘limda qand, Hoy, labimdagi moy!..* (“Chittigul”, 33).

Xullas, kichraytirish-erkalash shakllari xalq og‘zaki ijodi turlaridan biri – bolalar folklorida juda faol. Ayniqsa, “Alla”, “Erkalash”, “Ovutmachiq” kabilarda bu affikslarning qo‘llanishi juda zarur. Bu qo‘shimchalar nafaqat kichraytirish, erkalash, suyish, e‘zozlash ma‘nolarini ifodalashga xizmat qiladi, balki onaning bolaga bo‘lgan qaynoq mehrini, bolaning yoqimtoy ko‘rinishi, jajji qomati, samimiy, odamga zavq bag‘ishlaydigan harakatlari, holati, shirin tili va shu kabi jarayonlarni ochib berishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://xs.uz/uz/> – **Toshkent, 2019.**
2. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуги. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
3. Karimov S. O‘zbek tilining morfologik stilistikasi. – Samarqand: Fan bulog‘i, 2022.
4. Madayev O., Jo‘rayev M., Sobitova T., Muxitdinova N. O‘zbek folklori. – Toshkent: “Zebo Print”, 2022. – B.32.
5. Читтигул. (Нашрга тайёрловчилар: Йўлдош Султонов, Насимхон Раҳмонов, Шомирза Турдимов). – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
6. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Кўп томлик. Бойчечак. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
7. Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980.



## НАМАНГАН ШЕВАЛАРИДА ЭТНИК РУДИМЕНТЛАР

*Иброҳим Дарвишов,*

*Наманган давлат университети доценти, PhD*

*(Ўзбекистон)*

**Аннотация:** Мақолада Наманган вилоятидаги шеваларнинг этнослар билан боғлиқлиги ҳақидаги фикр ва мулоҳазалар баён қилинган.

**Калит сўзлар:** Этнос, этнолингвистик жараёнлар, этногенезис, этник таркиб, уруғ-қабилла, миллат, диалект, этногенетик ва этнографик хусусият

**Аннотация:** В статье изложены мнения и комментарии о связи говоров Наманганской области с этносами.

**Ключевые слова:** этнос, этнолингвистические процессы, этногенез, этнический состав, род-племя, нация, диалект, этногенетическая и этнографическая характеристика.

**Abstract:** The article contains opinions and comments on the connection of the dialects of the Namangan region with ethnic groups.

**Key words:** Key words and concepts: ethnos, ethnolinguistic processes, ethnogenesis, ethnic composition, clan-tribe, nation, dialect, ethnogenetic and ethnographic characteristics.

Аввало, рудимент (қолдик) истилоҳига тўхталиш лозим. Рудимент – бу эволюция жараёнида эскирган ва қайтадан шаклланган генетик мерос. Минглаб йиллар олдин мавжуд бўлган ва ҳозирги тил (шева) жараёнларида жамият аъзоларининг яшаши ва ўзаро мулоқот – нутқий алоқаларида ёрдам берадиган ижобий ва қулай фаолиятлар йиғиндиси, тил (шевалан)да фонетик, лексик ва грамматик шаклларнинг тарихий ёки ўзгарган ҳолатларда қўлланишидир. Тил асосий этник белги бўлганлиги учун шеваларда лисоний ва нутқий этник унсур – элементларнинг сақланиб ва фойдаланиб келинишининг ижтимоий ва индивидуал кўринишидир. Масалан, форс-тожик, араб, хитой, мўғул тилларидаги лисоний шаклларнинг ўзбек тилида мавжудлиги, этноснинг асосий белгиси бўлган тилидаги шаклларнинг тил ва шеваларда сақланиб келаётган жараёнларидир.

Тарихдан аёнки, ўзбек, қорақалпоқ, тожик, уйғур, қирғиз, қозоқ ва туркман каби халқларнинг аجدодлари Марказий Осиё ҳудудида асрлар давомида ёнма-ён, аралаш яшаб келган. Дарҳақиқат, ҳар қандай этник ва этномаданий алоқалар, аввало, тилда ўз аксини топади. Шунинг учун ҳам муайян этноснинг тилида юз бераётган ўзгаришлар этнолингвистик жараёнлар сифатида талқин қилинади. Зеро, этнолингвистик жараёнлар тиллараро муносабатлар, алоқалар ва турли мустақил тилларни ўзаро бир-бирига таъсир этиши каби жиҳатларини ҳам қамраб олади. Наманган шеваларининг этногенезидаги ана шу жараён турли қардош ва ноқардош тил вакилларининг бир-бирлари билан қадимдан иқтисодий ва маданий алоқада бўлганликларининг тарихий, амалий натижасидир.

Наманган ҳудудида яшовчи аҳоли тарихини қадимги Мунчоқтепа (Поп тумани), Ахсикент (Тўрақўрғон тумани) маданияти тарихидан ажратиб қараш асло мумкин эмас. Фарғона водийси қадим-қадимдан маданият марказларидан, барча соҳаларда цивилизация ўчоқларидан бўлганлиги тарихий манба ва илмий асосланган фикрлардан маълум [8.312; 9.17; 5.218; 13.81; 14.96; 15.68; 2.49].

Ўзбек халқи ва ўзбек миллий тилининг шаклланишида кўпгина этник гуруҳларнинг иштирок этгани маълум. Ўзбек миллати ўз этник таркибининг серқирра ва мураккаблилиги

билан бошқа туркий халқлардан ажралиб туради. Бу ҳол ўзбек тилининг кўп шеваги тил бўлишига ҳам асос бўлган [16.310.16].

Худудда қадимдан туркий уруғлардан қорақалпоқ, урганжи, элатан, ўлмас, катта ўлмас, қиёт, курама, сарой, катағон, олчин, қораёнтоқ, мадёр (монжор), момохон, найман, қозоқ, бешсерка (Мингбулоқ т.), бешсари (Поп т.), кенагас, тўда, қирчин, уйғур, керайит кабиларнинг истиқомат қилгани қишлоқ номларида, яъни этнотопонимлардан ҳам яққол кўриниб туради.

Муайян бир худудда кечаётган этнослараро тил муносабатларнинг ривожланиш даражаси ва кўлами кўп жиҳатдан мазкур худуд аҳолисининг этник таркибига боғлиқ бўлади. Маълумки, турли этник жамоалар орасидаги ўзаро этник муносабатлар этносларнинг аралаш ёки ёнма ён яшайдиган худудларда қизғин кечади [2.47]. Наманган шевалари ареали ҳам қадимдан айнан шундай этномулоқот худуди ҳисобланади.

Қадимдан Наманган худуди аҳолисининг асосий қисмини ўзбеклар, тожиклар ва қирғизлар ташкил қилган. Бундан ташқари, ушбу диалектал ареалда тарихнинг турли босқичларида кўчиб келиб, ўрнашиб қолган кўплаб турли этнос вакиллари [2.40] авлодлари ҳам истиқомат қиладилар.

Ўзбек тарихчи олимларимизнинг, хусусан, профессор Улуғбек Абдуллаевнинг Фарғона водийсидаги этнослараро жараёнлар ҳақидаги фикрларига асосан, Наманган диалектал ареали уч этник қатламнинг ўзаро биргаликдаги ҳаёт тарзи, кундалик мулоқот ва алоқа-аралашуви маҳсули – ҳосиласи сифатида қуйидаги мураккаб этнолингвистик жараёнлар орқали [15.109,114,116; 2.10,12] шаклланган:

1. Этник компонентлари узоқ этногенетик ассимиляция (қоришув) натижасида шаклланган эрон тилли халқлар билан туркий этносли шаҳар ва қишлоқ аҳолиси. Улар қадимдан ўтроқ яшаб, деҳқончилик, хунармандчилик ва савдо-сотик билан шуғулланиб келган. Уруғ-қабилаларга бўлинмаган. Рус тилидаги адабиётларда аҳолининг бу қатламга нисбатан “сорт” атамаси қўлланган. (“Сорт” атамаси Марказий Осиё минтақасининг бир қатор худудларида, хусусан, Фарғона водийсида, Тошкент, Хорзам воҳасида яшаган ўтроқ аҳолига нисбатан кўчманчи ва ярим кўчманчи халқлар томонидан берилган номдир [13.67]. Ҳозирда ҳам маҳаллий тил вакиллари бир-бирини сорт ва қоролпоқ (қорақалпоқ) тарзида фарқлайди.

2. Илмий адабиётларда “илк қабилалар” деб аталувчи аҳоли вакиллари. Улар Дашти Қипчоқ ўзбеклари кириб келгунига қадар ҳам Марказий Осиёнинг марказий ва турли худудларида, жумладан, Фарғона водийсида яшаб келган турк ва турк-мўғул қабилаларининг авлодлари вакиллари ҳисобланади. Ушбу этник қатламга мансуб қарлук, яғма, чигил, ашпар, чоғрак, қовчин, жалоир, барлос, найман, хитой, қора хитой, баҳрин, тоғай, балиқчи, арғин қабилалари Фарғона водийсида нисбатан кўпчиликни ташкил қилган. XIX-XX аср бошларида мазкур қабилалар умумий бир ном, яъни “турк” этноними билан аталган [3.404-405; 4.71-74].

3. Кейинги даврларда Фарғона водийсига кўчиб келган Дашти Қипчоқ қабилалари вакиллари қипчоқ ва қорақалпоқ уруғлари, чунончи, қирқ, кенегас, чиял (чаяли), катағон, сарой, курама, манғит, қозоқ, урганжи, элатан, ўлмас, катта ўлмас, қиёт, курама, сарой, катағон, олчин, қораёнтоқ, мадёр (монжор), момохон, найман, қозоқ, бешсерка, бешсари, кенагас, тўда, қирчин, уйғур, керайит (бугунги кунда Мингбулоқ тумани Гуртепа қишлоғида Керайит маҳалласи маҳалласи бор. Уларнинг қабристонини “Ғариблар қабристонини” деб аталади) ва бошқалар ўзбек халқи, қолаверса, ўзбек халқининг ажралмас қисми бўлган

Наманган вилояти худуди аҳолисининг шаклланишидаги учинчи йирик этник қатлам ҳисобланади.

Тилшунос олим Худойберди Донёров ҳаққоний таъкидланганидек: “Ўзбек миллатининг сон ва таркиб жиҳатидан энг катта компонентини қипчоқ – ўзбеклар ташкил этади. Бу компонентнинг асосий қисми тарихий хронологик нуқтаи назардан ўзбек миллатининг таркибига энг кейин қўшилган, лекин айна вақтда бутун миллат аъзоларининг ягона ва умумий номи бўлиб қолган “Ўзбек” номини ҳам шу компонент олиб келган” [6.81; 1.115].

Сирдарёнинг ўрта оқида яшаб турган қорақалпоқларнинг катта бир гуруҳи XVIII асрда Фарғона водийсига кўчиб ўтганлиги хусусида илмий манбаларда қайдлар мавжуд. Кўчиб ўтган қорақалпоқларнинг аксарияти водийнинг Сирдарё ва Қорадарё қирғоқларидаги худудларига жойлашган ва Андижондан то Қўқонгача бўлган худудларда ўтроқлаша бориб, ўзларининг қатор қишлоқларини барпо этган [7.9; 12.87; 2.40,60].

Тарихчи олим С.С.Губаева ҳам Фарғона водийсида жойлашган бир неча қорақалпоқ қишлоқларини кўрсатиб ўтади. Хусусан, Андижон вилоятида: Дарломон, Найман, Қипчоқ, Соҳоват, Шеркўрғон, Дўнгсарой, Хўжаобод, Хавос, Буғази (Бобоғози); Наманган вилоятида: Гуртева, (Гуртепа), Бешкапа, Чордара, (Чордона), Қорақалпоқ; Фарғона вилоятида: Тақали, Қипчоқ, Сойбўйи, Қорақалпоқ, Қипчоқ ва бошқалар.

Гарчи, водий қорақалпоқлари Хоразм воҳасида яшовчи қорақалпоқлар каби мураккаб уруғ-қабилавий тузилишга эга бўлмасалар-да, ҳар ҳолда тадқиқотчилар водий худудидаги қорақалпоқлар ҳам бир неча уруғлардан иборат эканликларини қайд этганлар. Хусусан, Фарғона қорақалпоқларини махсус ўрганган Л.С.Толстова водийда манғит, кенегес, қипчоқ, кўнғирот каби қорақалпоқ уруғлари яшаганликлари, улар ўз ўрнида бир қанча майда қавмларга бўлинганликларини таъкидлайди [12.27,35]. Масалан, олим таъкидлаган, шуйит, хитой-қипчоқ, момохон, бессари, уйручи, найман, кенегес, уруғларининг вакиллари ҳозирда ҳам Наманган вилоятининг кўплаб худудларида истиқомат қилиб келмоқда. Уларнинг қишлоқлари ҳам ўз уруғлари номи билан аталади.

Тарихчи олим У.Абдуллаев 1909 йилда нашр этилган “Фарғона вилояти аҳоли жойлари рўйхати”да ....чуит (шуйит), уюрчи, ...кенегез, найман... каби қорақалпоқ уруғларининг номи билан аталувчи аҳоли манзилгоҳлари кўрсатиб ўтилганлигини таъкидлайди [2.67].

Дарҳақиқат, тил ҳар бир этносни бошқа бир этнодан ажратиш турувчи муҳим ва асосий белгидир. Этнос назариясига кўра ҳам тил этносни белгилаб турувчи асосий белгилардан ҳисобланади. Айна вақтда тил кишиларнинг асосий алоқа воситаси сифатида улар ўртасидаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларни белгиловчи, уларни юзага чиқарувчи ҳамда ана шу муносабатлар орқали ривожланувчи ижтимоий табиатга эга ҳодисадир.

Маълумки, этнос шаклланиши жараёнида ҳар бир этнога хос тил тараққий этиб боради. Муайян бир этнос бошқа этнос билан муносабатга киришар экан, аввало, ушбу муносабатлар натижаси уларнинг тилида ўз ифодасини топади.

Наманган вилояти худудида ҳам қадимдан яшаб келган турли этносларга мансуб халқлар ҳақидаги маълумотлардан диалектал ареалнинг ҳар бир гуруҳ шохобчаларида ана шу этник гуруҳларнинг тил унсурлари, этнографик белгилари кўзга ташланади [15.29; 17.19. 11.21].

Шуни тақрорлашга тўғри келадик, мазкур халқлар, бир гуруҳ шўро тарихчилари таъкидлаганларидек, фақат эрон тилларида сўзлашувчи халқлардангина иборат бўлмай, уларнинг катта бир гуруҳи туркий тилнинг турли лаҳжаларида гаплашганлар. Аниқроқ қилиб айтганда, бу худудларда антик ва илк ўрта асрларда туркий тилда сўзлашувчи халқлар

хам яшаб [2.264-285]<sup>13</sup>, улар минтақада кечаётган ижтимоий-иқтисодий ва маданий, жумладан, этнолингвистик жараёнларда фаол иштирок этганлар.

Фикр юритилаётган диалектал ҳудуд – Наманган вилояти ареалида ҳам этнослараро тил муносабатлари қадим даврларданок бошланган ва бу жараён асоси қуйидаги икки йўналишда ривожланиб борган: биринчи йўналишда тиллараро қоришув (метизация ҳолати) туркий тилнинг турли лаҳжаларида сўзлашувчи уруғ ва қабилалар ичида юз берган бўлса, иккинчисидан эса туркий тилли халқлар билан туркий бўлмаган этносларнинг тиллари ўртасида чатишув (гибридизациялашув ҳолати) содир бўлган.

Тарихдан аёнки, милоддан олдинги III асрда Сирдарёнинг ўрта оқимида Қанғ (Қанха) давлати ташкил топган эди. Бу давлат тарихда Кангуй номи билан ҳам маълум. Тадқиқотчилар ушбу давлат аҳолисини этник жиҳатдан бир хил бўлмаганлиги, давлат ҳудудида эрон тилли халқлар (хусусан, сўғдийлар, ассианлар, аслар) билан бирга туркий тилда сўзлашувчи этнослар ҳам яшаганликларини айтиб ўтадилар [5.249; 13.86; 14.68; 15.114]. Янги эра арафасида ушбу давлат аҳолиси икки тилда (эрон ва туркий тилларда) сўзлашганлар. Кейинроқ ушбу ҳудудга кўплаб туркий тилли этносларнинг кўчиб келиши натижасида, бу ерда туркий этник қатламнинг мавқеи ортиб борган, оқибатда аҳолининг туркийлашиши кучайган.

Туркий ва туркий бўлмаган этнослар орасидаги тил алоқалари илк ўрта асрларда ҳам кенгайиб борди. Бу даврда минтақанинг бир қатор ҳудудларида аҳоли туркий ва сўғд тилларида сўзлаган. Чунончи, Маҳмуд Кошғарий XI асрда Шарқий Туркистоннинг жанубидаги шаҳарларда шунингдек, Чу ва Талас водийсидаги аҳоли турк ва сўғд тилларида гаплашганликлари, аҳоли икки тилли бўлганлари ҳақида хабар беради. Унинг сўзларига кўра X-XI асрларда Шарқий Туркистондаги Баласоғун шаҳрида бир вақтнинг ўзида аҳоли ҳам туркча, ҳам сўғдча сўзлашганлар. Маҳмуд Кошғарий ўзининг “Туркий тиллар девони” асарида Баласоғундаги сўғдийлар ҳақида гапириб, “Бухоро ва Самарқанддан кўчиб борган сўғдоқлар Боласоғунда жойлашиб қолган ва туркийлашиб кетган” деб ёзган эди [8.28; 9.316].

Турли миллатларнинг бирикувидан таркиб топган Наманган вилояти аҳолиси учун азалдан икки тиллилик хос бўлган. XIX-XX аср бошларида водий ҳудудида ўзбек-тожик, ўзбек-уйғур, ўзбек-қирғиз ва ўзбек-қорақалпоқ икки тиллилик ҳолатлари кузатилади. Натижада юқоридаги икки тиллилик ҳодисаси ва уларнинг тарқалиш кўлами ҳудудда турлича бўлиб, бу ижтимоий ҳодисанинг содир бўлиши этник муҳит билан бевосита боғлиқ бўлган.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, шевалар халқимизнинг этногенетик, этнографик хусусиятлари ҳақида бошқа ҳеч бир манбадан олиб бўлмайдиган маълумотлар беради.

Туркий тиллараро қоришув (метизация) ва туркий халқлар билан туркий бўлмаган этносларнинг тиллари ўртасидаги муносабат (гибридизация) Наманган вилояти шевалари этнолингвистик жараёнларнинг асосий йўналишларини белгилаб берган.

Мазкур ареалдаги қипчоқ ва қарлуқ шева вакиллари ўз нутқида энг қадимги туркий ва эски ўзбек тили рудимент – унсурларини сақлаб келмоқда.

#### АДАБИЁТЛАР:

1. Абдиев М. Худойберди Донёров // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 115.

<sup>13</sup> Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). тарих фанл. докт. ...дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 264-285.

2. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этносларо жараёнлар (XIX-XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
3. Винников В.Р. Современное расселение народов и этнографических групп в Ферганской долине // СЭС. 1959. – Т. II. – С. 404-405.
4. Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 71-74.
5. Гумилев. Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007.
6. Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
7. Иногамов Ш.И. Этнический состав населения этнографическая Ферганской долины в границах УзССР: Автореф. дис. ...канд. истор. наук. – Ташкент, 1955.
8. Кошғарий Махмуд. Девону луғат-ит турк. I том. – Тошкент, 1960-1963.
9. Кошғарий Махмуд. Девону луғат-ит турк. Индекс – луғат. – Тошкент: Фан, 1967.
10. Марқаев К.Ш. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2008.
11. Спришевский В.И. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963.
12. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959.
13. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001.
14. Шониёзов К. Қарлуқ қабиласи ва унинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – № 4. – Тошкент, 1962.– Б. 48.
15. Шониёзов К. Канғ давлати ва канғлилар. – Тошкент: Фан, 1990.
16. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2012.
17. Ишандадаев Д. Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз яшанинг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро таъсири масаласига доир). Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1967.

## BUXORO O‘G‘UZ SHEVALARIDA SO‘Z BIRIKMASI QO‘LLANISHI

*Allaberdiev Alijon,  
NavDPI dotsenti, PhD*

**Annotatsiya:** Maqolada Buxoro o‘g‘uz shevalarida so‘z birikmalarining qo‘llanishi va ularda sintaktik hamda morfologik xususiyatlarining ifodalanishi tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** moshlashuv, boshqaruv, bitishuv, tobe qism, hokim so‘z, kelishik, kategoriya, morfologik ko‘rsatkich, ko‘makchi.

**Abstract:** The article analyzes the use of word combinations in the Oghuz dialects of Bukhara and the expression of their syntactic and morphological features.

**Key words:** conjugation, control, contiguous, subordinate part, governing word, agreement, category, morphological index, auxiliary.

Buxoro o‘g‘uz shevalarida so‘z birikmalari o‘zbek adabiy tilidan tubdan farq qilmaydi. Biroq ba‘zi o‘rinlarda fonetik, morfologik xususiyatiga ko‘ra kelishik va ko‘makchilarning shevadagi rang-barangligi bilan adabiy tilidan farqli tomonlari mavjud. So‘z birikmasi tarkibidagi

grammatik shakllar bog‘lanishi tobelanish orqali yuzaga keladi. So‘z birikmasi tobelanishiga ko‘ra 3 xil ko‘rinishga ega: moslashuv, boshqaruv va bitishuv.

**Moslashuv.** Tobe qism vazifasidagi so‘zning o‘z shaklini hokim qism shakliga moslashib kelishi moslashuv deyiladi. Bunda hokim so‘z tarkibida egalik qo‘shimchasi, tobe so‘z tarkibida qaratqich kelishigi ishtirok etadi. Shevada hokim so‘z tarkibida -m, -im, -im, -miz, -miz, -imiz, -imiz, -n, -in, -in, -iniz, -iniz, -i, -i, -lari, -lari qo‘shimchalari bo‘lsa, tobe so‘z tarkibida -in, -in, -nin, -nin qaratqich qo‘shimchalari keladi: menin inegim (mening sigirim), bizarin mi:ymonimiz (bizning mehmonimiz), mektevin aktivi (maktab faoli), otamin giyimlari (otamning kiyimlari), silarin kitovlaringiz (sizlarning kitoblaringiz), traxtirin bolti (traktorning bolti), bovamiznin qadri (bobomizning qadri), yerqanatın elisi (ko‘rshapalak o‘ligi), deryonin oxiri (daryoning yakuni), senin derdin (sening darding) kabi.

Buxoro o‘g‘uz shevalarida qaratqich bilan qaralmish moslashuvida qismlarning shaxsda moslashishi doimiy bo‘lib, sonda moslashuvi qat‘iy emas: oyin tırzası (uyning derazasi) de:qonin nəsəsi (dehqonning narsasi) (birlik+birlik), beçələrın pikirleri (bolalarning fikrlari), ülərın xalilari (ularning gilamlari) (ko‘plik + ko‘plik) kabi. Bunda qaratqich va qaralmish shaxs va sonda bir-biriga moslashgan. Ammo doimo bu fikrga qo‘shilib bo‘lavermaydi: qoyınların yemi (qo‘ylarning yemi), odamların nevvati (odamlarning navbati) (ko‘plik + birlik), döstümün mälleri (do‘stimning mollari), mektevin işçileri (maktabning ishchilari) (birlik + ko‘plik) kabi.

Odatda, shevada qaratqichli birikmada tobe qism qaratqich kelishigi affiksi variantlari, hokim qism egalik affikslari bilan shakllanib, predmet, harakat, belgining kimga yoki nimaga qarashliligi yoki taalluqli ekanligi ma‘nosini bildiradi. Ba‘zan tobe qism belgisiz qo‘llanishi ham kuzatiladi: xalq dərđi (xalq dardi), yürək əmrı (yurak amri), yürt täləvi (yurt talabi) kabi. Shuningdek, tobe qism kishilik olmoshlarining ko‘plikdagi I va II shaxs ko‘pligi bilan ifodalanganda hokim qism ham belgisiz qo‘llanadi: bızın öy (bizning uy), sızın ğışlaq (sizning qishloq), bızın imərət (bizning imorat), sızın göylək (sizning kuylak) kabi.

Buxoro o‘g‘uz shevalarida qaratqich va qaralmish munosabati vaqt o‘tishi bilan ikkila qismning belgisiz qo‘llanishi bilan qo‘shma so‘zga aylanib qolgan: eşek derlik (eshakning usti yopincho‘gi), küçük yalaq (it ovqatlanadigan tovog‘i), nən yenlik (non yepishda ishlatadigan yengsa), döm terrek (oftobga qo‘yilib pishadigan qovun) kabi.

**Boshqaruv.** Bunda “aloqada tobe so‘z hokim so‘zning talabi bilan ma‘lum forma shaklga kiradi: tobe so‘z yo biror kelishik qo‘shimchasini oladi, yo biror ko‘makchi bilan birga keladi. Shunga qarab, boshqaruv aloqasi ikki turga ajraladi: kelishikli boshqaruv va ko‘makchili boshqaruv. Kelishikli boshqaruvda tobe so‘z hokim so‘zning talabi bilan tushum, jo‘nalish, o‘rinpayt va chiqish kelishiklaridan birida qo‘llanadi”<sup>1</sup>. Boshqaruv yo‘li bilan so‘z birikmasini yuzaga kelishi, grammatik ko‘rsatkichlarning fonetik tomonini inobatga olmaganda, Buxoro o‘g‘uz shevalarida adabiy tildagi holat bilan tubdan farq qilmaydi. Shevada boshqaruvli birikmalar ikki ko‘rinishda ya‘ni, kelishiklar va ko‘makchilar orqali hosil qilinadi. Bunda kelishik va ko‘makchi tobe so‘z tarkibida kelsa, hokim so‘z tarkibida asosan fe‘lning -moq shaklida bo‘ladi. Boshqaruv aloqasida tobe so‘z ot yoki ot so‘z turkumi o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlardan, harakat nomi va sifatoshdan tashkil topadi. Hokim so‘z vazifasida esa ko‘pincha fe‘l qo‘llanadi. Biroq bu vazifada ot, sifat, ravish va boshqa turkumidagi so‘zlar ham ishtirok etishi mumkin. Biroq shevada ko‘proq hokim so‘z harakat nomi bilan ifodalanadi. Bu holatda hokim so‘zning o‘zgarishi tobe so‘zga ta‘sir qilmaydi.

<sup>1</sup> Хаммуаллифлар. Ҳозирги адабий ўзбек тили (Синтаксис). – Тошкент, Фан., II том.– 1976. 14-бет.

**Kelishikli boshqaruv.** Bunda tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari ishtirok etadi.

1. Tushum kelishigi. Shevada bu kelishikning turli variantlari mavjud bo‘lib, so‘zning oxiri undoshlardan tashkil topgan bo‘lsa -i, -i shakllari, agar so‘z oxiridagi tovushlar unli bilan tugasa -ni, -ni shakllari qo‘shiladi: yerni a‘gdari‘sh (yerni ag‘darmoq), qovuni do‘gri‘sh (qovunni to‘g‘rash), lattani yirtish (lattani yirtish), xatasini ayitmok (xatosini aytmoq) kabi. Shuningdek, tushum kelishigi shakli belgisiz ham qo‘llanadi: piyoz kovli‘sh (piyoz kovlash), paxta teri‘sh (paxta terish), loy qari‘sh (loy qorish), qoyin qirqi‘sh (qo‘y qirqish) kabi.

2. Jo‘nalish kelishigi. O‘zbek adabiy tili va shevalarida jo‘nalish kelishigining variantlari ko‘p tarqalganligi bilan ajralib turadi. Shevada tobe so‘z tarkibida keluvchi jo‘nalish kelishigi -o, -a, -ga, -ka, -qa, -ga, -ge, -yo, -ya, -no, -na qo‘shimchalari bilan ifodalanadi. Hokim so‘z ot va ot so‘z turkumi o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z hamda fe‘l so‘z turkumi tegishli so‘zlar bilan qo‘llanadi: kelo qaramaq (ko‘lga qaramoq), Samarqanta gitmak (Samarqandga ketmoq), ge‘chiga suv vermok (echkiga suv bermok), takka degmak (tokka tekmoq (uzum), oloqqa yem bermok (uloqqa yem bermok), issi‘ga qolmaq (issiq qolmoq), qi‘shge varadi (qishga boradi), e‘shige dik (eshikka tik), ge‘zage ayotti (kechaga aytdi), yaxtiya ‘chiqmaq (yorug‘ga chiqmoq), so‘zga ‘chechan (so‘zga chechan), de‘shariya qaramaq (tashqariga qaramoq), elin degmak (qo‘liga tegmoq), qavulina girmok (qabuliga kirmok) kabi.

Bu kelishik atab qo‘yilgan o‘rin-joyga yo‘nalish ma‘nosini ifodalaganda belgisiz ham ishlatiladi: Buxoro gitmak (Buxoro ketmoq), Ta‘shkent barmaq (Toshkent bormok) kabi.

O‘rin-payt kelishigi. Shevada tobe so‘z tarkibida bu kelishikning -do, -da, -to, -ta variantlari uchraydi. Hokim so‘z tarkibi esa o‘zbek adabiy tilidagi qo‘llanishdan farq qilmaydi. Bunda hokim so‘z lug‘aviy ma‘noga ega barcha turkumlar, jumladan, fe‘l turkumi bilan ko‘proq ifodalanadi: sovuqda qalmaq (sovuqda qolmoq), yerdə işli‘sh (yerdə ishlash), nerdə gormok (qayerda ko‘rmoq), xayatta bilmok (hayotda bilmoq), no‘vvatto‘durmek (navbatda turmoq), yaxtida gitmak (yorug‘likda ketmoq) kabi.

Chiqish kelishigi. Shevada chiqish kelishigi -don, -dan, -ton, -tan, -non, -nan qo‘shimchalari ifodalanib, tobe so‘z tarkibida keladi. Hokim so‘z barcha lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lgan bilan kela oladi: xemmadan kattə (hammadan katta), g‘i‘shlaqtan g‘aytti (qishloqdan qaytdi), nonnon timsol (nondan timsol), gu‘ldon g‘orimli (guldan chiroyli), baxtinan gormek (baxtidan ko‘rmoq), yurekdan yaqin (yurakdan yaqin), olimnon beter (o‘limdan battar) kabi.

**Ko‘makchili boshqaruv.** Analitik yo‘l bilan so‘z birikmalarini shakllantiruvchi ko‘makchilar adabiy tilda bo‘lganidek, o‘zbek shevalari, jumladan, Buxoro o‘g‘uz shevalarida ham boshqaruvli birikmalarni shakllanishida faol ishtirok etadi. Ko‘makchilar tobe so‘z tarkibida bo‘lsa, hokim so‘z turli lug‘aviy ma‘no ifodalaydigan so‘zlar bilan qo‘llanadi. Shevada bilon (bilo, vilon), uchun, orqali, boyi, tagi, usti, kabi, qadar, tomon, tarap, old, orqa, on, ortə, ora, tag, ust, depə (tepa), ıç, ıçarı, de‘shari kabi ko‘makchilar bilan boshqaruvli birikmalar hosil qilinadi: sen vilon qalmaq (sen bilan qolmoq), ozim uchun gormok (o‘zim uchun ko‘rmoq), gep orqali bilmok (gap orqali bilmoq), demir kebi qatti (temir kabi qattiq), gun boyi qalmaq (kun bo‘yi qolmoq), yuregin tegi yoman (yuraging tagi yomon), g‘iyvat ustinda tartishmak (g‘iybat ustida tortishmoq), sen tomon yugurmok (sen tomon yugurmoq), xavardan de‘shari gelmek (xabardan tashqari kelmoq) kabi.

**Bitishuv.** Bu so‘z birikmasi ohang yordamida yuzaga keladi. “Bitishuv aloqasida hokim so‘z o‘z formasini o‘zgartirsa ham, tobe so‘z o‘z formasini o‘zgartirmaydi. Bu tobe so‘zning leksik-grammatik xususiyati bilan belgilanadi. O‘zbek tilida tobe element odatda kategorial xususiyatiga

ko'ra morfologik jihatdan o'zgaraydigan so'z turkumidan bo'ladi"<sup>1</sup>. Bosh so'zga birikib kelgan tobe qismning qaysi so'z turkumiga oid ekanligiga qarab yoki ifoda qurilishiga ko'ra, Buxoro o'g'uz shevalarida bitishuv so'z birikmasini quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Ot + ot. Otlı birikmalar tizimda keng tarqalgan turlardan biri ikki otning qo'shimchasiz birikuvidir. Bunda tobe so'z tizimi sifatida birinchi o'rında, hokim so'z esa ikkinchi o'rında keladi. Bu holatda grammatik jihatdan o'zgaruvchi hokim so'zdir, ya'ni kelishik, egalik va ko'plik qo'shimchalaridan, birortasini (yoki uchulasi ham) qabul qilishi mumkin. Tobe so'z shaklan ot turkumiga taalluqli bo'ladi, biroq ma'nosi tomonidan va grammatik vazifasiga ko'ra sifat turkumiga juda yaqin keladi: demır odam (temir odam), kəsə gəz (kosa ko'z), tovşən yürək (quyon yurak), demır daraq (temir taraq), xətın mıxəz (xotin mijoz), erkək şədi (erkak shodi) kabi.

2. Olmosh + ot. Olmoshlarning barcha turlari ham hokim so'z bilan (ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan) birikvermaydi. Olmoshlardan faqat so'roq, ko'rsatish, belgilash olmoshlari (kam holatda bo'lishsizlik olmoshi yasashda qatnashuvchi hech shakli) otga birikadi: xəmmə ovvə (hamma mahalla), bütın elət (butun yurt), xıç odam (hech odam), nəçə darəx (qancha daraxt), şə qız (shu qiz), nəçə nırx (qancha narx), şünney bax (shunday baxt), bü taxdır (bu taqdir) kabi.

3. Son + ot. Shevada bu bog'lanishdagi bitishuvli birikmaga son turkumiga tegishli bo'lgan quyidagi turlar kiradi: ən qoyın (o'n qo'y), ətı məşın (olti mashina), beşınçı əriq (beshinchi ariq), ən beştəçə yağaç (o'n beshtacha yog'och), yığırətədən kəş (yigirmatadan qator), beştələr dən (beshtalar chopon), üstə dəvrəkərpəçə (uchta davrako'rpacha) kabi.

4. Sifat + ot. So'z birikmalari tizimida eng keng tarqalgan tur sifat va otning bitishuv yo'li bilan birikishidir: geçgi oqat (kechgi ovqat), əğır meynət (og'ir mehnat), məşi pışık (moshrang mushuk), qızıl tovuq (qizil tovuq), ırı odam (yirik odam), sovuq xova (sovuq havo), kattə ımərat (katta hovli), geñ pe:l (keng fe'l), ıslı gıyım (hidli kiyim), nədınç ğışləq (notinch qishloq), kesel ınək (kasal), aži dana (achchiq danak), çırəyılı mektev (chiroyli maktab) kabi.

5. Sifatdosh + ot. Fe'ning vazifadosh shakllaridan sifatdoshning ayrim qo'shimchalari ham ot bilan bitishuvli birikma hosil qiladi. Bu qo'shimchalardan faol turlari -gən, -an, -ən, -ayotgan, -ədıgən, -ar, -ər, -žaq ayniqsa ajralib turadi: gelən xavar (kelgan xabar), qolan nan (qolgan non), aytgən ğıyz (aytgan qiz), qalayotgan nərsələr (qolayotgan narsalar), bılədıgən aqsaqal (biladigan oqsoqol), aqar sūv (oqar suv), bıtər ış (bitar ish), gelžaq yıl (kelajak yıl) kabi.

6. Ravish + ot. Shevada bu qolipdagi so'zlarning bitishuv yo'li bilan birikuvi ham mavjud: kəp mevə-çevə (ko'p meva-cheva), məl dəvlət (mol davlat), nəçə xızmatkər (qancha xizmatkor), bıççı toxum (ozgina urug'), şünçelli ğovğə (shunchalik g'avg'o), qıttı döz (qittay tuz) kabi.

7. Ravishdosh + fe'l. Bitishuvning bu ko'rinishi nisbatan kam tarqalgan bo'lib, adabiy tildan deyarli farq qilmaydi. Bunda ravishdoshning -ıp, -ıp (adabiy tildagi -b shakli) shakllari ishtirok etadi: žəşıp gəpırmək (jo'shib gapirmoq), yığlap əytmək (yig'lab aytmoq), çuğullap yəzmək (chaqimchilik qilib aytmək) kabi.

8. Ravish + fe'l. Fe'ning -moq shakli orqali ifodalanadigan ravış + fe'l ko'rinishidagi bitishuv qolipi keng tarqalganligi bilan ajralib turadi: əz ıymək (oz yemoq), yaxşı gərmək (yaxshi ko'rmoq), yəyəv ğıtmək (yayov ketmoq), ələxıdə yəşəmək (alohida yashamoq), qəronıdə qovməq (qorong'ida qolmoq), pıyədə qəlmaq (piyoda qolmoq) kabi.

Xulosa qilganda, Buxoro o'g'uz shevalarida so'z birikmalari qo'llanishida sintaktik qurilishi o'zbek adabiy tilidan farq qilmasa-da, morfologik (sintaktik munosabat ifodalovchi) affikslarning ishtirok etishi ko'pgina o'rinlarda farqlanishi kuzatiladi.

<sup>1</sup> Хаммуаллифлар. Ҳозирги адабий ўзбек тили (Синтаксис). – Тошкент, Фан., II том.– 1976. 16-бет.



### Unli va undoshlar transkripsiyasi:

ı – til oldi unlisi, ĩ – til orqa unlisi, ü – til oldi unlisi, u – til orqa unlisi, ə – til oldi unlisi, a – til orqa unlisi, ø – til oldi unlisi, o – til oldi unlisi, e – til oldi unlisi, ɔ – til orqa unlisi, ğ – g<sup>ç</sup> undoshi, n – ng undoshi, ç – ch undoshi, ş – sh undoshi.

### ADABIYOTLAR

1. Abdullayev F.A. Xorazm şevalari. II luğat. Xorazm şevalarining tasnifi. – Toşkent: O‘zFA nashr., 1961. – 348 b.
2. Abdullayev F. Qarnoq şevasining fonetikasidan// O‘zbek tili va adabiyoti, 1965. – №6. – B.16–22.
3. Abdullayev F.A. O‘zbek tilining o‘ğuz lahjasi. –Toşkent: Fan, 1978. –144-b.
4. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: 2008. 62-bet.
5. Аразкулиев С. Говорі туркмен Турткулского раёна Каракалпакской АССР. Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Ашгабат, 1962. – 30 сах.
6. Muhammadjonov Q. Janubiy Qozoğistondagi o‘zbek şevalari. – Toşkent: Fan, 1981. 44-bet;
7. Türkmen diliniң sözlügi. – Aşgabat: İlim, 1962. – 866 сах.
8. Şихиев А. Говорі туркмен Бухарской области Узбекской ССР. Автореф. дисс...канд. филол. наук. –Аşхабад, 1983. – 23 с.

### GRAMMATIK TERMINOLOGIYA TIZIMINING RIVOJLANISH OMILLARI

*Botirova Adiba Erkinovna,*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, f.f.f.d.(PhD)*

**Annotatsiya:** maqolada grammatik terminologiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi, terminologiyaning keng qatlami, shuningdek, lingvistik terminlar va grammatik terminlarning izohli lug‘atlarda aks etishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** grammatik terminlar, lingvistik terminlar, grammatik lug‘atlar, alliteratsiya, ta’limiy korpus.

**Аннотация:** В статье рассматривается становление, развитие системы грамматической терминологии, широкий пласт терминологии, а также отражение лингвистических терминов и грамматических терминов в толковых словарях.

**Ключевые слова:** грамматические термины, лингвистические термины, грамматические словари, аллитерация, учебный корпус.

**Abstract:** The article discusses the formation and development of a system of grammatical terminology, a wide range of terminology, as well as the reflection of linguistic terms and grammatical terms in explanatory dictionaries.

**Keywords:** grammatical terms, linguistic terms, grammatical dictionaries, alliteration, academic building.

Til tizimi va tuzilishi tilning o‘zgarishi va rivojlanishiga asos bo‘luvchi jarayonlarning nomlari, til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi atamalarda o‘z aksini topadi. Shakl va mazmuni tashkil etuvchi komponentlarning nomlari; til maъnolarining turlari nomlari; tilning ijtimoiy hodisa sifatida tasvirlovchi atama birliklari; tilning kelib chiqish nazariyasining kengayishini aks ettiruvchi nomlar ham grammatik terminlarda ifoda qilinadi. Til nazariyasining

atama va tushunchalari asosida invariant va o'zgaruvchan birliklar bo'lgan graf va grafema, fon va fonema, morf va morfema, leks va leksema va boshqalar o'rtasida izchillik bilan farq qiladi.

Falsafa atamaları zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda falsafiy muammolarni faollashtirish bilan bog'liq holda lug'atga falsafiy va, xususan, falsafiy va lingvistik aspektlarda talqin etilgan mantiqiy terminlar kiritiladi. Bularga, birinchi navbatda, jins, tur, tur-tur abstraktsiya, "til materiyasi" va boshqa tushunchalar kiradi. Bu guruhga quyidagicha izohlanadigan logos (logos) atamasi kiradi. Logos [boshqa-yunon. λογος so'z; tushunchasi; o'yladim; aqli]. Qadimgi Yunonistonda so'z logos polisemantik bo'lgan va ma'nosi: 1) umuman inson so'zi; 2) suhbat, hukm, maqol, tartib, qaror; 3) fantastik ertak yoki realistik hikoya; 4) dramada: aktyorlar dialogi; 5) matematikada: hisoblash; 5) falsafada: umumbashariy qonun, dunyoning asosi, dunyo aqli, qaysi tabiat va inson itoat etadigan, Xudoning kalomi[1:24].

"Xorijiy so'z va iboralarning eng yangi lug'ati"da [M.; Mn., 2002], logotiplar quyidagicha talqin qilinadi: "1) boshqacha aytganda – grekcha materialistik falsafada (masalan, Heraklitus) olamiy tartiblilik, olamiy ma'nodoshlik, birinchi olov tamoyili bilan aniqlangan borliqning ritmi va mutanosibligi; 2) idealistik falsafada (Platondan boshlab) ruhiy ibtido, ilohiy aql; 3) stoitsizm da Kosmos eterik-olovli ruhi va shakl hosil qiluvchi potentsiyalar, narsalar xristianlikda kelib chiqadi; 4) genetik jihatdan bir semantik uyani ifodalovchi, tegishli maqolalarda bayon etilgan atamalarning butun doirasi unga qaytadi: mantiq, mantiqiy, mantiqiy nutq, mantiqiy nutq ochiq, mantiqiy nutq kontseptual, mantiqiy nutq mavzusi, mantiqiy badiiy nutq, logogramma, logokloniya, taqdimot va boshqalar.

Falsafiy terminologiyaning keng qatlami, shuningdek, diniy kelib chiqishga qaytish lingvistik tadqiqotlarda, xususan, epistemologiya, sotsiologiya va matn etikasida yanada faollashgan diniy va tasavvufiy so'z birikmalaridan foydalanishga olib keldi. Shu munosabat bilan lug'atga bag'ishlangan lug'at yozuvlari kiritilgan: 1) ilohiyot (ilohiyot); 2) apologetika (Xudo haqidagi bayonotlar haqiqatini himoya qiluvchi ta'limot); 3) homiletika (xutbalar nazariyasi va amaliyoti); 4) dogmatika (aqida dogmalari ekspozitsiyasi); 5) tafsir (diniy matnlarni sharhlash) tilshunoslikda tadqiqot metodlarini nomlovchi atama leksemalar alohida lug'aviy yozuvlarda ham, metodlar tizimini ixcham shaklda qamrab olishga imkon beruvchi umumlashtiruvchi sxemalarda ham keltirilgan (tavsifiy metod, qiyosiy-tarixiy metod, tarixiy-qiyosiy metod). Lingvistik-stilistik terminologiya funktsional uslublarning axborot modellari: ilmiy, rasmiy-biznes, jurnalistik, so'zlashuv, adabiy uslub yordamida guruhlanadi[3:12].

Funktsional stilistikaning ko'pchilik atamaları funktsional-stilistik invariant prizmasi va uning funktsional uslublarining axborot modellari modifikatsiyalari va ularning sub'ektiv usublari: ilmiy, jurnalistik, rasmiy-biznes va boshqalar orqali talqin etiladi. Shu bilan birga, uslub: 1) resurs stilistikasi; 2) adabiy stilistika; 3) matn stilistikasi; 4) amaliy stilistika kabi sohalar bilan ham ifodalanadi. Bu sohalar (manbalar stilistikasi, amaliy stilistika) adabiyotshunoslik terminlarining an'naviy aspektida talqin etiladi. Adabiy stilistikaning atama va tushunchalari lingvistik tadqiqotlarda so'nggi o'n yillikda faollashtirilgan, shuning uchun ham ular lug'atga kiritilgan, ular adabiy va lingvistik aspektlarda (metafora, anafora, kinoya, metonimiya va boshqalar) talqin qilinadi. Matn tilshunosligi atamaları matn stilistikasi, germenevtika atamalaridan izchil ajralib turadi.

Matn tilshunosligi tushunchalarini ta'riflashda: izchillik (matn izchilligi); paydo bo'lish (ma'no orttirilishi) kabi kategoriyalarga alohida e'tibor beriladi; risolasi / retrospektsiya, keyin germenevtik terminlar talqini muallifning kongenialligi g'oyasi va matn tarjimoni, "germenevtik doira" tushunchasiga asoslanadi, lug'at, matn epistemologiyasi, etikasi va sotsiologiyasi

tushunchalari izchil farqlanib, mustaqil semantik sohalarning tarkibiy qismlari sifatida ta'riflanadi[4:25].

Matn lingvistikasi atamaları, shuningdek, lingvistik stilistik terminlar keltirilgan: a) ravish, tavsif, mulohazalarning axborot modellarida; b) har bir alohida atamaga bag'ishlangan lug'at yozuvlarida aks etadi. Mavjud izohli lug'atlarda lingvistik terminlar, grammatik terminlar kompleks tarzda berilmaydi. Quyidagi namunaga e'tibor berilsa, unda alliteratsiyaga tegishli ko'plab terminlar jamlanganini kuzatish mumkin:

ALMASHINUV ALLITERATSIYASI. Matn hosil qiluvchi ma'noga ega bo'lgan adabiy matnda undoshlarning takrorlanishi. To'liq alliteratsiya bilan bir xil tovushlar takrorlanadi, to'liqsiz alliteratsiya bilan har xil tovushlar takrorlanadi.

ALLOGRAM. Og'zaki yoki iborali iboralar sifatida ishlatiladigan har qanday harf belgilari: 1) son; 2) paragraf.

ALLOGRAF (ALLOGRAF). 1. Grafik versiya, grafemaning o'ziga xos ko'rinishi: [dup] [oaks]. 2. Almashinuvchi harf belgilari: a) bosma yoki qo'lyozma; b) kichik yoki katta. Normalangan standart versiyasidan farq qiluvchi tilning mahalliy versiyasi. A. maktabda o'qitish mavzusi emas. Allolektlar o'rtasidagi farqlar turli allolektlar ma'ruzachilarining muloqot va o'zaro tushunishlariga to'sqinlik qilmaydi.

ALLOMORF. Bir xil morflar: 1) so'z formasidagi mavqeiga ko'ra; 2) qo'shni morflarning sifatiga qarab; 3) qo'shimcha taqsimot munosabatlarida bo'lishiga ko'ra farqlanadi.

ALLONAYM. Variant nomlari va geografik ob'ektlar: Leningrad, Sankt-Peterburg; Georgi Jora.

ALLOSEMA. Sememaning bir varianti, uning o'ziga xos xilma-xilligi nutq kontekstida amalga oshadi.

ALLOFON [gr. allofon + telefon ovozi]. Fonemaning muhitga bog'liq varianti. Masalan, "mal" so'zida "a" fonemasining orqa allofoni, "mal" so'zida esa "a" fonemasining oldingi allofoni.

ALLOFREN talaffuz qilinadi. Ibora, iboralar yoki jumlaning bir varianti: yurak quvonadi. Ko'ngil quvonadi.

ALLOETNONIM. Boshqa xalqlar tomonidan berilgan etnik guruhning nomi (o'zbek: German qabilalarini qo'shni qilish uchun nemislar nomi).

ALLUSION [fr. allusion hazil, ishora < lat. Tease, ishora] uchun Alludere. Shunga o'xshash ovozli so'z yoki haqiqatni eslatib o'tish orqali stilistik raqam, ifoda yoki ishora. Gazeta-jurnalistik uslubda adabiy allyuziyalarning turli xil turlari qo'llaniladi: 1) adabiy eslatmalar; 2) olimlar, madaniyat arboblari, siyosatchilar va boshqa taniqli odamlarning bayonotlarini o'zgartirish; 3) bibleizmlar (faktlar, ismlar, Injil yoki xushxabardan iboralar); 4) mashhur qo'shiqlardan olingan parchalar, shu jumladan, o'zgartirilgan; 5) kino va ulardan olingan mashhur iboralar; 6) o'zgartirilgan; 7) kontekstga nisbatan o'zgargan badiiy asarlarning nomlari.

BADIY NUTQDA ALOGIZM. 1) badiiy nutqda mantiqning namoyon bo'lish xususiyatlaridan biri. Matnning ifodaliligini maksimal darajada oshirish va bu borada maxsus badiiy ma'no berish maqsadida lisoniy vositalar yordamida yaratilgan ma'noning qasddan illogikligidan iborat: "go'zal injiqlik", "lekin men tez orada ularning chirkin go'zalligi sirini angladim" va hokazo. 2) mantiqiy nutqning axborot modeli elementlaridan biri, badiiy nutqda lisoniy vositalarning faoliyat xususiyatlari haqida ta'limiy axborot olib boradi.

ALOGIZM. Asoslangan uslubiy qurilma: 1) matndagi mantiqiy bog'lanishlarni qasddan buzish; 2) og'zaki ortiqcha; 3) hayotning turli sohalardan, uslublardan va nutqiy vaziyatlardagi tushunchalarni majburlash. A. kinoya, kulguli ta'sir belgilari nutq xususiyatlarini yaratish uchun

ishlatiladi. Alifbo [“alfa” va “beta” (“vita”ning o‘rta yunoncha talaffuzida)]. Grek alfavitining dastlabki ikki harfi, ulardan maълum tartibda tuzilgan tilning yozma shaklidagi harflar majmui hisoblanadi.

**LUG‘ATDA SO‘ZLARNING ALFAVIT ICHMA-ICH JOYLASHISHI.** Bu bir-biriga chambarchas bog‘liq so‘zlarning bir lug‘at yozuvida birikib kelish usuli.

**LUG‘ATDA SO‘ZLARNI ALIFBO TARTIBIDA JOYLASHTIRISH.** Alifbo tartibida joylashtirilgan har bir so‘z lug‘at yozuviga ega bo‘lgan so‘zlarning bu tartibga solinishi, jumladan, so‘zning maъno zonasi, uning grammatik xususiyatlari, stilistik belgilari haqidagi maълumotlar, so‘zlarning nutqda ishlatilishiga misollar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. [Lotin: al’ternativ almashinishi, o‘zgartirish]

**ALTERNANT.** A. variant, baъzi muqobil qator aъzosi. **ALMASHINISHI** [<lat. alternatio]. So‘z va qo‘shimchalarning

asoslarida fonemalar (yoki grafemalar)ning o‘zgarishi.

Mazkur lug‘at shakli anъanaviy bo‘lib, alifbo tartibidagi lug‘atlar qog‘oz variant uchun nihoyatda qulay, bugungi internet rivojlangan sharoitda esa bu unchalik muhim emas. Taъlimiy korpus ishga tushgandan so‘ng dasturning o‘zi qidiruv operatsion tizimi orqali topib bera oladi.

Grammatik o‘quv lug‘atlarni taъlimiy korpusga moslash uchun lug‘at tarkibini nutqiy kompetentsiyani rivojlantiruvchi qisimga asosiy eъtiborni qaratishi lozim bo‘ladi. Bunda dastlabki vazifa, albatta, grammatik terminlar masalasi bilan bog‘liq muammolarning echimini topish bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatova G. O‘zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Termiz, 2021. – 142 b.

2. Mengliev B.R. Lisoniy tizim yaxlitligida sathlararo munosabatlar: Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2002. – 47 b.

3. Nigmatova L. O‘zbek tilida privativlik (nofonologik sathlar): Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 20 b.

4. Hamraeva Yo. O‘zbek tilining o‘quv ideografik lug‘atini yaratish tamoyillari: Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. – T., 2010. – 24 b.

5. Xoliyorov O‘. O‘zbek tili taъlimiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol.fan.bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. – Termiz, 2021. – 147 b.

6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2002. – 168 b.

## **MA’DANSHUNOSLIK TERMINLARI BADIYLIKNI HOSIL QILUVCHI KONNOTATIV VOSITA SIFATIDA**

***Ernazarova Gulnoza Murodovna,  
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)***

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ma’danshunoslik terminlarining badiiy matnlarda konnotativ ma’no hosil qiluvchi vosita sifatida qo‘llanishi misollar asosida yoritib berildi.

**Аннотация.** В данной статье на основе примеров было объяснено использование минералогических терминов в художественных текстах как средства создания коннотативного значения.

**Annotation.** In this article, based on examples, the use of mineralogical terms in literary texts as a means of creating connotative meaning was explained.

**Kalit soʻzlar:** Maʼdanhunoslik terminlari, konnotativ maʼno, badiiy matn, maʼno imkoniyati, lisoniy birliklar, uslubiy xususiyat.

**Ключевые слова:** Минералогические термины, коннотативное значение, художественный текст, возможность значения, языковые единицы, стилистический признак.

**Keywords:** Mineralogical terms, connotative meaning, artistic text, possibility of meaning, linguistic units, stylistic feature.

Hozirgi davrda oʻzbek tilshunosligida sohaviy terminlar turli aspektlarda oʻrganilmoqda. Bu holat tilshunoslikka kirib kelgan zamonaviy tadqiq usullari, ilm-fan sohalarining taraqqiyoti, fan yutuqlarining ishlab chiqarishga tatbiq etilishi kabi omillar bilan bevosita bogʻliq.

Maʼlumki, oʻzbek maʼdanhunosligi terminologiyasi sohaning eng qadimiy va boy qatlamini tashkil etadi. Asrlar davomida oʻzining muayyan shakllanish va rivojlanish jarayonini oʻtgan terminologiyaning mazkur sohasi lugʻat tarkibining boyib borishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk allomalarimiz Xorazmiy, Farobiy, Fargʻoniy, Ibn Sino, Beruniy kabi oʻrta osiyolik olimlarning maʼdanhunoslikka oid dastlabki izlanishlar natijalari aks etgan asarlarida ham soha terminlari oʻz ifodasini topgan. Abu Rayhon Beruniyning “Mineralogiya”, yaʼni “Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi” asarlarida esa oltin, kumush, mis, temir, qalay, margimush, gavhar, zumrad, feruza singari yuzdan ortiq minerallar va maʼdanli toshlar qayd etilgan [1].

Mineralogiya sohasi qadimiy va boy tarixga ega boʻlganidek, uning terminologik birliklari ham rang-barang va oʻziga xos.

Tilshunoslikda terminlarning oʻziga xos xususiyatlari, ularning semantikasi va pragmatikasiga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar nafaqat dunyo miqyosida, xususan oʻzbek tilshunosligida ham keng koʻlamda tadqiq etilmoqda. Oʻzbek tilshunosligida terminshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlarda terminlarning badiiy matnda qoʻllanishi bilan bogʻliq holda yuzaga chiqadigan funksional-uslubiy xususiyatlari muayyan darajada oʻrganilgan. Jumladan, badiiy matnda qoʻllangan terminlarning uslubiy xususiyatlari dastlab H.Shamsiddinovning tadqiqotida yoritildi. [3]

Badiiy matnda qoʻllangan terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari D.Jamoliddinova tomonidan maxsus tadqiq etildi. Ushbu ishda oʻzbek tilidagi aniq va tabiiy fanlar hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlarining, shuningdek, kasb-hunar leksikasining badiiy matnda muayyan poetik-estetik maqsadlarda qoʻllanishi va matnning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishi aniq misollar asosida ochib berildi. [2]

Tadqiqotimiz obykti boʻlgan maʼdanhunoslik terminlarini ham badiiy matnda qoʻllanish xususiyatlarini tadqiq etish mazkur terminlarning boshqa uslublardagi oʻziga xos funksional-uslubiy jihatlarini aniqlashga, badiiy matnda obrazli tasvirlarni hosil qilishdagi ahamiyatini belgilashga imkon beradi. Terminlar matndan tashqarida lingvopoetik qimmatga ega boʻlmaydi, faqat matndagina uning asl maʼnosini anglash mumkin boʻladi. Lugʻat qatlamimizda maʼdanhunoslikka oid terminlar ancha sermahsul boʻlib, maʼno ifodalarga juda boy hisoblanadi. Ularda maʼno serqirralik, jilodorlik, oʻziga xos joziba ustuvorlik qiladi. Bu esa mazkur terminlarning yillar davomida maʼno imkoniyatlari tadrijiy ravishda rivojlanib kelishi bilan belgilanadi. Badiiy matnlarda maʼdanhunoslikka oid terminlar boshqa soha terminlaridan badiiylilikni hosil qiluvchi konnotativ vosita sifatida maʼno imkoniyatining turlichaligi, serjiloligi bilan ajralib turadi. Nutqimizda keng qoʻllanuvchi *aqiq, billur, gavhar, dur, oltin, kumush, zumrad* kabi soʻzlarning oʻnlab

ma'nolarda kela olishi lug'atlarda o'z aksini topgan. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ti"da *dur* so'zining so'zining 10 ga yaqin, *gavhar* so'zining ham bir qancha ma'no imkoniyati izohlanganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida nomi sanalgan ma'danshunoslik terminlarining ham keng ma'no ifodaga, imkoniyatlarga egaligini quyidagi misollar orqali yoritishga harakat qilamiz:

**DUR** [a. – marvarid, inju] 1 Injuning, gavharning yirik turi. [4] Xalq maqollarida "*Dono – durdan a'lo*". "*Gul tikansiz bo'lmas, Dur – sadafsiz*" kabi purhikmat lisoniy birliklarni uchratamiz. Konnotativ ma'nolarda esa bebaho yoki eng yaxshi, a'lo, sara narsalarni anglatadi. Masalan, *Yaxshilik shunday durr-u gavharki, uning bahosi hech qachon kamaymaydi.* (Gazetadan). *Har so'zi shirin-shakar dur qizlar.* ("Mushtum" jurnali). Poetik nutqda qimmatli, sermazmun, chuqur ma'noli so'z yoki she'r ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. *Men.. Navoiy "Xamsa" sining sarg'ish sahifalariga qarab olib yig'lardim, ko'z yoshlarim to'kilib, Navoiy tergan durlarga qorishardi.* (M. Ismoilov, "Farg'ona tong otguncha"). *Qiz so'zlasa, og'zidan dur sochilar, yor-yor.* ("Qo'shiqlar"). *Hangomada og'zidan dur sochibdi.* ("Yusuf va Ahmad"). Bundan tashqari yorug'lik, yog'du kabi konnotativ ma'nolarni ham o'zida aks ettiradi. *Quyosh separ nurlarin, yerga zarrin durlarin.* (Z.Diyor). Durning meva, samara, hosil; natija kabi ma'nolari ham mavjud. Otam hamisha: "Tajriba durini saralab ter", – derdilar. ("O'zbekiston qo'riqdari"). *Bag'ringga dur sochdi oltin paxtazor!* (G. Jo'rayeva, "Iqbol"). *Gul ochilib so'lguncha, Qurti o'radi ipak. Xalq etagi to'lguncha Dur to'kar etak-etak.* (Zulfiya "Yuragimga yaqin kishilar"). Xalq maqollarida durning boyluk, davlat; qut-baraka konnotativ semada ham qo'llanganligini uchratamiz. Masalan, *Ter to'ksang, dur olasan. Yerga chigit tushdi – dur tushdi deyishadi. Yoki Ter to'kildi – dur yetishtirildi.* (Gazetadan). *Dur suv va unga o'xshash tovlanuvchan narsalar (tomchi, shudring, qor uchqunlari)ni ham anglatadi. Ro'paramda sonsiz fontanlar, Qulog'idan dur yog'iladi.* (X. Saloh, "Chashma"). *Kechasi tushgan shudringga cho'milgan ko'm-ko'k maysalar xuddi dur to'kkandek charaqlab, quyosh bilan o'pishib tovlanadi* (O. Yoqubov, "Ota izidan").

Mumtoz asarlarda, jumladan, Navoiy asarlarida ham *дуррафшон, дуррафшона* kabi lisoniy birliklar *dur* sochuvchi ma'nosida konnotativ ma'noda esa *dur* sochuvchi; go'zal so'zlovchi ma'nolarini ifodalaydi. Bugungi kunda ham durafshon durdek yaltirab turadigan narsalarga nisbatan qo'llanadi. Masalan, O'rta Osiyoning qayrilma qoshi: *Biri – Amudaryo, biri – Sirdaryo. Yalt-yalt tebranadi tubida toshi, Yoqut yanglig' yoki durafshon go'yo* (T. To'la).

Badiiy asarlarda ijodkorlar voqelikni va personajlar ruhiy holatini kitobxon tafakkurida jonlantirish uchun pragmatik yukni terminlarga yuklaganining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, ma'danshunoslik terminlari poetik nutqqa ijodkorlar tomonidan kiritilib, ijodkor pragmatik maqsadini ro'yobga chiqarishda faol qo'llanganligini *gavhar* ma'danshunoslik termini misolida fikrimizni dalillaymiz.

**GAVHAR** [f.– qimmatbaho tosh; marvarid] 1 Tarashlab sayqal berilgan olmos; umuman qimmatbaho toshlarning umumiy nomi; javhar. *Qo'rdingmi? Bu nima? Mana bu – dur, mana bu – marvarid. Mana bu yongan – gavhar. Oybek, Tanlangan asarlar. Gavhar kosada suv tutib, qizlar qo'shiq aytib, Nuraliga parvona bo'la berdi.* "Nurali" [4].

Ma'danshunoslik terminlari orqali konnotativ semalar juda ko'p o'ziga xosliklar kasb etadi. Gavhar leksemasi qimmatli, bebaho, nodir narsalarga nisbatan, shuningdek, badiiy matnda turli emotsional va ekspressiv konnotatsiyalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

O'zbek xalq maqollarida ham *gavhar* qimmatli, bebaho, nodir narsa kabi konnotativ ma'no anglatishga xizmat qiladi. Masalan, *Yer – xazina, suv – gavhar. Gavhar xotin-qizlar*

ismini ham atab keladi. Anatomiciyada esa ko‘z gavhari, ya‘ni ko‘z qorachig‘i orqasida joylashgan, ikki tomoni qavariq linza shaklidagi tiniq tanacha ma‘nosida qo‘llanadi.

Ma‘dashunoslik terminlari badiiy matnda nutqning to‘la anglanishi uchun zaruriy axborotni berish, kitobxon uchun noaniq bo‘lgan o‘rinlarga aniqlik kiritish, tasvir tiniqligini ta‘minlash, his-tuyg‘ularni ifodalash va yana bir qancha tushunchalarni ifodalashda konnotativ vosita vazifasini o‘taydi. Tarixiy mavzudagi asarlarda ham gavharning juda ko‘p ma‘no qirralarini ifodalab kelganligini ko‘ramiz. Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” asarlarida gavharning turli konnotativ ma‘nolarda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *Hamidabonu ham Nigorxonadagi ajoyib rasmlardan olgan zavqini Tahmaspning o‘zi chizgan suratga qo‘shib gapirdi. Shoh bu maqtovlardan yayrab, erib turganda Humoyun bir chetda odob saqlab qo‘l qovushtirib turgan Mir Said Alini ko‘rsatdi-da: – Hazrat shahanshoh, sizning Nigorxonangiz bebaho gavharlar bilan to‘lmishdir, – dedi.* Bu o‘rinda gavhar san‘at asari, ya‘ni rasm ma‘nosini ifodalashga xizmat qilgan.

– *Irsiyat – noyob bir gavhardir. U avloddan avlodga butun hoida o‘tsagina yashab keta olgay. Agar yirik gavharni maydalab kukun qilib sochsangiz, uning gavharligi qolmagay... O‘rmonda arslonlarni ko‘rgansiz. Ota sher ona sherga qanchalik mehribon, qanchalik sodiq! Ana shu tufayli irsiyat gavhari bir nuqtaga jam bo‘lib, avloddan avlodga butun o‘tgay, so‘ng ota-onasiga munosib sherlar tug‘ulgay.* Bu o‘rinda irsiyatga nisbatan noyob gavhar shaklining qo‘llanishi orqali lisoniy birlikka bebaho ma‘nosini singdirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Gavhar so‘zi denotativ (ma‘dan nomi) ma‘nosida lingvistik birlik, ya‘ni predmet nomini atash vazifasini bajarayotgan bo‘lsa, o‘zining konnotativ ma‘nosi orqali bebaholik xususiyatini ochib berish uchun vosita bo‘lib kelgan.

Tahlil jarayonida, “gavhar” leksemasi ostida ongda mavjud bo‘lgan bilimlar, ya‘ni uning ma‘dan ekanligi, jins ma‘nosiga ega ekanligi, qimmatbaholigi va shu kabi ma‘nolari faollasha, ayni matnda shu so‘zning boshqa ma‘danlar orasidan tanlab olinishi gavharning boshqa ma‘danlardan ko‘ra qimmatbaholigi, tovlanishi so‘zlovchi ta‘riflamoqchi bo‘lgan voqelikka xos bo‘lgan xususiyatlar – asilligi, bebaholigi anglashiladi. Masalan, *Ilgari Akbar ko‘proq tanasini parvarishlar edi, endi bilsa nuqul otni boqib, suvorini och qoldirgan ekan. Hozir aksini qilib, yeyish-ichishdan o‘zini chekladi-yu, ma‘naviy oziq beradigan ilm-u asrorga, so‘fiylar va hind donishmandlari ta‘limotiga qayta-qayta sho‘ng‘ib, o‘ziga kerakli ma‘naviy gavharni izlashga tushdi.* Mazkur misolda gavharning konnotativ ma‘nosi ilm-u ma‘rifat tushunchasini ifodalashga xizmat qilgan bo‘lsa, quyidagi misollarda ilm-ma‘rifatli kishi ma‘nosini aks ettirgan.

*Uning saroyida “no‘hratan” ya‘ni “to‘qqiz gavhar” degan ibora mashhur bo‘lgan, fan, adabiyot va san‘atning to‘qqizta eng yorug‘ yulduzlari orasidan Abulfazol ham o‘rin olgan edi. Keksa G‘azaliy vafot etganda to‘qqiz gavharning sakkiztasi qoldi, lekin “no‘hratan” iborasi hamon iste‘molda edi.*

Xullas, terminlarni matn qurshovida tadqiq qilish, katta ustunlikka ega. Bunday yondashuv mazkur muammoning integral jihatlarini talqin qilishga, shu tariqa terminlarning lingvistik maqomini aniqlashga imkon beradi

Fikrimizni badiiy matnlarda qo‘llangan ma‘dashunoslik terminlari asosida hosil qilingan turli-tuman obrazli tasvirlar ham asoslaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Беруний. Минералогия. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. – 688 б.
2. Жамолитдинова Д. Бадий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан д-ри (DSc)... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 71 б.

3. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 1 - жилд.2006. –Б. 126.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд, Т.: ЎЗМЭ илмий нашриёти, 2006. – 785 б.

## KO‘P TILLI FRAZEOLOGIK LUG‘ATLARNING ZAMONAVIY ELEKTRON PLATFORMASINI YARATISH XUSUSIDA

*Rashidova Umida Mansurovna,  
Sh.Rashidov nomidagi SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti  
(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Mamlakatimizda o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning boshqa tillarga aynan yoki mazmuniy tarjimasini lisoniy jihatdan tahlil qilish hamda umumfoydalaniladigan lug‘atni yaratishga ehtiyoj mavjud. Qiyosiy lug‘at asosida ilmiy tadqiqot ishlari, statistik xulosalar olinishiga, turli kompyuter dasturlari bazalari yaratilishiga erishiladi. Yangi shakl va formatda yaratilgan ikki tilli, ko‘p tilli frazeologizmlarning zamonaviy lug‘ati kelajakda yangi avlod lug‘atlarining yaratilishiga zamin bo‘ladi. Shu bilan birga ko‘p tilli lug‘atlardan leksikografiya sohasida ta’limiy manba sifatida foydalaniladi.

**Kalit so‘zlar:** frazema, leksikografiya, frazeografiya, qiyosiy lug‘at, lingvistik ontologiya.

**Аннотация.** В нашей стране существует необходимость в лингвистическом анализе точного или содержательного перевода фразеологизмов с узбекского языка на другие языки, а также в создании универсального словаря. На основе сравнительного словаря проводятся научно-исследовательские работы, получаются статистические выводы, создаются различные базы компьютерных программ. Современный словарь двуязычных, многоязычных фразеологизмов, созданный в новой форме и формате, станет основой для создания словарей нового поколения в будущем. В то же время многоязычные словари используются в качестве образовательного ресурса в области лексикографии.

**Ключевые слова:** фразеология, лексикография, фразеографический словарь, сравнительный словарь, лингвистическая онтология.

**Abstract.** In our country, there is a need for a linguistic analysis of the exact or meaningful translation of phraseologisms in Uzbek into other languages, as well as the creation of a universal dictionary. On the basis of a comparative dictionary, scientific research work, statistical conclusions are obtained, various computer program bases are created. The modern dictionary of bilingual, multilingual phraseologisms, created in a new form and format, will become the basis for the creation of a new generation of dictionaries in the future. At the same time, multilingual dictionaries are used as an educational resource in the field of lexicography.

**Keywords:** phraseology, lexicography, phraseography, comparative dictionary, linguistic ontology.

O‘zbek frazeografiyasida hozircha mavjud lug‘atlarning ilk namunasi - “Nemischa-ruscha o‘zbekcha frazeologik lug‘at” yaratilgan[6]. Bu asar nemis va o‘zbek tillarida yozilgan qisqacha so‘z boshi, shartli qisqartmalar va lug‘at qismlarini o‘z ichiga oladi. “So‘z boshi”da qayd qilinishicha, bu lug‘atga uchala tilga doir bo‘lgan 700 dan ortiq turli xil tuzilishga ega bo‘lgan turg‘un so‘z birikmalari kiritilgan. Mualliflar bu asarni o‘quv lug‘ati deb hisoblaydilar: “O‘quv



frazeologik lug‘atda berilgan har bir nemis tilidagi turg‘un so‘z birikmasi avval o‘sha tilda talqin qilingan, so‘ngra uning o‘zbek va rus tillaridagi mos keluvchi muqobil tarjimalari berilgan. Ayrim ko‘p ma‘noli frazeologizmlarning ma‘nosi har uchala tilda ham ularning bir necha variantlari berilgan.

O‘quv lug‘atining maqsadi o‘quvchi va talabalarni/ng/ og‘zaki va yozma nutqini emotsional va ekspressiv til boyligidan foydalanishga qaratilgan bo‘lib, har bir frazeologizmning nutqda ifodalanishi rus va o‘zbek tiliga qilingan tarjimadan so‘ng nemis tilida turli xil gaplarda berilgan. Gaplar badiiy adabiyotlardan hamda og‘zaki nutq shakllaridan olingan”[6]. Lekin kitob sarlavhasida uning o‘quv lug‘ati ekanligi ta’kidlab ko‘rsatilmagan. Shuningdek kitobda faqat nemis tilidagi shartli qisqartmalar ro‘yxati berilgan, ishda qo‘llangan “razg.”, “peren.” kabi ruscha qisqartmalar esa bu ro‘yxatdan o‘rin olmagan. Bizningcha, lug‘atda o‘zbekcha muqobil frazemalarning ham shartli qisqartmalar asosida uslubiy xoslanishi ko‘rsatilishi lozim edi. Asarda nemischa frazemalar ko‘p hollarda ruscha va o‘zbekcha muqobil frazemalar bilan tarjima qilingan, ammo asarda bu tamoyilga doim ham amal qilinavermaydi. Masalan, nemischa Yiele Wenn und Aber frazemasini rus tiliga “многочисленные оговорки (или возражения)” deb, o‘zbek tiliga esa “ko‘p, har xil e’tirozlar” deb tarjima qilingan[3]. Bu frazemaning o‘zbek tilida “uzun-quloq gaplar”, “oldi-qochdi gap” singari muqobillari bor edi.

Ya.I.Kalontarovning “Tojik maqollari va ularning o‘zbekcha muqoyasasi”, “Uch xalqning hikmatlari” nomli asarlarini ham uch tilli frazeografik lug‘atning o‘ziga xos ko‘rinishi deyish mumkin [7]. Rus tilida yozilgan bu asarlarda dastlab tojik tilidagi maqol yoki matal tipidagi iboralar beriladi, ular rus tiliga tarjima qilinadi, keyinchalik o‘sha iboraning o‘zbekcha muqobili keltirilib, u ham ruschaga o‘giriladi, oxirida esa tojikcha va o‘zbekchaga mos, muqobil ruscha maqol yoki matallar beriladi. Lug‘at oxirida o‘zbekcha maqollarning alifbo ko‘rsatkichi keltirilgan.

Keyingi yillarda samarqandlik bir guruh frazeograf olimlar ham inglizcha-o‘zbekcha-ruscha qiyosiy frazeologik lug‘at tuzish ustida ish olib bormoqdalar[3]. Lekin bu ishlar hali nihoyasiga yetkazilmagan. Samarqand davlat chet tillar institutida esa prof.A.M.Bushuy rahbarligida o‘zbekcha-inglizcha-ruscha o‘quv frazeologik lug‘ati tuzilmoqda. Kelgusida o‘zbek frazeografiyasi tarixi yanada izchil va asosli o‘rganilishi lozim. Shunday qilinganda, yangidan-yangi frazeografik manbalar aniqlanadi hamda FBnlarni lug‘atlarda izohlash tamoyillarini aniqlashga kengroq imkon yaratiladi.

Rus va jahon tilshunosligida ko‘p tilli va ikki tilli frazeologik lug‘atlar yaratilgan. Masalan, AQSHda Vitek tomonidan 1973 yilda ruscha-inglizcha frazeologik lug‘at tuzilgan edi. Aynan shu yili (1973) Londonda “Ruscha-inglizcha idiomalar va barqaror birikmalarning katta lug‘ati” chop etilgan. Rus tilshunosligida esa 1980 yil Alexin tomonidan “Qisqa ruscha-inglizcha va inglizcha-ruscha frazeologik lug‘at” tuzildi. 1984 yil Kunin tomonidan inglizcha-ruscha frazeologizmlar lug‘ati nurr etilgan. Keyinchalik Rossiyada ruscha-inglizcha frazeologik lug‘atlar 1988, 1999, 1999 yillarda turli xil mualliflar tomonidan tuzildi.

2008 yilda Qozon Davlat universitetida Arsenyeva boshchiligida tadqiqotchilar tomonidan ikki tilliruscha-inglizcha-nemischa-turkcha-tatarcha frazeologik lug‘ati yaratildi. Lug‘at bir necha bor kengaytirildi va qayta nashr etildi.

Rus tilidagi 30784 frazemaning inglizcha tarjimasi onlayn tuzilgan <https://rus-eng-phraseology-dict.slovaronline.com/> saytida “Katta ruscha-inglizcha frazeologizmlar lug‘ati” nomi bilan keltirilgan. Shuningdek, <https://englishlib.org/dictionary/ru-en/знание.html> saytida tarjimon lug‘at bazasi bo‘lib, so‘zlarga ularning sinonimlari variant tarzida taqdim etiladi. tarjimon lug‘at bazasi bo‘lib, so‘zlarnigina tarjima qila oladi, ammo frazeologizmlarni tarjima qilishga

mo'ljallanmagan. <https://translate.google.com/> tarjimon tizimida ham shunday imkoniyatlarni ko'rish mumkin. Yuqoridagi lektron resurslarda asosiy e'tibor tarjimaga qaratilgan, frazeologizmlarning semantik ma'nosi, yaxlit bir butunlik ekani, ularning ma'nosi bir so'zga teng kelishi e'tibordan chetda qolgan. O'zbek tilidagi frazemaning boshqa tilga aynan tarjimasini qiluvchi onlayn dastur majud emas. Masalan, bir adib asari o'zbek tilidan boshqa tilga tarjima qilinganda tarjimon, albatta, ibora tarjimasida oqsaydi. Chunki aynan so'zma-so'z tarjima butunlay boshqa ma'noni anglatadi. Yaratilajak ikki tilli zamonaviy frazeologizmlar lug'ati shu imkoniyatlarni qamrab olishi jihatidan ilmiy, ta'limiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yaratilajak yangi o'zbek tili frazemalarining ko'p tilli, ikki tilli lug'atlari boshqa tillardagi elektron manbalardan farqli ravishda frazemalarning lisoniy, nutqiy va uslubiy jihatlari ham e'tiborga olinadi.

O'zbek tili frazeologizmlarining ikki tilli va ko'p tilli zamonaviy lug'atlar tuzishda quyidagi vazifalarni bajarish muhim sanaladi:

- 1) o'zbek adabiy tilida va shevalarida mavjud frazeologizmlar to'planadi va izohlanadi;
- 2) frazeologizmlarning kompyuter lingvistikasidagi ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi;
- 3) frazeologizmlar semantikasi tezaruslar yaratishga moslab izohlanadi;
- 4) frazeologizmlar etimologiyasi yoritiladi;
- 5) frazeologizmlarning ingliz tilidagi ekvivalentlari aniqlanadi;
- 6) frazeologik birliklar modellari yaratiladi;
- 7) korpusda grammatik va semantik izoh uchun frazeologizmlar maxsus teglar orqali ifodalanadi.
- 8) "O'zbek tili frazeologizmlarining ikki tilli zamonaviy lug'ati" tuziladi va uning mobil ilovasi hamda elektron platformasi yaratiladi.

O'zbek tili frazemalarining ikki va ko'p tilli lug'atlari Renessans davrida umumta'lim maktablari, kollej, lisey, oliy o'quv yurti talabalari, magistrleri va ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi ilm ahli, o'zbek tilini o'rganuvchi xorijliklar uchun qulaylik yaratadi. Shuningdek, yaratilajak platforma yordamida o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganishga qiziqish oshadi. Natijada yurtimizda turizm va madaniyatning rivojlanishiga omil bo'ladi. Shuningdek, platforma bazasi asosida yangi kompyuter dasturlarining yuzaga kelishi natijasida matnni qayta ishlash, tarjima imkoniyatlari yanada mukamallashadi. Bu, o'z navbatida, turli soha vakillarining import-eksport jarayonlaridagi iqtisodiy tejankorlikni, shu bilan birga tadbirkorlikni ham rivojlantiradi. Platformaga joylashtirilgan materiallar kitobxonlar saviyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, o'zbek lingvokulturologiyasi frazemalarga berilgan izohlar yordamida targ'ib qilinadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda o'zbek leksikografiyasida yangi avlod frazeologizmlarning ikki tilli, ko'p tilli zamonaviy lug'atlariga ehtiyoj mavjud. Xususan:

1) birinchidan, 1978, 1992 yillarda nashr ettirilgan Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tili frazeologizmlarining lug'ati"da o'zbek tilidagi barcha frazeologizmlar so'zlar qamrab olinmagan;

2) ikkinchidan, o'quvchilar, abituriyentlar, yozuvchilar, tarjimonlar va o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun zarur bo'lgan o'zbek tili frazeologizmlarining ikki tilli zamonaviy lug'atining mobil ilovasiga ehtiyoj mavjud;

3) uchinchidan, umum foydalanishga qulay bo'lgan frazemayzer dasturi va frazeologizmlar bazasi mavjud elektron platformani yaratish katta ahamiyat kasb etib, mamlakatimiz ta'lim sohasini yanada yuksaltirish hamda o'zbek tili imkoniyatlarini chet tiliga tarjima qilish orqali dunyoga ko'proq tanitish dolzarb masala sanaladi;

4) to'rtinchidan, o'zbek kompyuter lingvistikasi sohasi yutuqlaridan foydalangan holda

o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning ikki tillizamonoviy lug‘atining elektron platformasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday yaratilajak lug‘atlar va ularning mobil ilovasi o‘zbek tili boyligini nafaqat yurtimizda tahsil oladigan, balki xorijlik talabalar ommasiga ham keng targ‘ib qilishga imkoniyat beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. -Toshkent, 1992.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildik. -Toshkent, 2006.
3. Rashidova U. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko‘z, qo‘l va yurak komponentli iboralar misolida): Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. – Samarqand, 2018. – 52 b.
4. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
5. Abjalova M. (2021). The importance of language corpus in the construction of lexicographic sources. Current Research Journal Of Philological Sciences (2767-3758), 2(12), 161–166. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-12-https://masterjournals.com/index.php/crjps>
6. Умархўжаев М.И., Назаров К.Н. Немисча-русча-ўзбекча фразеологик луғат. - Т,: 1994. – Б. 147.
7. Калонтаров Я.И. Таджикские пословицы и поговорки в сравнении с узбекскими. - Душанбе, Дониш, 1969. - 434 с.; Калонтаров Я.И. Мудрость трех народов (таджикские, узбекские, русские пословицы, поговорки и афоризмы в аналогии). - Душанбе: Адиб, 1989. - 438 с.

#### ВНЕШНИЕ ФАКТОРЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЯЗЫКА

*Эргашев И.Ю.,*

*доцент Навоийского государственного горного и технологического университета*

**Аннотация.** Внешние факторы развития и функционирования языка в теоретико-лингвистическом плане имеют закономерную природу. Их проявлением служат три подсистемы: социальное, социокультурное воздействие, реализуемое преимущественно лексическими заимствованиями; влияние иноязычных словообразовательных средств; влияние речевой деятельности.

**Ключевые слова:** внешний фактор лингвистики, лексическое заимствование, речевая деятельность.

**Annotatsiya.** Nazariy va lingvistik jihatdan tilning rivojlanishi tashqi omillari xususiyatga ega. Ular uchta tizimda namoyon bo‘ladi: ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy ta’sir, birinchi navbatda so‘z o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi; chet tilidagi so‘z yasaliş vositalarining ta’siri; nutq faoliyatining ta’siri tenglashadi.

**Kalit so‘zlar:** tilshunoslikning tashqi omili, leksikso‘z olish, nutq faoliyati.

**Abstract.** External factors in the development and functioning of language in theoretical and linguistic terms have a natural nature. They are manifested in three subsystems: social, sociocultural influence, realized primarily by lexical borrowings; influence of foreign language word-formation means; influence of speech activity.

**Key words:** external factor of linguistics, lexical borrowing, speech activity.

Внешние факторы определяются в единстве с внутриязыковыми. Проявлением этой теоретико-лингвистической закономерности служит динамика тенденций английского языка. Так, утрата к XIV веку глаголами суффикса инфинитива резко уменьшила суффиксально-сочетаемостные возможности глагольной основы. С этим коррелировало и обогащение префиксации, преимущественно иноязычных моделей, и развитие лексических заимствований[1.16-41].

Соответственно, внешние факторы охватывают всю концептуальную триаду язык-речь-речевая деятельность. Действие внешних факторов заключается в системе закономерностей и тенденций различного уровня. Она отражает направленность взаимодействия, лексические и семантико-стилистические аспекты.

Специфическая закономерность — двунаправленный характер межъязыкового взаимодействия. Он определен системой обоснованных методологических принципов и репрезентируется современным английским языком. Английский выступает как источник исключительного влияния на другие языки, и это обусловлено в том числе и отраженной, усиленной доминантой: язык передает то, что ранее столь же исключительно испытывал от других языков[2.19-21].

Такое воздействие предполагает дифференциацию, что и подтверждается объектом. Различные языки-источники определяются относительно английского как носители воздействия разного характера. Так, французский язык с середины XI века для английского — преимущественно средство лексико-семантического расширения. Скандинавские языки с конца X столетия — в первую очередь источники стилистической синонимии. Это связано как с их потенциалом, так и с потребностями и спецификой этапов исторического развития английского языка.

Именно внешними факторами могут детерминироваться значимые для развития и обогащения языка процессы. Показателен такой процесс, как образование вариантов языка. Так, становление американского варианта английского языка в соотнесении с британским репрезентирует эту линию развития: данный вид варьирования изначально обусловлен внешними факторами: социально-историческими и социокультурными[3.38-62].

Лексическая теоретико-лингвистическая закономерность — корреляция между вытеснением исконной лексики и сохранением качественной определенности языка. Ряд лексических подсистем вытесняется при взаимодействии между внешними и внутренними факторами функционирования и развития языка. Вытеснение, однако, не препятствует сохранению качественной определенности языка. Репрезентативно, что английский язык не перестал быть таковым при вытеснении большей части наполнения исконных лексических подсистем французскими в XI-XIII столетиях. Эта закономерность позволяет дифференцировать более и менее существенные характеристики словарного состава. Наполнение подсистемы исконной лексикой — менее существенная характеристика, а соотношение подсистем — более значимая черта качественной определенности языка.

Семантико-стилистическая теоретико-лингвистическая закономерность - корреляции между различными тенденциями. Главные из них — «расщепленный» тип лексических замен при внешнем воздействии /у исконной номинации обычно по причине заимствования вытесняется одно из значений/; актуализация определенных линий семантико-стилистического развития /обогащение абстрактной лексики, научной терминологии, поэтизмов/;; расширение семантического потенциала словарного состава[1.32].

Закономерна динамика такого внешнего фактора, как речевая деятельность авторитетных языковых личностей (писателей, ученых, политиков). Обновление определяется антропоцентрически, в связи с индивидуально-языковыми факторами функционирования. Оно связано с окказионализмами, избирательностью в использовании языковых средств. Динамику двух тенденций реализует переход индивидуального в общенациональное (репрезентируемый закреплением конверсивов с опорой на авторитет, которому принадлежит их авторство, и другими соотносительными процессами).

В категориальном аппарате теории языка все активнее используется макроконцепт «факторы развития и функционирования языка». Он восходит к идеям В. фон Гумбольдта, в общем виде детерминирован в языкознании В.А. Аврориним и его школой, а в современной познавательной ситуации побуждает к поликоординатному, многомерному представлению современного лингвистического осмысления и концепт «внешний фактор»[2.41-52]. Он и сам проясняется, и способствует прояснению коррелятивных понятий в едином категориальном аппарате, ср. в новейшем исследовании раскрытие корреляции «внутриязыковой— внешний» на материале русских заимствований в английском языке: например, «увеличение числа торговой терминологии объясняется не внутриязыковыми процессами, а экстралингвистическими причинами: успехами русской внутренней и внешней торговли. Определение концепта «внешний фактор» взаимосвязано с тремя основными линиями понятийного углубления: опорой на имманентные, но не ограниченные внутриязыковыми причинами закономерности развития языка; разносторонней обусловленностью его функционирования, включающей социальные, социокультурные координаты, релевантные для теории языка, но не укладывающиеся в интралингвистическую субстанцию и многомерно взаимодействующие с ней; синергетической установкой, при которой внутренние потребности развития и функционирования объекта /семиологические, прагматические, когнитивные/ на высоком уровне развития постоянно требуют выхода за его внутренние рамки и создают новые существенные измерения, включая речевую системность[3.16-31].

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Грушин Б.А. Массовое сознание. М., 1987. С. 32.
2. Ким М.Н. Технология создания журналистского произведения. СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2001. 41-52
3. Смелзер Н. Социология. М., 1994. С. 655

#### ВОПРОСЫ ЛОГИЧЕСКОГО И ГРАММАТИЧЕСКОГО АСПЕКТА ЯЗЫКА

*Нажмиддинов Фазлиддин Насриддинович,*

*доцент кафедры методики преподавания русского языка и литературы*

*Навоийского государственного педагогического института*

**Аннотация.** Однако термин логического и грамматического аспекта языка получил наибольшее распространение, так что возникшее новое направление научного знания носит название именно теории межкультурной коммуникации. Необходимо отметить, что, на наш взгляд, кросскультурные исследования могут служить основой для дальнейшей разработки проблем межкультурного взаимодействия на разных уровнях.

**Ключевые слова:** логический и грамматический аспект языка, межкультурная коммуникация.

**Annotatsiya.** Tilning mantiqiy va grammatik jihati atamasi eng keng tarqaldi, shuning uchun paydo bo'lgan ilmiy bilimlarning yangi yo'nalishi madaniyatlararo muloqot nazariyasi deb ataladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bizning fikrimizcha, madaniyatlararo tadqiqotlar turli darajadagi madaniyatlararo o'zaro ta'sir muammolarini yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** tilning mantiqiy va Grammatik aspekti, madaniyatlararo muloqot.

**Abstract.** However, the term of the logical and grammatical aspect of language has become most widespread, so that the new direction of scientific knowledge that has emerged is called the theory of intercultural communication. It should be noted that, in our opinion, cross-cultural research can serve as the basis for further development of problems of intercultural interaction at different levels.

**Key words:** logical and grammatical aspect of language, intercultural communication.

Для нас представляется интересным, что первоначальное обращение к проблематике межкультурной коммуникации в европейском научном сообществе был сделан именно педагогами-практиками, которые в своей работе использовали отдельные страноведческие аспекты развития. Именно такая же инициатива преподавателей иностранного языка привела к становлению изучения межкультурной коммуникации в отечественной науке и системе образования. Стало очевидным, что успешные контакты с представителями других культур невозможны без знания особенностей этих культур и практических навыков кросскультурного взаимодействия. По этой причине в ряде российских вузов в учебные планы была включена новая учебная дисциплина – «Межкультурная коммуникация», имеющая целью подготовку студентов к эффективным межкультурным контактам, прежде всего, на уровне повседневного межличностного общения. Убедительным подтверждением становления межкультурной коммуникации могут служить учебные пособия, разработанные отечественными учеными[1.18-41].

Вопрос, лежащий в основе как лингвокультурологии, так и теории межкультурной коммуникации, можно сформулировать следующим образом: «Зачем познавать культуру через язык?» Ответом на этот вопрос, на наш взгляд, является необходимость для одной культуры познания другой культуры, необходимость взаимопроникновения, прежде всего с целью понять другой, отличный от своего мир, формируемый пространством иной культуры. Поэтому можно, на наш взгляд, сделать вывод, что кросскультурные связи пронизывают собой все сферы жизни современного общества, что отчетливо проявляется и в жизни нашего государства, а следовательно, должно находить свое отражение также и в системе образования как кросскультурный аспект формирования парадигмы личности обучаемого[2.31-43].

Следовательно, кросскультурность основана на синтезе двух наук – лингвокультурологии и межкультурной коммуникации, с другой стороны, лингвокультурология и теория межкультурной коммуникации на современном этапе развития служат воплощению идей кросскультурности. Как понятие «кросскультурность» шире, чем «лингвокультурология» и «межкультурная коммуникация» – она не только призывает к пониманию и изучению своей родной языковой культуры, не только помогает общаться с носителями других языков, но и через общее и различное обогащает языковую культуру носителя всем этническим спектром отражения мира в языке.

Понятие кросскультурности рассматривается как один из определяющих элементов современного миропонимания. Кросскультурность мы рассматриваем как в лингвистическом, так и в лингводидактическом аспектах. Закономерно, что кросскультурная лингвистика становится в современной лингвистике одним из наиболее актуальных направлений, создавая основу для кросскультурной лингводидактики - практического освоения принципов кросскультурности в условиях полиэтнического языкового и культурного пространства, т. е. кросскультурная лингводидактика - это обучение языку с точки зрения кросскультурной лингвистики. Кросскультурная лингводидактика предполагает как преподавание родного языка, так и преподавание иностранных языков, прежде всего, русского (как языка межнационального общения). Это означает, что в учебных планах национальных школ должно быть уделено внимание как преподаванию родного языка и родной культуры, так и преподаванию русского языка (языка межнационального общения)[1.63-71].

Кросскультурность в лингвистическом и лингводидактическом аспекте – это комплексная область научного знания о языке, формировании языковой парадигмы личности в условиях поликультурного мира и взаимосвязи и взаимовлиянии языка и культуры. Концепция формирования «вторичной» языковой личности, овладевающей культурой иноязычного общения, базируется на идеях антропологической лингвистики и учении о «языковой личности», истоки которых в идеях академика В.В.Виноградова.

В методике обучения русского языка в различных отраслях лингводидактики проблема кросскультурного взаимодействия первоначально нашла отражение в рамках лингвострановедческой теории (РКИ). Кросскультурность рассматривается как в лингвистическом, так и в лингводидактическом аспектах. Закономерно, что кросскультурная лингвистика становится в современной лингвистике одним из наиболее актуальных направлений, создавая основу для кросскультурной лингводидактики - практического освоения принципов кросскультурности в условиях полиэтнического языкового и культурного пространства, т. е. кросскультурная лингводидактика - это обучение языку с точки зрения кросскультурной лингвистики, то есть формируется кросскультурная языковая парадигма личности[2.46-71].

Кросскультурная лингводидактика предполагает как преподавание родного языка, так и преподавание иностранных языков, прежде всего, русского (как языка межнационального общения). Это означает, что в учебных планах национальных школ должно быть уделено внимание как преподаванию родного языка и родной культуры, так и преподаванию русского языка (языка межнационального общения). Таким образом, рассмотрев проявления кросскультурности как определяющего элемента современного миропонимания, можно сделать вывод о том, что кросскультурность представляет собой некую лингвофилософскую парадигму. Одним из методологических оснований кросскультурности мы можем считать лингвокультурологию, выступающую в качестве комплексного синтезирующего подхода к взаимосвязи и взаимодействию языка и культуры в их функционировании с ориентацией на систему общечеловеческих гуманистических ценностей. Другим методологическим основанием кросскультурности предстает, на наш взгляд, теория межкультурной коммуникации[3.79-102].

Итак, культура представляет собой сложнейший феномен, определяющий систему ценностных ориентаций как общества в целом, так и отдельной личности – носителя определенной культуры. Как отмечает Г.В. Елизарова, сопоставительное изучение культур

возможно только с учетом того, что каждая культура находит уникальное отражение в языке - ее носителе (Елизарова 2005:7). Именно поэтому кросскультурный аспект является актуальным объектом методического исследования, а результаты подобного исследования необходимо внедрить в методику обучения неродному языку.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Рикер П. Время и рассказ. Конфигурация в вымышленном рассказе. -Т. 2. – М.: Эдиториал УРСС, 2000. - 224 с.
2. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987. – 261 с.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М: Академия, 2004. – 208 с.

**ALISHER NAVOIY PARALLEL KORPUSINI YARATISHNING DOLZARBLIGI,  
ILMIY-AMALIY AHAMIYATI**  
*G‘ulomova Nargiza Sa‘dullayevna,*  
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*  
*Navoiy innovatsiyalar universiteti*  
*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya:** Maqolada parallel korpuslar to‘g‘risida asosiy tushunchalar, ularni yaratishdagi turli yondashuvlar xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, o‘zbek kompyuter lingvistikasi uchun muhim vazifalardan biri hisoblangan Alisher Navoiy parallel korpusini yaratishning ilmiy-amalaviy ahamiyati va bu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar hamda korpus uchun lingvistik bazalar qanday talablarga javob berishi zarurligi haqida tahliliy ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Korpus, identifikatsiya, teglash, chastota, bimatn, lingvistik izoh, teglash.

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные понятия параллельных корпусов и различные подходы к их созданию. Также приведены аналитические сведения о научной и практической значимости создания параллельного корпуса Алишера Навои, что считается одной из важных задач узбекской компьютерной лингвистики, и задачах, решаемых в этом процессе, а также требованиях лингвистических основ для корпуса.

**Ключевые слова:** Корпус, идентификация, маркировка, частота, битовый текст, лингвистическая аннотация, маркировка.

**Abstract:** The article discusses the basic concepts of parallel corpora and different approaches to their creation. Analytical information is also given about the scientific and practical importance of creating the parallel corpus of Alisher Navoi, which is considered one of the important tasks for uzbek computer linguistics, and the tasks performed in this process, as well as the requirements of the linguistic bases for the corpus.

**Keywords:** Corpus, identification, tagging, frequency, bitext, linguistic annotation, tagging.

Jahon tamaddunida barcha yo‘nalishlar singari tilshunoslik sohasida ham kompyuter texnologiyalari yordamida axborotni topish, saqlash, qayta ishlash, tahrirlash va keng ommaga yetkazishning qulay usullarini yaratishga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Bu esa kompyuter texnologiyalari sohasi uchun ulkan vazifani vujudga keltirdi. Jahon tilshunosligida parallel korpuslar lingvistik manbalarning yangi zamonaviy turi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Parallel korpus bu – tarjima qilingan matnlar juftligidir. [5]. Parallel matnlar korpusi – badiiy yoki ilmiy asarlar, ommaviy axborot nashrlari, bir qancha turdagi hujjatlar nusxalarining ikki yoki undan ortiq




tillarga tarjima qilingan elektron ko‘rinishidir. Bundan tashqari, parallel korpuslar tarjimani o‘qitish va professional tarjima sozlamalarida ma’lumotnoma sifatida ishlatiladi, chunki ular tarjima yechimlariga (masalan, tarjima xotiralari) tez va interaktiv kirish imkonini beradi. Bunday korpuslarning afzalligi shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so‘z yoki jumlaning, balki butun boshli matnlarning turli tillardagi variantlarini bilish imkoniyati mavjud. [4].

Aslida bu turdagi korpuslarni yaratish XXI asrning global muammolaridan biri sifatida ko‘zga tashalanib, bir-biriga izchil bog‘liq bir qancha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni talab etadi. Shu sababdan, zamondoshlarning dunyoqarashi, jadal rivojlanib borayotgan texnokratik oqimni hisobga olgan holda, bu masalaga ham yangicha yondashish zaruriyatini taqozo etmoqda. [4].


Parallel korpuslar uchun matnlarni tarjima qilish ma’lum bir leksemaning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilingandagi o‘zgarishini aniqlash tarjimashunoslik nuqtai nazaridan asosiy vazifa sanaladi. Parallel korpuslarning ko‘pchiligiga konkordanserlar orqali kirish tillararo hodisalarni o‘rganishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Bunday korpuslar til o‘rgatish uchun ham boy materiallar manbai hisoblanadi. Konkordanser – konkordansni avtomatik ravishda tuzib chiqish uchun kompyuter dasturi, ya’ni minimal kontekstda so‘zdan foydalanishga misollar yoki o‘rganilayotgan matnda so‘z yoki ibora uchraydigan barcha kontekstlar ro‘yxati hisoblanadi. Bunday korpuslarning afzalligi shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so‘z yoki jumlaning, balki butun boshli matnlarning turli tillardagi variantlarini bilish imkoniyati mavjud. Xuddi mana shu imkoniyat tufayli maxsus konkordanser dasturlar ishlab chiqish orqali turli xil ixtisoslik lug‘atlari tuzish imkoniyati tug‘iladi. [6]. Sohalar bo‘yicha bunday lug‘atlarning tuzilishi foydalanish uchun qulayligi hamda vaqtning kam sarflanishi bilan ish samaradorligini oshishiradi.

Eski o‘zbek adabiy tilida ijod qilgan ijodkorlar asarlarining parallel korpusini yaratishda bugungi kunda iste’moldan chiqarilgan arxaik va tarixiy so‘zlarning matnda kelishiga, so‘zlarning omonimlik xususiyatiga e’tibor qaratish muhim. Masalan, gul so‘zi mumtoz asarlarda: yor, mahbuba, zohir bo‘lish, g‘uncha oshilishi, mahsul, meva, yoshlik davri, ishq o‘ti, qon, farzand kabi ma’nolarda qo‘llanilgan. [2]. Yuqoridagi birgina so‘z misolida xulosa qilish mumkinki, mumtoz asarlar parallel korpuslari uchun tarjima jarayonida matn mazmunini to‘g‘ri tarjima qilishda har bir so‘zning o‘ziga xos ahamiyati bo‘lib, bunda avtomatik tarjimadan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

Parallel matnlardan foydalanish uchun eng birinchi bo‘lib, matn segmentlarini (iboralar va jumalarni) identifikatsiyalash va matn turlari, janrlarini o‘zaro moslashtirish hamda muvofiqlashtirishimiz kerak bo‘ladi. Alisher Navoiy asarlarining parallel korpusini yaratishning yaratish jarayonidagi vazifalar ketma-ketligini quyidagi sxemada ko‘rishimiz mumkin:



Tarjima korpuslaridagi matnlar ham asl matniga teng bo'lib, u bilan bir yaxlitlik tasavvurini uyg'otishi kerak. Shunga ko'ra, tarjimaning muhim vazifalaridan biri – tarjima matn asliyatning to'liq kommunikativ o'rnini egallashi foydalanuvchiga badiiy zavq, mazmuniy va strukturaviy izchil taassurot taqdim etishi kerak. Parellel korpuslarni tarjima qilingan tillar salmog'iga, matnlarning joylashtirilishiga, birliklarning o'zaro moslashuviga qarab 3 turga ajratib olishimiz mumkin:



Navoiy asarlari parallel korpusi “Ko'p yo'nalishli (o'zbek tilidan ingliz, nemis, fransuz, ispan tillariga tarjima qilingan matn) korpus” ko'rinishida bo'lishi muhim hisoblanadi. Navoiy g'azallarining parallel korpusini yaratish orqali XV asrning til xususiyatlarini, mutafakkirning so'z qo'llash uslubini qiyosiy tahlil qilish mumkin. Ko'p yo'nalishli (o'zbek tilidan ingliz, nemis, fransuz, ispan tillariga tarjima qilingan matn) Alisher Navoiy asarlari parallel korpusini yaratish

boshqa tilida soʻzlashuvchilar uchun turkiy xalqlar tili tarixi, semantika, turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasi fanlarining oʻqitilishida mutafakkir asarlari mazmuni oʻzlashtirish, izohtalab soʻz va soʻz birikmalari mazmunini yoritish, konseptual tahlil qilish, tegishli tillarga xos fonetik, grammatik, leksik xususiyatlarini oʻrganishda ahamiyati katta. Bunday parallel matnlar korpusi umumturkiy yozma manbalarning qiyosiy darajada oʻrganilishga zamin yaratadi va XV asrdagi soʻzlarning leksik maʼnosini hozirgi kitobxonlarga tushunarli boʻlishiga yordam beradi. Navoiy gʻazallarini ingliz va yoki boshqa bir tilga tarjima qilish uchun islom dini gʻoyasi va qarashlari, turkiylar madaniyati, yashash tarzi, soʻzlarning kelib chiqish etimologiyasini ham bilish juda muhim. Maʼlumki, til oʻzgaruvchan va har bir tilning oʻz lugʻat boyligi mavjud. [1].

Ushbu jarayonda tabdil va izohlardan unumli foydalanish kerak. Sababi Navoiy asarlari matnining qiyosiy parallel korpusini yaratishda shoir qoʻllagan iboralar bilan bogʻliq muammolar boʻlishi tabiiy. Maʼlumki, frazemalar ikki yoki undan ortiq soʻzdan tuzilib, mazkur soʻzlar semantikasi asosida yangi koʻchma lugʻaviy maʼnoni shakllantiradi. Iboralarni tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining oʻta murakkab va shu bilan birga, juda masʼuliyatli masalalaridan hisoblanadi. Oʻzbek adabiyoti namunalarining ingliz tiliga qilingan ilk tarjimalari, tabiiyki, Alisher Navoiy nomi bilan bogʻliq.

Parallel korpuslarni yaratish tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy eʼtiborni ikki til tizimining maʼno jihatiga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayon hamdir. Chunki matnda berilgan maʼlumotning toʻlaqonliligi asosini tarjima qilingan matnlarining maʼnoviy uygʻunligi tashkil etadi. Tarjimada har qanday tasvir vositalarining maʼnoviy muqobilligi jihatlarini toʻliq taʼminlash oʻta muhim sanaladi. Parallel korpuslarni yaratishda matn yaratilgan davr muhim hisoblanadi. XX asrda ijod qilgan adiblarning asarlari matnining parallel korpusini tuzishda izohli lugatlardan foydalanishga hojat yoʻq. Matn tili hamma uchun birdek tushunarli, soʻz va soʻz birikmalari, iboralar izoh talab qilmaydi. Biroq uzoq asrlarga dahldor boʻlgan mumtoz asarlarni hozirgi kitobxon uchun tushunarli va qulay tarzda taqdim etish uchun bir nechta izohli lugatlar sahifalanadi. Aynan Navoiyning ilmiy, badiiy, tazkira yoʻnalishlarda yozgan nazmiy va nasriy turlardagi asarlarini izohli lugʻatlar yordamida semantik teglab, boshqa tillarga tarjima qilib zamonaviy kitobxonga qiziqarli tarzda taqdim etish maqsadida parallel korpuslarni yaratish ayni muddaodir.

## ADABIYOTLAR

1. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] monografiya, – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 17
2. Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. / Fozilov E. tahriri ostida. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1983-1985. B – 109-110.
3. Davlatov O. Maʼnolar xazinasi. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B. 5.
4. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 157.
5. Sobirova N. Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tavsifi. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 Issue 5. 2022. – B. 3.
6. Xolmonova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Asian Book House, 2020 B. – 72.
7. <https://ndpi.uz/uz/2021/02/05/14123/> F. Davlatova. Alisher Navoiy asarlari tarjimalari badiyatini anglash. [Elektron resurs]

## BADIIY MATNDA INSON HIS-TUYG‘USINI OCHIB BERUVCHI VOSITALAR

*Islamova Dinara Azamatovna,  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti dotsenti, (PhD)  
(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adabiy matnda qahramonlarning his-tuyg‘ularini ifodalashda ijodkorlarning lisoniy reprezentatsiyadan foydalanish mahorati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** badiiy matn, kommunikativlik, olamning badiiy manzarasi, olamning lisoniy manzarasi, konnotativ mazmun.

**Аннотация.** В данной статье анализируется умение творцов использовать языковое воспроизведение при выражении чувств героев в литературном тексте.

**Ключевые слова:** художественный текст, коммуникативность, художественная картина мира, языковая картина мира, коннотативное содержание.

**Abstract.** This article analyzes the skill of creators to use linguistic representation in expressing the emotions of characters in a literary text.

**Key words:** artistic text, communicativity, artistic landscape of the universe, linguistic landscape of the universe, connotative content.

Olamning badiiy manzarasining shakllanish va amalda bo‘lish maydoni badiiy matndir. Badiiy matndagi obrazlar, konseptlar, tasvirlar lisoniy materialning olamning badiiy manzarasini shakllantirishdagi vositalar bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni, 1. Matn asosan borliq va uning xususiyatlari, ulardagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-didaktik va boshqa texnikaviy masalalarni aks ettiruvchi verbal imkoniyati (axborot berish va axborot olish) ega bo‘lgan masalalarni o‘zida mujassamlashtiradi. 2. Voqelik bilan matn o‘rtasida aks ettirish jarayoni yotadi. Bu jarayon o‘zida logik va emotsional (matn turiga qarab) voqelikning asosiy interpretatsiyasini beradi. Muallifning dunyoqarashi matnda aks etadi. Bu esa matnning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi. Matnning uslubiy konnotativ mazmuni muallifning dunyoni his etish jaraenidagi in’ikos hisoblanib, mantiqiy va emotsional dominantni tashkil etadi [6]. Demak, badiiy matn lisoniy vositalarning estetik tizimini o‘zida ifodalaydi hamda u yaxlitlik va tuzilishining optimalligi bilan ajralib turadi. Har bir matn takrorlanmas, original bir kognitiv va lingvomadaniy tuzilma bo‘lib, u o‘zi yaratilgan tilning eng nozik ma’no qirralarigacha ochib beradi, so‘zlar, o‘ramlar, urg‘u, ohang va boshqa vositalarni o‘z ichiga olgan tilning barcha tasviriy vositalarini qamrab oladi[1].

Jumladan, adabiy matnda qahramonlarning his-tuyg‘ularini ifodalash uchun ijodkorlarning lisoniy reprezentatsiyani ifodalash usullariga murojaat qilaylik. Ma’lumki, badiiy matndagi emotsional konseptlarni ifodalash:

1) insonning turli his-tuyg‘ularini nomlash orqali ifodalaydigan konseptlar: Voydod!-vahimadan titragan kampirning bo‘g‘zidan bu kalima zo‘rg‘a chiqdi (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”) (qo‘rquv tuyg‘usi voydod so‘zi bilan ifodalanmoqda).

2) insonning his-tuyg‘u va emotsiyasini tasvirlash orqali: Mingboshi bir oqardi, bir qizardi, jahldan sonlarini chimchilay boshladi (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”). (jahl va g‘azab tuyg‘usi bir oqardi, bir qizardi, sonlarini chimchilay boshladi so‘zlari orqali ifodalanmoqda).

3) emotiv vositalar yordamida: O‘zi xotintaloq!-deb yubordi mingboshi. (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”). (nafrat tuyg‘usi xotintaloq vulgarizmi bilan ifodalanmoqda).

Ko‘rinadiki, badiiy matnda asarning syujeti, g‘oyasi, mantig‘i, qahramonlarning xarakteri va ularning nutqini individuallashtirishga xizmat qiladigan vositalar har doim mavjud va ularni lisoniy reprezentatsiya qilishning ham imkoniyatlari, voqelantirish shakllari ham ko‘p. Shu sababli M.M.Baxtinning badiiy matnga bergan ta‘rifida bayon qilinganidek, “matn gumanitar fanlarning va umuman olganda gumanitar-filologik tafakkurning asosida turadi. Matn bu fanlar va ularga xos tafakkurdan kelib chiqadigan haqiqiy voqelikdir. Matn yo‘q yerda tadqiqot va tafakkur obyekti ham yo‘q”[2]. Y.M.Lotman esa go‘yo uning fikrini rivojlantirib va yakunlab yozadi: “Matn badiiy asarning shunday komponentiki, unda badiiy effekt, umuman olganda, matnning hayotiy va g‘oyaviy-estetik tasavvurlarning murakkab majmui bilan solishtirish orqali yuzaga keladi”[3].

Badiiy matn va u bilan aloqador ravishda olamning badiiy manzarasining eng asosiy xususiyatlaridan biri – kommunikativligidir. U san‘at va adabiyot asari sifatida matn axborotni uzatish va qabul qilish bilan birga yozuvchi (aytuvchi)ning badiiy-estetik hamda lingvopragmatik intensiyasini ifodalaydi. Badiiy-pragmatik intensiya matndan anglashiladigan xabar, badiiylashtirish, tasvir, emotivlik kabi inson faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar majmuasidan iborat bo‘ladi. Matnning kommunikativligi muayyan badiiy-estetik informatsiyani bir shaxsdan ikkinchisiga, ijodkordan o‘quvchiga, individdan ommaga uzatishdagi mukammalligida ko‘rinadi.

Badiiy adabiyot tili adabiy tilning o‘ziga xos ko‘rinishiga va xususiyatlariga ega bo‘lgan shakllardan biridir. Badiiy adabiyot tili ham til taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga buysunadi. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til kabi omma uchun aloqa vositasi bo‘lishdek xususiyatga egadir. Badiiy adabiyot tilining o‘ziga xosligi va murakkab yo‘nalishi shundaki, u tilning adabiy bo‘lmagan xilma-xil ko‘rinishlarini, qatlamlarini ham keng ravishda o‘ziga singdirib olib, umumxalqqa namoyish etadi. Shuningdek, har bir badiiy adabiyotda ma‘lum bir adabiy tilning turli-tuman uslublari keng qo‘llanishi mumkin. Badiiy asar tili o‘zining badiiy estetik sifati bilan adabiy til va jonli so‘zlashuv tilining barcha ko‘rinishlarini qamrab oladi [4].

Voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalashning asosiy vositasi badiiy uslub hisoblanadi. Badiiy uslub insonning fe‘l-atvorini, uning ichki dunyosini, ruhiy holatlarini, tabiatdagi turli voqea-hodisalarni tugal, butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatini o‘zida mujassam qilganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Badiiy nutq uslubining eng xarakterli xususiyati tasviriylik va emotsionallik hisoblanadi. Agar ilmiy uslub umumlashgan tushunchalarni qat‘iy qolipga solingan, maxsus terminlar va formulalar bilan anglatsa, badiiy uslub o‘z zahirasiidagi so‘zlar yordamida inson qalbi va tabiatining eng nozik nuqtalarigacha tasvirlash imkoniyatiga ega. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta‘sirini kuchaytirish maqsadida tilning tasviriy vositalaridan unumli va ijodiy foydalanadi, shuningdek, o‘zi ham yangi so‘z va ifoda shakllarini yaratadi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so‘zlarni ishlatish bilangina chegaralanib qolishmaydi. Mahoratli yozuvchilar uchun mavjud tildagi so‘z zahirasi har doim cheklangan imkoniyat hisoblanadi. O‘zlari yangidan-yangi individual so‘z va iboralar ijod qilish payida bo‘lishadi. Badiiy nutqda til betakror qiyofa, fe‘l-atvor, voqelikka mos manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Boshqa uslub materiallari badiiy nutqda muallif maqsadiga binoan erkin holda ishlatilishi mumkin[5].

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Апресян Ю.Д. Избранные труды [Текст] / Ю. Д. Апресян. – Т., 1: Лексическая семантика: Синонимические средства языка. – М.: Языки русской культуры: Восточная литература, 1995. – С. 27.

2. Бахтин М.М. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных науках. Опыт философского анализа. // Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М., 1986. – С.300.
3. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста: Структура стиха: Пособие для студентов / Ю. М. Лотман. - Л.: Просвещение, 1972. - 271 с.
4. Қурбонов Т. Бадиий асар тили ва услуби масалалари. Ихтисослик (танланма) фанидан маърузалар матни. - Самарқанд, 2006. –Б. 10.
5. Ёўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. -Тошкент: ТДПИ, 2007. –Б.46.
6. Шодиев И.М. Ўзбек тилида матннинг типологик тадқиқи. Филол. фан...фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. - Самарқанд, 2020. – 12 б.

**TOPONIMIYANING MAVZUIY-NOMINATIV TASNIFI XUSUSIDA BA’ZI  
MULOHAZALAR (NAVBAHOR TUMANI MISOLIDA)**

*Mavjuda SUVANOVA,*

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi*

*katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)*

*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Har qanday til lug‘aviy tarkibdagi ot turkumiga mansub so‘zlarni ikki katta guruhga ajratish ilmiy udum bo‘lgani ma‘lum. Bular turdosh otlar va atoqli otlar. Bu ikki guruh so‘zlarining mohiyati tilshunoslikka oid adabiyotlarda, ayniqsa, tilga oid darslik va qo‘llanmalarda izohlab kelinadi.

**Kalit so‘zlar:** Dialektologiya, urf-odat, toponimiya, turdosh otlar va atoqli otlar.

**Аннотация.** Известно, что разделение слов, принадлежащих к группе существительных, в лексическом составе любого языка на две большие группы является научным достижением. Это родственные существительные и обычные существительные. Значение этих двух групп слов разъясняется в лингвистической литературе, особенно в учебниках и пособиях по языку.

**Ключевые слова:** диалектология, традиция, топонимия, родственные существительные и именные существительные.

**Abstract.** It is known that the division of words belonging to the group of nouns in the lexical composition of any language into two large groups is a scientific achievement. These are cognate nouns and common nouns. The meaning of these two groups of words is explained in linguistic literature, especially in textbooks and language manuals.

**Keywords:** dialectology, tradition, toponymy, related nouns and eminent nouns.

Bir qator tilshunos olimlarning ishlarida otlarning turdosh va atoqli otlarga bo‘linishi otning ma‘noga ko‘ra tasniflanishi asosida izohlanadi va otning bu shakl turiga shunday ta‘riflar beriladi: “Bir xildagi predmet va hodisalarning birini ajratib ko‘rsatuvchi otlar atoqli otlar deyiladi”[1]. “Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh otlar deyiladi”[2]. Turdosh va atoqli otlarni otlarning ma‘no turi deb bilish tilshunoslikda asosiy o‘rin tutadi: “Otlar o‘z ma‘nosiga qarab dastlab ikki guruhga bo‘linadi: 1) atoqli otlar; 2) turdosh otlar[3].

Chunonchi, “Ot leksemalar bir turdagi predmetlarning hammasini nomlashi yoki bir turdagi predmetlardan bittasini atashi, ajratib ko‘rsatilishi jihatdan quyidagicha guruhlanadi.

1. Turdosh ot – bir turdagi predmetlarning nomi: daftar, kitob, qalam, tosh, loy, choy, ko‘zgu kabi. Bunday turdosh otlar turni turdan ajratadi.

2. Atoqli ot – yakka predmetning atamasi. Atoqli otda umumlashtirish yo‘q, u leksik jihatdan, odatda, shartli bo‘lib, yakka bir predmetni o‘zi kabi boshqa yakka predmetdan farqlab berishga xizmat qiluvchi tamg‘a vazifasini bajaradi[4].

“Bordi-yu bunday tasnifning asosi ma’no bo‘ladigan bo‘lsa, aslida mantiqan qayd qilingan guruhlar: 1) umumlashma tushuncha ifodalovchi otlar; 2) yakka tushuncha ifoda qiluvchi otlarga yoki a) lug‘aviy ma’no ifoda qiluvchi otlar; b) lug‘aviy ma’no ifoda qilmaydigan otlarga bo‘linishi lozim edi. Chunki tilshunoslikda atoqli otlar lug‘aviy ma’no ifodalamaydi, degan qarash keng tarqalgan. Ammo turdosh va atoqli otlarni farqlashda ularning “yakka narsa” yoki “umumiy”, “bir jinsdagi” predmetlarning nomi ekanligi asosiy mezon qilib olinishi lozim: “Atoqli otlar yakka shaxslarning nomi, borliqdagi yakka narsa, voqea-hodisalarning nomi bo‘lib xizmat qiladi[5]” yoki “turdosh otlar bir jinsdagi shaxs, narsa, voqea-hodisalarning nomlari bo‘lib, shular haqidagi umumiy predmetlik tushunchasini anglatadi[5]”.

Turdosh va atoqli so‘zlari turdosh ot, atoqli ot shaklida izohli lug‘atlarda ham izohlanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, atoqli va turdosh otlarni bir-biridan farqlashga xizmat qiluvchi belgi va mezonlar faqatgina ular ma’nosi va atash xususiyatida emas, balki bundan teranroq bo‘lgan xususiyatlardir. Mana shulardan biri turdosh otlarning o‘z mustaqil lisoniy materialga egaligi; atoqli otlarning esa mana shunday materialga ega emasligidir. Tilshunoslikka oid ko‘pgina nazariy adabiyotlarda atoqli otlarga oid bu belgi alohida ta’kidlab o‘tilganini ko‘ramiz. Toponimik va antronymik nomlar hamisha til bazasida yaratiladi. Ularni yasashda tilning turmushda ko‘p qo‘llanuvchi so‘z yasash modellaridan, qo‘shma so‘zlardan, so‘z birikmalaridan va hatto butun bir gaplardan foydalanish mumkin.

Mana shunday fikrni V.A.Nikonov yanada aniqroq qilib: “Toponimika o‘zining shaxsiy vositalarini ijod qilmaydi, balki oz darajada bo‘lsa-da, tildagi mavjud imkoniyatdan foydalanadi,” - degan haqqoniy fikrni aytib o‘tgan edi. Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalar chiqadi: 1) atoqli otlar o‘z mustaqil lisoniy materialiga ega emas; 2) atoqli otlar tilda mavjud bo‘lgan lisoniy materialdan yasaladi; 3) atoqli otlar tizimi til materialining ma’lum qismidagina foydalanadi.

Atoqli otlarning o‘ziga xos lisoniy materiali yo‘q deyilgan tushuncha ba’zi hollarda unchalik ishonchli emasdek tuyuladi. Chunki atoqli otlar tarkibida shunday nomlar mavjudki, ular negizida yotgan leksemaning nimaligi, qanday so‘z ekani hozirda tushunarsiz va qorong‘udir, chunki bunday so‘z bir vaqtda mavjud bo‘lgan biror o‘lik tilga xos bo‘lishi, yoxud bu so‘z arxaiklashib hozirgi davr tili uchun noma’lum, nofunktsional bo‘lishi mumkin. Hozirgi o‘zbek toponimiyasida uchraydigan bir qator qadimiy so‘g‘d va sanskrit tiliga oid toponimlar mana shunday xususiyatga egadir. Bu o‘rinda V.A.Shishkinning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “Shunga e’tibor qilish kerakki, gap yuritilayotgan nomlarning (Vardanzi, Varzonzi, Varg‘onze va boshqalar) istisnosiz hozirgi davr o‘zbek yoki tojik tillari asosida tushuntirish mumkin emas. Bu hol uchbu nomlarning nihoyatda qadimiy ekanidan darak beradi. Hozirda mavjud bo‘lgan bir qator qishloqlarning nomlarini ham hozirgi til asosida talqin qilish qiyin. Demak, bu ularning juda qadimiyligiga guvohdir”[6].

Yuqoridagi tip nomlar toponimiyaning lisoniy materialidek tasavvur tug‘diradi. Atoqli otlarning barchasi ham shaklan, lug‘aviy asosiga ko‘ra turdosh ot yoki boshqa tip oddiy so‘zlarga teng kelavermaydi. Masalan, qo‘shma atoqli otlar (Yangiyo‘l, Uchtut), qisqargan shaklli nomlar, so‘z birikmasi yoki gapga teng modellar (Yangihayot, Beshrabod, Yangiqo‘rg‘on kabilar) yoxud o‘zga tillardan o‘zlashgan, o‘zbek tilida lug‘aviy asosi mavjud bo‘lmagan nomlar (“Leningrad”

jamo'a xo'jaligi, "Moskva" jamo'a xo'jaligi, Sverdlov qishlog'i kabilar). Mana shunday onomastik modellar go'yoki atoqli otlarning o'z asl, lug'aviy asosi mavjuddek tasavvur uyg'otadi. Ammo aslida qayd qilingan nomlar negizida ham birdan ortiq oddiy so'zlar yotganini ko'ramiz. Bu so'zlar esa, bir tomondan faqat turdosh ot emas. Unda boshqa so'z turkumlarining elementlari ham bor. Ular faqat leksema (leksik birlik), ya'ni so'z holiday materialdan emas, sintaktik birliklar bo'lishi so'z birikmasi, hatto gaplardan ham tuzilganidir.

Shunga qaramasdan, tilshunoslikda atoqli otlar turdosh otlardan yasaladi, degan mulohaza keng tarqalgan.

Mana shu ma'noda "Atoqli otlarning ko'pchiligi turdosh otlar, ma'lum qismi boshqa turkumga oid so'zlar asosida paydo bo'ladi,"- deyilgan fikr haqiqatga yaqindir.

Atoqli otlar tizimi negizida yotuvchi leksemalar faqat turdosh otlardagina iborat emasligi masalani mana shu tarzda talqin etishdan qochishga sababchi bo'lmoqda. Shu sababli atoqli otlarga negiz bo'luvchi lisoniy materiallarni nomshunoslikka oid tadqiqotlarda "lug'aviy asos", "apellyativ", "apellyativ leksika", "toponimik leksika", "antroponimik asos", "toponimik asos" kabi atamalar bilan yuritilmoqda.

Taniqli nomshunos olim O.T.Molchanov prof. V.D.Bondaletov fikrlariga suyangan holda toponimlar tarkibida quyidagi lisoniy vositalar mavjud deb hisoblaydi: "Bu to'plam quyidagilardan tashkil topadi: 1) toponimik leksika, ya'ni aholi yashaydigan joylarni nomlash uchun foydalaniladigan barcha so'zlar yig'indisi; 2) barcha toponimik formantlar yig'indisi; 3) toponimlar yasashda ishtirok etadigan barcha grammatik kategoriyalar; 4) toponimiyada foydalanuvchi sintaktik aloqalarning barcha tiplari; 5) toponimni tashkil qiluvchi so'zlarning fonetik shakli; 6) tadqiq qilinayotgan toponimiyada uchraydigan lisoniy vositalar bog'lanishining barcha tiplari".

Atoqli otlarga asos bo'luvchi so'zlar haqida gap borar ekan, umuman biror til onomastik (atoqli otlari) tizimi uchun asos bo'lgan leksemalar yoki onomastik tizimning biror bo'limi (guruhi) uchun xarakterli bo'lgan leksemalar haqida gapirish mumkin. Mana shu nuqtayi nazardan, o'zbek tili onomastikasi (atoqli otlari)ning lug'aviy asoslari majmui yoki A.V.Superanskaya qo'llagan "leksemalar repertuari" haqida, yoxud "o'zbek tili toponimik leksikasi", "o'zbek tili antroponimik leksikasi haqida gapirish" mumkin. Bu o'rinda "apellyativ", "lug'aviy asos" termin va tushunchalari mos keladi, chunki bu ular atoqli otlar uchun asos bo'lgan faqatgina turdosh otlar negiziga emas, balki barcha til birliklarini ko'zda tutadi.

Lug'aviy asos, apellyativ terminlari onomastik birliklarning yuzaga kelishi uchun negizlik qiluvchi til materiallari majmuini ifodalay ekan, bu material faqatgina oddiy (atoqli ot emas) so'zlardagina iborat bo'lmagani ta'kidlash o'rinlidir. Yangidan yasalayotgan jug'rofiy nomning asosi atoqli ot yoki turdosh ot bo'lishi mumkin. Onomastik tadqiq otlarga atoqli otlarning lug'aviy negizi va yasali asosi haqida gap borganda mana shu xususiyat hisobga olinadi. Atoqli negizlardan atoqli ot yasalganda bunday nomlar, odatda, turdosh negizli nomlardan farqlanadi. Masalan, toponimdan toponim yasalsa – topotoponim, antroponimdan toponim yasalsa – antrotoponim, etnonimdan toponim yasalsa – etnotoponim deb yuritiladi. Bunday atamalar hozirgi paytda o'zbek nomshunoslarining ishlarida keng ko'lamda ishlatilmoqda.

Ba'zan tilshunoslikda "apellyativ", "lug'aviy asos" terminlari tor ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Bunda ular tilning butun onomastik sistemasining lug'aviy negizini emas uning biror tarmog'iga oid bo'lgan nomlarning (antroponimlar, toponimlar, gidronimlar kabi) lug'aviy negizini ifodalaydi. A.V.Superanskaya keyingi ma'nodagi tushunchalarni farqlagan holda ifodalash uchun "atroponimik asos", "toponimik asos" terminlaridan foydalangan.



Yuqoridagi mulohazalardan ma'lum bo'ladiki, otlarning lug'aviy negizini faqatgina turdosh otlar tashkil qilmaydi, balki ularda sifatlar, sonlar, fe'llar, hatto olmosh, undov va taqlidiy so'zlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli bunday leksemalar majmuini apellyativ, apellyativ leksika yoki lug'aviy asos (antroponimik asos, toponimik asos, kosmonimik asos, etnonimik asos kabi) deb yuritish o'rinlidir.

Mana shu nuqtayi nazardan ba'zi ishlarda uchraydigan "O'zbekiston oykonimlarini ikki yirik guruhga bo'lish mumkin: 1. Turdosh otlardan, ya'ni apellyativlardan tarkib topgan oykonimlar: 2. Atoqli otlar, ya'ni onimlar negizida tarkib topgan oykonimlar", kabi fikr yuritish apellyativni turdoshlar bilan tenglashtirish xatodir. Bu tilshunoslikda geografik terminlar, xalq geografik terminlari deb yuritilayotgan oddiy (turdosh) leksika va toponimlar yasashga asos bo'luvchi boshqa tip so'zlardir. Demak, "O'zbek tilining toponimik lesikasi" deyilganda toponimlar negizidagi oddiy so'zlar emas, balki toponimlar, toponimlar majmui (boyligi, fondi) tushunilishi lozim.

Apellyativ, onomastik negiz toponimik negiz, antroponimik negiz (asos) tushunchalari o'zbek nomshunosligida yetarli ravishda mezonlashgani yo'q. Buning yorqin misoli sifati "toponimik leksika", "apellyativ" tushunchasini S.Qorayevning turlicha talqin qilishida ham ko'rish mumkin. Bular quyidagilar: a) "toponimicheskaya leksika" tushunchasi oddiy, turdosh so'zlar ma'nosida talqin qilinadi; b) apellyativ tushunchasi turdosh ot tushunchasi bilan tenglashtiriladi: "turdosh otlardan, ya'ni apellyativlardan tarkib topgan oykonimlar"; v) goh apellyativ, goh topoleksema, goh turdosh ot terminlari farqsiz ishlatilaveradi: "apellyativlardan iborat antonimlar", "birgina topoleksemadan iborat oykonimlar", "faqat turdosh otlardan tuzilgan bo'ladi" kabilar. S.Qorayevning maqolasida "toponegiz" termini tilga olinadi: "toponimlarni hosil qilgan ana shu so'zlar toponegizlar deb ataladigan bo'ldi"[8]. Toponimiyaga doir adabiyotlarda atoqli otlar "maxsus nom" va "alohida nom" tarzida izohlanadi. Shunday qilib, atoqli ot bu mazkur predmetning birinchisini, turdoshini to'ldiruvchi, aniqlovchi, uni ma'lum bo'lgan mana shunday predmetlardan farqlashga xizmat qiluvchi ikkinchi nomidir.

Qayd qilinganidek, atoqli ot narsa, obyektlarning ikkinchi nomidir. Ammo atoqli otga negiz bo'luvchi so'zlarni va undan hosil bo'luvchi nomlarni mazmunan, shaklan, vazifasiga ko'ra, lingvistik xususiyati jihatidan bir xil hodisa deb tushunish o'rinsiz bo'lar edi. Gap shundaki, atoqli ot bilan unga asos bo'lgan so'z, hatto shaklan doimo A (apellyativ) + AO (atoqli ot) tarzida (masalan, ismlarda odil - Odil, go'zal - Go'zal, orasta - Orastaxon; toponimlarda yalang'och - Yalang'och, toshloq - Toshloq, buloqning boshi - Buloqboshi, kesilgan terak - Keskanterak, yangi bahor - Navbahor kabi) teng kelavermaydi. Atoqli otlar tizimi qandaydir o'ziga xos qo'shimcha elementlarni olib atoqli ot tarzida, ya'ni o'ziga xos tarzda qayta shakllanishga harakat qiladi. Natijada atoqli ot o'z apellyatividan shaklan uzoqlashadi. Masalan, o'zbek tilida toponimlar: 1) toponimik aniqlagichlarni qabul qiladi (Oqdaryo, Oqtepa, Oqcho'qqi, Oqtog', Oqmachit, Oqsuv kabi); 2) tarkibida dastlab mavjud bo'lgan aniqlagichlarni tushiradi, ellipsisga uchraydi (Amudaryo - Amu, Raboti Malik - Rabot; Jumabozor - Juma; Sirdaryo - Sir kabi); 3) qo'shimcha komponentlar oladi (Quyi Mirishkor, Eski Olot, Eski Angor kabi); 4) apellyativning dastlabki shaklidan davrlar o'tishi bilan shaklan uzoqlashib ketadi (Denov - Dehi nav; Kitob - kifti ob kabi) kabilar.

Atoqli ot bilan apellyativ shaklan mos kelgan taqdirda ham atoqli ot ma'no va vazifasiga ko'ra o'z lug'aviy negizidan farqlanadi. So'z toponimga aylanan ekan, ya'ni toponim "mana bu obyekt" ma'nosiga ega bo'lgach, hatto u tashqi tomondan o'zgarmsa-da, etimologik ma'nosi aniq ko'rinib turgan taqdirda ham o'zining avvalgi ma'nosidan uzoqlashadi.

Shunisi ham borki, atoqli otning lug‘aviy negizi atoqli ot vazifasiga o‘tishi bilan birdaniga atoqli otga aylanib qolmaydi. Olimlarning turkiy toponimlar yuzasidan olib borilgan kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina nomlar aslida yoyiq komponentli birikmalar bo‘lgan va ulardan yuzaga kelgan nomlar o‘sha birikmalarning ellipsis shaklidir. Lug‘aviy asosida ismlar, etnonimlar shaxsning yoshiga, kasb-koriga ijtimoiy mavqeyiga ishora qiluvchi turli so‘zlar yotgan toponimlar elliptik yasalmalardir. Chunki ular turkiy tillarda izofali qurilma shaklida qo‘llaniladi.

Apellyativ atoqli otga aylanishi uchun u ma‘lum darajada qayta shaklanish, moslashuv davrini o‘taydi. Aholi istiqomat qiluvchi joylarning nomlari deyarli bevosita turdosh otdan yasalgan bo‘lmaydi. Ijtimoiy o‘ylab topilgan nomlar bundan mustasno bo‘lishi mumkin. Tabiiy holda shakllangan toponimiyada toponim bilan uning lug‘aviy asosi oralig‘ida qishloq yonida yuzaga kelgan fizikaviy-jug‘rofiy obyektning yoki ushbu obyekt bilan yaqin aloqada bo‘lgan shaxsning ismi yoki otasining ismi yoxud familiyasi yotadi. Toponimik struktura bilan unga asos solgan apellyativ strukturaning to‘la mos kelmasligi apellyativda mavjud bo‘lgan ba‘zi grammatik shakllarning obrazli ot strukturasiga taalluqli bo‘lmasligi, balki uning tarkibida nofunktsional, qotgan insoniy element sifatida saqlanishini ham tasdiqlaydi. Masalan, Kulolchilik, Temirchilik, Paktakor singari toponimlar tarkibidagi –chilik va –kor qo‘shimchalari toponimik tizimning hosilasi emas, balki apellyativ negizda avval mavjud bo‘lgan ko‘rsatkichlardir. Shu sababli ham ko‘p hollarda atoqli otlar o‘zak va yasovchi morfemik strukturaga bo‘linmasdan yaxlit bir so‘z tarzida talqin etib kelindi: “Atoqli otni va uning turdosh otdan farqini belgilash hozirga qadar, asosan butun so‘z sathida olib borildi. Shu sababli ko‘pgina ishlarda kichikroq sathlar doimo ham hisobga olinavermaydi. Shuning uchun atoqli otni tashkil qilgan elementlar tahlil qilinmaydi, mavjud ishlarning aksariyatida atoqli otga bir butunlikka ega bo‘lgan so‘z sifatida qaraladi”[9].

Mana shunday fikr bildirilishiga qaramasdan, A.V.Superanskaya ham toponimlar ikki qismdan, negiz va formantdan tashkil topadi, deb hisoblaydi. Atoqli otning tuzilishi haqida gap borganda asos va formantlar haqida gapirilishi kerak, chunki nom asosi tarkibiga kiruvchi old qo‘shimchalar, o‘zak va suffikslar, odatda, atoqli otlikkacha bo‘lgan yasalishga tegishlidir. Atoqli ot tarkibiga ular tayyor asos (enonim) sifatida kirgan.

Demak, har qanday toponim negiz va formantdan iborat bo‘lar ekan. Negiz tarkibidagi ba‘zi so‘z va shakl yasovchi morfemalar bu leksemaning atoqli otlikkacha bo‘lgan hayoti uchun tegishlidir. Masalaga mana shunday yondoshish tufayli o‘zbek toponimiyasi tarkibidagi ko‘pgina yasama negizlar onomastik yasalish mahsuli deb talqin qilinayotganligining guvohi bo‘lamiz. Chunonchi: Ozodlik (ko‘cha, mahalla), Paxtakor (mahalla, shaharcha, futbol komandasi), Do‘stlik (mahalla, ko‘cha), Tinchlik (mahalla, ko‘cha, shaharcha), Xalqlar do‘stligi (ko‘cha, mahalla, metro bekati) kabilar.

Yuqorida qayd qilingan toponimlar tarkibidagi yasalish ko‘rinishlari onomastik yasalish mahsuli emas, balki bu so‘zlarning atoqli otlikkacha bo‘lgan davri mahsulidir. Shu sababli ham A.B. Superanskaya atoqli otlarning fonologik va morfologik tuzilishini tahlil qilar ekan, onomastika sathida so‘z yasalishi haqida gapirish o‘rinsiz, deb hisoblaydi va shunday deydi: “Ishda ongli ravishda so‘z yasalishi emas so‘z yasalish morfologiyasi termini qabul qilinadi. Chunki so‘z yasalishi deyilganda muallif jonli mahsuldor jarayonni tushunadi. Atoqli otlarning aksariyati o‘tmish davrlarda yasalgan bo‘lib, hozirda esa ularning yasalish mexanizmini ochish mumkin, xolos. Endilikda ulardan juda kam hollardagina foydalaniladi.

Tilshunoslikdagi “leksema” tushunchasini “toponim” bilan bir qatorga qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki tildagi umumiy leksika kishilik jamiyatidagi aloqaning barcha sohalarida qatnashadi. Maxsus leksika esa funktsional doirasi, lisoniy funksiyasi chegaralangan leksikadir. Demak,

toponimlarning yasamaligi haqida gapirilganida bu leksemaning toponimlikkacha va toponimlik davridagi lug‘aviy ma’nosini hisobga olish lozim bo‘ladi. Toponimiyada hosil qiluvchi va hosila orasidagi munosabat toponimlik va toponimlikkacha bo‘lgan ma’nolarda ifodalanadi. Ushbu qarashga asoslanilsa, topoformant deb yuritiluvchi vositalar toponimgacha bo‘lgan davr mahsullarini anglatadimi yoki toponimiya davri va toponimlikkacha bo‘lgan davrdagi barcha vositalarni anglatadimi, deyilgan savol tug‘iladi. Prof. Z.Do‘simov ishida u toponimlarni ularning lisoniy tarkibiga qarab uchga bo‘ladi: a) apellyativ toponimlar, b) formantli toponimlar, v) affiksoidli toponimlar. Uning o‘z ishida topoformantlar uchun keltirilgan misollarga qaraganda, u formant deb toponimlikkacha bo‘lgan qo‘shimchalarni ham, toponimik davrdagi funksional qo‘shimchalarni ham ko‘zda tutadi.

A.Otajonova formantli nomlar deb “tarkibida har xil grammatik elementlarni saqlagan etnotoponimlarni” tushunadi va bunday formantlardan -li (qarg‘ali, sirg‘ali), -chi (bo‘yoqchi, baliqchi), -lar (ho‘kizlar, qarg‘alar), -cha (qoracha) shaklida tahlil qilgan”[10].

Toponimik formant deb tahlil qilingan yuqoridagi qo‘shimchalarning barchasi toponimlarni emas, etnonimlarni yasagan. Demak, ular atoqli ot tarkibida toponomik davrgacha mavjud bo‘lgan morfemalardir. Shunday qilib, A.Otajonova topoformant deb toponim uchun asos bo‘lgan lug‘aviy negizga (etnonimga) xos bo‘lgan yasovchilarni tushunadi. Ushbu nuqtayi nazar keyinchalik A.Turobov tomonidan ham aynan qabul qilindi va Samarqand viloyati etnooykonimlarini apellyativ asosli nomlar, formantli nomlar, toponimik aniqlagichli nomlarga bo‘ladi va formantli nomlarni u shunday izohlaydi: “Avval ham qayd qilganimizdek, etnooykonimlar grammatik tarkibida uchraydigan ko‘pgina yasama tuzilmalar toponimlar emas, balki etnonimlar tizimi uchun tegishlidir. Ular tarkibidagi qo‘shimchalar ba’zi komponentlar etnonimlar yasashga xizmat qilgan lisoniy materialdir”[11]

Demak, A.Turobov formant deyilganda atoqli otga emas, balki uning negizida yotgan leksemaga (bu o‘rinda etnonimlarga) tegishli so‘z yasovchi morfemalarni tushunadi.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib qisqacha xulosa qilinadigan bo‘lsa, atoqli otlar strukturasi tadqiqotchilar tomonidan quyidagicha materiallardan iborat, deb tushunilmoqda:

1. Lug‘aviy negiz ya’ni apellyativ asos.
2. Formant (antropoformant, topoformant kabi)
3. Onomastik aniqlagichlar (toponimik aniqlagich, antroponimik aniqlagich kabi)

O‘z navbatida formant atoqli ot tarkibida lug‘aviy negizdan tashqari uchraydigan har qanday qo‘shimcha (yasovchi morfema) tarzida tushunilganida formant ikki xilga bo‘linadi: 1) lug‘aviy negizga mansub bo‘lgan formant; 2) atoqli otga tegishli bo‘lgan formantlar. Bulardan birinchisi onomastik sathgacha bo‘lgan mavjud morfemalar bo‘lsa, ikkinchisi onomastik sath uchun tegishli morfemalardir.

Onomastik negiz, formantlar haqida gap borganda tub yoki yasama (sodda) tuzilishli nomlar ko‘zda tutiladi. Onomastik aniqlagichlar esa qo‘shma tuzilishli nomlarni yasashga xizmat qiladi: Karvonsaroy, Yangiobod, Qirqariq, Keskanterak kabi.

Onomastik negizlar (toponegizlar, antroponegizlar) ya’ni apellyativlar turli xarakterda bo‘lishi mumkin:

- 1.O‘lik apellyativlar
2. Arxaik apellyativlar.
- 3.Funksional apellyativlar ya’ni qo‘llanishda bo‘lgan zamonaviy so‘zlar.
4. Neologizm apellyativlar.

O'lik apellyativlar allaqachon iste'moldan chiqib, o'lik tilga aylangan tillarning atoqli otlar tarkibida uchraydigan qoldiqlaridir.

Arxaik apellyativlar o'tmishda o'zbek tili tarixida iste'molda bo'lgan, hozirda iste'moldan chiqqan, ammo atoqli ot tarkibida saqlanib qolgan leksema- negizlardir. Chunonchi, Dergez, Kerayt (toponim) kabi.

Umuman, o'zbek tilidagi onomastik apellyativlarni ikkiga bo'lish mumkin: a) turdosh so'z apellyativlar; b) atoqli ot apellyativlar. Atoqli ot apellyativlar atoqli otning ikkinchi (uchinchi) bor atoqli otlar vazifasiga ko'chishidir. Masalan, Mavlonbobo, Mirzamo'min, (ismlar) O'razobod (qishloq), Qilichotatepa (tepa) va boshqalar.

Biz o'z maqolamizda "formant" tushunchasini quyidagicha talqin qilishni ma'qul ko'rdik: a) atoqli ot tarkibida uchraydigan, ammo atoqli otni yasashga xizmat qilmaydigan formantlar; b) apellyativ leksika tarkibida qoldiq shakl holida uchraydigan formantlar; v) nom tarkibida nofunktsional, formal qotgan holda mavjud bo'luvchi, ammo nom tarkibidan chiqarib tashlash mumkin bo'lmagan formantlar; g) apellyativ bilan birgalikda yaxlit bir negiz holida tushuniladigan morfema-formantlardir.

Har qanday tildagi atoqli otlarning lug'aviy negizlarini o'rganish bir qator muammolarni to'g'ri hal qilishga imkon beradi. Bular:

- aniq bir tildagi atoqli otlar uchun negiz bo'lib xizmat qiluvchi leksemalarning tiplari belgilanadi;

- bunday leksemalarning hajmi, miqdori aniqlanadi;

- nomni tashkil qiluvchi asosiy va qo'shimcha komponentlar aniqlashadi;

- nomning ma'nosi va etimologiyasini ochishga ko'maklashadi;

- onomastik tizimda o'z va o'zlashma materialning o'rni va mavqeini aniqlashga imkon beradi;

- onomastik tizimdagi tarixiy va zamonaviy nomlar orasidagi munosabatni, onomastik an'analarni kuzatishga imkon beradi va boshqalar.

Yuqoridagi tahlillardan chiqadigan umumiy xulosa shundan iboratki, toponimlar tildagi mavjud lug'aviy imkoniyatlar (apellyativ) asosida yasaladi. Bunday lug'aviy material ikki xildir: turdosh so'zlar va atoqli otlar. Atoqli otlarni hosil qilishga xizmat qiluvchi, ya'ni lug'aviy baza bo'luvchi atoqli otlarni apellyativ deb yuritish biroz erish tuyuladi. Chunki, apellyativ deyilganda, asosan, tildagi oddiy so'zlar, ya'ni turdosh leksika tushunib kelinadi. Bordi-yu, apellyativ o'rnida lug'aviy negiz deb olinsa, atoqli ot negizlar ham til leksikasining tarkibiy qismi sifatida qayd qilingan noqulaylik yo'qoladi. Ammo bu o'rinda apellyativni umuman atoqli otlarning lug'aviy bazasi, ularni yasash uchun xizmat qiluvchi material sifatida tushunish lozim bo'ladi. Demak, keng ma'noda toponimlarni yasash uchun xizmat qiluvchi turdosh so'z ham, atoqli ot ham apellyativlik mohiyatiga egadir. Ammo ilmiy tadqiqotlarning qonun-qoidalari toponim uchun asos negizlarni o'z nomi bilan farqlab atashni talab qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbek tili grammatikasi, 1 - tom . – Toshkent: Fan, 1975. - 127-bet.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: O'qituvchi, 2015. 215-bet.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: O'qituvchi, 2015. 215-bet.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992, 251-bet.
5. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullatev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992, 251-bet.

6. Shishkin V.A. Varaxsha. M., 1963 – C 28-29.
7. Qorayev S. O‘zbekiston oykonimlarining toponimik leksikasi G‘.G‘ Toshkent shahri va viloyati toponimlari. - Toshkent,1994. – B. 54.
8. Qorayev S. O‘zbekiston oykonimlarining toponimik leksikasi G‘,G‘ Toshkent shahri va viloyati toponimlari. - Toshkent,1994. – B. 53-54.
9. Superanskaya A.V. Struktura imeni sobstvennogo. –M.: Nauka, 1972. – S. 67.
10. Otajonova A. Xorazm etnotoponimlari. - Toshkent: Fan,1997. – B. 82-85.
11. Turopov A. Samarqand viloyati etnonim va etnotoponimlari tahlili. NDA. - Toshkent,1999. – B. 12

## NUTQ MADANIYATINING XALQIMIZ IJTIMOIIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

*M.Ubaydullayeva,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti*

*M.Muhammadiyeva,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-kurs talabasi*

*(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Ma’lumki, o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lgan hozirgi o‘zbek adabiy tili turkiy tillar doirasidagi eng taraqqiy etgan tillardan biri hisoblanadi. Respublikamizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi, mamlakatimizning rivojlanayotgan davlat sifatida Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yishi, tilimiz respublikamiz hududida Davlat tili sifatida amalda bo‘lishini ta’minlovchi bir qator qonunlarning e’lon qilinishi tilimiz rivoji uchun hissa qo‘shgan ajdodlarimiz merosini o‘rganishga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Tarixda “so‘z odobi”, “nutq odobi”, “til madaniyati” va keyinchalik “nutq madaniyati” deb yuritilgan soha bugungi kunda bizning mamlakatimizda taraqqiyotning yangi pog‘onasiga ko‘tarildi. Ushbu maqolamizda nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan fikr-mulohazalar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq, nutq madaniyati, til madaniyati, me’yor, adabiyotshunoslik, tilshunoslik.

**Аннотация.** Известно, что нынешний узбекский литературный язык, имеющий многовековую историю, является одним из наиболее развитых среди тюркских языков. Именно наши предки внесли свой вклад в развитие нашего языка, когда наша республика обрела независимость, когда наша страна вступила в эпоху Третьего Возрождения как развивающаяся страна, когда был обнародован ряд законов, гарантировавших, что наш язык стал государственным языком в территория нашей республики открыла широкие возможности для изучения его наследия.

В истории области «речевой этикет», «культура языка», а позднее и «культура речи» сегодня в нашей стране достигли нового уровня развития. В данной статье анализируются мнения по исследованию вопросов культуры речи.

**Ключевые слова:** речь, речевая культура, языковая культура, нормы, литературоведение, языкознание.

**Annotation.** It is known that the current Uzbek literary language, which has a centuries-old history, is one of the most developed among the Turkic languages. It was our ancestors who contributed to the development of our language, when our republic gained independence, when our country entered the era of the Third Renaissance as a developing country, when a number of laws

were promulgated that ensured that our language became the state language in the territory of our republic opened up great opportunities to study his legacy.

**Key words:** speech, speech culture, language culture, norms, literary criticism, linguistics.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojatnomasida “Buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o‘z davrida yoshlarga murojaat qilib, “Quyoshliq istasang, kasbi kamol et”, deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga quyoshdek beminnat nur taratishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson, kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarini o‘zlashtirishi lozim. Hozirgi davrda xorijiy tillarni mukammal o‘rganmasdan turib, buyuk bobomiz aytgan ana shunday marralarga erishib bo‘lmaydi, desak, adashmagan bo‘lamiz”[1] degan fikrlarni bildirgan edi. Prezidentimizning bu fikrlari ajdodlarimiz ma‘naviy merosini o‘rganishimizda dasturul amal hisoblanadi.

Yurtimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi jamiyatda inson faoliyatining barcha sohalari qatori o‘zbek tili rivojida ham muhim burilishlar yasadi, mavqeining tiklanishiga, oiladan tortib turli rasmiy doiralarda muhim o‘rin egallashiga zamin yaratdi. Yurtimizda o‘zbek tilini rivojlantirish masalasining davlat til siyosati darajasiga ko‘tarilishi tilimizning mamlakatimiz ichida va tashqarisida qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk marotaba o‘zbek tilida so‘zladi. “2020-yil 23-sentabr kuni bu mas‘uliyat yanada oshdi yelkamizga sharaflı bir vazifa yuklandı. Shu sanada O‘zbekiston tarixida, hech ikkilanmay aytish mumkinki, mustaqillik yillarida erishilgan buyuk voqeiklardan biri ro‘y berdi. Bashariyat o‘zining ko‘p ming yillik kechmishi davomida o‘ylab topgan eng yirik, eng oliy tuzilma – Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbaridan butun boshli bir nutq o‘zbek tilida, sizni bizning ona tilimizda yangradi. Uni tuni kunduzday charog‘on katta shaharlaru, hali-hamon to‘qayzoru purviqor tog‘larni makon tutgan kichkina qishloqlar aholisi, mangu muzliklaru poyonsiz sahrolarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar ham tingladi.”[2]

Yurtimiz rahbarining yuksak minbarlarda o‘z ona tilida so‘zlashi tilimizga bo‘lgan hurmat, ehtirom ramzi sifatida butun dunyo hamjamiyati vakillari tomonidan e‘tirof etildi. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ish yuritishda, davlat tashkilotlari hujjatlarini rasmiylashtirishda, madaniy va ma‘naviy tadbirlar o‘tkazishda, ta‘lim tizimining turli bosqichlarida barcha ishlar davlat tilida olib boriladigan bo‘ldi. Endilikda mamlakatimizdan tashqarida ham turli rasmiy aloqalarda o‘zbek tilining Davlat tili sifatida qo‘llanishi qonuniy tarzda belgilab qo‘yildi. Mamlakatimizda o‘zbek tilining qo‘llanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, barcha muassasa va tashkilotlar, maktabdan tortib oliy o‘quv yurtlarigacha o‘zbek tilining rolini kuchaytirishga ahamiyat berish, o‘zbek tilida ish yuritishga qay darajada amal qilinayotganligi nazoratga olindi. Bugungi kunda butun dunyoda O‘zbekistonga, o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Dunyoning ko‘plab tadbirlari, ilmiy-nazariy anjumanlari yurtimizda o‘tkazilmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda oliy ta‘lim dargohlarida o‘zbek tili o‘qitilmoqda. Bu esa o‘zbek tilining ta‘lim tizimidagi rolini yanada kuchaytirish, chet elliklarga o‘zbek tili, o‘zbek nutqi madaniyatini o‘rgatish chora-tadbirlarini ko‘rish, tilimizning qo‘llanishini, mavqeini jahon tillari darajasiga ko‘tarishni taqozo qilmoqda. Ana shu jihatdan olib qaraganda, o‘zbek nutq madaniyati muammolarini o‘rganish va ularning ilmiy yechimini topish, hal qilish, bugungi kunda tilshunosligimiz oldidagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Shuning uchun nutq madaniyati bilan bog‘liq masalalarga alohida e‘tibor qaratish, uni rivojlantirish bilan bog‘liq ishlar bu boradagi muammolar yechimini topishga, tilimiz rolini yanada oshirishga yo‘naltirilgan.

Keyingi yillarda o'zbek tilini har tomonlama puxta o'rganish, uning fonetik, leksik, grammatik qurilishini, fanning boshqa turlari bilan bog'liq jihatlarini chuqur tadqiq etish bo'yicha darsliklar, qo'llanmalar va yuzlab maqolalar yaratildi. Xuddi shuningdek, nutq madaniyatini o'rganish bo'yicha ham ancha ishlar amalga oshirildi. Ta'lim dargohlarida nutqni o'stirish, notiqlik san'ati va nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limlarning ochilishi, nutq madaniyatiga oid masalalarning oliy o'quv yurtlarida maxsus kurs sifatida o'qitilishi, matbuot, radio va televideniye orqali tushuntirish ishlarining olib borilishi, xalq orasida turli xil davra suhbatlarining o'tkazilishi hamda ilmiy, ilmiy-ommabop xarakterdagi har xil darslik va o'quv qo'llanmalari, maqolalar to'plamlarining nashr etilishi ana shular jumlasidandir.

“Albatta, til birliklari shakl va ma'no yaxlitligidan iborat. Ammo til madaniyati ana shu ma'noning ijtimoiy voqelanishi bilan belgilanadi”, – deb yozadi L.Raupova. – Buni yaqqol tasavvur qilish uchun til va nutqni farqlash lozim ma'lum bir millatning eng muhim o'zaro aloqa-aralashuv vositasi til deyiladi.

Uning ming-ming yillar davomida shakllangan qonun-qoidalari shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilar uchun majburiy. Barchamizda uzoq zamonlar osha yig'ilgan boylik – til imkoniyatidan foydalanish ehtiyojimiz bor. Tilimiz fikr almashish ehtiyojlarimizni to'la qondira olish darajasida har jihatdan mukammallik kasb etgan. Ana shu mukammallik til madaniyati deyiladi[3.7.]

Bugungi kunda nutq madaniyatining eng katta yutuqlaridan biri o'zbek tili me'yorlarining puxtalanganligidir.

Tilimizning tobora boyib taraqqiy etishida millatimiz orasidan yetishib chiqqan ijodkorlar, so'z san'atkorlari, tilshunos va adabiyotshunos olimlar, yozuvchi va shoirlar, ommaviy axborot vositalari xodimlarining xizmatlari juda salmoqlidir. Televideniya nutq madaniyatini rivojlantirishga oid ko'rsatuvlarning berilishi soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tilimizda me'yorlashish masalasining ma'lum bir echimga kelganligi, og'zaki va yozma nutqda amal qilinishi lozim bo'lgan me'yorlarning ishlab chiqarilganligi, shu asosda tilimiz rivojidadagi ma'lum bir muammolarning bartaraf etilishi shubhasiz, ana shu kishilarning xizmatlari bilan bog'liq. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati sohasida barcha muammolar hal etilgan, degan xulosaga kelish xato bo'ladi.

Biz o'z mustaqilligimizga erishmasdan oldingi davrdagi holat bilan tilimizning bugungi kundagi ahvolini taqqoslasak, bu narsa aniq seziladi. O'tgan yillar mobaynida rus tilining kuchli ta'siri oqibatida o'zbek tili tashqi ko'rinishdan turli xil kerak-nokerak so'zlar bilan ancha boyigan bo'lsa-da, o'z imkoniyatlarining cheklab qo'yilishi hisobiga ma'lum darajada qashshoqlanib ham qoldi. Hatto “yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalaridan tortib, ilmiy darajali va unvonli kishilarning nutqlari ham ta'sirsiz, g'aliz bo'lib qoldi. Ularning nutqida izchillik yetishmaydi, xorijiy so'zlar noo'rin ishlatiladi“ [4.36.]

Ko'rinadiki, rus tili bizning hayotimizga shu darajada singib ketgan ediki, hatto bugungi kunda o'z millatimiz vakillariga ham o'zbek tilini o'rgatishni vaziyat taqozo qilmoqda. Muomala jarayonidagi mavjud nutqiy kamchiliklar nutq madaniyatiga umummilliy muammo sifatida jiddiy munosabatda bo'lish zaruratini keltirib chiqardi. Insonlar kundalik nutqiy munosabatlarida til birliklarning noto'g'ri tanlanishi, varvarizmlar, vul'garizmlarga keng o'rin berilishi nutqning ta'sirsiz, g'aliz bo'lishiga olib keladi. Bu holat nafaqat so'zlashuv nutqida, balki keyingi yillarda yaratilgan bir qator asarlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu kabi nutqiy kamchiliklar mavjud ekan, nutqimiz madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammo sifatida kun tartibidagi eng muhim vazifalaridan bo'lib qolaveradi.

Til birliklarining nutqiy vaziyat uchun eng kerakli, zarurini tanlay bilish, nutqning ifodali, ta'sirchan obrazli, qisqa, aniq, lo'nda, tushunarli bo'lishi, unda fikr takrori, ortiqchalikning bo'lmasligi, tinglovchi yoki o'quvchida ifodalanayotgan fikrga nisbatan ma'lum bir his-tuyg'ularning uyg'onishi - bularning hammasi nutq madaniyati tushunchasida mujassamlashgan.

Demak, nutq tuzishda tilda mavjud bo'lgan birliklarni tanlab olib, qo'llash usullarini hamda adabiy til me'yorlarini, shuningdek, ularning nutq jarayonida amal qilish sirlarini tahlil etish "o'zbek nutqi madaniyati" sohasining tadqiq etish maydoni va vazifasi hisoblanadi.

Me'yor –"nutq madaniyati" sohasining asosi hisoblanadi. O'zbek tilshunos olimlari E.Begmatov va M.Tursunpo'latovlarning ko'rsatishicha, "nutq madaniyati sohasining o'zbek adabiy tili normalarining o'rganish doirasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) o'zbek adabiy tilining normativ lisoniy imkoniyatlari tadqiq qilinadi, uning umumiy holati belgilanadi (til madaniyati);

b) o'zbek adabiy tilining normativ lisoniy vositalari nutq madaniyati nuqtai nazaridan baholanadi, uning adabiy –badiiylik xususiyatiga ega deb atalishi mumkin bo'lgan vositalari aniqlanadi (til madaniyati);

d) nutq madaniyati sohasi o'zbek adabiy tiliga faol aralashar ekan, undagi jonli nutq uchun foydali, nafli tavsiyalarni ajratib oladi (til madaniyati);

ye) o'zbek adabiy tilining normativ lisoniy vositalari o'z vazifasini qay darajada o'tashi jonli nutqiy jarayonda kuzatiladi (so'zlash madaniyati);

f) o'zbek tili normativ tizimining joriy sistemasi (til madaniyati va so'zlash madaniyati holati) belgilanadi, tegishli ilmiy xulosalar chiqariladi. Til normasi va nutq madaniyati uchun yangi tavsiyalar beriladi"[5.12.]

Ko'rinadiki, tilda me'yoriy mukammalikka erishish, shu mavzular doirasida qaraluvchi o'qituvchi nutqi madaniyatini har tomonlama taraqqiy ettirish, og'zaki va yozma nutqda uchraydigan har xil nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish amalda bo'lgan milliy adabiy tilning boshqa tillar orasidagi mavqeini belgilab beruvchi ijtimoiy va siyosiy masala sifatida davlat ahamiyatiga egadir. Nutq madaniyati uzluksiz rivojlanishda. Tilimiz asrlar davomida boshqa tillar bilan aloqada bo'ldi, ulardan so'zlar qabul qildi, lug'at tarkibini boyitdi. Jamiyat taraqqiyoti bilan bab-baravar aholi soni, binobarin, ularning tilga bo'lgan ehtiyoji ham o'sib boraveradi. Bu ehtiyojlarni qondirish zarurati esa o'z navbatida tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi tabiatini, mohiyatini, vazifasini o'rganishni taqozo qiladi, nutq jarayonidagi iste'molda bo'lish xususiyatlarini kuzatishni keltirib chiqaradi. Agar mana shu aytilganlarni boshqacharoq tarzda izohlash mumkin bo'lsa, til va nutq me'yorini o'rganish, tahlil qilish kuzatuvchilarning asosiy muddaosiga aylanib qoladi.[6.10.]

Nutq madaniyatida xalq madaniyati, axloqi, dunyoqarashi aks etadi. Bu soha til taraqqiyotiga bog'liq holat muntazam ravishda o'zgarib turadi, rivojlanib boradi. Shuning uchun unga doimiy rivojlanishda bo'lgan mukammalashib boruvchi jarayon sifatida munosabatda bo'lish lozim. Inson ma'naviyati bilan bog'liq bu jarayonga har bir joyda alohida jiddiy e'tibor berilganligi jahon xalqlari tarixidan ma'lum. Bugungi kunga kelib, fanning bu sohasi paydo bo'lishi va shakllanishiga ko'ra, olis davrlarga borib taqaladi. Nutq madaniyati va notiqlik qadimda Rim va Afinada tarixning ma'lum asrlarida rivojlandi, undan ham oldinroq qadimgi Misr, Assuriya, Vavilon va Hindistonda taraqqiy qilganligi ma'lum. Xorijda nutq madaniyati tarixi Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Demosfen, Esxil, Sitseron kabi olimlar nomi bilan bog'liq bo'lsa, Sharq, Markaziy Osiyoda etishib chiqqan Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy,



Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi allomalar asarlari , ularning nutq madaniyati va notiqlikka oid qarashlari davrlar osha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

Tarixda “so‘z odobi”, “nutq odobi”, “til madaniyati” va keyinchalik “nutq madaniyati” deb yuritilgan soha bugungi kunda bizning mamlakatimizda taraqqiyotning yangi pog‘onasiga ko‘tarildi. Bu davrda nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan qo‘llanmalar, yuzlab ilmiy maqolalar to‘plamlari, ilmiy- ommabop xarakterdagi maqolalar yaratildi. Bu davrda o‘zbek tilining uslubiy jihatlari keng tadqiq etildi. E.Begmatov, A.Shomaqsudov, R.Qo‘ng‘urov, X.Doniyorov, I.Mirzayev, S.Karimov, B.Yo‘ldoshev kabi olimlar nutq madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsalar, H.Berdiyev, Z.Pardayev, O.Anorqulova kabi olimlar ta‘lim jarayonida buni talabalarga o‘rgatmoqdalar.

Nutq madaniyatini o‘rgatishning yuqori bosqichi hisoblangan oliy ta‘limda mutaxassis tayyorlash bilan birga talabaga avvalo, til birliklarini tanlashni, ularning ma‘nolaridagi o‘ziga xosliklar, nutq ko‘rinishlarida uslubiy xosliklar mavjudligi, ifoda vositalari, til birliklarining badiiy-estetik vosita sifatida tutgan o‘rni kabi masalalar to‘g‘risida ma‘lumot beriladi.

Yuqorida aytilganlardan nutq madaniyati tilshunoslikning maxsus bo‘limi ekanligi, uning taraqqiy etishi adabiy til rivojiga, me‘yorlashuviga bog‘liqligi ma‘lum bo‘ladi.

#### ADABIYOTLAR

- 1.<https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. <https://uza.uz/uz/posts/prezident-shavkat-mirziyeevning-bmt-75-sessiyasida-s-zlagan--29-09-2020>
- 3.Raupova L.Nutq madaniyati /darslik/Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019. B.7.
- 4.Ўзбек нутқ маданиятининг долзарб муаммолари.-Тошкент, 1990, -Б.36.
- 5.Бегматов Э., Турсунпўлатов М.Ўзбек нутқи маданияти асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1991. Б.12.
- 6.Каримов С.А. Тил таълимий ва меъёр. Ўқув қўлланма. - Тошкент : Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриё- ти.2002.Б.10.

#### PSYCHOLINGUISTIC CHARACTERISTICS OF UZBEK AND ENGLISH MEDIA TEXTS

*Kholibekova Omongul Kenjaboyevna,  
Navoi State Pedagogical Institute, senior teacher (PhD)*

**Abstract.** Media text - broadcast on television and radio, published in print and boarding school texts. In the article, the phrases that appear in advertisements and on social media in English and Uzbek, because the popularity of the text given on the social network is characterized by a high level of influence

**Keywords:** media text, advertising, semantics, connotative, conceptual, reflective, effective meaning.

The psycholinguistic study of text in modern linguistics is attracting the attention of many linguists. In linguistics, this is a new field that has emerged from the intersection of linguistics and psychology. Because linguistic activity, on the one hand, is the object of study of linguistics, on the other hand, it is also the subject of study of psychology. Thus, there is a point of intersection between linguistics and psychology, and the point of intersection between these two disciplines is the object of study of psycholinguistics[10.]. The purpose of speech is not only to convey information to the listener, but also to what extent it affects him. These two factors ensure

that speech is the object of psycholinguistic research. The features of speech listed above are especially evident on social media. Because the popularity of the text given on the social network is characterized by a high level of influence

Scholars have given different definitions to psycholinguistics, a relatively new branch of linguistics. In particular, according to Azim Khodzhiev, psycholinguistics is a branch of linguistics that studies the speech activity in terms of the interaction between the content of the speech act and the purpose of the speaker. Emerging as a synthesis of psychology and linguistics, this field studies issues such as speech perception, language acquisition (the child's ability to speak, bilingualism) [11.70]. The structural-semantic structure of speech, the time of speech, speech conditions, speech situation are important in the psychological impact on a person. All of this determines whether the speech effect is positive or negative. The impact function of speech is evident in the analysis of internet texts. This can be seen in the media texts. That is, in psycholinguistics, the relationship between a person's speech and the intended purpose of that speech is studied.

Another form of media texts are advertisements. Accuracy in advertising and effectiveness depends on the careful use of words. Words used to convey meaning clearly and vividly to listeners and readers. As we know, there are two types of meanings, denotative and connotative. Denotative meaning is the word's own lexical meaning, and connotative is an evaluative, inferential or emotional meaning. Symbols are roughly the same for people using the same vocabulary, but words have different meanings for different people. Here, meanings are influenced by the context in which they are used, the relationship between the sender and receiver, and many other variables. So, the denotation of a word is the literal meaning, and the connotation is the meaning associated with it. An ad that conveys meaning uses a wide range of words. Words often refer to power, reliability, excellence, fame, and other similar qualities. Advertising language is connotative. Below we will analyze the meaning of Coca Cola advertisement.

"For a good family vacation, take a break, refresh, and continue. Coke watch your favorite movie with Coke." (From Advertisement) With family, break, refresh and favorite movie words in this ad used to acquire social skills. Advertiser when the viewer relaxes with a drink and a movie, ideal for the family, these words that convey that a refreshing drink has a positive effect on a person and motivates him to buy the product. The main purpose of advertising is to mediate the sale of a product.

Marketers who understand this deeply are very careful about the use of words in advertising they care. This is the Coca-Cola advertisement in English: "Coca-cola real refreshment for everyone - any time of a day. Out and about, or at home with the family, it is always the right time and place for "coke".

Pure and wholesome, delicious and refreshing, Coca-cola is unlike any other drink in the world. Enjoy "coke" whenever you feel like a "break"- and return to work (or play) wonderfully refreshed!" (From Advertisement)

In this ad, refreshment, with family, pure pure, wholesome, delicious, enjoy and wonderful.

Adjective words such as refreshing have an emotional meaning, evoking a wonderful feeling in the listener or reader and causing them to taste this drink. These words also evoke feelings and images.

They give us not only information, but also the feelings of the user will give. The words in the ad also rhyme, i.e. coke and break such as. A word like "family" is like a specific emotion and is highly emotional in the caption. The emotional tone of the words is always pleasant. The reason for

this is that advertising seeks to influence the audience, and therefore should use words with a pleasant meaning. The word "family" appears in almost all advertisements. For example, the lexeme "family" in the advertisement of "Artel" company "Big refrigerator for the big family" or "For the whole family" in the advertisement of medicines evokes emotions in the minds of listeners. In addition to connotative and denotative meanings, there are also other forms of meaning, effective meaning and evocative meaning.

“Dr Rachel White's Fade Soap, skin lightening, all skin types suitable for even sensitive skin, the soap whitens black and yellow spots on the face, elbows, knees, ankles, armpits, bikini area and other parts of the body, makes the skin soft and pleasant, see results in just 3 days ". (From advertisement)

This soap advertisement on social networks has an emotional factor obtained with the help of an emphatic determiner and special adjectives. An important aspect of this ad is that the word "white" is polysemic and has a color of meaning, that's why the creator of the ad used this word, along with the description of the product, its result is known in 3 days. has been shown, and this can increase the expressiveness and lead to more product purchases.

Although A.A. Potebnya thought about almost all levels of language structure, his views on the nature of language, language and speech, the relationship between language and thought, especially his relationship to language and the human psyche, are noteworthy. His views on this subject later served as the basis for the emergence of research in the theory of speech activity, speech system, psycholinguistics. In his view, language does not express a ready idea, but shapes it [14]. It does not interpret speech in isolation from the process of comprehension, on the contrary, it promotes the idea of the process of comprehension of speech, of analysis together with the listener. In this way, the scientist understands that the speaker-listener relationship should be the object of linguistic research. In his view, in fact, there is only speech, and the meaning of the word is manifested only in speech. Any word taken out of speech becomes a dead word. The word expresses its meaning in the context of the sentence, surrounded by other words. Each time a word expresses a new meaning in speech, the lexical and grammatical meanings of the word are created by the individual. These views of A.A. Potebnya are not far from the truth, in our opinion. Because by taking words out of context, the semantics of a sentence can be completely reversed. We can see this situation in the following example. This channel on Facebook is leaving this post: Turkiyaga kelgan Rim Papasi yo‘l chetida axloqsiz ayollarga ko‘zi tushadi va shunday deydi:-Turkiyada axloqsiz ayollar ham bormi?Turk nashrlari vaziyatni qo‘llardan chiqarmaydi va nashriyotda “Rim Papasi Turkiyaga kelishi bilan “Turkiyada axloqsiz ayollar bormi?”,-deb so‘radi” mazmunidagi maqolalarni tarqatib yuboradi.(The Pope, who came to Turkey, saw immoral women on the side of the road and said:- Are there any immoral women in Turkey?

Turkish media outlets do not take the situation lightly and publish articles saying, "As soon as the Pope arrives in Turkey, he asks, 'Are there any immoral women in Turkey?)" (Facebook). It is clear from this post that taking a word or phrase out of context can completely change the context. Typically, such posts are used to distract public opinion from the stated content or to create content that is completely opposite to that content.

In conclusion, when studying the psycholinguistic features of posts left on Facebook, it is often intended to convey different psychological effects on people, even if the focus is primarily on information dissemination and widespread dissemination. Sometimes fake messages are also used to enhance the exposure function. At the same time, Facebook texts (social networks in

general) can distract people from a very important part and draw attention to even the most absurd problems.

#### REFERENCES

1. Xojaliyev, I. T., & Jamolov, Jumaboy. (2021). About changes in the phonetic structure of words borrowed in Uzbek language from Tajik. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(104), 478.
2. Xojaliyev, I. (2021). *Methodology And Significance Of Meaning In Translation Of Uzbek Literature*.
3. Goddard A. *The Language of Advertising*. – London, Routledge, 1998
4. Hartley J. *Understanding News*. – London, Routledge, 1999.
5. Leech G. *Semantics: The Study of Meaning*. – Penguin: London, 1981. – 91p.
6. Neale S. Determinations of meaning. In *Oxford Studies in the Philosophy of language Vol 2*. E. Lepore and D. Sosa (eds) Oxford: Oxford University Press, 2005
7. Svan M. *Practical English Usage (2nd edition)*. – Oxford: Oxford University Press, 1995. - 55 p.
8. Williamson, J. *Decoding advertisements: Ideology and meaning in advertising*. – London: Marion Boyars, 197 p.
9. Watson J. *A Dictionary of Communication and Media Studies*. – London, Macmillan, 2000. 201
10. Dobrolonskaya T. *The theory and methods of media-linguistics (based on English materials)*. Sc.D. in Philology dissertation, p. 350, Moscow. Russia.
11. Yunusova K, Boltaboyeva et al. *Mediatext: The powerful instrument of the mass media*.// *Opicion*, Ano.2018.– №15 889-923 p.
12. Ungerer F. *English Media Text Past and Present Language and Text Structure*.// Philadelphia PA John Benjamin S. 2000. № – 21
13. Fleming. E. What are mediatext types? <https://sidmartinbio.org>
14. Mamirova D. *Reklama matnlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida ayrim mulohazalar*.// *Xorijiy filologiya*. №3. 2018.

#### O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA "SHAXS" KATEGORIYASI

*Xojiyeva Maxfirat Yusupovna,  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Buxoro davlat universiteti  
Saidova Madina Ro'zimurodovna  
Buxoro davlat universiteti magistranti  
(O'zbekiston)*

**Annotatsiya.** Tilni inson bilan yaxlit – uning lisoniy olami bilan uyg'unlikda tadqiq qilish shaxs kategoriyasining zamonaviy lingvistika yo'nalishlari, ilmiy tahlil usullari hamda metodologiyasiga ta'siri va ahamiyati maqola mohiyatidan o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** leksema, so'z birikmasi, shaxs, lison, lisoniy sintaktik qolip, nominativ birlik.

**Аннотация.** Влияние и значение изучения языка в целом человеком - в гармонии с его языковым миром на современные лингвистические направления, методы и методологию научного анализа - суть статьи.

**Ключевые слова:** лексема, словосочетание, человек, язык, лингвосинтаксический образец, номинатив.

**Abstract.** The essence of the article is the influence and importance of the study of the language as a whole with a person - in harmony with his linguistic world, on modern linguistic directions, methods and methodologies of scientific analysis.

**Key words:** lexeme, phrase, person, language, linguistic syntactic pattern, nominative unit.

Substrat yondashuv barchaga ma'lum abstraksiyadan konkretlikka yo'nalish metodining bir varianti sifatida dastlab asl terminlarni aniqlashtirishni talab qilgani kabi, tahlilning asos nuqtasi hisoblangan "ilk hujayra"ni belgilash[2] ham o'ta muhim. O'zbek tilida shaxs tushunchasining ifodalanishi diqqat markazidan o'rin olar ekan, istaymizmi, istamaymizmi, bu tushuncha tahlilning asosi – "ilk hujayrasi" sanaladi. Shaxs tahlilning "ilk hujayra"si ekan, uning tilimiz lug'at fondida qamrab olinishi, leksik-semantik, morfologik, sintaktik resurslari orqali ifodalanishi bu tushunchaning ko'p tomonlama ilmiy mushohadasidan kelib chiqadigan til va jamiyat bilan bog'liq munosabatlari kesishuvdagi: 1) konseptual; 2) antropotsentrik; 3) lingvopersonologik; 4) etnomadaniy; 5) genderologik; 6) lingvogeografik; 7) lingvodidaktik; 8) korpus lingvistik; 9) tibbiy lingvistik; 9) neyrolingvistik; 10) medialingvistik (v.b.) tadqiqi uchun birday ahamiyatlidir.

Tilni inson bilan yaxlit – uning lisoniy olami bilan uyg'unlikda tadqiq qilish shaxs kategoriyasining zamonaviy lingvistika yo'nalishlari, ilmiy tahlil usullari hamda metodologiyasiga ta'siri va ahamiyatini oshirdi. Shunday bo'lsa hamki, lisoniy tizim va qurilish qonuniyatlarini o'rganishda, tilshunoslikning nazariy masalalarini yechishda shaxs lisoniy tushuncha va ilmiy kategoriya sifatida o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Bu tadqiqot predmetiga oid muhim masala – o'zbek tilida shaxs ma'nosining ifodalanishida yaqqollashib, tilning shaxsni atash vazifasi va uning namoyon bo'lishi, shaxsni tavsiflash va tasvirlash imkoniyatlari, usullari, vositalarining tadqiqi hamon aktual bo'lishida yorqin ifodasini topadi.

O'zbek tilida "shaxs" tushunchasini nomlash, tavsiflash imkoniyatlari, usul va vositalari xususida so'z yuritilganda, birinchi navbatda, shaxs nomlari, ilmiy muomalada keng qo'llanuvchi shaxs otlari tilga olinadi.

Shaxs otlari shaxsni atab, uning ma'lum bir belgi-xususiyatlariga ishora etuvchi so'zlardir[3]. O'zbek tilida shaxs otlari muayyan ot tarkibiga kiruvchi "shaxs nomi" deb atalmish lug'aviy mavzuviy to'da sifatida alohida ajratiladi. "Shaxs nomi" mavzuviy to'dasi yigit, chol, o'zbek, tojik, cho'loq, kasal, ota, ona kabi leksemalarni birlashtiradi.

Tilshunos R.Saloyev ko'p hollarda shaxs otlari bilan chalkashtirib yuboriladigan "harakatni bajaruvchi shaxs" ([fe'l+-(u)vchi=fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi] qolipi hosilasi), ya'ni ismi foillarni maxsus tadqiq etgan[3]. Chunki "harakat bajaruvchisi" (ish-harakat bajaruvchisi – egani emas,) shaxs ma'nosini o'z ichiga olgani uchun shaxs otlariga o'xshaydi. Lekin ularning farqli jihatlari lison-nutq qarama-qarshiligi asosida aniqlanib, tahlil jarayonida shaxs ma'nosi (tushunchasi) va tavsifining leksik, morfologik, so'z yasalishi sathlarida ifodalanishiga oid muhim ilmiy dalillar keltirilgan.

O'zbek tilshunosligida XX asrning 90-yillarigacha so'z turkumlarini belgilashda so'zlarning uch mezon asosida – semantik, morfologik, sintaktik mezonlar birgalikda olingan tasnifi amal qilgan. Tasnifda birlik (hodisa) xususiyatlarini bir vaqtda, bir necha mezon asosida belgilash, birliklar sinfi (guruhi)ni mohiyatan farqli belgilarning yaxlit tatbiqi asosida ajratish dialektik mantiq qonuniyatiga ziddir. Shu bois so'zlarni tasniflashda gnoseologik, ilmiy-falsafiy, metodologik nomuvofiqlikni bartaraf etish, so'zlarni turkumlash va tasnif masalalari substansial tilshunoslikning muhim vazifalari qatoridan joy oldi. Bu esa, substansial yondashuvda leksemalarni dialektik serqirralik nuqtayi nazaridan baholashni talab etadi. Zero, ularning turli qirralari mohiyati faqat

izchillik bilan mantiqiy to‘g‘ri tuzilgan tasnifda – manbaning umumiylikdan xususiylikkacha bo‘lgan har bir qirradi asosida qoldiqsiz bo‘linuvini ta‘minlovchi tasnifdagina ochilishi mumkin.

Shaxsni atovchi leksik birliklar “shaxs nomi” integral semali mavzuviy to‘da tarkibida oldindan tayyor bo‘ladi. Zotan, jamiyat a‘zolari uchun “tayyorlik”, “umumiylik”, “majburiylik” kabi turg‘un belgilar til birliklarining muhim sifatleri, shakllantiruvchilari[1] ekanligi til sistemaviy tahlil qilina boshlanganidan buyon tan olinadi. Demak, o‘zbek tilida shaxsni nomlash, tavsiflash imkoniyatlari, usullari va vositalari mavjud. “Shaxs” tushunchasining lisoniy ifodasi shaxsni atash vazifasiga xoslangan til birliklari orqali namoyon bo‘ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари: Филол. фанлари номзоди... диссер.автореф. –Тошкент, 1994. – 25 б. –В.12.
2. Пузырев А.В.Языковая личность в плане субстратного подхода//<https://ilingran.ru/library/psylingva/sborniki/Book1998/articles/12.htm>
3. Салоев Р. Ўзбек тилида исми фоиллар: Филол. фанлари номзоди... диссер.автореф. – Самарқанд, 1994. – 25 б. –В.8.
4. Хojiyeva M. Y. Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari va assesment metodi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 7. – С. 302-307.
5. Yusupovna K.M., Yusufvna Y.S. Language and speech expression of personal descriptions //Thematics Journal of Education. – 2021.

#### NIKOH TO‘YIGA OID ETNOGRAFIKALARNING AREAL TARQALISHI HAQIDA

*Mavjuda SUVANOVA,*

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi  
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)  
(O‘zbekiston)*

**Annotatsiya.** Nikoh to‘yi xalqimizning tarixiy rivojlanishi jarayonida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan milliy ma‘naviy qadriyatlarimizdan biridir. Nikoh to‘yi qarindosh-urug‘lar, do‘stlar, tanish-bilishlar, qo‘shnilar ishtirokida o‘tkaziladi. To‘y dasturxonini turli noz-ne‘matlar bilan bezatiladi.

**Kalit so‘zlar:** Dialektologiya, urf-odat, an‘ana, nikoh to‘yi.

**Аннотация.** Обряд бракосочетания – одна из наших национальных духовных ценностей, отточенных в ходе исторического развития нашего народа и дошедших до нас. Свадьба проводится в присутствии родственников, друзей, знакомых и соседей. Свадебный стол украшают различными деликатесами.

**Ключевые слова:** диалектология, обычай, традиция, свадьба.

**Abstract.** The marriage ceremony is one of our national spiritual values that have been refined in the course of the historical development of our nation and have reached us. The wedding is held in the presence of relatives, friends, acquaintances, and neighbors. The wedding table is decorated with various delicacies.

**Keywords:** dialectology, tradition, tradition, wedding party.

Nikoh – erkak va ayolning turmush qurishini rasmiylashtirish shakli, usuli[1]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham bu so‘z o‘z semantik mazmunini yo‘qotgani yo‘q. Hozirda nikoh erkak va

ayolning qonuniy oila qurishini anglatadi. Ikki yoshga nikoh o'qilayotganda kuyovning yaqin qarindoshlaridan bo'lgan erkak kishi vakl ota ishtirok etadi. Samar.v. Paxtachi shevalarida oldga chiqqan ota deyiladi. Qoraqal. o'zbek shevalarida nikoh marosimida yigitga barcha narsalarni o'rgatib boruvchi kishiga jrgyt og'asъ, qipchoq shevalarida o'kulata//okyloata[2] leksemi qo'llaniladi. Bu leksema Qashq. shevalarida aqlota, Surxan. vəkillaṭa//vəklota//pəḍərvəkъl//vəkъlsoraḡ'ıch leksemi bilan ifodalanadi [3].

Nikoh to'ylariga oid etnografizmlarni quyidagi qismlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1) To'yga qadar marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: sovchilik, non sindirish, fotiha, oq yirtish, maslahat oshi, to'y eltish, oqsoqolga borish, qizlar yig'ini, hina qo'yish (xostgori, nonshikanon, xayoshi, oshxurakon, fotiha, parchaburron, maslahat oshi, to'ybaron, oqsoqolravi, dugonatalbon, hinobandon). Kelin-kuyovni katta to'yga tayyorlash: soch o'rish, qosh terish, kiyim kiydirish va boshq.;

2) To'y paytida o'tkaziladigan marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: nikoh, kuyovning kelishi, to'y ziyofati, kelinni kuyovning uyiga kuzatish, yuzko'rar va boshqalar;

3) To'ydan so'nggi marosimlarga oid etnografizmlar: joy solish, joy yig'ish, kuyovcharlar, kelincharlar.

**To'yga qadar marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: sovchi** – turmush quradigan yigit va qizning ota-onalari qarindosh urug'lari bilan yoshlarning oila qurishlari borasida kengashuvchi, oilaning a'zosi yoki qarindosh urug'laridan biri bo'lgan shaxs. Surxan. shevasida **djo:chi//yovchi**. Bu o'zbek tilli hududlarning barchasida keng tarqalgan etnografizmdir.

**Non sindirish yoki ushatish** – qizni unashtirish, nikohga kiruvchilarning munosabatlariga rozilik berish ma'nosini ifodalaydi. Bu marosim O'zbekiston hududining barcha viloyatlarida bir xil tarzda o'tkaziladi. Quda tomonga (kelinnikiga) 3-5 kishi (kuyovning yaqin kishilari) patir non, holva va boshqa shirinliklar bilan boriladi. Ushbu marosimda ikkala tarafdin qudalar ishtirokida ustma-ust turgan butun nonlar o'rtasidan ikkiga bo'lib ushatiladi va har ikkala tarafga holva hamda shirinliklar birdek taqsimlanadi. Non sindirilgandan keyin **qolъk** beriladi. Har ikkala tomon ham yaqinlariga yoshlar unashtirilganini bildirish uchun non va shirinliklardan tarqatishadi. Tosh., Samar., Nav., Bux. viloyatlarida yaqinlarining qizlariga, ishxonalariga, turmushga chiqmagan dugonalariga holva, shirinliklar, chaq-chuqlar tarqatiladi. Bu marosimning nomi Nav., Bux. **nənsəndəṛəṛ** deyilsa, Toshk., Samar. **rəməlberdъ**, Qashq. **patır səndъ**, Surxan. **nansəndirish//atashtirish**, Qoraqal. **nan səndıru** nomi bilan ifodalanadi. Bunday komponentlarning qo'shiluvidan hosil bo'lgan so'zning ma'nosi komponentlardan biri anglatgan ma'noga aloqador bo'ladi.

**Fotiha to'yi**. Qizni unashtirish fotiha to'yi marosimi bilan yakunlanib, unashtirilgan qiz – fotihali yoki boshi bog'liq deb ataladi. Surxan.da ushbu etnografizm **pətiyəṭəy** deb nomlanib, fotiha to'yi kuni bo'yniga ro'mol bog'lab olib boriladigan qo'chqor – "**eshъk ochar**" nomi bilan yuritilib, quda tomon katta to'y taraddudini ko'radi. Jiz. viloyatida kelina "**yəqləv**" yuboriladi (jonliq – qo'chqor, guruch va boshqa mahsulotlar yuboriladi.).

To'y muddati cho'zilsa, qudalar qizga har bayram va bozor kunlari bayramlik, bozorlik yuborib turishadi. To'y kuni ma'lum bo'lgach, ikki tomon ham to'y taraddudini ko'ra boshlaydi. Bayramlik quda tomondan keladigan shirinliklar, oziq-ovqatlar va sarpolarni anglatadi.

Qiz uyida ko'rpa-to'shak tikish uchun hashar uyushtiriladi. Bu odat "**kərpə bəchər**" deb yuritilib, qarindoshlar bergan narsalar **qo'shən** deb nomlangan. Xor.da bu "**əḍət qəshənt**" deb nomlanadi.

To'y kundan bir kun oldin qiz uyiga to'ylik yuboriladi. Qiz tomon esa kuyov uchun sarpo, patir, qand-qurs solingan dasturxon jo'natadi. Ushbu marosimda ikkala taraf vakillaridan 10-15 kishi ishtirok etadi. Ular to'yni o'tkazishni kelishib oladilar. To'yda qudalar bir-birlariga, qarindosh urug'larga **sarpo** qilishadi. Bu o'zbek xalqining azaldan qo'llanilib kelingan urf-odatlaridan biri bo'lib, o'rganilayotgan barcha hududlarda keng tarqalgan. Bu **sarpo** leksemasi "Alpomish" dostonida ham uchraydi: "Qorajon: enamiz bizni katta yerdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarpoyni qilib yuboribdi – ena bo'ri bo'lganingdan gapir! – deb turibdi" [4].

**Həyʼllik//həyitlig** – hayit arafasida qizga yuboriladigan kiyim-kechak, sovg'a-salomlar. Hozirgi kunda bayramlarda ham hayitlik berilyapti.

**Idish//qəpkəti** – fотиha to'ydan keyin qiz tomondan kuyovga yuboriladigan bir qo'y, kiyim-kechak va shirinliklar (60 ta non, 4 ta qatlama, kuyovga sarpo, ota-onasiga kiyimliklar, 10 dona dastro'mol, belbog', 10 dona do'ppi, bir yashik konfet, bitta qo'y va b.). Hozirgi kunda qizning ota-onasi televizor, sovitkich, kir yuvish mashinasi, muzlatkich, gaz plitasi ham olib borishyapti.

**Qiz bazmi.** Bu marosimning o'tkazilishi ixtiyoriy bo'lib, nikoh to'yidan oldin qizning uyida o'tkaziladi. Qiz bazmiga kelinning dugonalari, qarindoshlar, qo'shnilar taklif qilinadi. Qizning ota-onasi uyida oila a'zolari bilan xayrlashishi, yangi oilada hurmatli, izzatli kelin bo'lishi uchun yig'ilganlar tomonidan yaxshi tilaklar bildiriladi. Bu urf-odatlar o'zbek tilli hududlarning barcha sheva vakillari turmush tarzida mavjud bo'lib, Bux., Samar., Nav. Karmana tum. **qʻz bazmʻ**, Nav. Konimex, Nurota tum. **qiz toyi**, Qarsh. **qʻzlar davrasʻ**, Xor. **qʻzlar uʻgʻʻnʻ**, Qoraqal. shevalarida **qʻz uʻgʻʻnʻ//qʻz chaqʻrʻshma//qʻz chaqʻrʻq** kabi leksemalar bilan ifodalanadi va o'tkaziladi. Bu marosimning o'tkazilishi natijasida ota-onaga bo'lgan qadr-qimmat, hurmat, ota-onani e'zozlash kabi ma'naviy qadriyatlar yoshlar ongiga singdiriladi.

**To'y paytida o'tkaziladigan marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar: Kuyov navkar.** To'y kuni ko'pgina hududlarda dori bilan, ba'zi joylarda kuyov navkarlar (kuyov va do'stlari) kelinnikiga karnay-surnaylar sadosi ostida borishadi. Kelinnikida kuyov navkarlar mehmon qilinadi. O'sha yerda juda ko'plab hududlarda kuyovga to'n kiydirish marosimlari o'tkaziladi. Samar., Bux., Nav. viloyatlarida kuyovnikiga kuyov sarpo jo'natiladi. Jiz. viloyatida bu marosimdan keyin kelin va kuyovning nikohlari domla-imom tomonidan o'qitiladi. Mazkur hududda kuyov navkarlar dasturxondan turgandan keyin kelin uyidan yaxshi niyat bilan chinni idishlardan olib ketadilar.

Ma'lumki, to'yga uzoq-yaqindan kelib mehmon bo'lib tunab qolishadi. Bunday paytda ular qo'ni-qo'shnilarga tarqatilgan. Bu odat **mehmon ɔʻsh** deb atalib, o'g'uz va qipchoqlarda ham, qo'ng'irot va qarluqlarda ham keng tarqalgan. Mazkur odat jamoa-urug'chilik davridan qolgan bo'lib, bu davrda bir qishloq yagona oiladan tashkil topgan. Bu odatlar hozir ham bor bo'lib, Nav. Nurota, Navbahor, Xatirchi tum.; Samar. Paxtachi, Narpay va boshqa ko'pgina tumanlarida to'yga kelgan mehmonga hurmat ko'rsatilib, qo'ni qo'shnilarnikiga **qəʻqə** (mehmonga) uzatilgan. **Qonuq – mehmon.** Yozma yodgorliklarda ham qonuq so'zi qo'llanilgan. Masalan, bir qarib man manqa bu kun kecha qonuqi barinlar, bu eshda jamajin. Men bir yo'lovchiman, menga bu kecha mehmonlikka joy beringlar, shu yerda qolayin [5].

**Poyondo.** Kuyov va kelinning oyoqlari ostiga to'yda poyondo tashlash o'zbek xalqining azaldan foydalanib kelingan urf-odatlaridan biridir. Bu marosim o'zbek tilli hududlarda farqlanadi va boshqa hududlarda uchramaydi. Tosh.v.da kelinni olib ketishga kelgan kuyovning oyog'i ostiga tashlanadi. Marosim davom ettirilib, kelinni to'yxonaga olib kirishda kelin va kuyovning oyog'i ostiga tashlanadi. Jiz.da nikoh bazmidan keyin kuyovning do'stlari kelinning yaqin qarindoshlari bo'lgan yigitlar bilan kuyovning nikoh marosimidan chiqishini ostonada kutib turadilar. Yoshi



ulug' keksalar poyonoz uchun tayyorlab qo'yilgan atlas matoni kuyov oyoqlari poyiga to'shaydilar. Kuyov o'ng oyog'ini bosgandan keyin uni olib kuyov va kelin tomondan poyonoz tortishga shaylanib turgan yigitlarga oshirishadi. Shundan poyonoz marosimi paytida qo'lga kiritgan kiyimlarini yaxshi niyatlar bilan olib ketadilar. Bu mato bo'laklaridan ayollar ro'molcha, tumor tikadilar yoki kelin-kuyovlarga atab tikiladigan ko'rpa-yostiqlarga quroq sifatida foydalanishadi. Bux., Nav., Samar. **poyandoz**, Qashq. **poʻyandoz**, Surxan. **payandoz**, Xor. **pandoz**, Qoraqal. **pyandoz** deb nomlanadi.

**“Ololmaysan marosimi”** to'y bazmi tugagandan keyin o'tkaziladi. Jizzax viloyati an'anaviy to'ylarida o'tkaziladigan odatlardan biri. To'y bazmi tugagandan so'ng kelinni yangalari va uzatib borgan qarindosh ayollar chimildiqqa kirgizishga hozirlangan milliy libosni kiyintiradilar va xonaning chimildiq ro'parasidagi burchagida stulga o'tkazib, uni to'sib turishadi. Shundan keyin kuyovni chopon bilan boshini berkitgan holda chimildiqqa olib kirishadi. Kuyov tomon bir tarafda, kelin tomon bir tarafda: “Ololmaysiz, xo-xo ololmaysiz”, “Ololamiza, ololamiz” deya qo'shiq aytib, raqsga tushishadi. Kuyov tomonidagi yangalardan epchillari kelin o'tirgan joyga kelib, chaqqonlik bilan uni boshini qashib olishlari lozim bo'ladi. Kuyov kelin tomonga kelib, kelinni chimildiqqa o'lanlar sadosi bilan olib kirish boshlanadi. Kelin kuyov bir-biriga yetgan joyda **“oʻyq bost”** marosimi o'tkaziladi. Bunday paytda odatda kuyovlar kelinning oyog'ini astagina bosib qo'yishadi va chimildiqqa olib kirishadi. Bux. va Nav. viloyatlarida bu marosim kuyov kelinni olib kelish uchun borganda, chimildiqqa kirishadi. Shunda urf-odatlariga ko'ra **“oʻyq bost”** marosimi bo'ladi [6].

**Chimildiqda ko'zguga boqish marosimlari.** Kelin chimildiqqa kirgandan keyin yangi sotib olingan, lekin hali hech kim boqmagan, o'rab qo'yilgan ko'zguni yoshi keksa momolardan biri ochib kelin-kuyovga tutadi. “Hayotlaring oynadek tiniq bo'lsin, ko'z ochib ko'rganing bilan qo'sha qaringlar” deya, kelin-kuyov atrofidan yoqilgan sham aylantiriladi, so'ngra isiriq tutatilib, ularga novvot choy ichiriladi. Chimildiq atrofida o'tirgan barcha ayollar kelin-kuyov ichgan novvot choydan yaxshi niyatlar bilan ichadilar. Ba'zi hududlarda, Samar., Nav. viloyatlarida bu marosim davom ettirilib, kuyovning to'ni ichiga tuxum solish marosimi o'tkaziladi.

Shu bois Bux. va Samar. tojiklari lahjasi etnografik leksikasida nikoh qoidalarini bajarish (ahdi nikoh), sharbat ichirish (sharbat dodan), nikoh paytida kelin-kuyovni gulxan yo olov atrofidan aylantirish, qirq kun davomida yangi kelin-kuyovning uyida chiroq yoqish kabi marosimlarni ifodalovchi leksik birliklar faol qo'llaniladi. Unashtirishning eng yuqori nuqtasi kelin to'yidir.

To'y marosimi hamisha shodlik, xurramlik, yoshlik, go'zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o'tkaziladigan ajoyib oilaviy bayramdir. G'oyat go'zal bo'lgan bu marosim barcha xildagi xalq san'ati, ashula, raqs bilan o'tkaziladi. To'y qo'shiqlarida shodlik, g'am, muhabbat, firoq, samimiy ishq, shuningdek, inson hayotining boshqa jihatlari aks ettirilgan. Bugungi kunda eski an'anaviy qo'shiqlar, masalan “Ho' bale!”, “Salomnoma”, “Ho Layli”, “To'ylar muborak”, “Yor-yor” zamonaviy yangi usul bilan kuylanadi. Ma'lum bo'lganidek, to'y-hasham marosimlari maxsus dramaviy lahzalarga ega bo'lib, folklor shaklida yo xalq adabiyoti shaklida maxsus etnografik so'zlar bilan lahja va shevalarda qamrab olingan. Jumladan, bu jihatlarda she'r-u qo'shiqchilikda, masxarabozlikda, musiqa, askiyachilik, she'rxonlik va turli o'yinlarda to'ying dramaviy xususiyatini aks ettiradi. To'y qo'shiqlarini ijro etishda kelin-kuyov oilasi, qarindoshlari asosiy rolni o'ynaydilar.

**Padaroshi** – atama ikki qismdan tuzilgan: padar+osh. Padar – fors-tojikchada ota ma'nosini anglatadi; osh esa asosan palov ma'nosida qo'llanadi. Padaroshi nikoh to'yida kuyovning uyida erta saharda osh berish marosimini anglatadi. Bux. **nahorgi osh**, Nav. **qʻz oshʻ**, Samar. **padaroshi**,

Qashq. **ota keldъ** kabi leksemalar bilan ifodalanadi va o‘tkaziladi. Xor. va Qoraqal. hududlarida bu marosim o‘tkazilmaydi.

**To‘ydan keyingi marosimlarni ifodalovchi etnografizmlar** to‘y kunining ertasiga kelin salomi bilan boshlanib ketadigan marosim nomlaridan iborat. Masalan, kelin salom, charlar, challadi yoki kelin chaqirdi, yuz ko‘rar kabi.

**Kelin salom** – kelinni to‘yning ertasiga qarindoshlarga tanishtirishga bag‘ishlangan tantananing nomi. Ba’zi hududlarda to‘y ertasiga, ba’zi hududlarda to‘y kuni kelin salom marosimi o‘tkaziladi. Xalqimizga xos bu qadimiy udum O‘zbekistonning har bir viloyatida, har bir vohasida o‘ziga xos tarzda, o‘zgacha bir shukuh bilan o‘tkaziladi. Hammasi ham o‘zida millatimizga xos estetik qarashlarni aks ettiradi. Poytaxtimiz Toshkent shahrida kelinlar boshlariga yopinchiq yopgan holda egilib salom beradilar, Samarqandda esa salom aytilgan vaqtda qo‘llariga ilingan ro‘molcha bilan yuzini yopadi. Qashqadaryo vohasida esa yon tomonga egilgan holatda salom beradi. Milliy liboslarda hayo bilan bosh egib turgan kelinlarning salom berish uchun qilayotgan bu harakatlari ushbu marosimga kelgan barchani maftun etadi. Jamiyatda kelajagiga barqaror bir zamin tayyorlashni istagan yoshlar ota-onaga, qo‘ni-qo‘shnilarga, yor-birodarlarga, qarindosh-urug‘larga hurmat bajo aylagan holda marosim orqali o‘z ehtiromlarini ko‘rsatadilar. Hurmat bajo aylab salom qilayotgan kelinga nomi aytilgan har bir xayrixoh kishi yosh oilaning mustahkamligi va barqarorligi uchun qo‘llaridan kelgunicha o‘z hissalarini qo‘shadilar. Bu ham o‘zbek xalqining jipsligini, o‘zaro mehr-oqibatligini namoyon etadi.

Kelin salom Bux. **yor-yor**, Nav., Samar., Toshk. **kelin salom, padaroshi**, Qashq. **ota keldъ**, Xor. **kelin ochdi**, Qoraqal. shevalarida **yuz ochdi//kelin salem//bet ashar** kabi leksemalar bilan ifodalanadi. Bu kabi etnografizmlar hozirgi kunda yoshlar ong-u shuuriga nurday singib, ularda ezgu, umuminsoniy tuyg‘ularni tarbiyalamoqda.

**Charlar, challadi yoki kelin chaqirdi** – to‘ydan keyin kelin bilan tanishish maqsadida kuyovning qarindoshlari tomonidan tashkil etiladigan ziyofat, tantana bo‘lib, bunda kelin uchun taniq taomlar pishiriladi, charlar o‘tkazuvchi kishi tomonidan kelinga sovg‘alar taqdim qilinadi.

**Challadi** – aslida chorladi. Ushbu marosim nomi Bux. **challadi//challandi**, Nav., Samar. **challari**, Qashq. **challar**, Toshk. **charlar**, Surxan. **chaqirdi**, Xor. **qade toy**, Qoraqal. shevalarida **el qade toy** shakllarida uchraydi. To‘ydan keyin o‘tkaziladigan marosim bo‘lib, kelin chaqirdi, kuyov chaqirdi, qiz chaqirdi, quda chaqirdi kabi bir qancha ko‘rinishlari bor. Kelin chaqirdida yangi tushgan kelinchakning chillasi chiqqach, o‘zining va kuyovning yaqin qarindoshlari uylariga chaqiradi. Bundan ko‘zlangan maqsad kelin-kuyovga hurmat ko‘rsatish bilan birga, kuyov taraf uchun kelin bilan yaqindan tanishishdir. Kelin chaqirilgan xonadonga kirguncha uy egalariga, uyning ostonasiga ta‘zim qilib kiradi. Kelin-kuyovga sovg‘alar in‘om etiladi. Kuyov chaqirdi odatda kelinning ota-onasi, yaqin qarindoshlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Sarshuyon** – fors-tojik tilida sar – bosh, shuyon – yuvmoq so‘zlaridan olingan. Nikoh to‘yidan yetti yoki o‘n kun o‘tib kuyovning uyida bo‘lib o‘tuvchi marosim. Bu so‘z tojik tilli hududlarda keng ishlatiladi.

**Raxzanon** – atama rax va zanon qismlaridan iborat bo‘lib har ikkalasi ham fors tiliga mansub. Rax (raxt) – ko‘rpa-ko‘rpachalarning ustma-ust terilgani; zanon – urmoq, termoq. To‘yda ko‘rpa-ko‘rpachalarning ustma-ust terilishi bilan bog‘liq marosim.

Hazrat Mir Alisher Navoiy asarlarida ham oilaviy-maishiy etnografizmlar faol qo‘llanilgan bo‘lib, Navoiy davri turkiy xalqlari til birliklari, ularning maishiy turmushi borasida mulohaza yuritish bilan bir qatorda o‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi nikoh, taloq, aza, motam kabi

etnografizmlarning lisoniy xususiyatlari va semantikasi borasida tadqiqot olib borishga hamda tilimizda mavjud soʻzlarning mazmuni borasida tasavvurga ega boʻlish imkonini ham beradi.

Alisher Navoiy “Gʻaroyib us-sigʻar” devonida oʻzining “raz qizi” – ilohiy ishq sharobga nikoh qilinganini quyidagicha bayon qiladi:

Ne erdi maykada gavgʻosi, **raz qizin** goʻyo

Bu shom qildi Navoiyga piri dayr **nikoh**. (GʻS, 22-b.)

Mazkur bayt talqinida nikoh komil pirlar tomonidan qizning yigitga bir umrga jufti halollikka berilishi maʼnosini anglatadi. Navoiy “Badoyeʼ ul-vasat” devonida ham nikoh etnografizmining antonimini qoʻllagan:

Navoiy aylab edi garchi **raz qizini taloq**,

Halol boʻlsa ham ul qizni olgʻusi bu kuyov. (BV, 517-b.)

Yuqoridagi baytda hazrat Navoiy musulmonlar maishiy hayotida keng ommalashgan nikoh etnografizmining antonimi – taloq etnografizmini ham qoʻllaganki, bu oʻzbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida qarama-qarshi maʼnoli ikki etnografizmining semantik mohiyati oʻzgarmaganligidan dalolat beradi. Taloq soʻzi ham etimologik jihatdan arab tiliga mansubdir. Taloq etnografizmi oʻzbek tili leksikasida taxminan VIII asrlardan hozirga qadar qoʻllanilib kelingan. Faqat XX asrning 80-yillaridan keyin mazkur atamaning oʻzbekcha ekvivalenti qoʻllanila boshladi. Taloq erkak kishi tomonidan oʻz jufti haloli boʻlib yashab kelayotgan ayol bilan oʻrtasida hal qilib boʻlmas nizolar sodir boʻlganda uch marta aytiladi va shu soʻzning uch bor takrorlanishi oilaviy nikohni bekor qilinganini anglatadi.

Oʻzbek lingvomadaniyatida toʻy marosimi shunchalar chuqur oʻrin olganki, bu xalq ogʻzaki ijodida ham yorqin kuzatiladi. Oʻzbek tilida toʻy qoʻshiqlari, yaʼni laparlar, yor-yor bilan bir qatorda maqollar ham yaratilgan. Xalqimizda faol qoʻllanuvchi “Toʻydan oldin nogʻora qoqma”, “Toʻyga borsang, toʻyib bor”, “Toʻyga borsang, toʻyib bor, Toʻrqa toʻning kiyib bor”, “Toʻy oshi – toʻpolon oshi”, “Toʻyning boshi – boshlanguncha”, “Qoʻy semizi – qoʻychidan, Toʻy tamizi – toʻychidan”, “Toʻy kimniki – tegishliniki”, “Toʻy – Xudoning xazinasi”, “Toʻy ustiga toʻy boʻlsin, Balo-qazo yoʻq boʻlsin” [7] kabi oʻnlab maqollar va ularning variantlarida oʻzbek xalqiga xos toʻy bilan bogʻliq ezgu anʼanalar, urf-odatlar, xususan, yaqinlarga, qarindoshlarga duo qilib toʻy qilishni tilash, toʻyning ezgulik, toʻkinlik, tinchlik, hamjihatlik, yaqinlik, oʻyin-kulgi, xursandchilik, mehmondoʻstlik ramzi sifatida talqin qilinishi ularning haqiqiy lingvomadaniy birlik ekanligidan dalolat beradi.

Tahlillardan koʻrinadiki, oʻzbek xalqiga xos toʻy bilan bogʻliq etnografizmlar, antroponimlar, maqol va matallari shu qadimiy xalqqa xos bolajonlik, mehmondoʻstlik, elparvarlik, saxovatpeshalik va halollikka asoslangan milliy hamda diniy urf-odatlarini, marosimlari haqidagi lisoniy, madaniy axborotlarni ifodalash barobarida ularning davrlardan davrlarga, avlodlardan avlodlarga oʻtishini, bardavomligini taʼminlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Alpomish. Oʻzbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 49.
2. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тѳсѳира XII-XIII вв. – Москва, 1963. – С. 212.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildlik, 3-jild. – Toshkent, 2006. – B. 38.
4. Oʻzbek ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent, 1972. – B. 472.
5. Mirzayev N. Oʻzbek tili etnografizmlarning izohli lugʻati. – Toshkent, 1991. – B. 37.
6. file:///C:/Users/User/Desktop/urf-odat-va-an'analar.html
7. Shomaqsudov Sh., Shorahimov Sh. Maʼnolar maxzani. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – B. 344–345.

## ИНТЕРВЬЮДА ДИСКУРСНИНГ ЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

*Дилфуза Шоназарова Жахонгировна,*

*Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси “O‘zbekiston” telereadiokanali”  
ДМ таркибидаги “O‘zbekiston tarixi” телеканални бош муҳаррир ўринбосари  
(Ўзбекистон)*

**Аннотация:** мазкур мақолада интервью, дискурс, лингвистик тушунчасининг моҳияти, дискурснинг социопрагматик хусусиятлари, паралингвистик омиллар юзасидан сўз юритилган.

**Калит сўзлар:** интервью, дискурс, социопрагматик, прагматик лингвистика, паралингвистик ва таҳлил.

Интервью дискурснинг лингвистик хусусиятларини турли аспектларга кўра тадқиқ этиш, бу борадаги назарий ва илмий мулоҳазаларни таҳлилий ва танқидий асосда ўрганиш, жумладан, интервью дискурснинг социопрагматик ҳамда гендер хусусиятларини очиқ бериш орқали тил, маданият ва жамиятнинг турли қатламлари тилига хос бўлган умумийлик ва ўзига хосликларни аниқлаштириш муҳим вазифалардан саналади. Биз мушоҳада юритаётган жараёнда интервью дискурс қатнашчиларидан синчковлик, мантиқий мулоҳаза, интуитив фарз ва изчилликни, шу билан бирга, бу жараёнга хос социопрагматик жиҳатларни ҳисобга олиш талаб қилинади. Бу жараёнда интервью қатнашчиларига хос гендер хусусиятларни ўрганиш ҳам воқеликнинг тингловчи онг остида реаллашувига ва тингловчиларга гап нима ҳақида бораётганлигини аниқроқ ва пухтароқ тушунилишига ёрдам беради.

Замонавий илм-фан, хусусан, тилшунослик ўзига тегишли ҳодисаларни ўрганишга аниқ фанлараро ёндашувлар мавжудлиги билан эътиборни тортиб туради. Айрим далилларни тушунтиришда тегишли фан ёки соҳалардан олинган маълумотларни жалб қилиш зарурати антропоцентризм йўналишидаги илмий объектларни кўриб чиқишда диққатнинг ўзгаришига боғлиқ бўлади. Замонавий тилшуносликда шу тариқа тил ҳодисаларига когнитив-прагматик ва социопрагматик ёндашувларнинг кириб келиши фаоллашди. Бунга бир томондан, тил, алоқа воситаси ва иккинчи томондан, ижтимоий онгнинг ўзига хос хусусиятларидан юзага келадиган ҳодиса сифатида қаралади. Айтиш мумкин, шу жиҳатдан англашиладики, ўзбек тили ҳодисаларини “нутқ-лисон” тамойили асосида ўрганиш жараёнида қўлга киритилган лисоний умумийликларнинг нутқий воқеланиши нафақат сатҳлар ҳамкорлиги нуктаи назаридан, балки паралингвистик омиллар билан биргаликда тадқиқ қилиш, улардан шахснинг оқилона ва самарали фойдаланиш механизмларини ишлаб чиқиш прагматик лингвистика олдида турган асосий вазифаларидан бири саналади. Юқорида ҳам кўрсатиб ўтганимиз каби Н.Маҳмудов, Л.Раупова, Д.Худойберганова, М.Ҳакимов, Ш.Сафаров каби ўзбек, Й.С.Кубрякова, Бодуэн де Куртенэ сингари чет эл тилшуносларининг тадқиқотларида прагматика лингвистиканинг янги амалий йўналиши, тармоғи сифатида тилнинг нутқий жараён, нутқий вазият, нутқ иштирокчиларига хос коммуникатив ният билан алоқадор муаммоларини ўрганувчи соҳа сифатида шакллانганлиги таъкидлаб ўтилган. “Замонавий тилшуносликнинг экспансионизми – бошқа фанларга, биринчи навбатда, гуманитар фанларга кириш ва тадқиқот объекти ҳамда субъектининг кенгайтиши, мураккаблашуви каби муносабатнинг пайдо бўлишига олиб келди”. Бу мулоҳазаларни Бодуэн де Куртенэ фикрлари тўла тасдиқлайди: “Тилда ҳам психологик, ҳам ижтимоий омиллар фаолият кўрсатганлиги туфайли психологияни тилшунослик учун ёрдамчи фанлар, социологияни жамиятда

кишиларнинг мулоқот фани, ижтимоий ҳаёт фани деб ҳисоблашимиз керак”. Ю.С.Стапановнинг фикрича, “Инсон нутқининг мазмунида асосий информациядан – фикрдан ташқари деярли ҳамма вақт сўзловчининг социал ҳолатини кўрсатувчи социал информацияни ва эмоционал информацияни топиш мумкин”. Аён бўладики, интервью дискурсларда сўзловчиларнинг социал ҳолати олдинги планга чиқади. Унинг ёши ва жинси, жамиятда тутган ижтимоий мавқеи, тарбияланганлик даражаси, билим савияси, тафаккур тарзи айни муайян саволларга жавоб бериш жараёнида ойдинлашади.

Инсон биосоциал мавжудот бўлиб, туғилгандан бошлаб, уни бошқа тирик мавжудотлардан ажратиб турувчи маълум қобилиятларни шакллантиришга мойиллик бўртиб туради. Аммо бу каби ўзига хос руҳий хусусиятларни шакллантириш фақат жамият ичида, олдинги аجدодлар томонидан яратилган маданият нормаларини ўзлаштириш орқали амалга ошиши мумкин. Бу жараён шахснинг ижтимоийлашуви, деб аталиши ҳам юқорида номлари келтирилган тилшунослар асарларида қайд этилган. Уларнинг яқдил таъкидлашларига кўра, ижтимоийлашувнинг кучли омили, мавжуд бўлганларнинг энг кучлиси тил ҳисобланади. Тил шахснинг бошқа одамлар билан мулоқоти орқали ва унга мувофиқ муайян қарашлар, эътиқодлар, баҳолар ва ҳоказолар тизими орқали “ўзлаштирадиган” ижтимоий хотиранинг бир қисмидир. Шахс бир бутун яратик сифатида жамиятда шаклланади. Бу тизим шахснинг хулқ-атвори учун маълум бир асосни ташкил этади. Муайян одамлар онгида, у дунёнинг муайян шахсий модели ичида ўз тажрибасига мувофиқ ривожланади.

Коммуникантларнинг ёшига ҳамда ижтимоий мавқеига кўра фарқланиши алоҳида-алоҳида феноменлар сифатида ўз мавқеи доирасида кўзга ташланади. Ҳақиқатан ҳам, болалар билан катталар нутқи орасида анчагина тафовутлар мавжуд. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, интервью дискурсида ҳам 18-25 ёшдаги респондентлар билан 30-50 ва ундан катта ёшдаги респондентларлар нутқи грамматик, лексик ва оҳанг жиҳатидан анчагина фарқланади. 18-25 ёшдаги кишилар нутқида шиддат, мулоҳазакорликдан кўра шошма-шошарлик, мақсадни камроқ сўзлар билан баён этиб кўя қолиш, кўпроқ оврўпача олинма сўзлар тез-тез қўлланилишини кузатиш мумкин. Бу ўринда уларнинг ижтимоий мавқеи (жамиятда тутган ўрни) унинг лексиконига таъсир қилиб, ёши улуғлардек эмас, балки дунёнинг баланд-пастини кўрган, ҳаётий-ижтимоий тажрибага эга бўлган респондент сифатида намоён бўлади. Интервью олаётган журналист ёш бўлса, унинг саволларида адресантнинг нутқида яқинлик даражаси ҳам ушбу жараёнда муҳим аҳамият касб этади.

Мулоқот жараёнининг иштирокчилари: адресант (коммуникатор) ҳамда адресат (жавоб қилувчи)дир. Уларнинг маълум бир аниқ амалий аҳамиятли умумий мақсади бўлади. Адресатнинг алоқа-аралашув жараёнидан мақсади (интенцияси) нимадир хусусидаги ахборотни йетказиш ва одамларнинг руҳиятига, ахлоқига таъсир этишдан иборат бўлса, адресатнинг мақсади тинглашдир ва бу масала тўғрисида ўз фикрини баён қилишдан иборат бўлади. Уларнинг умумий мақсади фикр алмашишдан иборат бўлар экан, бу жараённинг темпи бири фаол, иккинчиси нофаол бўлмайди. Балки ҳар икки томон жараёнда баравар мавқеда қатнашади. Уларнинг муҳим бир масалада бир-бирлари билан мулоқотга киришишлари натижасида тингловчиларга муайян бир ахборот йетказилади, тингловчининг ахлоқи, дунёқараши, билим савиясига таъсир ўтказиши. Бир сўз билан айтганда, кишиларнинг интервью дискурсида иштироки муайян мавзуда ахборот йетказиш, уларнинг ахлоқи ва дунёқарашига таъсир қилиш, ҳал қилиниши зарур бўлган муаммоларнинг йечимини аниқлашга кўмак беришдан иборат бўлади. Шу орқали интервью дискурслар фақат ахборот йетказувчи оддий интервьюлардан фарқ қилиб туради. Интервью

дискурсларнинг лексикони ўзига хос бўлиши, унда мавзуга тегишли луғавий бирликлар, синтактик қурилиши ўзига хос жумлаларнинг иштирок этиши ҳам аслида шундан. Назаримизда, интервью дискурсининг социал хосланиши бунда асосий ўринни ташкил қилади.

### АДАБИЁТЛАР

1. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 14.
2. Степанов Ю.С. Французская стилистика. – М.: Высшая школа, 1965. – Стр. 21
3. Кубрякова Е.С. Смена парадигм знания в лингвистике XX века Текст. / Е. С. Кубрякова // Лингвистика на исходе XX века: Итоги и перспективы: тезисы междунар. конф. – Москва: МГУ, 1995. - Т. 1. - С. 278-280.
4. Бодуэн де Куртенэ Избранные труды по общему языкознанию Текст.: в 2 т. / И.А.Бодуэн де Куртенэ. Москва: Изд-во АН СССР, 1963. – Т. 1. – 384 с., Т. 2. – 391 с.
5. Ниязова Г.Ғ. Детектив романлар тилининг социопрагматик аспекти ва гендер хусусиятлари.// Филология бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2022. – Б.87-132.
6. 5. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар. АДД., Тошкент, 2002.
7. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009. – 25 б.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. — Б. 254.
9. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь; гл. ред. В. Н. Ярцева. – М. : Сов. Энциклопедия, 1990.
10. Шпетный К.И. Прагматические параметры профессионального дискурса (на материале bbs News/ News Front Page) // Вестник МГЛУ. 2010. № 596. С. 214–234.

### РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНОМ ВОСПИТАНИИ

*Исламова Мухаббат Михтибаевна,  
старший преподаватель Университета имени Ж.Ташенова  
(Казахстан)*

**Аннотация.** У народов Центральной Азии к отцу и матери принято обращаться самым нежными эпитетами. А.Т.Бекмуратов в статье «Терминология родства у каракалпаков» пишет: «У каракалпаков мать называют апа, анна, аже, ене, шеше, у казахов – апа, анна, аже, шеше, у киргизов – апа, эне. Отца у каракалпаков называют: ага, аке, ата, гарры, ажага и т.д.»

**Ключевые слова:** семейное воспитание, роль родителей, терминология родства.

**Annotation.** Among the peoples of Central Asia, it is customary to address father and mother with the most tender epithets. A.T. Bekmuratov in the article “Terminology of kinship among the Karakalpaks” writes: “Among the Karakalpaks, the mother is called apa, anna, azhe, ene, sheshe, among the Kazakhs - apa, anna, azhe, sheshe, among the Kyrgyz - apa, ene. The Karakalpaks call their father: aga, ake, ata, garry, azhaga, etc.”

**Key words:** family education, the role of parents, kinship terminology.

**Annotatsiya.** Markaziy Osiyo xalqlarida ota va onaga eng nozik epitets bilan murojaat qilish odat tusiga kirgan. A.T.Bekmuratov “Qoraqalpoqlar orasida qarindoshlik atamaları” nomli maqolasida shunday yozadi: “Qoraqalpoqlarda onani opa, anna, azhe, ene, sheshe, qozoqlarda opa, anna, azhe, sheshe, qirg‘izlarda esa opa, anna, azhe, sheshe deb atashadi. opa, ene. Qoraqalpoqlar otalarini: aga, ake, ota, garri, azaga va hokazolar”.

**Kalit so‘zlar:** oila tarbiyasi, ota-onaning roli, qarindoshlik terminologiyasi.

Когда в семье есть дед и бабушка, то иногда бабушку называют матерью, а родную мать называют киши, т.е. младшая мать. Терминами «ага», «ини» в зависимости от возраста называют родного брата, сына брата, т. е. братьев родных, двоюродных, троюродных и более отдаленных родственников»

По данным Х.А.Аргынбаева, у казахов дети младших братьев по отношению к старшим приходится детьми, а дети старших братьев по отношению к младшим – старшими братьями. В основе этой родственной близости лежит, прежде всего, глубокое уважение и любовь к отцу и матери.

В народной педагогике материнство рассматривается как высшая социальная ценность, как естественная потребность в продолжении человеческого рода. Все народы заслуженно возвеличивают женщину – мать, создают культ матери. Общеизвестно «Если сын на ладони изжарит яичницу для матери, то и тогда он останется перед ней в долгу», «Всю жизнь день и ночь трудись – труд матери не возместишь», «Ласка матери и до камня доходит», «Из уст матери и проклятие благословение», «Грудь матери – колыбель сына». Так повествуют афоризмы. Имя матери – надежная опора человека до конца жизни. Не случайно с мягкой иронией в народе говорят: «Когда река понесла старика- он закричал: «Мама!» Матери – главные зодчие человечества. Мать единственный человек, чья любовь к детям благородна, бескорытна, удивительна по своей мудрости, безграничности и мужественности[1.91-143].

1. "Dastanda nəzirəçilik və tərcümənin mahiyyəti" adlı "nəzirəçilik" və "tərcüməçilik" anlayışlarının mövcudluğuna əsaslanaraq monoqrafiyada ilk dəfə olaraq "nəzirəçilik" və "tərcümə" terminlərindən istifadə edilir. O, "Lisan ut-teyr" i "tərcümə" üslubunda dəyərləndirir. Şairin dastanı "tərcümə şəkli ilə" yazmasına əsaslanır. Fəsildə "nəzirə" ifadəsinin "cavab", "tətabbu", "bənzər", "payrav", "tavr", "üslub" kimi sinonimlərdə də işləndiyi bildirilir və vurğulanır ki, bu fenomeni "səyahət süjet" termini ilə qarışdırmaq olmaz. Fars-tacik əsərini o dildə oxumaq bir şeydir, türkcə oxumaq başqa bir prosesdir. Nəvainin yazdığı altı dastanın hər biri fars-tacik ədəbiyyatında əski özbək dilində müəyyən müəllifin dastanına bənzəyir. Müəllif qeyd edir ki, tərcüməçilik hadisəsi təbii olaraq onlarda baş verir. Bununla belə, o deyir ki, "Xəmsə" dastanlarının nəzəri mahiyyəti əsasən ədəbi xarakter daşıyır, "Lisan ut-teyr" in nəzəri təbiətinə həm ədəbi, həm də mistik hadisə kimi baxmaq lazımdır.

2. "Lisan ut-teyr" in "qızıl" halqası 4.2 Fəsilini böyük maraqla oxudum. Çünki bu fəsil haqqında məqalə yazmışdım. Fəsildə "Lisan ut-teyr" in ən böyük surəsi olan, yəni beş yüz on beş beytdən ibarət "dastanın içindəki dastan" sayılan 79-cu fəsil, yəni Şeyx Sənan haqqındakı hekayət təhlil edilir və o, "Lisan ut-teyr" in "qızıl" halqası kimi dastanda məntiqi körpü kimi görünür. Fəsil müfəssəl, yəni misra-bənd təhlil edilir. Bu hekayə monoqrafiyanın təhlilinə əsasən dastanın quşlarla bağlı hissəsini iki yerə ayırır. Dissertant "ənənəvi" sayılan və "Lisan ut-teyr" də əsərin mahiyyəti ilə sıx bağlı olan ilk fəsilləri nəzərə almadan dastanı şərti olaraq 2 hissəyə ayırır: 1) quşlara aid təsvir hissəsi (14-169-cu fəsillər); 2) quşlara aid olmayan, şairin lirik qəhrəmanının dərdinin təsviri olan hissə (170 – 193-cü fəsillər). 1-ci hissənin özü daha sonra 2-yə bölünür: a) şəriətdən təriqətə keçidin təsviri (14 - 78-ci fəsillər); b) dindən reallığa keçid obrazı (80 – 169-cu fəsillər). Bu 2 hissəni birləşdirən əlaqə Sənan hekayəsidir. Monoqrafiyanın düzgün yazdığı kimi: "Lisan ut-teyr" Sənanın hekayəsi olmayan "Lisan ut-teyr" deyil. Deməli, Sənanla bağlı bölmə "Lisan ut-teyr" in "qızıl" üzükdür (s.248).

3. 4.3-cü fəsil "Məntiq ut-teyr və "Lisan ut-teyr" da Qaqnusun xarakteri" adlanan Qaqnusun "Məntiq ut-teyr" dən "Lisan ut-teyr" ə keçmiş rəmz olduğu müəyyən edilmişdir. Lakin tədqiqatçı müəyyən edir ki, bu iki dastanda bu simvola tamamilə başqa vəzifə qoyulub. Qaqnus "Məntiq ut-teyr" da 5 hekayədən biri kimi 17-ci maddəyə illüstrasiya olaraq ölüm haqlıdır, ondan qorxmamaq lazımdır, ölümdən sonra dirilmənin - varlığın, dirildə o biri dünya üçün ehtiyat toplamanın zərurliyini vurğulamaq üçün qeyd edilir. Faninin Qaqnusun ümumi təsviri bu hekayəyə əsaslanır. Lakin "Lisan ut-teyr" də Qaqnus hekayəsi, eposun "Məntiq ut-teyr" ə cavab hissəsi bitmiş və lirik qəhrəmanın öz dərdini bilavasitə tərənnüm etməsi üçün bədii ilmə rolunu oynamışdır. Orada Qaqnusbaça Qaqnusla bərabər gücə malik bir simvola çevrildi. Yəni Fani Əttaru Qaqnusa, özünü isə Qaqnusbaçaya bənzədir. Monoqrafiyaya görə, Fani bu hekayəni bəhanə edərək mənə belə bir fikir aşılayır ki, Əttar ruhu məndə yenidən alovlanıb. Bu hekayə "Məntiq ut-teyr" lə Lisan ut-teyr" -i sıx birləşdirir.

Monoqrafiyanın “Nəticə” hissəsinin on beş bəndində fəsil və fəsillərin təhlili nəticəsində yaranan məntiqi ümumiləşdirmələr irəli sürülür.

Müəllif tamamilə orijinal, müstəqil, başqa əsərlərə bənzəməyən yollarla gedərək öz yolunu sübut etdi. Eyni yeniliyə can atması onun etnologiyamızda bir çox köhnə baxışların korreksiyasına əsas olmuşdur.

Bunlar: 1) çoxları deyir ki, “Fani” şairin tək-cə farsca ləqəbi deyil, həm də türk ləqəbidir; 2) “Lisan ut-teyr”lə “Məntiq ut-tair” arasında heç bir fərq yoxdur, daha çox yaxınlıq axtarmaq lazımdır; 3) “Lisan ut-teyr” Nəvainin ən mürəkkəb dastanı deyil, əksinə, mistik yozum və üslub baxımından şairin ən sadə dastanıdır; 4) “Məntiq ut-teyr” hekayələrinin əksəriyyətinin “Lisan ut-teyr”də dəyişdirilməsi bu iki əsər arasındakı əsas fərqi müəyyən etmir, çünki hekayələr bu dastan üçün ikinci dərəcəli materialdır, yəni onlar bir hekayə kimi xidmət edir. əsas fəsillər üçün illüstrasiyalar, keçidlər; 5) "Lisan ut-teyr" jurnalındakı qeydə əsasən, mütəxəssislər indiyə qədər hesab edirdilər ki, Nəvainin öz məhəbbəti, yəni şəxsi məhəbbəti haqqında dastan yazılmayıb, dissertant sübut edib ki, şairin məhəbbət haqqında dastanı elə həmin “Lisan ut-teyr”dir və s. Dissertant “Lisan ut-teyr”in bəzi cəhətləri haqqında xülasələrini irəli sürür.

Monoqrafiya Nəvai yaradıcılığının mistik yozumunun nümunəsi kimi dəyərləndirilməlidir. Məncə, hər hansı bir şairin dastanının ideya-bədii, tərbiyəvi-islami, mistik-fəlsəfi, janr, lirik-epik özəllikləri belə sistemli əsaslarla üzə çıxıb – yox. Amma bu zaman tədqiqatçı eposun təsəvvüf haqqında elmi risalə deyil, bədii əsər olmasını ciddi şəkildə nəzərdən keçirmişdir.

“Lisan ut-teyr” poetikasının müqayisəli tədqiqi əsasında yazılmış bu monoqrafiyaya misal olaraq fars və türk poeziyasındakı məsnəvilərin belə əhatəli şəkildə, bilavasitə mətnə əsaslanaraq, müqayisəli şəkildə öyrənilməsidir. Tematik bədii abidələr və şairin öz əsərləri ilə unikal nümunəsinin də yaradıldığını deyə bilərik. Monoqrafiyanın mühüm nailiyyətlərindən biri də ondan ibarətdir ki, burada “Lisan ut-teyr” ədəbi-bədii sintezin məhsulu hesab edilir və onun poetikası müqayisəli şəkildə təhlil edilir. Monoqrafiya “Lisan ut-teyr”in bəzi məqamları ilə bağlı gəldiyi qənaətləri irəli sürərkən qeyd edir ki, bu xüsusiyyətlərin bəziləri “Məntiq ut-teyr”ə də aiddir. Bununla da onun müəyyən mənada “Məntiq ut-teyr” elminə layiqli töhfə verdiyini deyə bilərik. Monoqrafiyanın strukturu çox yaxşı düşünülmüşdür. Fəsillər və yarım-fəsillər bir-birini tələb edir, bir-birini tamamlayır, biri digərindən yaranırdı. İşin əsas məzmunu avtoreferatda və dissertantın çap etdirdiyi materiallarda öz əksini tapmışdır.

Monoqrafiya ilə bağlı ümumilikdə əlli yeddi əsər çap olunub. Açığını deyim ki, bu, çox mühüm elmi məhsuldur. Onlar 1992-2023-cü illərdə çap ediləblər. Bu onu göstərir ki, tədqiqatçı uzun illərdir bu mövzunu araşdırır.

Ötən əsrin 70-ci illərində tanınmış özbək ədəbiyyatşünası İzzət Sultan “Lisan ut-teyr” haqqında danışaraq demişdir: O, qeyd edirdi ki, “o, hələ mütəxəssislər tərəfindən yetərinə öyrənilməyib... böyük fəlsəfi dastandır...”. Bu monoqrafiyadan öyrənə bilərik ki, S.Alimov monoqrafiyasından əvvəl bu eposun təhlilinə bir doktorluq, yeddi namizədlik və bi fəlsəfə doktoru monoqrafiyası həsr edilmişdir. Bu əsər “Lisan ut-teyr”şünaslıq üzrə 10-cu monoqrafiyadır. Buna baxmayaraq, dissertant tədqiqatçı əvvəllər müzakirə olunmayan məsələləri qaldırır, bir çox köhnə fikirləri rədd edir və birbaşa mətnin təhlilinə əsaslanaraq cəsarətlə yeni fikirlər və nəticələr irəli sürür. Bunu monoqrafiyadakı mövzunun adından öyrənmək olar. Müəllif eposun poetikasını yox, müqayisəli poetikasını öyrənir. Mən haqlı olaraq bu monoqrafiyanı özbək nəvaişünaslığının nailiyyətlərindən biri hesab edirəm. Çünki ortada mükəmməl və ciddi elmi yeniliklərlə dolu bir monoqrafiya işi var.



## АДАБИЙ ТАНҚИДДА ИЖОДИЙ ЎЗИГА ХОСЛИК МУАММОЛАРИ

*Ахмедова Шоира Нематовна,*

*БухДУ ўзбек тил ва адабиёти кафедраси профессори, ф.ф.доктори*

*Лосеева-Танем Бахтияри,*

*МДУ Осиё ва Африка халқлари институти “Туркий филология ” кафедраси доценти*

*Қодирова Насима Саидбурҳоновна,*

*ўзбек тили ва адабиёти кафедраси докторанти*

*(Ўзбекистон)*

**Аннотация.** Ушбу мақолада адабиётшуносликнинг таркибий қисмларидан бири бўлган адабий танқиднинг ўзига хос хусусиятлари, унда танқидчи ижодкорлигининг ўрни, замонавий адабиётда танқиднинг роли масалалари ҳақида фикр юритилади.

Адабий танқиднинг ўзига хос ижод тури эканлиги, шу билан бирга фан, илм сифатида ҳам намоён бўлиши кўпдан бери баҳсу мунозараларга объект бўлиб келмоқда. Бунинг устига мустақиллик йилларига келиб, адабий танқиднинг роли пасайиб бораётганлиги ҳақида мулоҳазалар кўпайиб қолди. Ҳақиқатан ҳам, адабиётшуносликда адабий танқид оперативлиги, тезкорлиги билан муҳим ижод тури ҳисобланадики, айти шу хусусият яратилаётган бадиий асарларга нисбатан нофаолликда ҳам намоён бўлмоқда. Шу билан бирга адабий танқиднинг мазмун-моҳияти, ўзига хос хусусиятларини бир қадар ойдинлаштириб олиш зарурлиги кўринмоқда.

**Калит сўзлар:** адабий танқид, ижод тури, оперативлик, илмий-бадиий тафаккур, услуб муаммолари, санъат, бадиий танқид.

**Аннотация:** В статье рассматриваются особенности литературной критики являющейся одной из составляющих литературоведения, роль творчества критика в ней, а также роль критики в современной литературе. Тот факт, что литературная критика представляет собой уникальный вид творчества и в то же время проявляется как наука, уже давно является предметом дискуссий. Кроме того, к годам независимости было много высказываний о снижении роли литературной критики.

В действительности литературная критика представляет собой важный вид творчества в литературоведении, обладающий оперативностью и стремительностью, и эта же особенность проявляется и в бездеятельности по отношению к создаваемым художественным произведениям. Вместе с тем необходимо выяснить сущность и особенности литературной критики.

**Ключевые слова:** литературоведение, тип творчества, оперативность, научно-художественное мышление, проблемы стиля, искусство, художественная критика.

**Abstract:** The article examines the features of literary criticism, which is one of the components of literary criticism, the role of the critic's creativity in it, as well as the role of criticism in modern literature. The fact that literary criticism is a unique form of creativity and at the same time manifests itself as a science has long been a subject of debate. In addition, by the years of independence there were many statements about the declining role of literary criticism.

In fact, literary criticism is an important type of creativity in literary criticism, characterized by efficiency and swiftness, and this same feature is also manifested in inactivity in relation to the works of art being created. At the same time, it is necessary to clarify the essence and features of literary criticism.

**Key words:** literary criticism, type of creativity, efficiency, scientific and artistic thinking, problems of style, art, art criticism.

Адабий танқид илмда ўзига хос ҳодиса сифатида дастлаб Платон, Аристотель, Аристарх фаолиятларида антик замонда намоён бўлди. Адабий танқид ҳаракатдаги эстетик тафаккур тарзида адабий жараён моҳиятини таҳлил қилиш ва баҳолаш хусусиятини касб этади; ижтимоий-фалсафий эстетик қараш шаклида адабиёт ва жамият муносабатлари қай даражада инъикос топганини замон мафкураси призмасидан ўтказган ҳолда умумлаштириш санъати даражасига кўтарилади.

Адабий танқиднинг муҳим методологик асосларидан бири – ифода усули ва услубий ўзига хослиги унинг ҳам илмий ва ҳам бадиий ижодга бирдек дахлдорлигидадир. Бир сўз билан айтганда, адабий танқид илмий тафаккурнинг образли фикрлаш тарзи билан боғлиқ ифодасидир. «Аслида танқид, ўз табиатига кўра, икки жиҳатнинг уйғунлигидир: ўзининг айрим вазифаларига, ўзига хос хусусиятлари ва воситаларига кўра у адабиётдир, бошқа жиҳатларига биноан – фандир»[1,341].,-деб ёзади рус олими Ю.Бореев “Эстетика” китобида.

“Адабий танқиднинг ўзига хос ижод тури, фан соҳаси эканлигини улкан адиб ва танқидчиларнинг яратган қатор асарлари исботлаб турибди. Бунга Алишер Навоий, Фитрат, А.Қодирий, Ойбек, П.Қодиров, О. Шарафиддинов, М.Қўшжонов, И.Ғафуров, И.Ҳаққулов ижодлари етарли даражада мисол бўла олади.

Адабиёт ҳаётни, воқеликни бадиий ўзлаштиришда ўзига хос образлилик воситалари билан инсон қалби ва ақлига таъсир қилиб, жамият ривожига ёрдам беради. Адабий танқид ҳам бадиий адабиёт воситасида шу вазифани бажаради, кишилиқ тараққиёти ва тафаккури ривожланишига таъсир кўрсатади. Ана шу хусусиятнинг ўзиёқ адабий танқидий асарларда санъатга, бадииятга хос айрим фазилатлар бўлиши мумкингина эмас, зарурлигини тақозо этади. Бунинг учун санъат асари ҳақида фикр юритувчи танқидчининг ўзи муайян даражада санъаткор бўлмоғи даркор”[4,21].

Немис ва рус олимлари “Литературная художественная критика” деган атамани бир неча асрдан бери ишлатишади. “Бироқ адабий танқид илмий ва бадиий бирлашма сифатида узоқ вақтдан бери намоён бўлиб келмоқда. Танқид бу бадиий ва илмийлик ўртасидаги оралиқ жанрлардан биридир”, танқид- фан, чунки у билимни ўрганади ва тарғиб қилади; у - санъат, чунки у образлидир” деб ёзади рус олими Егоров. Бу масалани немис олимлари XX асрнинг 30 - йилларидаёқ ҳал этишган [2,231]. Шундай экан, адабий танқидда ижодкорликка, образлиликка эътибор устувор бўлиши керак. Бадиий асарни баҳолашда танқидчи шунчаки унга баҳо бермасдан, қалбига таъсир этган жиҳатларни образли тарзда ифодалаши лозим бўлади.

Келинг, фикримизни мисоллар билан асослайлик: етук адабиётшунос ва мунаққид Иброҳим Ҳаққуловнинг адабий-танқидий мулоҳазалари сиқиклиги, ўткирлиги билан, тили эса бу майдонда ўзининг афористиклиги билан ҳам ажралиб туради. Афоризмлардан, асосан, фикрни далиллашда, ихчам ифодалашда, матн жозибасини оширишда, мунаққид баҳс юритаётган муаммонинг барча замон ва маконларда муҳим эканлигини таъкидлашда фойдаланилади. Шу сабаб афоризмлар кўлами ҳам кенг: айни бир ҳодиса шарҳида ҳам шарқ адабиёти ҳам ғарб адабиётининг даҳо ижодкорлари фикрларидан фойдаланилади. Масалан, олимнинг Шекспир ижодига бағишланган “Буюк қалб муҳаббати” мақоласини кузатсак. Мақола бир ғарб шоирининг “Кўнгил билан фикрлаб, ақл билан ҳис қилишни ўргангил”[10,56] деган фикри билан бошланади. Олим бу фикр орқали Шекспир ижодининг

айнан шу хилда яратилганлигини айтиш билан бирга, китобхонга кўнгил ва ақл мувозанатини таъкидлайди. Мақолада рус адиби Н.В.Гогол, олмон шоири Гёте, даниялик файласуф Серён Керкегор, француз шоири Буало, араб мутафаккир шоири Ибн Арабий ва Пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом ҳадисларидан моҳирона фойдаланилган. Мақолада келтирилган афоризмлар орқали Шекспир ижодининг ҳудудсиз кенглиги ва бугунги кундаги аҳамиятини ҳам англаб оламиз. Шунингдек, олим илмий тафаккури кенглиги, ҳам ғарб ҳам шарқ адабиётининг етук билимдони эканлигини кўриш мумкин.

Мунаққид У.Норматов ҳассос танқидчи И.Ғафуров ҳақидаги мақоласида шундай ёзган эди: “Танқид ҳам илм-фан, ижод. Ахир, илм-фан, ижод шахсий фикр, субъектив мушоҳада, мулоҳазалардан бошланади-ку, ахир! Шахсий фикр, субъектив мушоҳадаларнинг салмоғи, кўлами масаласи бу –бошқа гап”. И.Ғафуровнинг ўзи “танқидчилик – менинг тушунишимча, муҳаббат изҳор қилиш, бу сўзга, гўзал сўзга муҳаббатдир” - дейди. Ўткир Ҳошимов “Мана шу гапда чуқур ҳақиқат бор. Аввало, ижоднинг ўзи муҳаббатдан бошланади. Бинобарин, Сўз билан ишлайдиган ҳунар эгасининг қалбида энг аввало муҳаббат бўлади! Мунаққид эса шу туйғу асарда қай даражада ўз ифодасини топганини теран хис этмоғи ва тушунмоғи керак. Шу талабдан келиб чиқиб асар фазилатларидан суюниб, камчиликларидан куюниб ёзган мунаққидгина ҳақиқий танқидчидир!”- деб ёзади.

Қалбдаги муҳаббатни, адибга, унинг асарига бўлган муҳаббатни тўкиб солиш учун танқидчида ижодкоркорлик бўлиши талаб этилади. Бугунги кунда ана шундай танқидчиларнинг етишиб чиқмаётганлиги уни пассив дейишга олиб келмаяптими?

Бугунги кунда адабий танқидий фикр, муносабат интернет тармоқларига кўчганлиги ҳақиқат. Истеъдодли ёзувчи, шоир, адабиётшунос У Ҳамдам адабий танқид ҳажм жиҳатдан қисқариб, кичик-кичик мулоҳазаларда интернет тармоқларида намоён бўлаётганлиги ҳақидаги фикрларида юз фоиз ҳақ. Ҳақиқатан ҳам интернет тармоқларида нафақат танқидчиларнинг, олимларнинг, балки китобхонларнинг, халқ оммасининг китоб ўқишга эътибори ошаётганлиги, интернет сайтларида нашр этилаётган асарларни ўқиб, уқиб, шу билан бирга унга баҳо бераётганлиги ҳам адабий танқиднинг бир қадар фаоллашганини намоён этмайдими?

Академик Бахтиёр Назаровнинг қуйидаги мулоҳазалари ҳам фикримизни ойдинлаштиришга хизмат қилади: “Иброҳим Ҳаққулнинг айниқса, мумтоз адабиётимиз муаммоларига бағишланган тадқиқотлари ўзининг ранг-баранглиги, назарий талқинларга бойлиги билан ажралиб туради. Умуман, олимнинг бу борадаги фикр юритиши ва мушоҳада этиш йўсини ўткир ҳиссиёти билан, чуқур дарди билан, асосан асардаги бирорта дарднинг поэтик намоён бўлиш хусусиятларини аниқлашга ҳаракат қилиниши билан, бадиий асар фалсафасининг зоҳир бўлишида санъаткор маҳорати ва шу маҳоратни белгилашдаги бадиият жозибаларини очишга қаратилгани билан ажралиб туради”[5,31]. Олим таҳлилларининг теранлиги, ранг-баранглиги ва жозибаси бежизга эмас, албатта. Бу унинг тафаккури ва илмий дунёқарашининг ниҳоятда бойлигида. “Ўткир ҳиссиёт, чуқур дард”ни ифодалаш учун албатта, танқидчида ижодкорлик бўлиши ва шу асосда бадиий матн сиру сеҳрини китобхонга етказа олиши зарурлигини О.Шарафиддинов, И.Ғафуров, И.Ҳаққулов каби кўплаб танқидчилар ижоди ёрқин намоён эта олади. Шу билан бирга танқидчи масъулияти жуда оғир ва мураккабликни зиммасига олган мутахассисдир.

Адабий танқиддаги образлилик ҳақида адабиётшунос Л.Қаюмовнинг шундай сўзлари бор: “Адабий танқидчилик ҳам образли, эмоционал, ҳам мантиқан изчил, теран фикрлаш, ҳукм ва мулоҳазаларга асосланади. Унинг “ота”си образлилик, эмоционаллик бўлса, “она”си

силлогизмлар, мантикий ҳукм ва мулоҳазалардан иборатдир. Бинобарин, танқидчи учун асосий қурол воситасини ўтайдиган таҳлилда бадиийлик, ҳис-ҳаяжон, поэтик пафос билан мантикий изчил фикрлар сув билан ҳаво сингари зарурдир [8,178].

Шундай экан, адабий танқидда илмий тафаккур билан бирга бадиий тафаккур ҳам бир майдонда, бир сатҳда иш кўради. Ўзбек танқидчиларининг адабий –танқидий асарлари буни ёрқин кўрсатиб турибди.

Хулоса қилиб айтганда, адабиёт ҳаётни, жамиятни, воқеликни, инсон ҳаётини бадиий акс эттириб, баркамол етук образлар яратиши лозим бўлса, танқиднинг вазифаси воқелик, кишилар ҳаёти, руҳияти ёзувчи томонидан нечоғли гўзал, ҳаққоний, янги тарзда акс эттиргани, ютуқ ва камчиликларининг туб сабабларини кўрсатишдан иборат.

Адабий танқиднинг вазифаси ва табиатидан келиб чиқувчи бу талаб танқидчини бадиий адабиётдан ташқари ҳаётни ҳам теран кузатиш ва чуқур билишга даъват этади. Бунда танқидчи танлаган таҳлил усуллари ва услубларининг ранг-баранглиги муҳим аҳамиятга молик. Зеро, танқидга оид асарнинг таъсирчанлик даражаси ва ўқимишлилиги аслида худди шу усул ва услуб жозибасига боғлиқ.

#### АДАБИЁТЛАР:

1. Боров Ю. Эстетика. Изд. 3. – М.: Политиздат, 1981. –С. 341-342.
2. Егоров Б.Ф. О мастерстве литературной критики: Жанры. Композиция. Стилль. 2019. – 231 с. [Электронный ресурс] Режим доступа: <https://urait.ru/bcode/422737>;
3. Milch W.Literaturkritik und Literaturgesheichte.1930.Ni.1\2, S.12.
4. Назаров Б.,Расулов А, Ахмедова Ш.,Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик. Тошкент. 21-31-бетлар.
5. Назаров Б. Моҳиятга муҳаббат. Тўплам. Масъул муҳаррир Т.Мирзаев. – Тошкент: Tafakkur, 2019. – Б. 31.
6. Художественное и научное творчество. Под ред.Б.С.Мейлаха.Л.1972.
7. Хильми Г.Ф. Поэзия науки. М.,1970.
8. Қаюмов Л. Аср ва наср. Тошкент. 1986. 178-бет.
9. Қодирова Н.С. Илмий-адабий тафқкур ва услуб муаммолари. Ф.ф.ф.д..... дисс. Бухоро. 2021. 132-бет.
10. Ҳаққул И. Талант – жасорат жавҳари.Тошкент.”Муҳаррир”.2018. 56 б.

#### NAVOIYNING “FAVOYID UL-KIBAR” DEVONIDA “LOLA” BILAN BOG‘LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI

*Tohir Xo‘jayev,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devonida gullar,ayniqsa, lola ,ular bilan bo‘liq tushunchalar,gullar turlarining qo‘llanishi,bundan shoirning maqsad va vazifalari kabilar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Navoiy, devon, “Favoyid ul-kibar”, gul, lola, g‘uncha, binafsha, oshiq, ma’shuqa.

**Annotation:** In this article, flowers, the concepts related to them, the use of types of flowers, the goals and tasks of the poet are covered in Navoi's book "Favoyid ul-kibar".

**Key words:** Navoi, devan, "Favoyid ul-kibar", flower, tulip, bud, violet, lover, suitor.

Navoiy nigohi teran shoir. U borliqdagi har bir manzara, o'zgarish va ko'rinishlar, tabiat hodisotlarini tez ilg'aydi. Va bu hayotiy tasvirlar, manzaralar shoir she'riyatida o'zining hayratomuz ifodasini topadi. Adabiyotshunos olim B.Ya. Shidfarning ta'kidicha, shoir uchun insonning ichki dunyosini yoritishning oson va qulay yo'li uni tashqi dunyo bilan, tabiat bilan qiyoslash, o'xshatish, taqqoslashdan iboratdir. Bu fikr Navoiy she'riyatida ham o'zining tugal ifodasini topadi. Shoir g'azallarini o'qir ekanmiz, unda lirik qahramon, oshiq va ma'shuqa xarakteri, holat va kayfiyati, qiyofasini yoritishda tabiiy manzaralar, hayotiy tashbeh va o'xshatishlarga keng murojaat qilganining shohidi bo'lamiz. Professor I.Haqqul to'g'ri ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, tabiat she'riyatda yo tasvir ob'ekti, ya'ni predmeti yoki poetik tasvir vositasi sifatida aksini topadi. Lekin, har ikki holda ham u inson qalbi, ruhi, ehtirosi, dard va kechinmalari bilan mustahkam birikkan bo'ladi" [3;194]. Juda o'rinli mulohaza.

Navoiy "Favoyid ul-kibar" devonida gul, uning qismlari, unga aloqador tushunchalar, gullarning turlari tez-tez ko'zga tashlanadi.

Navoiy "Favoyid ul-kibar" devonida 20 ga yaqin gullar nomini keltirib, tashbehlarning go'zal namunasi yaratadi. Devonda „lola“ (20 dan ortiq baytda), „rayhon“, „ra'no“, „sunbul“, „o'sma“, „vo'sma“ (bu o'simlikka ham gul deb qararak), „binafsha“, „nilufar“, „nofarmon“, „nasrin“, „nastarin“, „nastaran“, vard (atirgul), „nargis“, „savsan“, „chechak“ kabi gullar nomlari uchraydi. Bularning hammasiga misol keltirish, tahlil qilish mumkin. Oshiqona (ma'shuqa ko'rinishi, a'zolari tasviri, oshiq kechinmalari tasvirida), rindona (may bilan bog'liq tasvirlarda), diniy-tasavvufiy (davr, dunyo haqidagi qarashlarda), peyzaj (hayot, tabiat tasviri, ma'shuqa va oshiq tashbehlari) ruhida g'azallarda ko'p namoyon bo'ladi. She'riyatni yanada go'zal, nafosatli, ta'sirli va zavqli qilishda yordam beradi. Zero, Anvar Hojiahmedov aytganidek, "Olam bezagi bo'lmish rango-rang gullar-u, g'unchalar, muattar jambil-u rayhonlar, orombaxsh nargis-u binafshalar shoirlarga beaded zavq-u ilhom baxsh etib, bir-birlaridan nafis, betakror, ayni chog'da purmazmun va hayratomuz badiiy timsollar, teran va zebo badiiy lavhalarining yaratilishiga manba bo'lib xizmat qilgan" [2;128].

Navoiy devonida gul, u bilan bog'liq tushunchalar, g'unchadan so'ng eng ko'p uchraydigani „lola“ va u bilan aloqador tasvirlar yetakchilik qiladi. Lola, uning tabiatda uchrashi, ko'rinishi, o'sish makoni, rangi, bargidagi dog'lar haqida yaxshigina tasavvurga egamiz. Navoiy ana shu jihatlardan ma'lum g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalash uchun foydalanadi.

Mumtoz adabiyatdagi deyarli har bir shoir she'riyatida gul, uning turlari, lola haqidagi tasvirlar ko'zga tashlanadi. Navoiygacha bo'lgan davr she'riyatida, ayniqsa, Lutfiy she'riyatida lolaning o'ziga xos go'zal tasvirni uchratamiz:

Yuzungdin lola rang etib uyolib shahrga kirmas,

Aning bo'ynin kishi bog'lab keturmog'uncha sahrocin [4;181].

Bu baytda lola bilan bog'liq bir necha tushunchalar mavjud:

1. Lolaning rangi – qizilligi;
2. O'sish joyi – sahro;
3. Lolaga xalq munosabati – bahorda saylga chiqish, lola terish, dasta-dasta qilib olib kelish;
4. Ma'shuqa yuzi va lola qiyosi- yor yuzi go'zallikda lola chiroyidan ham ustun ekanligi;
5. Lolaning holati – husnda ma'shuqadan ko'rimsizroqligi sababli uyalishi.

Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonini o'qish jarayonida lola bilan aloqador bir qator qarashlar aniqlandi. Lola bilan birga „lolazor“, „lolarux“, „lolagun“ (lola rang, qizil), „lolafom“ (lolagun), „lolasiton“ (lolazor) so'zlari ko'zga tashlandi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Tabiatdagi lola guli nazarda tutilgan baytlar;
2. Ma'shuqani yoki uning ma'lum a'zolarini lolaga qiyoslash;
3. Lola qizilligi –rangini ifodalovchi baytlar ;
4. Lolaning o'sish o'rni bilan aloqador misralar;
5. Lolaning ko'rinishi, shakli bilan bog'liq baytlar;
6. Lola va umr qiyosi va boshqalar.

Navoiy she'riyatida bu tushunchalar bir necha vazifani bajargan:

1. Ma'shuqa go'zalligini tasvirlash vositasi;
2. Yor zulmi, javrini ifodalash maqsadida;
3. Eng asosiysi oshiq holat, kechinma, ruhiyatini tasvirlash uchun;
4. She'riyatni hayotga yaqinlashtirish, kitobxonga zavq, kuchli ehtiros uyg'otish va boshqalar.

Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidan olingan mana bu baytga nazar solaylik:

Dame gul birla sunbul xaylidin o't,  
Zamone lolayu rayhon sari es [1;164].

Shoir devonida gul,uning turlari tez-tez uchrab turadi. Bu baytda „gul“, „sunbul“, „lola“, „rayhon“ tilga olingan. G'azalning birinchi baytida lirik qahramon „ey bodi sabo“ deya shamolga murojaat qiladi. Bodi saboning esib jonon sari borishi, uning ko'yida oshiqning arzu niyozini bayon etishi, yo'l-yo'lakay bog', gul, sunbul, lola-yu rayhon saridan o'tishini so'raydi. Baytda tabiatdagi gullar, jumladan, lola ham qayd etilmoqda.

Shoir g'azallarida lola ko'pgina o'rinda yorning yuzi (qizilligi, chiroyi)ga,ya'ni lola rangi va ma'shuqa husni qiyosi uchun qo'llangan. „Lola yuz“,„lolaruh“ (bir baytda shunday yozilgan, aslida „lolarux“ to'g'ri),„lolarux“, „lolazor“, „lolagun“, „lolazor“ kabilar shu ma'noda. Mana bu baytda „ey lolarux“ deya ma'shuqaga murojaat qilinmoqda:

Agar bulbul guliston ichra ko'rdi xordin ozor,  
Va lekin ko'rmadi, ey lolarux, ozor men yanglig' [1;207].

Bulbul, uning nolasi, gul, bahor tushunchalari ko'p uchraydi. Bu oshiq holatiga tashbihlanadi. Bulbul uchun chamanzor, gulzor muhim. Ammo unga ham gulning tikani „xor“idan ozor yetadi. Ammo oshiq chekayotgan iztirob oldida u hech narsa emas. Buni oshiq o'z ma'shuqasiga alohida murojaat bilan yetkazmoqda.

„Chamanzor“, gulzor“ kabi „lolazor“ „lolasiton“ so'zlari mavjud. Bu lola o'sadigan keng maydonni anglatadi. Mana bu baytda ana shu lolazor nazarda tutilgan:

Yuzingda xol g'avg'osi aro gulguna zebidin,  
Ko'zung jayronlari o'ynarg'a go'yo **lolazor** etting [1;244].

Yuz, undagi xol-gulguna go'zallik hosil qilgan. Ko'z ham shu joyda. Shoir ana shu holatni tabiatga ko'chiradi. Lolazor, unda yayrab, zavqlanib o'ynayotgan jayronlar ko'z oldimizga keladi. Yuz, undagi xol –lolazor. Ko'z esa jayronlar. Mana bu baytda lolazor yuz ma'nosida.

Degaykim: bo'stonafro'z ichida tuxmi sochilmish,  
Biravkim xollar ko'rsa, uzoring **lolazorinda** [1;22].

Yuz lolalarni anglatasa, „bo'stonafro'z“ – dagi tuxumlar esa xol o'rnida. Shu ma'noga yaqin fikrlar mana bu misralarda ham ko'rinadi Unda tabiatdagi ikki hayotiy voqeaga ishora qilinadi. Birinchisi lolazorda ilonning bo'lishi, ikkinchisi olovdagi qilning holati:

Qon yoshim ichra tanim to'lg'ang'anin nazzora qil,  
**Lolazor** ichra yilon gar ko'rmading,o't uzra qil [1;258].

Oshiq ma'shuqa hajrida qon yosh to'kadi. Qon yosh mumtoz adabiyotda eng ko'p uchraydigan tasvir. Bu dard, azob, g'am-qayg'uga botgan oshiq holati. Qon yosh –lolazor

(qizilligi), ilon –oshiq tanasi , o‘t –bu ham qizillik, unda kuyayotgan qil esa, lirik qahramon vujudi. Hayotda uchraydigan bu ikki manzara oshiq kechinmasini ifodalashda qo‘l kelgan. Lola barglari parcha-parcha. Mayda bo‘laklarga ajralgan. Mana shu ko‘rinish ham bir necha maqsadda ishlatilgan. Oshiq ko‘nglining shakli, bag‘ir, chok ko‘ylak va boshqalar.

Ko‘nglumniki pargolalar etti g‘ami hajring‘,  
Lola varaqidek borida dog‘ ila qondur. [1;102].

Bilamizki, lola qizil,barglari ayri-ayri, ichida qora dog‘lari bor. Ana shu manzara oshiq holatiga qiyoslanmoqda. Oshiq ko‘ngli, uning qizil qoni, hajrdan paydo bo‘lgan dog‘lar.

Ba‘zi baytlarda lolaning o‘shish, chiqish joylari ham nazarda tutilgan. Lola bahor faslida sahro, qir-u adirlar, yo‘l yoqalari, ekinzorlarda, suvoq tomlar ustida ko‘rinish beradi. Mana bu baytda esa, boshqacharoq tasvir:

Buzug‘ ko‘nglum aro xattu uzoring,ey bahori husn,  
Erur andoqki,butkay sabza birla lola vayrondin. [1;315].

„Ey bahori husn“ –bu ma‘shuqa. Bahor, vayrona, ko‘k maysa-o‘tlar, u yer-bu yerda ko‘rinib qolgan lolalar –hammamizga tanish manzara. Lekin lola o‘sgan joy vayrona, buzuq, ko‘rimsiz manzil. Shoir ana shu tasvirdan oshiq holatini berishda foydalangan. Vayrona –bu oshiqning ko‘ngli. Ma‘shuqa xatti-sabza, yuzi- lola.

Lola so‘zi uchraydigan ayrim baytlarda kafan tilga olinadi. Yor „yuzi lolasi“ hajridan qayg‘uga botgan, hatto o‘lim holiga kelgan oshiq ko‘ylagi unga kafan bo‘lgani, saboga murojaat qilib, loladan qonlig‘ kafan qilishi tasvirlansa, mana baytda boshqacha tasvir:

Loladek qonlig‘ libosim birla dafn aylang meni  
Kim, shahidi ishq ma‘hudi kafang‘a kirmadi. [1;437].

Vafot etgan kishi kafanga o‘rab dafn qilinadi. Bu hayotiy voqea. „Ma‘hud“ –odat. Oshiq fikricha „shahidi ishq“ni –ishq yolida shahid bo‘lgan kishini kafansiz ko‘mish joiz. Shuning uchun ham oshiq „loladek qonlig‘“ libosi kafani b‘lishini istaydi. „Loladek qadah“, „lolagun kafan“, „lola urug‘i, „loladek vafosi yo‘q“ kabi tushunchalar bilan aloqador baytlar ham anchagina. Bularning hammasi ma‘lum vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy.Favoyid ul-kibar.MAT. Yigirma tomlik.Oltinchi tom. Toshkent:”Fan” nashriyoti,1990.
2. Hojiahmedov A. Husni ta’lil san’ati. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2008.
3. Ibrohim Haqqul. “Tabiatdir mening davomim...”// E’tiqod va ijod.-Toshkent: “Fan”,2007.
4. Lutfiy. Sensan sevarim... Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1987.

#### ФОРМИРОВАНИЕ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ НА ОСНОВЕ ПОСЛОВИЦЫ И ПОГОВОРКИ

*Сатторов Улугбек Файзуллаевич,  
директор Навоийского горного колледжа, доктор филологических наук  
(Узбекистан)*

**Аннотация.** Поговорки и пословицы – один из самых активных и широко распространённых памятников устного народного творчества. В них народ на протяжении веков обобщал свой социально-исторический опыт. Они имеют афористическую форму и поучительное содержание, выражают думы и чаяния народа, его взгляды на явление

общественной жизни, его эмпирически сложившиеся представления о воспитании молодого поколения.

**Ключевые слова:** народная педагогика, поговорки, пословицы, афористика, чаяния народа.

**Annotatsiya.** Maqol va matallar xalq og‘zaki ijodining eng faol va keng tarqalgan yodgorliklaridan biridir. Ularda asrlar davomida odamlar o‘zlarining ijtimoiy-tarixiy tajribasini umumlashtirganlar. Ular aforistik shakl va ibratli mazmunga ega bo‘lib, xalqning fikr va intilishlarini, ijtimoiy hayot hodisasiga qarashlarini, yosh avlod tarbiyasi haqidagi empirik asoslab berilgan g‘oyalarini ifodalaydi.

**Tayanch so‘zlar:** xalq pedagogikasi, matallar, maqollar, aforizmlar, xalq intilishlari.

**Annotation.** Sayings and proverbs are one of the most active and widespread monuments of oral folk art. In them, over the centuries, people have summarized their socio-historical experience. They have an aphoristic form and instructive content, express the thoughts and aspirations of the people, their views on the phenomenon of social life, their empirically established ideas about the education of the younger generation.

**Key words:** folk pedagogy, sayings, proverbs, aphorisms, aspirations of the people..

На поговорках, пословицах и изречениях училось и воспитывалось не одно поколение людей, более того, некоторые пословицы стали девизом в жизни великих людей. Большой интерес представляет отношение самого народа к поговоркам и пословицам как источнику познания.

Народные афоризмы не просто выражают ту или иную воспитательную идею, они созданы, отшлифованы, имеют как бы определенную воспитательную задачу, дидактические цели[1.23-36].

Краткость, лаконичность пословиц особенно важны для запоминания нравственных норм и правил. И народы позаботился об этом: «Доброе дело в воде не утонет» (каракалпакская), «Конец терпения – золото» (казахская), «Любовь сильнее смерти» (киргизская), « «Друг – зеркало друга»(таджикская), «Доброе слово слаще меда» (туркменская),»Знатный стал –не кичись, не скупись!» (узбекская)

Гостеприимство как вековой закон Востока также облекается в лаконичные афоризмы: «Где гость, там удача», «Гость старше отца», «Угоди людям, будь гостеприимным».

Краткими крылатыми фразами народ выражал и свои патриотические чувства. «Родная земля- золотая колыбель», говорят узбеки. «Чем баем быть у чужого народа, лучше быть пастухом у своего народа», - вторят им казахи. Беспредельно тонки и привлекательны эстетические вкусы народа. «Нет цветов – нет уюта», «Тюльпан идет даже к голове плешивого», - говорят таджики., «Видеть прекрасное в жизни – это видеть кусочек рая», «Дай другу поддержать цветы»,- советуют туркмены. Удивительно образно говорится о самом сокровенном, о чем мечтает человечество, -о мире. «Мир-это роза, понюхай и отдай другому» - советуют миролюбивый народ[41-56].

Кратко и образно выражают афоризмы народные мысли о воспитании, формировании личности человека. Педагогический гений народа продуманно, сознательно создал афоризмы, наделенные поэтическими рифмами.

Таким образом, в самом построении афоризмов видна их педагогическая целесообразность, рассчитанная не просто на усвоение истин, но и на то, чтобы они стали



неписаными законами жизни, оказывали прямое влияние на воспитание и формирование личности.

В целях усиления воспитательного воздействия педагогических миниатюр народ проявил заботу также о том, чтобы художественно оформить свое творение используя для этого разнообразные средства поэтической образности, словесной ритмики, добиваясь, таким образом яркого интонационно – смыслового звучания афоризмов[3.76-81].

Анализ народных афоризмов показывает, что в них находят свое выражение смысловое параллелизм и противопоставление, когда мысль, выраженная в одной части пословицы, усиливается путем противопоставления в другой ее части. Имеют место примеры смешного параллелизма, когда в общих чертах сопоставляются разные предметы, явления и понятия.

Нравственно-поучительные поговорки и пословицы содержат целый комплекс продуманных рекомендаций, выражающих народное представление о человеке, о формировании личности, о нравственном воспитании.

Литература

1. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4т. М.: 1978-1980.
2. Пропп В.Я. Морфология сказки М.: 1969.
3. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. М.: 1976.

## ФОЛЬКЛОРНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ НАРОДА

*Сатторов Улугбек Файзуллаевич,*

*директор Навоийского горного колледжа, доктор филологических наук  
(Узбекистан)*

**Аннотация.** Центральное место в системе физического воспитания занимали детские игры. В народном представлении игры не только развлечение, но и средства физического, нравственного и эстетического воспитания детей. Через игры реализуется самостоятельность детей: детские тайные языки, считалки, жеребьевки, пение, декламации, хороводы и т.д.

**Ключевые слова:** физическое развитие, народные игры, подвижные игры, свежий воздух.

**Annotation.** Children's games occupied a central place in the physical education system. In the popular imagination, games are not only entertainment, but also a means of physical, moral and aesthetic education of children. Children's amateur activities are realized through games: children's secret languages, counting rhymes, drawing lots, singing, recitations, round dances, etc.

**Key words:** physical development, folk games, outdoor games, fresh air.

**Annotatsiya.** Jismoniy tarbiya tizimida bolalar o'yinlari markaziy o'rinni egalladi. Ommabop tasavvurda o'yinlar nafaqat o'yin-kulgi, balki bolalarni jismoniy, axloqiy va estetik tarbiyalash vositasidir. Bolalarning havaskorlik faoliyati o'yinlar orqali amalga oshiriladi: bolalarning yashirin tillari, qofiyalarni sanash, qur'a tashlash, qo'shiq aytish, qiroat qilish, dumaloq raqslar va boshqalar.

**Kalit so'zlar:** jismoniy rivojlanish, xalq o'yinlari, ochiq havoda o'ynash.

Особое значение народ придавал национальным играм – как важному средству физического развития и воспитания. По поводу характера национальных игр. Тёплые

климатические условия Центральной Азии способствовали развитию в крае подвижных игр на свежем воздухе[1.13-16].

В весенне-летний период дети играли в подвижные игры на свежем воздухе, при этом обычно девочки играли отдельно от мальчиков. Старшие сделали за игрой детей и в играх видели особые приметы: « Если дети, выйдя в первый раз играть, играют мирно, не ссорятся и игры их носят характер мирный, - значит, год должен быть спокойным, и наоборот, год будет беспокойный, если дети ссорятся.

На свежем воздухе, например, дети играли в «сафид чубак» («белая палочка»). Участники игры делятся на две группы. Выбирается старший, своего рода арбитр, который в игре не участвует. Он бросает белую палочку как можно дальше. По команде участники обеих команд стремятся бегут, чтобы первыми схватит палочки. Владелец палочки стремится передать ее кому-нибудь из членов своей группы, а противоположная сторона в свою очередь стремится отнять палку у соперника. Тот, кому удастся вырваться, бежит к старшему и передает ему палочку с низким поклоном. Если «белая палочка» попадает в руки старшего- это означает, что победу одержала группа, которая ее доставила.

Победившая сторона садится верхом на побежденных, сидя верхом совершает круг почета, приветствует старшего. После этого все собираются в свои группы, и игры начинается снова.

А.А.Диваев описывает казахско-киргизские игры: «Кыз качар», «Кокпар», «Тогуз-кумалак», игры в «серую корову», в «верблюда», в «прятанье шапка» и др. в каждой из них отразились элементы быта и хозяйственной деятельности человека. Особенно популярными были конноспортивные игры: «Алмай –байге», «Кыз Куумай», «Оодарыш» и другие, не потерявшие своего значения до наших дней. Имеется много описаний распространенной по всей Центральной Азии национальной игры, получившей название «козлодрание» («Улак тартыш», «Овлак чалды»)[2.43-62].

Таким образом, идеалом физического воспитания, представлении народа, было воспитание молодой смены здоровой, жизнерадостной, сильной и отважной.

Комплекс мер, включающий в себе народную медицину, разумное питание, использование природных факторов, игры, спортивные соревнования и праздники, обеспечивал нормальную физическую развитие детей[3.41-51].

Народные приемы и методы физического воспитания и сегодня может быть широко использованы педагогами и родителями с учетом возрастных особенностей детей.

#### **ЛИТЕРАТУРА**

1. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4т. М.: 1978-1980.
2. Пропп В.Я. Морфология сказки М.: 1969.
3. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. М.: 1976.

## MAKTAB DARSLIGIDA BERILGAN TIBBIYOTGA OID SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

*I.K.Mirzayev,*

*SamDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori*

*Amirova Malika,*

*SamDU filologiya fakuteti, 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Kishining o‘z fikrini suhbatdoshiga yetkazishi uchun eng kerakligi bo‘lgan til birligi so‘zdir. So‘z orqali insonlarning mulohazasi bayon etiladi, u orqali gaplar tuzilib, gaplar orqali esa matnlar yaratiladi. Odam biror voqea-hodisani so‘zlar ekan, aql va idrok, tafakkur va ong bilan bog‘liq holda o‘z fikr-mulohazasiga qarab uni mushohada etadi. Ushbu fikrlar bayon etilish jarayonini eng kerakli bo‘lgan til birligi, albatta so‘zning ishtirokisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

**Kalit so‘zlar:** leksika, ona tili, shifoxona, shifokor, stomatolog, okulist, nevropatolog, kardiolog, xirurg, dermatology, LOR, endokrinolog, pediater, kasal(bemor), kasallik varaqasi, tashxis.

**Аннотация.** Единицей языка, которая больше всего нужна человеку для того, чтобы донести свою мысль до собеседника, является слово. Через слово выражается рассуждение людей, через него строятся предложения, а через предложения создаются тексты. Когда человек говорит о событии, он наблюдает за ним в соответствии со своей обратной связью с разумом и восприятием, мышлением и сознанием. Процесс изложения этих идей невозможен без участия самой желанной языковой единицы, конечно же слова.

**Ключевые слова:** лексика, родной язык, больница, врач, стоматолог, окулист, невролог, кардиолог, хирург, Дерматология, ЛОР, эндокринолог, педиатр, пациент(пациент), больничный лист, диагноз.

**Annotation.** The unit of language that a person needs most in order to convey his thoughts to the interlocutor is the word. People's reasoning is expressed through the word, sentences are built through it, and texts are created through sentences. When a person talks about an event, he observes it in accordance with his feedback with reason and perception, thinking and consciousness. The process of presenting these ideas is impossible without the participation of the most desired language unit, of course, the word.

**Keywords:** vocabulary, native language, hospital, doctor, dentist, optometrist, neurologist, cardiologist, surgeon, dermatologist, ENT, endocrinologist, pediatrician, patient(patient), sick list, diagnosis.

So‘zning biz taqdim etayotgan suhbatdoshga aniq, ravshan va tushunarli yetkazib berilishi juda muhimdir. Masalan, shifokorlarni olsak. Shifoxonalarda turli bo‘lim shifokorlari mavjud bo‘lib, ularning bemorlar bilan bo‘lgan muloqotida ishlatiladigan kasallik nomlari, dori nomlari, ularning organizmga qanday ta‘sir ko‘rsatishi, saqlanishi, qo‘llash mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan holatlari turlichadir. Shu jihatdan shifokorlarning o‘z sohasiga doir so‘zlarni qo‘llashi natijasida ham, aytayotgan tashxis natijalarida ham tushunarsiz so‘zlarga duch kelamiz va qayta murojaat qilib uning nima ekanligini so‘raymiz. Mana shu jarayonda shifokorning qo‘ygan tashxisi bemorga tushunarli tarzda yetkazib berilmasa (agar tashxis ijobiy bo‘lsa ko‘ngli yorishadi, aksincha bo‘lsa ruhiy tushkunlikka tushadi), bunday holatda unda tushunmovchilik paydo bo‘ladi. Shu kabi tushunmovchiliklarning paydo bo‘lmasligi uchun ikki shaxs o‘rtasidagi muloqotda aniqlik bo‘lishi kerak. Bunday holatda meditsina sohasida qo‘llaniladigan birliklarni boshqa so‘zlar orqali munosib

tarzda ifodalab berish o‘rinlidir. Aytib o‘tish joizki, 2022-yilda tibbiyotga oid 10 000 ga yaqin klinik terminlar hamda tibbiyot tushunchalarini o‘z ichiga olgan “Tibbiy atamalar izohli lug‘ati”ning “Tibbiy terminlar ensiklopedik lug‘ati” asosida tayyorlandi. Bu kabi lug‘atlarning ko‘payishi o‘zbek tili leksikaga oid so‘zlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, tibbiyotning jarrohlik bo‘limida o‘rganiladigan va ishlatilagan leksik birlik sifatida “amputatsiya” so‘zini olsak, bu so‘zni birinchi bor eshitayotgan kishi uning nima ekanligini bilmaydi, uning lug‘at boyligida bunday so‘z qanday izohga ega ekanligiga javob beruvchi ma‘lumot yo‘q. “Amputatsiya – tananing biror qismini kesib tashlash”[1.762]. Ushbu izoh “amputatsiya”ning nima ekanligini ifodalayapti. Lug‘atda shu kabi bir qancha tibbiyotga doir terminlarning izohini topishimiz mumkin.

Bugungi kunda maktablarda foydalanib kelinayotgan “Ona tili” darsliklarida bir qancha tibbiyotga oid bo‘limlar mavjud. 6-sinf “Ona tili“ darsligida “Shifoxona”, “Jigar – eng mehnatkash a‘zo”, “Ko‘z nurini asraylik” bo‘limlari bor bo‘lib, ushbu bo‘limlarda 6-sinf o‘quvchilari uchun kerakli bo‘lgan bilimlar jamlangan. Masalan, “Shifoxona” bo‘limida aynan quyidagi tibbiyot sohasiga oid til birliklar keltirilgan:

**Okulist** – tibbiyot sohasiga oid atama, ko‘z kasalliklari bilan shug‘ullanuvchi shifokor.

**Nevropatolog** – asab tizimi to‘qimalarining kasalliklarini davolovchi shifokor.

**Stomatolog** – og‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan tishlar va milk kasalliklari bilan shug‘ullanuvchi shifokor.

**Kardiolog** – yurak kasalliklari bilan shug‘ullanuvchi shifokor.

**Xirurg** – jarrohlik operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi shifokor.

**Dermatolog** – teri kasalliklari bilan shug‘ullanuvchi shifokor.

**LOR(Otorinolaringologiya)** – quloq, burun, tomoq va uning atrofida joylashgan a‘zolarining kasalliklari bilan shug‘ullanuvchi shifokor[2].

**Endokrinolog** – ichki sekretiya bezlar, ularning tuzilishi, rivojlanishi, ular ishlab chiqaradigan gormonlar va shunga aloqador bo‘lgan kasalliklarni o‘rganuvchi shifokor[3].

**Pediatr** – bolalar shifokori.

O‘qituvchi ushbu shifokorlarning qanday vazifa bajarishi haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi zarur, o‘quvchida tug‘ilayotgan savollarga to‘g‘ri javob berib, uni ushbu sohaga bo‘lgan qiziqishini ham orttirishi ham muhim albatta. Balki kasb tanlashda ham katta yordam berib qolsa, ajab emas.

Biz so‘zni ikki bo‘limda o‘rganamiz: morfologiya, leksikologiya. Leksikologiyani o‘rganishda morfologiyaga ham e‘tibor qaratishimiz darkor. Shu sababdan 6-sinf “Ona tili” darsligining bu mavzusida morfologiyaga oid bilimlar ham berilgan, bu esa o‘z navbatida leksikologiya ham bog‘liqdir. Chunki gapni yoki matnni leksik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, gap yoki matndagi lug‘aviy birliklarni leksik birliklarga ajratib olamiz, keyin uning atash ma‘no(Leksikologiyada o‘rganiladi)sini, so‘ng grammatik ma‘no(Morfologiyada o‘rganiladi)sini aniqlaymiz, uslubiy bo‘yoqdor yoki bo‘yoqdor emasligini(ozar, ruxsor – “yuz” so‘zining bo‘yoqdor variantlari), so‘zning bir yoki ko‘p ma‘noligini(tosh – qattiq jism(o‘z ma‘no), bag‘ritosh – ko‘ngli qattiq, bag‘ri qattiq(ko‘chma ma‘no)), ma‘no ko‘chish turlarini(**metafora** – shakl va belgi jihatdan o‘xshatish, iboralar: tandirning og‘zi(shakl), yengil kuy(belgi), yerga ursang ko‘kka sapchiydi(ibora) – sho‘x; **metonimiya** – ikki narsa o‘rtasidagi aloqadorlik, biri orqali ikkinchisi tushuniladi: Samarqandda yashayman – Samarqand viloyatida(shahrida) yashayman, uy oyoqqa turdi – uyda o‘tirganlar oyoqqa turdi; **sinekdoxa** – bo‘lak orqali butun, butun orqali bo‘lak: qo‘limni kesdim – barmog‘imni kesdim(butun orqali bo‘lak), egma qoshga bir qarab qo‘y(bo‘lak

orqali butun); **vazifadoshlik** – stol oyog‘i/inson oyog‘i(turish); **kinoya** – “akademik” o‘quvchimiz keldilar).

6-sinf “Ona tili” darsligida berilgan ushbu matn orqali ham leksikologiyani, ham morfologiyani o‘rganish va o‘rgatish maqsad qilib olingan, keling matnda ajratib ko‘rsatilgan leksik birliklarni ikki bo‘lim nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

### AMIR

Abu Ali ibn Sino **kasal** bo‘lib yotgan **Buxoro** amirini ko‘rgach, unga dori-darmon berib, **uch** kun o‘rnidan qimirlamasdan yotishni buyuribdi. Ertasiga amirning sog‘lig‘idan xabar olgani kelsa, o‘rnida yo‘q, bog‘da aylanib yurgan ekan.

Amirning bog‘ kezib yurganini ko‘rgan Ibn Sino undan **ranjibdi**, amirga hech narsa demabdi-yu, u bilan birga kezib, yo‘lni ataylab amir yotog‘iga buribdi.

Amir o‘rniga kirib yotgach, uning **tomirini** ushlab ko‘ribdi, ko‘ziga diqqat qilibdi, yana dori-darmon berib, uch kun yotib dam olishni tayinlabdi. Lekin **bu** gal u ilgari aytganidan qattiqroq ta’kidlaganini payqagan amir **yosh** tabibga qarab:

– O‘zing yoshsan-u, tiling **burro**-ya, amirlar bilan gaplashishni ham bilmaysan, – **debdi** kulib.

– Siz xalqqa amir bo‘lsangiz, tabib tan amiridir. Odatda kim buyruqni bajarmasa, amir unga jazo beradi. Rost, **siz** mamlakat, el-yurt amirisiz, lekin betobligingizda tabibga itoatkorsiz.

Buyruqqa bo‘ysunmagan **amaldorlar** bilan yurtni idora qilib bo‘lmaganidek, tabib ham buyruqqa bo‘ysunmagan betoblar ustidan hukm yuritilmaydi, – debdi Ibn Sino.

– Tiling o‘tkir-u, lekin gaplaringda mantiq bor, juda dadil yigit ekansan. Bo‘ldi, amirni yengding, endi amir amirga itoat qiladi, – debdi kulib hukmdor.

**U** shunday debdi-yu Ibn Sinoning aytganlarini bajo keltirishga **jazm qilibdi** va bir necha kundan so‘ng **sog‘ayib ketibdi**.

*Har bir yurtida bo‘lgan kabi malik-u shoh,  
Tabib erur tan amiri – darddan ogoh.*



*Abu Ali ibn Sino haqida afsona va rivoyatlardan*



[4]

Matnda “kasal”, “Buxoro”, “uch”, “ranjibdi”, “tomir”, “bu”, “yosh”, “burro”, “debdi”, “siz”, “amaldorlar”, “u”, “jazm qilibdi”, “sog‘ayib ketibdi” so‘zlari ajratib ko‘rsatilgan. Ushbu so‘zlar orasida “bu”, “siz”, “u” olomoshlari atash ma’nosiga ega bo‘lmagan birliklar hisoblanadi, ular faqatgina morfologiya bo‘limi yuzasidan tahlil qilganimizda so‘z turkumi sifatida boshqa gap bo‘laklarining o‘rnida qo‘llana olish xususiyati orqali ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘la oladi. Leksikologiya yuzasidan olmoshlarning yolg‘iz o‘zi hech qanday atash ma’nosini ifodalaganligi uchun ularni “ichi bo‘sh so‘z” deyishimizga sabab ham shudir, balki. Qiyoslang: U shirin – olma shirin. Bu yengil – yuk yengil. Shuni ol – kitobni ol.

Yuqorida keltirilgan “Amir” matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar yordamida so‘z turkumlarga ajratish topshirig‘i quyidagicha berilgan:



Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadval asosida so‘z turkumlariga ajratib, daftaringizga ko‘chirib oling.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe‘l
?	?	?	?	?

**Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar:** “kasal”, “Buxoro”, “uch”, “ranjibdi”, “tomir”, “bu”, “yosh”, “burro”, “debdi”, “siz”, “amaldorlar”, “u”, “jazzm qilibdi”, “sog‘ayib ketibdi”. **Kasal** – nima?, ot so‘z turkumi.

**Buxoro** – qayer?, ot so‘z turkumi.

**Uch** – necha?, son so‘z turkumi.

**Ranjibdi** – nima qilibdi?, fe‘l so‘z turkumi.

**Tomir** – nima?, ot so‘z turkumi.

**Bu** – qaysi?, olmosh so‘z turkumi.

**Yosh** – qanday?, sifat so‘z turkumi.

**Burro** – qanday?, sifat so‘z turkumi.

**Debdi** – nima qilibdi?, fe‘l so‘z turkumi.

**Siz** – kim?, olmosh so‘z turkumi.

**Amaldorlar** – kimlar?, ot so‘z turkumi.

**U** – kim?, olmosh so‘z turkumi.

**Jazzm qilibdi** – nima qilibdi?, fe‘l so‘z turkumi.

**Sog‘ayib ketibdi** – nima qilibdi?, fe‘l so‘z turkumi.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe‘l
Kasal	Yosh	Uch	Bu	Ranjibdi
Buxoro			Siz	Debdi
Tomir	Burro		U	Jazzm qilibdi
Amaldorlar		Sog‘ayib ketibdi		

Ushbu so‘zlar orasida tibbiyotga oid kasal, tomir va sog‘ayib ketmoq birliklari mavjud. Matn yuzasidan qarasak, dori-darmon, tabib, tan, betoblik, betob, dard so‘zlarini ham olsak bo‘ladi. Bu leksik birliklarni o‘quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida “izohini o‘zi yozishi kerakligi” to‘g‘risidagi topshiriqni bersak maqsadga muvofiq. Keyin o‘qituvchi tomonidan tekshirilib, yuqoridagi so‘zlarning izohi keltirilsa, ularning lug‘at boyligining oshishi uchun yanada katta yordam bo‘ladi. So‘zlarning sinonimik qatorini keltirish ham lug‘at bilan ishlashning samarali yo‘llaridan biridir:

**Kasal** – organizm me‘yoriy holatini, faoliyatini buzuvchi narsa; kasallik, dard(ot); betob, kasallikka yo‘liqqan(sifat); bemor(ot).

**Tomir** – odam va hayvonlar tansida qon yoki limfa oqadigan naychasimon a‘zo.

**Sog‘ayib ketmoq** – tuzalmoq, yaxshi bo‘lmoq, shifo topmoq, sihatlanmoq, dardi arimoq.

**Dori-darmon** – kasalni davolash yoki kasallikning oldini olish uchun ishlatiladigan, tabiiy yoki kimyoviy yo‘l bilan olingan modda; umuman shifobaxsh narsa, vosita.

**Tabib** – bemorlarni davolovchi mutaxassis; tibbiyot ilmidan muayyan mutaxassis tayyorlovchi o‘quv yurtida ta‘lim olmagan, o‘z harakati, hayotiy tajribasi orqali bemorlarni davolash bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

**Tan** – kishining butun borligi, vujud; odam gavdasining ko‘krak qafasi va qorin bo‘shlig‘idan iborat qismi: tana.

**Betoblik** – bemorlik, kasallik, xastalik.

**Betob** – biror kasallik bilan og‘rigan; tobi qochgan; kasal, bemor.

**Dard** – jismoniy azob; og‘riq, kasallik[5].

Ko‘rdikki, ushbu mashqda shu so‘zlarning ma‘nosini ifodalay oladigan boshqa so‘zlarni lug‘at boyligi orqali topishga harakat qildik. O‘quvchilarga shu kabi mashqlarni bajartirishda eng avvalo ularga savol berish orqali topishga yo‘naltirsak yanada to‘g‘riroq bo‘ladi, negaki ma‘nodosh so‘zlar

faqatgina bir turkum doirasiga mansub bo'ladi. Qiyoslang: kasal – nima?, ot so'z turkumi, dard, kasallik; kasal – qanday?, sifat so'z turkumi, betob, bemor, tobi qochgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Hammabop tibbiyot qo'llanmasi. Tibbiy terminlar lug'ati. 2013. 762-b.
2. Clinics.uz
3. Fedorovich.uz
4. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. –Toshkent. 2022, 25-28-bet.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. I, II, III, IV, V jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

### THE IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY ON EDUCATION

*Nodira Murodova,*

*Iroda Khojiyeva*

*Navoiy State Pedagogical Institute, Navoiy, Uzbekistan*

**Summary:** The article analyzes the changes in the education system in the development of digital economy and requirements for digital literacy in education.

**Key words:** digitization, digital literacy, internet environment, individualization of education, educational process.

The question of "digitization" is the most important and embodied in many spheres today, and in the conditions of the development of today's Digital Economy, Science shows that its contribution to it is enormous. Science dictates the need for the development of science, its digitization, its transformation into money in the virtual world, the digitization of education as well. According to the decree of the president of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 № PF-5847 "On the concept of development of the higher education system until 2030", the education system is also envisaged the wide spread and scale of use of Information Technology, which has the necessary conditions in the 21st century. [1]

Digitization of the economy does not only mean the transition from the " analog " era to the digital world, but also the translation of data and processes into the digital world. Therefore, the digitization of the education system is not only limited to the creation of a digital copy of the usual textbooks, but also means the digitization of the document circulation and the possibility of accessing the entire continuous education system on the high-speed internet. And this is only a check with the creation of an electronic copy of the textbooks, a new look at the educational system, the need for a radical turn, the approach to education in itself.

It indicates the need for answers to questions such as:  
what and how to teach?

If a person receives and digitizes audiocassettes, this does not mean that they will be part of the digital economy. Because digital literacy is the most important part of modern education.

Literacy is a concept familiar to all. According to the most general definition, this is the level of possession of basic cognitive abilities:

- reading,
- writing.

However, with the development of technology and the complexity of the information space we have, the term literacy is becoming synonymous. International organizations that are trying to classify the skills necessary for a modern person, touch on the importance of digital, information, scientific literacy. Often such types of literacy complement and enrich each other.

Digital literacy means

- the creation and use of content through digital technologies,
- including computer programming skills,
- the search and exchange of information, communication with other people.

There are different criteria for the development of digital literacy. For example, according to USA professor Henry Jenkins, digital literacy means:

- understanding how human and digital technologies interact with a computer,
- understanding device characteristics,
- and understanding digital information dissemination and social media characteristics.

[2]

In his opinion, it is important to understand:

- the cultural context of the Internet environment,
- the ability to communicate in online communities,
- the ability to create and distribute content,
- the use of digital technologies for self-development.

In this sense, we can see that digital literacy is also a source of self-development. People who do not have such a culture and literacy will not be protected from the flow of digital information and will not know how to convert it into money.

In order to live long and happy in the digital economy, a person must have a culture of information consumption, for example, people must have the ability to make the right choice between a light subject and between the novel named as “The past days” of Abdulla Qadiriy (the great uzbek writer), for these they must be able to understand the needs and nature of these works.

Obviously, digital literacy is a complex set of skills, for its development it is not enough to update the program on "Informatics" or technical re-equipment of the educational system. And without the development of these sectors, unfortunately, the basis of the digital economy will also be weak. The younger generation is more interested in digital technologies, and pay attention to the reality of society, and this in due time leads to the collapse of their perception of the real labor market, so education system need to take into account their digital literacy and analysis of everyday life.

Therefore, the individualization of education can lay the foundation for the development of the digital economy as well. If the development of digital technologies is, first of all, excluded from the production of workers of “regular” labor, then the system of mass education, which trains specialists in one program, will be insignificant.

In addition, experts believe that the digital economy requires the development of skills for self –

- organization,
- planning,
- self-promotion,

and this is done through the individualization of Education, which, in turn, should be considered.

Digital technologies that enter the educational system allow to individualize the learning process and at the stage of mastering new materials, and at the stage of controlling



individual results. Opportunities for this are due to the emergence of such projects as “mobile e-school”.

This is a social network for

-teachers,

-students,

-and parents,

and it is an indication that the educational content, assessment and feedback systems with which the educational process should be digitized and coming to an online view of the educational methodological support system. In order not to stay on the edge of the digital economy, it is necessary to learn

-what,

-when,

-and how, each person must decide for himself.

Digital technologies provide tools for the development of mixed education, a strict classroom lesson, which is the same for all curriculum and has the same time to master it, overcome the limitations of the system. It is true, that in a public school, these opportunities are rarely realized. The reader, for the students themselves, too, seems to be more interested in a virtual scientist than in real lessons. [3].

The digital economy is radically changing the labor: where the computer is being replaced. For people who are dismissed, the road to self - employment, especially digital technology-creates new opportunities for the organization and development of business.

In addition, in the near future, regular changes in the profession will become the norm, and being in one professional field will require readiness for training. The concept of Continuing Education shows that human life is not divided into the period of study (before receiving a diploma) and work, and education becomes a continuous process throughout life. In order for continuous education to become a vital norm, the structure of online education and the attitude of society towards education must change. If the first task is the digitization of online platforms, software, content, then the second will be directly related to the development of internal motivation of a person. And it is important to start from the primary classes and have an interactive learning screen.

The digital economy requires from the educational system not only the "digitization" of individual processes, but also approach that sets new goals, changing the structure and content of the educational process.

The processes of globalization, that is, the incomparable acceleration of the pace of life, the exchange of high-level information, the development of the world civilization, the enormous reforms and creative work carried out in our country, the members of our society are obliged to work tirelessly on themselves, to be modern, creative, initiative and entrepreneur, to get acquainted with the information. Therefore, in the era of the digital economy, education and knowledge are of particular importance, which necessitates the seriousness of its participants, the solidarity with the times, the awareness of innovations, the wider use of digital information, optimization process are significant. Knowledge, qualifications of student youth, skills must definitely meet the requirements of the digital economy.

For this, they must be able to work at an excellent level in electronic devices and have the skills to work quickly. Individual Education also gives its effect as a result of this, they will be able to independently study the sciences that are of interest to them without problems. While in order to make the right choice within most data, they require digital

culture and digital literacy. And in this case, teachers, parents are required to carry out the correct explanatory work with youth.

#### BIBLIOGRAPHY

1. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-5847 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2019-yil 8-oktyabr; (Uz.lex.uz)
2. "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi" ID-9413 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2019-yil 23-oktyabr; (Uz.lex.uz)
3. Jenkins, Genry. «Our Methods». USC Annenberg School of Communication and Journalism. Retrieved 19 February, 2013-year

### O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATIDA TA'LIM SUBYEKTLARINING QADRIYATLI-MOTIVATSION MUNOSABATLARINI METODIK RIVOJLANTIRISH DOLZARB IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA

*F.R.Ro'ziqulov,*

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori,  
professor*

*E.T.Tursunnazarova,*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Tarjimonlik" fakulteti ingliz tili amaliy  
tarjimasi kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya:** Jahondagi rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda, tinglovchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, balki yuqori malakali mutaxassislar yetishtirib berish vazifalarini ham hal qilmoqda. Biroq hozirga qadar ingliz tilini o'qitishda nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasini mnemonika usullari vositasida shakllantirishga mo'ljallangan o'quv qo'llanmalar, elektron dasturiy ta'minot yaratilmagan. Maqolada o'qituvchining kommunikativ faoliyatida ta'lim subyektlarining qadriyatli-motivatsion munosabatlarini metodik rivojlantirish dolzarb ijtimoiy hodisa sifatida ekanligi haqida keng fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ faoliyat, qadriyatli-motivatsion munosabatlar, ehtiyoj turlari, Abraam Maslou tajribasi

**Аннотация:** Опыт развитых стран мира опирается на передовые педагогические технологии, которые не только удовлетворяют интерес и потребности слушателей в получении знаний, но и решают задачи подготовки высококвалифицированных специалистов. Однако до сих пор не создано учебных пособий, электронных программ, предназначенных для формирования мотивации учителей-неспециалистов при обучении английскому языку средствами мнемонических методов. В статье широко представлена мысль о том, что методическое развитие ценностно-мотивационных отношений субъектов воспитания в коммуникативной деятельности педагога является актуальным общественным явлением.

**Ключевые слова:** коммуникативная деятельность, ценностно-мотивационные отношения, виды потребностей, опыт Абраама Маслоу.

**Abstract:** the experience of developed countries of the world is based on advanced pedagogical technologies that not only satisfy the interest and needs of students in obtaining knowledge, but also solve the tasks of training highly qualified specialists. However, textbooks and

electronic programs designed to motivate non-specialist teachers in teaching English by means of mnemonic methods have not yet been created. The article broadly presents the idea that the methodological development of value-motivational relations of the subjects of education in the communicative activity of the teacher is an actual social phenomenon.

**Keywords:** communicative activity, value-motivational relations, types of needs, Abraham Maslow's experience.

Zamonaviy dunyo hamjamiyati barcha turdagi ta'lim muassasalari oldiga ma'lum bir toifadagi bilimga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yadi, ular ma'lum bir mamlakatning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimi foydasiga yo'naltiriladi.

Chet el va MDH mamlakatlari tadqiqotchilarining, shu jumladan, I.L.Bim<sup>1</sup>, V.A.Buxbinder<sup>2</sup>, M.V.Seliverstova<sup>3</sup> va boshqalar tomonidan ingliz tilini o'qitish va uning samaradorligini oshirishga bag'ishlab, izlanishlar o'tkazilgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, "lingvistik muhitda chet tilidagi tashkil etilgan ta'lim shakllari, hatto so'nggi uslublardan foydalangan taqdirda ham, yashash joyidagi ona tilidagi mashg'ulotlarga qaraganda ko'proq samara beradi. Shuning uchun chet tili kurslariga katta e'tibor kuchaymoqda. Bunday o'quv tizimi bilan aloqa qobiliyatlari juda tez rivojlanadi va o'qishdagi taraqqiyot bir necha mashg'ulotlardan so'ng sezilarli bo'ladi<sup>4</sup>.

Tahlillardan aniqlanishicha, o'qituvchining kommunikativ faoliyatida ta'lim subyektlarining qadriyatli-motivatsion munosabatlar negizidagi nazariyalarning aksariyat qismida inson ehtiyojlari konsepsiyasi yotadi.

Ehtiyojlar tug'ma, birlamchi (tabiiy) bo'lishi mumkin. Masalan, oziq-ovqat, suv, issiqlikka ehtiyoj va sotib olingan (ijtimoiy) - muloqotga ehtiyoj, bilim olish, o'z-o'zini anglash ehtiyoji kabilar.

Abraam Maslou inson ehtiyojlarining murakkabligi va ularning motivatsiyaga ta'sirini tavsiflovchi ilk bixevioristlardan biri bo'lgan. Alderfer, Masloudan farqli o'laroq, ehtiyojlar harakati pastdan yuqoriga va pastga qarab harakat qilishini ta'kidlaydi. Darajalarni yuqoriga ko'tarishni u ehtiyojlarni qondirish jarayoni deb atadi va pastga tushishni umidsizlik – ehtiyojni qondirish uchun mag'lubiyat jarayoni deb atadi<sup>5</sup>.

Rivojlangan mamlakatlar – AQSh, Germaniya, Fransiyada fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarini qondirish, qadriyatli-motivatsion munosabatlar negizida o'qishga motivatsiya uyg'otish muammo emasligi odatda ta'kidlanadi. Shunga qaramay, ushbu ehtiyojlarning qondirilishi ma'lum bir davlatdagi o'rtacha moddiy boylik darajasiga, madaniyat darajasiga, sog'liqni saqlash holatiga bog'liq. Birinchi va ikkinchi darajadagi ehtiyojlarni qondirmasdan, deyarli hech qaysi kasb egasining normal darajadagi faoliyatini tashkil qilib bo'lmaydi. O'qituvchining e'tirof etilishi zarurati atrofdegilar, shogirdlar, hamkasblar tomonidan o'zini va faoliyatini ijobiy baholashni ifodalaydi. Har bir inson ma'lum bir ijtimoiy mavqega, darajaga, ma'lum obro'ga ega bo'lish, o'ziga e'tiborni jalb qilish, shuhrat qozonish zarurligini his qiladi. Boshqalardan tan olinishi odamda qoniqish hissini uyg'otadi.

---

<sup>1</sup> Бим И.Л., Биболетова М.З., Щепилова А.В., Копылова В.В. Иностранный язык в системе школьного филологического образования (концепция) // Иностранные Языки в Школе. 2009. – № 1. – С. 4-8.

<sup>2</sup> Бухбиндер В.А. О системе упражнений // Общая методика обучения иностранным языкам: Хрестоматия. – М.: Рус. яз., 1991. – 360 с.

<sup>3</sup> Селиверстова М.В. Формирование управленческих компетенций учителя в условиях развития современного образования: Дис. ... канд. пед. наук. – Ижевск, 2018. – 212 с.

<sup>4</sup> Сафонова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранному языку как специальности: Дисс. ... д-ра пед. наук. – М.: 2017. – 528 с.

<sup>5</sup> Abraam Maslou. Theory of motivation.

Qadriyatli-motivatsion munosabatlar negizida o‘z-o‘zini anglash – bu inson tomonidan o‘z qobiliyatlarini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Hayotda o‘zini to‘liq anglab yetish uchun inson o‘z sevgan ishini qilishi kerakligi aniq. Biroq, o‘z-o‘zini anglash zarurati, hech bo‘lmaganda odamlar tomonidan amalga oshiriladi.

Eng keng tarqalgan sabab – bu ta‘lim olish uchun imkoniyatlarning yetishmasligi. Agar biror kishi shifokor yoki rassom bo‘lishni hohlasa, u ko‘pincha, tug‘ilgan shahrini tark etishi kerak va bu o‘z-o‘zini namoyon qilishi uchun quyi ehtiyojlarni amalga oshirishga olib keladi.

Yuqori darajadagi ehtiyojlarga yo‘naltirilgan qadriyatli-motivatsion munosabatlar modeli Devid Makkleland tomonidan fanga kiritildi. Devid Makkleland (1917-1998) – amerikalik psixolog. Uning fikriga ko‘ra, insonda uchta ehtiyoj mavjud: kuch, muvaffaqiyat va ishtirok. Kuchga ehtiyoj boshqa odamlarga ta‘sir o‘tkazish, ularni boshqarish va harakatlariga ta‘sir qilish istagida namoyon bo‘ladi. Kuchga aniq ehtiyoj sezadigan odamlar – bu o‘z nuqtayi nazarini himoya qiladigan, ziddiyatli vaziyatlardan qo‘rqmaydigan, o‘ziga e‘tiborni jalb qilishni istaydigan baquvvat, faol odamlardir<sup>1</sup>.

Qadriyatli-motivatsion munosabatlar zamirida hokimiyatga bo‘lgan ehtiyojni shaxsiy kuchga intilish, boshqa odamlarga hukmronlik qilish yoki guruh faoliyatida hokimiyatning namoyon bo‘lishi sifatida qarash mumkin. Ikkinchi holda, kuch guruh muvaffaqiyatiga erishish, bo‘ysunuvchilarni yoki hamkasblarini rag‘batlantirish uchun ishlatiladi.

Tahlillardan aniqlanishicha, Devid Makklelandning qadriyatli-motivatsion munosabatlar negizida ehtiyoj Maslou nazariyasiga yaqin ekanligi aniqlandi. Ishtiyogi yuqori bo‘lgan odamlar jamoada ishlashni, hamkasblari yoki mijozlari bilan yaqin aloqada bo‘lishni yoqtirishadi.

Alderfer fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarini mavjudlik ehtiyojlari guruhiga kiritdi va sevgi va muhabbatga bo‘lgan ehtiyojlar – aloqalar guruhiga; o‘z-o‘zini anglash zarurati – o‘shish ehtiyojlari guruhiga turkumladi.

Alderfer ehtiyojlar nazariyasiga qo‘shimcha ravishda “regressiya prinsipi” ni ishlab chiqib, agar mutaxassislarda yuqori darajadagi ehtiyojlar qondirilmasa, u past darajadagi ehtiyojlarga “ko‘milib qolishi” mumkinligini. Alderferning fikriga ko‘ra, xodimlarning motivatsiyasini o‘rganish bir qator ehtiyojlarni tahlil qilishni isbotlaydi. Faqat bitta guruh ehtiyojlarini qondirish, olimning fikriga ko‘ra, samarali turtki beruvchi omilga aylanmaydi.

F.Gertsberg nazariyasiga ko‘ra, qadriyatli-motivatsion munosabatlar negizida motivatorlar ishdan qoniqishni keltirib chiqarib, ishning mazmuni va shaxsning o‘zini namoyon qilish ehtiyojlari bilan bog‘liq. Motivatorlarning yetishmasligi ishdan norozilikka olib kelmaydi. Shu bilan birga, ularning mavjudligi ma‘lum darajada xodimlarni to‘g‘ri rag‘batlantirishga, ishdan qoniqish hissini hosil qilishga va uning samaradorligini oshirishga qodir<sup>2</sup>. Motivatorlarga quyidagilar kiradi: yutuqlar; lavozimga ko‘tarilish, martaba o‘shishi; xizmatni e‘tirof etish; javobgarlik; shaxsiy o‘shish uchun imkoniyatlar.

F.Gertsberg nazariyasi “Ikki omilli motivatsion-gigiyena konsepsiyasi” deb nomlanadi. Ushbu nazariya o‘tgan asrning 50-yillarida amerikalik psixolog Frederik Gertsberg (1923-2000) tomonidan ishlab chiqilgan.

F.Gertsberg nazariyasi, Pitsburgdagi yirik firmaning 203 muhandisi va buxgalteri bilan olib borgan intervyulariga asoslanib, ular o‘zlarining ishlaridan juda mamnun bo‘lgan vaziyatlarni va, ayniqsa, ularga yoqmagani vaziyatlarni tasvirlab berishdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, F.Gertsberg olingan javoblarni ikki turtki omillarga ajratdi: gigiyena omillari va motivatorlar.

<sup>1</sup> McClelland David/ Motivation to achieve success. – Chicago: 2000. – 459 pp.

<sup>2</sup> Gertsberg F. The two-factor motivational-hygiene concept.-Washington: Capital Letters, 2011. – 294 pp.

Qadriyatli-motivatsion munosabatlar negizida gigiyena omillari ham muhim ahamiyat kasb etishi, izlanishlar natijasida ayon bo‘ldi va ish bajariladigan muhit bilan bog‘liqligi aniqlandi. Gigiyena omillari bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lmagan taqdirda, insonda norozilik hissi paydo bo‘lishi mumkinligi aniqlandi.

Qadriyatli-motivatsion munosabatlar negizida gigiyena omillariga quyidagilar kiradi: ta‘lim muassasasining ma‘muriy siyosati; ish haqi va mukofotlar, mehnat sharoitlari; rahbariyat, hamkasblar va tahsil oluvchilar bilan shaxslararo munosabatlar; ijtimoiy holat; xavfsizlik.

O‘qituvchining qadriyatli-motivatsion munosabatlari negizida nutq – og‘zaki kommunikatsiya, ya‘ni til yordamida munosabat qilish jarayoni muhim bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan so‘zlar og‘zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. Ingliz tilidagi og‘zaki nutqning eng sodda turi dialog, ya‘ni allaqanday masalalarni birgalikda muhokama qilayotgan hamsuhbatlar tomonidan olib boriladigan suhbat hisoblanadi.

Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchining yosh va ish tajribasining ortishi har doim ham xorijiy tillarni o‘zlashtirishning dinamik o‘sishi va sifat ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarga olib kelmasligi, aksincha, bu jarayondagi uzviylik, kompetensiyalarning kasbiy ehtiyojlar va sohaga yo‘naltirilganligi, akmeologik yondashuv, kompetensiyalararo integratsiya hisobiga ta‘minlanishini ko‘rsatmoqda. Binobarin, nomutaxassis o‘qituvchilarning ingliz tilini o‘zlashtirish mexanizmi qadriyatlar yo‘nalishida akmeologik mezonlar (motivatsiya, ta‘limiy-kognitiv faollik, shaxsiy refleksiv sifatlar, o‘z-o‘zini boshqarish va kasbiy-ijodiy o‘sish)ning faoliyat talablari va kasbiy rivojlanish metodologiyasi bilan integrativ uyg‘unligini ta‘minlash asosida takomillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, o‘qituvchining kommunikativ faoliyatida ta‘lim subyektlarining qadriyatli-motivatsion munosabatlarini metodik rivojlantirishda aksiologik va akmeologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda kasbiy-akmeologik rivojlanishni ta‘minlovchi shaxsiy-kasbiy yetuklik, androgogik – “kumush” davridagi kasbiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari, refleksivligi va kreativligiga doir pedagogik shart-sharoitlar va qonuniyatlarni inobatga olish lozim.

#### **ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi “Ta‘lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4119-sonli Qarori / <https://lex.uz/docs/4164675>.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni / <https://lex.uz/docs/5013007>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-sonli Qarori / <https://lex.uz/docs/5239538>.
4. Muslimov N. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘rni. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 198 b.
5. Pedagogika Ensiklopediya. 1-jild. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: 2015. – 321 b.

## KOMEDIYANING O‘ZIGA JANR XUSUSIYATLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Jo‘rayev Murodulla Alishboyevich,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, dotsent*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotidagi komediya janrining o‘ziga xos xususiyatlari adabiyotshunos olimlarning qarashlari asosida tadqiq qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Komediya, janr, madaniy, axloqiy, adabiyot, inson, san‘at, mezon, voqelik, dialektik, estetik.

**Abstract:** In this article, the unique features of the comedy genre in Uzbek literature are studied based on the views of literary scholars.

**Key words:** Comedy, genre, cultural, moral, literature, human, art, criterion, reality, dialectical, aesthetic.

**Аннотация:** В данной статье на основе взглядов литературоведов изучаются особенности жанра комедии в узбекской литературе.

**Ключевые слова:** Комедия, жанр, культурно-нравственный, литературный, человек, искусство, критерий, реальность, диалектика, эстетический.

Badiiy adabiyotda kulgi va uning ijtimoiy-psixologik mohiyatiga tayaniluvchi, uni asos qilib oluvchi janrlar, turli ko‘rinishlar ham borki, uning yorqin namunasi sifatida dramatik turga mansub komediyanı ko‘rsatish mumkin. Adabiyotshunos olim Hafiz Abdusamatov ta‘kidlaganidek, “o‘quvchi va tomoshabinlarga kuladigan narsalarnı topib berish, ayniqsa, ularni kuldirish oson ish emas. Ularnı yig‘latishdan ham ko‘ra, kuldirish, komediya yozish qiyin.”<sup>1</sup>

Komediya janri hayot taqozosiga ko‘ra, madaniy va axloqiy an‘analarga, ma‘lum ijtimoiy tabaqa yoki guruhlar mafkurasi va ehtiyojlariga muvofiq ravishda o‘zining janr sifatidagi yetakchi xususiyatlarini saqlagan va rivojlantirgan holda muayyan hayotiy-tarixiy mazmun bilan boyib boradi.

Adabiyot va san‘at ijtimoiy-estetik hodisa sifatida inson bilan chambarchas bog‘liqlikda rivojlanib boradi. Qadimgi Yunon dramalari, xususan komediyalari o‘rta asrlar dramatik asarlariga muayyan darajada hamoxanglik kasb etsa ham, lekin voqelikni g‘oyaviy-estetik jihatdan baholash mezonlari nuqtai-nazaridan ancha farqlanadi. Masalan, qadimgi Yunon komediyanavisi Aristofanning adabiy-estetik qarashlari Shekspir va Moler adabiy qarashlaridan alohida ajralib turadi. Bu narsa bir tomondan, inson tabiatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan komediyaning janr sifatida muayyan o‘zgarishlarga uchrashi, kengroq qilib aytganda, kulgi mohiyatining keng qamrovga ega bo‘lishi kabi sabablar bilan aloqador. Ma‘lumki, komediya inson tabiatini o‘ziga xos rakursda, kulgining g‘oyaviy-estetik mohiyati orqali ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida komediyaning o‘ziga xos muhim xususiyatini tashkil etadi.

Demak, komediyaning yetakchi xususiyati voqelikni dialektik ziddiyatga asoslangan kulgi va kulgilik orqali aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Komediya janrning tur ko‘rinishi va muallif maqsadidan kelib chiqib, ijtimoiy tanqidni ifodalash shakli sifatidagi fosh qiluvchi pafos birinchi darajali ahamiyatga ega. U bu o‘rinda badiiy mohiyatga molik mazmun kasb etadi. Shu bilan birga komediya voqelik, inson xatti-harakatlarining shakli va mazmuni o‘rtasidagi nomutanosiblikni fosh

<sup>1</sup> Abdusamatov H. Drama nazariyasi.-T: Adabiyot va san‘at, 2000 y. 179-b.

etadi hamda ayni paytda davrning g'oyaviy-estetik masalalariga javob beruvchi ijtimoiy-axloqiy tamoyillarni ham o'zida istifoda etadi.

Qadimgi adabiy-nazariy manbalarda dastlab komediyaga past uslub namunasi sifatida qarash hukmronlik qilgan. Bunday holat Aristotelning "Poetika" asarida ham o'z ifodasini topgan.<sup>1</sup>

Nazariy jihatdan yondoshilsa, komediyaga bunday mensimay qarash o'sha davrning g'oyaviy-estetik mezonlari tufayli yuzaga kelgan. Chunki bu nazariy tamoyil o'sha davrlarda Yunon poetikasida hukmron mavqe egallagan tragediya janriga bo'lgan yuksak uslub haqidagi qarashlarga asoslangan. Xolbuki, antik komediyalarning o'zlaridayoq komediya janri o'zining tanqidiy yo'nalishi bilan siyosiy kurashning muhim quroli bo'lib xizmat qilganligini ko'rsatib turadi. Ko'plab antik kulgi ustalarining e'tirof etishlaricha, komik qobiliyat hayotga estetik munosabat bildirishning barcha shakl hamda usullaridan og'irroq va mushkulroqdir. Bu xususiyat, Aristofanning fikricha, komik shoirning oshkora tarafkashligi va dadalligidadir.

Klassik komediya Antik dunyoda (Aristofan, Plavt), Uyg'onish davri g'arbiy evropa adabiyotlarida (Shekspir, Lope de Vega), xalqlarning absolyutizm va burjuaziya inqilobini tayyorlashga qarshi kurashi o'sib borgan davrlarda (Moler, Bomarshe, Goldoni) ruhan ana shunday tarzda o'zini namoyon qildi.

Komediyaning yuzaga kelishi, shubhasiz, insoniyat badiiy tafakkuri rivoji, madaniy taraqqiyotida teatr san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'langan. Shu jumladan, o'zbek komediyasining paydo bo'lishi ham, milliy teatrimizning yuzaga kelishi va taraqqiyotiga o'ziga xos zamin yaratdi, desak xato bo'lmaydi.

"Rus sharqshunosi A.N.Samoylovich 1916 yilda e'lon qilingan "Dramaturgicheskaya literatura sartov" nomli maqolasida "Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi", deb yozgan. Darhaqiqat asrimiz boshlarida ming yillik adabiyotimizning qat'iy qonun tusini olgan aruz vaznidagi mumtoz namunalari o'rnida tamomila yangi mazmun va shakldagi ovrupacha yo'nalish kasb etgan badiiy adabiyot shakllana boshladi. G'arb adabiyotining roman, hikoya, barmoq vaznidagi she'r turlari Turkiston turkchasida dadil qo'llanila boshladi. Oz fursatda bu yo'nalishning iste'dodli namoyandalari paydo bo'ldi. Shu bilan birga XX asrning 10-yillaridan o'zbek jadid dramaturgiyasining tajribalari kurtak yozdi. Dramaturglar yetishdi.

Mutaxassislar aniqlashiga ko'ra, Oktyabr o'zgarishigacha dramaturgiyaning o'ttizdan ortiq namunasi yaratildi. Hatto shakllanish davriga kirgan bu adabiy turning tragediya, drama, komediya kabi barcha janrlarida asarlar maydonga keldi."<sup>2</sup>

Komediyaning janr sifatida o'zbek adabiyotida paydo bo'lish sababi hayot talabi, ijtimoiy-madaniy, milliy an'analarimiz, xalq ruhiyatining badiiy ehtiyojlari bilan belgilanadi, albatta. Janr qirralari aniq ifodasini topa boshlagan dastlabki asarlarning yuzaga kelishi esa, birinchi navbatda, evropa adabiyoti bilan bog'lansa, ikkinchi tomondan, uning shakllanib, takomillashib, rivoj topishida o'zbek xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotimizdagi o'lmas va bebaho hajviy asarlar muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan bir qatorda, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda mavjud bo'lgan yuksak saviyadagi satirik hamda yumoristik ruhdagi asarlar komediyanavislarimiz uchun ilhom manbai va katta mahorat maktabi vazifasini o'tadi.

Masxarabozlik hamda qiziqchilik teatri shakliga professor M.Qodirov shunday ta'rif beradi: "...bir zamonlar bu tushunchalar "masxara", "muqallid" shaklida ifoda qilingan. Ularda o'ziga xos dramaturgiya bor, qahramonlar qiyofasini o'z qobiliyati, aqli, mijozi, hissiyoti, tanasi, harakatlari

<sup>1</sup> Qarang. Aristotel` Poetika.-T: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980 yil 14-15-betlar. (Mahkam Mahmudov va Ummat To'ychievlar tarjimasini)

<sup>2</sup> Rizaev Sh. Jadid dramasi.-T: Sharq. 1997 yil 4-bet.

bilan gavalantiruvchi aktyorlar bor, ularning o'yinlaridan zavqlana oladigan tomoshabinlar bor – qo'yingki, teatr san'atining barcha alomatlari muhayyo. Bu teatrning hozirgi zamon teatridan ayirmasi shundaki, uning maxsus binosi va sahnasi yo'q, turli sharoitlarda gir atrofi tomoshabinlar bilan qurshalgan o'ziga xos halqa – “sahna”da ko'rsatib ketaverganlar.... Ammo masxarabozlik va qiziqchilik - bu xalqning marosimlari, urf-odatlarini iblan tutashib ketgan ibtidoiy shakldagi teatr emas, balki og'zaki an'anadagi professional teatrdir.”<sup>1</sup>

“Dramaturgiyaning so'z yoki harakatdan iborat uch ko'rinishini sanash mumkin:

**BIRINCHISI:** masxarabozlarning faqat hajv va kulgidan iborat so'z o'yinlariga qurilgan dialoglari shaklidagi ko'rinishi;

**IKKINCHISI:** muayyan qiyofa va qiliqlarga taqlidan harakatlarni namoyon qiluvchi so'z vositasiva yoki so'zsiz ijro etiladigan ko'rinishi;

**UChINCHISI:** turli niqoblar bilan hamda “chodir jamol”, “chodir xayol” kabi qo'g'irchoq o'yinlaripaytida ijro etiladigan shakli.”<sup>2</sup>

Dramatik janrlarda, shu jumladan komediyada ham voqelik batafsil ketma-ketlik bilan emas, aksincha qahramonlar hayotining eng avj nuqtalari o'z aksini topadi. Komediya xuddi shu qahramon hayotining kulgiga asos beruvchi muhim lahzalarini o'zida aks ettirishi bilan boshqa dramatik janrlardan farqlanib turadi. Demak, inson hayotining dramatik jihatdan nishab nuqtalarini aks ettirishi bilan komediya, umuman, drama turiga mansub boshqa janrlar bilan mushtaraklik kasb etsa, kulgi tug'diruvchi voqealarni aks ettirishi bilan alohidalik kasb etadi. Komediyaning umumiy janr xususiyatlarini belgilash uchun, avvalo, undagi komizm, ya'ni komik holatning yuzaga chiqishi va uning o'ziga xos mohiyatini aniqlash lozim bo'ladi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi.-T: Adabiyot va san'at, 2000 y. 179-b.
2. Aristotel Poetika.-T: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980 yil 14-15-betlar.
3. Rizayev Sh. Jadid dramasi.-T: Sharq. 1997 yil 4-bet.
4. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati.-T: Fan. 1981 yil 36-37-betlar.

### **ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA O'QUVCHILARNI FIKRLASHGA O'RGATISH MASALALARI**

*Xolbibi Qurbonova,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tishunosligi kafedrasi dotsenti,*

*pedagogika fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Inson hayotida erkin fikrlash, ijodiylikning o'rni beqiyos. O'quvchilarni ijodiylik ruhida tarbiyalashda ona tili ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar ijodiy fikrlashini oshirishi masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil fikrlash, ijodiylik, tafakkur, ilmiy ijodiylik, badiiy ijodiylik, shaxs kamoloti, o'quv topshiriqlari, qo'shma gap, matn, ta'lim maqsadi, nutqiy faoliyat, muloqot.

**Аннотация.** В жизни человека особое значение имеет свободное и творческое мышление. В этом важную роль играет обучение родного - узбекского языка. В этой статье

<sup>1</sup> Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati.-T: Fan. 1981 yil 36-37-betlar.

<sup>2</sup> Rizayev Sh. Jadid dramasi.-T: Sharq. 1997 yil 15-bet.



анализируется вопросы, касающиеся развитию творческого мышления учащихся в процессе уроков родного языка.

**Ключевые слова:** творческии, мышление, самостоятельное мышление, научно – творчески , овщение

**Annotation.**The role of free discussion and creafiveresiss is inconpare able in human being'slife Teaching mother tongue is essential role to bring ur the puplis.

The article says that the process of the mother tongueis developing puplis' creatve works.

**Key words:** creativeness, thinking, free discussion, scientific creativeness, meeting.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga e'tibor eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki mamlakat taraqqiyoti va kelajagini yoshlar ta'min etadi, ular mamlakatni taraqqiy ettirish estafedasining davomchilarigina emas, balki yaratuvchilari va bunyodkorlari sifatida mamlakat kelajagi uchun javobgar bo'ladilar. Shulardan kelib chiqqan holda yosh avlodning milliy ongini va axloqiy sifatlarini kamol toptirishga, ularda ilg'or ilmiy dunyoqarash, g'oyaviy e'tiqodni, chuqur bilim va mehnatsevarlikni tarbiyalash lozimdir.

Ta'lim-tarbiya hamisha davlat siyosati va ijtimoiy tuzum manfaatlarini aks ettirgan. Har bir davlat oldiga qo'yilgan maqsad aynan o'qitish orqali amalga oshiriladi. An'anaviy ta'lim bir xil tafakkurli bolalarni tarbiyalashga asoslangan bo'lsa, ta'lim sohasidagi islohotlar tufayli, o'z mustaqil fikriga ega, ijodkor shaxsni kasbiy va milliy manfaatlariga uyg'un tarzda harakatlanadigan bolalarni tarbiyalash bosh maqsad qilib belgilandi.

Insonda ijodiylikni tarbiyalash siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va metodik jihatlariga ega. Uning ijtimoiy ahamiyati shundaki, mustaqil fikrlaydigan shaxs ko'r-ko'rona birovning fikriga ergashmaydi, u har bir masala bo'yicha mustaqil fikrlab, hukm va xulosalar chiqaradi. Ijodiylikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati o'quvchining fikrlash jarayoniga kirishishi, har bir o'rganilayotgan til hodisasini "aql chig'irig'i"dan o'tkazishi, buning jamiyatga juda katta iqtisodiy manfaat keltirishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Ijodiylik qadim zamonlardan beri tafakkur ahlini qiziqtirib kelgan. Qomusiy olim Farobiy ijodiylik haqida to'xtalib: "...u shunday fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarni ishga solishi kerak", - deb ta'kidlaydi.[1]

Darvoqe, ijodiy kashfiyotlar shaxsning intellektual iqtidori bilan bog'liq? Bu xususiyat badiiy asar muallifi uchun ham, kashfiyotlar qilayotgan olim uchun ham, o'quvchi uchun ham mushtarakdir. Ammo yozuvchi, shoir yoki olimning ijodkorligini o'quvchining ijodkorligi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Birinchisi kashfiyotlar qilsa, ikkinchisi fanda ma'lum bo'lgan, ammo unga ma'lum bo'lmagan bilimlarni mustaqil fikrlash orqali egallaydi. Bunda o'quvchi oldin egallagan bilimlariga tayanadi, noma'lumini izlab topadi hamda tegishli hukm va xulosalar chiqaradi.

Ijodiylikni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

a) ilmiy ijodiylik; b) badiiy ijodiylik.

Ilmiy ijodiylikning ham, badiiy ijodkorlikning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ayrim shaxslarda ham ilmiy ijodiylik, ham badiiy ijodiylik bir xil rivojlangan bo'ladi.

O'quvchining ilmiy ijodiyligi uning til hodisalarini o'rganishi natijasida chiqaradigan hukm va xulosalari, ilmiy matnlar yaratishida (masalan, "Nega kesim gap markazi?" "Ona tilini puxta o'rganish bizga nima beradi?"), badiiy ijodiyligi moddiy borliqdagi narsa, voqea-hodisalarni nozik idrok qilishi, uni badiiy did bilan tasvirlashida namoyon bo'ladi. Demak, ijodiylik shaxs kamoloti yo'lida muhim ahamiyatga ega.

Psixolog-olim Ergash G'ozievning fikricha, o'quvchilar yoshi 11-14 yoshga yetganda, ya'ni o'smirlik davrida analitik-sintetik faoliyat jadal sur'at bilan rivojlana boshlaydi. Shu bois, ularda sabab va natijani izohlash, mustaqil fikrlash mustahkamlanib boradi. O'quvchi o'rganilayotgan materialning muhim belgilarini ajratishga, umumlashmalar hosil qilishga qodir bo'ladi.[2] Demak, ijodiylikning birinchi belgisi ijodiy fikrlay olish sanaladi.

Ijodiylikning yana bir belgisi mahsulotning yangiligidir. O'quvchi dars jarayonida o'qituvchi kutmagan yo'ldan borishi, tasodifan yangi ijod mahsulini yaratishi, buni o'zi ham oldindan rejalashtirmagan bo'lishi mumkin. Yangi ijod mahsulini ko'proq "Nima uchun shunday?" degan muammoli savolga javob topa olishda, bir mavzuda turli matnlar yaratish kabilarda namoyon bo'ladi.

Keyingi yillarda ona tili o'qituvchilari ish faoliyatida topshiriqning qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy turlaridan unumli foydalanishga e'tibor kuchaydi. Ammo bu o'quv topshiriqlari orasida mutanosiblik bo'lishi zarur. Agar ona tili darslari faqat qayta xotiralash xarakteriga ega o'quv topshiriqlaridan iborat bo'lsa ijodiy izlanishga ehtiyoj qolmaydi. Agar o'quv topshiriqlariga, ko'proq ijodiylikka asoslanilsa, o'quv materialini tushunish ancha murakkablashadi. Chunki egallangan o'zaro aloqador bilimlarni xotirada qayta tiklamay turib, ularni yaratish, ijod qilish mumkin emas.

Ijodiy tafakkur avvalo, o'quv topshiriqlari orqali shakllanadi. Shu bois, maktab darsliklarida o'quv topshiriqlarining xarakteriga juda katta e'tibor qaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ona tili darslarida ishga solinadigan o'quv topshiriqlarining aksariyatini qisman ijodiy yoki ijodiy topshiriqlar tashkil etadi. Masalan, qo'shma gap turlarini o'rganish jarayonida berilgan sodda gap juftlaridan qo'shma gaplar hosil qilish, boshlanish qismi berilgan qo'shma gaplarni davom ettirish, qo'shma gaplar asosida ma'lum bir mavzuda matn yaratish, sodda gapli matnni qo'shma gapli matnga aylantirish, qo'shma gapli matnni sodda gapli matnga aylantirish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalaniladi. Demak, ijodiylik shaxs kamoloti yo'lida muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyat bunday kishilarga hamisha ehtiyoj sezadi.

Ijodiylikning yana bir muhim belgisi mustaqillikdir. Mustaqil ishlash, birinchidan, ko'nikma va malakalarni talab etsa, ikkinchidan, tafakkur va xotira bilan chambarchas bog'langan.

"Kognitivlik, verballik, kashfiyotchilik, onglilik hozirgi kunda ijodkor shaxs- ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillari sanaladi", - deb qayd qilinadi. [3] Olim A.Jabborov va G.Ne'matovalar shunga tayangan holda ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishning to'rt asosi mavjudligini ta'kidlaydilar: a) kognitivlik, b) verballik, v) kashfiyotchilik, g) onglilik. Kognitivizm inglizcha kognitiv so'zidan olingan bo'lib, "o'rganilgan", "bilib olingan" ma'nolarni ifodalaydi. Uning zamirida onglilik yotadi. Verbal lotincha verbit so'zidan olingan bo'lib, "so'z", "og'zaki" ma'nosini anglatadi. Bu nazariya muloqot, fikr almashinishga tayanadi. Verballikning ona tili ta'limiga aloqadorlik tomoni shundaki, o'quv topshiriqlarining mazmuni muloqotga asoslanadi. Chunki, nutqiy faoliyat, asosan, muloqot, fikr almashinuv hosilasidir.

Kashfiyotchilik o'rganilganlarni yangi sharoitda qo'llab, bilim olish demakdir. Ona tili darslarida keng qo'llanilgan qisman ijodiy va ijodiy topshiriqlar o'quvchida yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ixtirochilik, kashfiyotchilik singari xususiyatlarini tarkib toptiradi. Onglilik deganda o'rganilayotgan til hodisasi mohiyatini anglash, ta'rif va qoidalarni asosli egallash, xulosa va umumlashmalarni chuqur, atroflicha idrok etish, egallangan bilimlarni ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'rganilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana bilish tushuniladi.

Ma'lumki, o'tgan asr oxirlariga kelib, ta'limga bixeviorestik yondashish o'rnini kognitiv yondashuv egallay boshladi. Hozirgi ona tili ta'limi asosini kognitivlik tashkil etadi.

Kognitiv yondashuvning ona tili ta'limiga kirib kelishi, uni voqelantirishning yo'llari, vositalari va usullari xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- har bir mashg'ulotda o'quvchi o'qituvchi (darslik) talabi asosida berilgan, yetkazilgan bilimlarni takrorlash emas, balki o'qituvchining yo'llanmasi bilan yangi bilim hosil qilishi, kashf etishi lozim. Bu kognitivlikning bosh omilidir;

- darsda o'quvchi sust tinglovchi emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi bo'lishi kerak. Shuning uchun o'quvchi og'zidan chiqqan har bir so'z, fikr, hukm, bayon uning o'ziniki bo'lmog'i shart. O'quvchida tug'ilgan fikr olamshumul kashfiyot yoki biror chigal muammoning yechimi bo'lishi shart emas. Lekin o'qituvchi bergan axborotning soddagina takrori ham emas. Bunday ta'lim usuli o'quvchida mustaqillik, mas'uliyat, o'z "men"ini anglash, ijodiylik ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda dars jarayo nidagi aloqa munosabat so'zlovchi bilan tinglovchining ko'p hollarda jonli og'zaki muloqoti, qolaversa, bahs ko'rinishini oladi;

- o'qituvchining ta'lim oluvchiga beradigan izlanish va fikrlash sari yo'llashi shunday bo'lishi kerakki, sinfdagi o'quvchilarning ijod mahsuli mohiyatan bir yo'nalishda, lekin shaklan turlicha bo'lmog'i lozim. Shundagina har bir o'quvchi o'zligini bir qadar yorqinroq ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi va musobaqa ruhi har bir mashg'ulotda ustuvorlik qiladi;

- dars jarayonida o'quvchi o'qituvchi yo'llanmasi asosida izlanar, fikr qilar, biror narsani topar, biror hukmga kelar ekan, u o'z fikrini asoslash va isbotlashga, himoya qilishga intilmog'i lozim.

Ijodiylikning yana bir sharti fanlararo, bo'limlararo bog'lanishdir. O'qituvchilar fanlararo integratsiyaga alohida etibor qaratadi. Ona tili o'qitish jarayonida bunday bog'lanishni genetik xususiyatdagi boglanish va taqqoslash harakterdagi boglanish singari ikki guruxga ajratish mumkin.

Genetik bog'lanish o'zbek tilini o'zbek xalqi tarixi bilan bog'lanishni taqozo etadi. Jamiyatdagi har qanday o'zgarish, shubhasiz, tilda o'z aksini topadi. Ana shu o'zgarishlar, natijasida yangi so'zlar paydo bo'ladi, ayrim so'zlar tilimizdan chiqib ketadi. Masalan, otlarning ma'no guruhlarini o'rganishda bu so'zlaga duch kelish mumkin.

Ona tili darslarini "Geografiya" o'quv faniga bog'lash imkoniyatlari benihoya keng. O'qituvchi etimologiyasi aniq bo'lgan joy nomlari ustida ishlashda bu o'quv faniga murojaat qiladi. Masalan, qo'shib va ajratib yoziladigan joy nomlari ustida ish olib borayotganda (Yuqori Chirchiq, Tuytepa, Beshrabot, O'rta Osiyo, G'arbiy Sibir singari) Bo'limlararo bog'lanish o'rganilgan bo'limni o'rganilayotgan bo'lim (yoki aksincha) bilan bog'lashni talab qiladi.

Demak, ona tili ta'limiga kognitiv yondashuv o'quvchini ta'lim jarayoning sub'ektiga, faol fikrlovchi hamda hukm va xulosalar chiqaruvchi shaxsga aylantiradi. Bu esa, o'z navbatida o'rganilayotgan til materialining puxta o'zlashtirilishi hamda o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish garovidir. Shuningdek, ona tili darslarida ijodii tafakkur sohibini tarbiyalash har bir o'quvchida mavjud bo'lgan ijodkorlik xususiyatlarini tarkib toptirish, kognitiv – verbal talim imkoniyatlarini ishga solish, uni talim maqsadiga muvofiq keladigan darajaga ko'tarish bilan bog'liq.

#### ADABIYOTLAR

1. Farobiy Abu Nasr. Risolalar. –T.:1975.—B.346.

2.G‘oziyev E. Psixologiya .—T.: O‘qituvchi ,1994.—B.323.

3.Jabborov A., Ne‘matova G. Ona tili ta‘limida kognitiv psixologiya , verbal ta‘lim va ijodkor shaxs masalasi. Til va adabiyot ta‘limi jurnali, 2001. 6-soni . 4.G‘ulomov A., Ne‘matov H. Ona tili ta‘limi mazmuni .—T.: O‘qituvchi, 1995.-B.125.

## МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТ ВА ИРИМЛАР ТАҲЛИЛИГА ДОИР

*Турсунова Насиба Хамроевна,*

*Навоий давлат педагогика институти*

*Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доцент, ф.ф.б.ф.д (PhD)*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбек халқининг оилавий-маиший маросимлар фольклори ва унинг бадиий талқини хусусида, шунингдек, бола туғилиши урф-одат ва иримлар билан боғлиқ илмий-назарий таҳлиллар асосида мушоҳада этилган.

**Калит сўзлар:** маросим, фольклор, жанр, культ, ёвуз, ғойиб, илохий, ўғит.

**Annotation.** This article was created on the basis of the scientific theoretical analysis of the folklore of the peoples of Central Asia and the artistic interpretation of family rituals.

**Key words:** ritual, folklore, genre, cult, evil, disappearance, divine.

**Аннотация.** В данной статье основана на научно-теоретическом анализе фольклора и художественной интерпретации семейных обрядов народов Средней Азии.

**Ключевые слова:** ритуал, фольклор, жанр, культ, зло, исчезновение, божество.

Ҳар бир халқнинг ўзлигини англатадиган миллий қадриятлари ва миллий менталитетига хос маданияти бор. Мамлакатимизда оила масаласи давлат сиёсати даражасида қаралади. Ўзбек халқининг ўзига хос қадриятлари, юксак маънавиятни шакиллантириш ва юксалтириш борасида оилага таянади.

Маълумки, муқаддас китоб “Қуръон”и карим ва “Ҳадис”лар тўпламида ҳам оила, ота-она каби масалаларга алоҳида урғу берилган. Жумладан, Пайғамбаримиз Муҳаммад саллоллоҳу алайҳи вассаламнинг марҳамат қилишларича:“Ота-она яхши хулқдан ҳам ортиқроқ нарса бера олмайди”. Шундай экан, ота-онанинг фарзандига берадиган энг яхши ҳадяси қимматбаҳо кийимлару, совға-саломлар, тотли таомлар эмас, балки гўзал хулқ, яхши тарбияси ва ахлоқ-одоб билан сайқал топган муомаласидир.

Мамлакатимизда оилавий муносабатларни тартибга солиш эркак ва аёлнинг ихтиёрий равишда никоҳланиб тузган иттифоқи, эр ва хотиннинг шахсий ҳамда мулкий ҳуқуқлари тенглиги, ички оилавий масалаларнинг ўзаро келишув йўли билан ҳал қилиниши, оилада болалар тарбияси, уларнинг фаровон ҳаёт кечириши ва камолоти ҳақида ғамхўрлик қилиш, вояга етмаган ва меҳнатга лаёқатсиз оила аъзоларининг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш устуворлиги тамойиллари асосида амалга оширилади.<sup>1</sup>

Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йилнинг 2 феввалидаги “Хотин-қизларни қўллаб-қуватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5325–сонли Фармонида бой маданий тарихий мерос ва анъанавий оилавий қадриятлар оилани мустаҳкамлашга хизмат қилиши; оилавий муносабатларни ўзаро муҳаббат, ишонч ва ҳурмат, ҳамжихатлик, бири-бирига ёрдам бериш ҳамда оила олдида, унинг барча аъзолари олдида масъуллигини ҳисси

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Қонуни таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)

асосида қуришдан, оила аъзолари ўз ҳуқуқларини тўсқинликсиз амалга ошириши ҳамда бу ҳуқуқларни ҳимоя қилинишини таъминлашдан иборат эканлиги белгилаб берилган. Шунингдек, 2018 йил 27 июндаги ПҚ-3808-сонли қарорига биноан қабул қилинган Ўзбекистон Республикасида оила институтининг мустақамлаш Концепциясида “Оиланинг тарбиявий-таълим салоҳиятини мустақамлаш, жамиятда анъанавий оила қадриятларини сақлаш, оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни яхшилаш” учун зарур бўлган вазифалар белгилаб берилган.

Ушбу Концепциянинг биринчи бандида “Ёш авлодда маънавий-ахлоқий қадриятларни ва ота-онага ҳамда катта ёшдаги инсонларга ҳурматни шакллантириш, оиланинг тарбиявий ва маданий-илмий салоҳиятини ошириш”<sup>1</sup> масалаларидан келиб чиқиб, оилавий маиший маросимларга эътибор қаратмоқчимиз.

“Бир кун жанжал чиққан уйдан, қирқ кун барака кетади”-, дейди доно халқимиз. Бу мақоллар замирида ахлоқий нормалар асосида шаклланган ўғит, ҳикмат оилавий турмушнинг фаровонлиги ва оила-аъзоларнинг маънавий юксалишига туртки вазифасини ўтайди деб биламиз. Оиланинг ҳамжихатлиги, бир бутун, тўқислиги катталар яъни ота-она маънавиятга бойлиги билан муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбек халқи жаҳондаги энг қадимий маданий анъаналарга эга халқлардан бири бўлиб, унинг моддий ва маънавий маданияти тарихи илк тош асрига бориб тақалади. Тарихий тараққиётнинг ҳал қилувчи кучи ҳисобланган халқ оммаси фольклор анъаналари ҳамда маросимий қадриятларнинг ҳам ижодкори деб қаралади. Ҳар бир даврда яшаган аجدодларимиз ўз ота-боболари томонидан яратилган фольклор анъаналарини янада ривожлантирганлиги учун ҳам ўзбек халқининг миллий анъаналари авлоддан-авлодга ўтиб, такомиллашиб келган.

Маълумки, маросим инсоният маданиятининг энг муҳим шакллари билан бири бўлиши билан бир қаторда уни ривожлантиришдаги самарали восита ҳам ҳисобланади. Маросим халқ санъати ва маданияти шакллари орасида энг улкан аудиторияни ўзига жалб қиладиган оммавий тадбир ҳисобланади. Маросимлар халқнинг энг яхши анъаналари, одатлари, ахлоқий қоидаларини ўзида мужассамлаштириши, сақлаши ва ривожлантириши жиҳатидан ёшларни тарбиялашда, уларни одоб-ахлоқли, комил шахс бўлиб етишишларида муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбек маросим фольклорини ўрганаган фольклоршунос олим Б.Саримсоқовнинг монографик тадқиқотида маросимлар таркибида иримлар кўп учраши, маросимларимизнинг тарихий асослари қадимий эътиқодий қарашлар билан боғлиқ эканлигини айтиб ўтади. Жумладан, урф-одат ва иримларнинг маросим билан муносабатлари борасида: урф-одат тушунчаси эса ўта кенг тушунча бўлиб, у ўз ичига халқ ҳаётининг барча томонини – оддий кундалик удум, расм-русум, ирим-сиримлар, ўзаро-муомала маданияти ҳамда барча маросимларни бутунча қамраб олади.

Оилавий маросимлар инсон ҳаётидаги муҳим воқеаларни нишонлашга қаратилган, расмий ва руҳий вазиятда ўтадиган, ўз рамзий ҳаракатларига ҳамда махсус айтим-қўшиқларига эга ҳаётий тадбирдир. Маросимлар кишиларнинг маънавий эҳтиёжларини қондиришга хизмат қиладиган маънавий ҳаёт қадриятлари сирасига киради.

Оилавий маросимларда болани дунёга келиши билан боғлиқ жараёнда турли қадриятларга хос иримларга амал қилинган. Ўзбек фольклорида Анбар она, биби Фотима ва

---

<sup>1</sup> Акрамова Ф.А. Оила энциклопедияси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Т. 2019. 3-бет.

Анака момо каби персонажлар доя момолар пири деб талқин қилинади. Ҳомила туғилаётган пайтда аёл эсон-омон туғиши учун доя момолар: «Менинг қўлим эмас, Анбар онамнинг қўли, Анбар она қўлласин!» – деб ҳомий кучлардан мадад сўраганлар. Анбар она култи ва у билан боғлиқ халқ қарашлари Г.П.Снесарев, В.Н.Басилов, О.Сафаров, О.Қаюмов каби олимларнинг асарларида атрофлича таҳлил қилинган.<sup>1</sup> К.Тайжанов ва Ҳ.Исмоиловларнинг аниқлашларича, Чимкент вилоятининг Қорамурт қишлоғида ҳомиладор аёлни туғдираётган доя кампирлар: «Менинг қўлим эмас, биби Фотиманинг қўли, Анбар онамнинг қўли, етти момонинг қўли!» – деб ўз пирларидан мадад сўраганлар.<sup>2</sup>

Фольклоршунос О.Қаюмов маълумотларига кўра маросимни ўтказадиган кушноч момо бир сиқим оқ пахтани олиб, уни уч бўлакка ажратган. Сўнгра мевали дарахт шохидан синдириб тайёрланган етти дона тоза чўпга оқ пахта ўраб, пилик ясаган. Ана шу пиликлардан ҳар бирининг ўз номи бўлиб, улар Сарик момо, Қора момо, Титти момо, Очил момо, Гулсун момо, Ёзил момо ва Тувгич момо деб аталган<sup>3</sup>. Назаримизда, халқ орасида иккиқат аёлларнинг асотирий ҳомийси сифатида тасаввур қилинган ана шу «етти момо» ҳақидаги қадимги инончлар унутилиб кетган. Ҳозирги кунда «етти момо»дан фақат биттаси – Тувгич момонинг мифологик табиати ва функциясига доир айрим қарашларгина қадимги культ мифларининг реликтлари сифатида сақланиб қолган, холос. Демак, «ўзбек мифологиясида доя кампирларнинг ҳомийси, пири сифатида эътироф этилган «етти момо» образи мавжуд бўлган.

Халқимиз томонидан амал қилиниб келинган чилла даври билан боғлиқ урф-одатлар оилавий-маиший маросимлар фольклорнинг қадимий қатламини ташкил этади. Халқимиз орасида “чақалоқ чилласи”, “келинлик чилласи” деган гаплар бор. Чилла – қирқ кунлик муддат бўлиб, чақалоқ ёки келинчакни ёмон кўздан, ёвуз руҳлардан асраш мақсадида қирқ кун ичида маълум иримларга қатъий амал қилинишидир. Чиллалик даврида бирор бир сабаб билан бола касалланиб қолса ёки янги келин тушган хонадонда нохушлик рўй берса, буни ёмон руҳлар хуружи, яъни чилла анъанасининг бузилишидан деб билганлар. Аслида, гигиена билан боғлиқ халқ қарашлари асосида пайдо бўлган чилла сақлаш анъанаси 40 рақами ҳақидаги афсонавий тасаввурларга ўраб-чирмаб ташланган. Бу магик удумга асос бўлган “қирқ” сони, яъни ёвуз руҳларни қувлаш ва ёки ҳимоя қилиш функциясини бажаради. Рақамларнинг магик қудратига ишониш анъанаси, айниқса, бола тарбияси билан боғлиқ удумларда яққол кўринади. Илгарилари одамлар чақалоқ ҳаётининг дастлабки даврида бир неча “хавф-хатар” бор деб ўйлашган. 5, 7, 9-кунлар, айниқса, хатарли ҳисобланган. Худди шу кунларда ёмон руҳларни ҳайдаш мақсадида турли ирим-сиримлар қилинган. Бу хатарлардан эсон-омон ўтган боланинг умри узун бўлади, деб ирим қилганлар. Фольклоршунос О.Қаюмов маросимлар таркибида қўлланилувчи етти рақмининг магик моҳиятини қадимги аждодларимизнинг “Наврўз” байрами билан алоқадор санайди. Олимнинг қайд этишича, қадимги бухороликларнинг янги кун арафасида олти кун байрам қилишгани ва еттинчи кунда уларнинг илоҳалари йўқолиб қолишгани боис еттинчи кунни аъза тутишгани, ҳатто вақт ўлчови ҳафта бирлиги ҳам шундан келиб чиққанлиги, туркийлар

<sup>1</sup> Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.187-189; Басилов В.Н. Культ святых в исламе. – М.: Наука, 1970; Сафаров О. Болаларни эркаловчи ўзбек халқ кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1983; Қаюмов. О. С. Об образе мифологической покровительницы матери Анбар/ «Этногенез и этническая история народов Кавказа». Материалы I международного нахского научного конгресса. – Грозный Том. 1. – С.560 – 565.

<sup>2</sup> Тайжанов К., Исмаилов Х. Особенности доисламских верований у узбеков-карамуртов // Древние обряды, верования и культуры народов Средней Азии. – М.: Наука, 1986. – С.110-138.

<sup>3</sup> Қаюмов О.Шомон йўқловлари фольклор жанри сифатида// Хорижий филология. 2018. № 3.– С. 79-86.

илоҳининг еттинчи кун ўзга оламга ўтиб кетганлиги учун етти рақами магик моҳият касб этиши ўқтирилади<sup>1</sup>.

Ўзбек маросим фольклорида бола ва она билан боғлиқ барча маросим, урф-одат ва ирим-сиримлар бажарилгандан сўнг чилла даври тугайди деб ҳисобланган. Чақалоқ ва онаси бу даврдан эсон-омон ўтиб олганлари муносабати билан навбатдаги кичкина маросим, яъни чилла қочди ёки чилла қувди маростими ўтказилган.

Фолклоршунослар фикрига кўра, ирим-сиримлар спецификаси борасида мулоҳаза юритганда уларга икки хил йўналишда ёндошиш лозим деб қаралган. Булар: 1.Ирим – маросимнинг ажралмас қисми, муҳим компоненти сифатида; 2.Ирим халқнинг турли эътиқодий қарашларини ўзида мужассам этган фольклор жанри сифатида ўрганилиши мақсадга мувофиқдир. Иримлар таркиби албатта мифологияга хос бўлади. Иримлар моҳиятида тақиб ёки албатта амалга ошишига иношч ётади. Табулаштириш бирор кишини муайян ташқи дунёнинг маънавий хатарларидан асрашни мақсад қилади<sup>2</sup>.

Ёш боланинг чилла билан боғлиқ иримлари ижтимоий ҳаётимизда икки хил вазифани бажаради:

- а) Мифологик иримлар;
- б) Дидактик яъни тарбиявий иримлар.

Чақалоқ туғилгандан кейинги уч кун, айниқса, хатарли ҳисобланар экан. Ёвуз кучлар чақалоқни севиб, унга зарар етказиши мумкин деган инонч ва ишонч бўлган. Бу ишонч мифологик иримни ташкил этса, унинг тарбиявий жиҳати эса маълум чилла давридаги бола, она ва бола билан боғлиқ тартиб-интизом қадимда бундай эътиқодлар замирида ёши улуглар ва катталар насихатига одат доирасида амал қилиб келинган.

Туркий халқларда қадим тасаввурлардан нишона берувчи Умай она, Аёз момо, Момоқалдирик, Тувгич момо каби культлар ҳам бизнинг тарихимизда, аёлга-яратувчига бўлган илоҳий муносабатдан дарак беради. Демак, оилавий маиший маросимларни туб моҳияти замирида тарбия туради. Тарбия эса, момолар, оналар тимсолида шаклланди. Ирим-сиримларнинг қадрият сифатида ўрни ва қиммати ҳам уларнинг дидактик вазифани адо этиши билан белгиланади.

Баъзи иримлар моҳиятида эзгулик тилаш ғояси ётади. Масалан, бефарзанд аёлни кўп бола туққан аёлнинг икки оёқлари орасидан уч марта ўтказса, фарзанли бўлишига ишонишганлар. Ёки гўдакнинг оғзига ҳамма ҳавас қиладиган, ибратли, намунали, қалли кишининг рамзий туфуриши ирими ҳам борки, бунинг моҳиятида ҳам гўдак улғайгач шу кишидек, улуг, эл ардоғида, элининг корига ярайдиган инсон бўлиши ғояси ётади.

Бугунги кунда оилада бола дунёга келиши, ҳатто ҳомиладорлик даврданоқ она тарбияси бола учун муҳим эканлиги, ислом дини таълимотида, шунингдек, тиббиётда ҳам ўз исботини топганлиги шарқ алломаларининг тажрибаси асосида исботланган. Буюк аллома Жалолоддин Румий ҳазратлари шундай дейдилар: “Она ҳақларига диққатли бўл, уни бошинга кўтар. Зеро оналар тўлғоқ машаққатини чекишни бўйниларига олмаганларида, чақалоқлар дунёга келиши учун йўл тополмас эдилар”-, деган ҳикматлари аслар давомида ҳақли ҳақиқат эканлигини исботлайди. Дунё халқлари илмида тамал тошини қўйган олим

<sup>1</sup> Kayumov O. Rimp in the uzbek shamanistic songs/3.Asia pacific international congress on contemporary. Studies full text book-contents. – Seoul, South Korea. 2020. – P. 76–81.

<sup>2</sup> Фрэзер Дж.Дж. Смысл табу//Золотая ветвь. Исследование магии и религии Том 1.– С. 165. || slavaaa@yandex.ru

А.Р.Беруний ўз қарашларида оила тинчи бевосита оқила, ақлли, фаросатли, тарбияли аёллар қўлида эканлигига алоҳида урғу беради<sup>1</sup>.

Хуллас, ўзбек халқида бола туғилиши билан боғлиқ маросимлар таркибида амал қилинадиган иримлар тарихий асосига кўра аждодларимизнинг қадимги сув, олов, аждодлар культлари, серфарзандлик инончлари ва қадимги анимистик, монистик мифологик тасаввурлари таъсирида шаклланган. Иримлар дастлаб мифологик моҳият касб этиб, эътиқод заминиде яшаган ва халқ тафаккурида даврлар ўтиши билан оғзаки айтимларга кўчган. Иримларнинг ондан ҳаракатга, ҳаракатдан оғзаки ижодга кўчиши уларнинг мифопоэтик вазифа бажаришини юзага келтирган. Мана шу нуқтаи назардан бола туғилиши билан боғлиқ иримлар моҳияти табуга ёки ишончга дахлдорлиги, мифологик моҳият касб этиши ва маросим таркибида ўринлашуви, унинг семантикаси сўз орқали ифода этилиши унинг фольклорнинг кичик жанри эканлигини кўрсатиш билан бирга оила институтини мустақамловчи бетакрор миллий қадрият сифатида аҳамиятлидир.

## ФОРМИРОВАНИЕ НАРОДНЫХ ИДЕАЛОВ В СЕМЕЙНЫХ ВОСПИТАНИЯХ

*Кадыров Камол Намозович,  
заведующий кафедрой языков Навоийского университета инновации*

**Аннотация.** Педагогика семьи и семейных отношений - сложный процесс. Если употребить современные термины, то можно сказать, что на собственном опыте народ убеждался, что семье приходится выполнять конструктивную функцию, определяя обычаи, традиции, методы воспитательного воздействия на детей;

**Ключевые слова:** народные идеалы, семенное воспитание, сложный педагогический процесс.

**Annotatsiya.** Oila va oilaviy munosabatlar pedagogikasi murakkab jarayondir. Agar zamonaviy atamalarni ishlatadigan bo'lsak, shuni aytishimiz mumkinki, xalq o'z tajribasidan kelib chiqib, oila urf-odatlarini, an'analari va bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarini belgilab beruvchi konstruktiv funktsiyani bajarishi kerakligiga ishonch hosil qilgan;

**Tayanch so'zlar:** xalq g'oyalari, urug' tarbiyasi, murakkab pedagogik jarayon.

**Annotation.** Pedagogy of family and family relationships is a complex process. If we use modern terms, we can say that from their own experience the people were convinced that the family had to perform a constructive function, defining customs, traditions, and methods of educational influence on children;

**Key words:** folk ideals, seed education, complex pedagogical process.

Организаторская функция, устанавливая режим отдыха, трудовых и учебных занятий детей; коммуникативную функцию, вырабатывая нормы оптимальных взаимоотношений между родителями, родителями и детьми, сами детьми, близкими родственниками, соседями и т.д.

Все это постепенно создавало систему семейных отношений. Семья – самый интимный коллектив. Своими сокровенными мыслями ребенок делится, прежде всего, с родителями, особенно с матерью. Взаимоотношения в семье – весьма тонкое и деликатное дело, ибо оно касается первичной ячейки общества, спаянной родственными узами. Здесь

<sup>1</sup> Холиқова М. ва бошқлар. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар. Тошкент. “Академнашр” 2021. 21-бет.



реализуются внутрисемейные взаимоотношения, определяются воспитательные функции отца и матери, создаются условия для усиления ее позитивного влияния на детей.

Эти и другие особенности семьи и семейного воспитания всегда были в центре внимания народа, что нашло свое отражение в памятниках народной педагогики. Народ, прежде всего, ратовал за счастливую семью, ибо семья – ключ к счастью. Но счастье в готовом виде получать невозможно, его приходится завоевывать. Только счастье, пришедшее как заслуга за усилия а не случай, доставляет человеку моральное удовлетворение.

В представлении народа дружная семья дает человеку ключ к достижению именно такого счастья .

Народ на опыте многих поколений, убеждался, что основа семьи – взаимная любовь. Поэтому сложилось общее житейское мнение: «Семья без любви – дерево бес корней». Именно взаимная любовь способствует возникновению общности чувств, взглядов, вкусов.

Проблема любви всегда была важна для педагогики семейного воспитания, поэтому остановимся на ней более подробно.

Светлая, чистая дружба между юношами и девушками, как правило, перестает в любовь – в высшее человеческое чувство. Народная мудрость с большим тактом выражает свое отношение ко всем проявлениям любви. Первую любовь человек испытывает в самую счастливую, неповторимую пору юности. Если говорить языком современника, то «первая любовь отличается от всех последующих тем, что подобные ощущения, состояния юному человеку прежде были неведомы, и он не только открывает для себя другого человека, но и прежде всего открывает самого себя...

Главная потребность: видеть, слышать, дышать одним воздухом с любимым существом – легко удовлетворяется и без согласия самого объекта влечения.

По мнению видных специалистов в области физиологии детей и подростков, в первой любви нет никаких мотивов и стремлений к интимной половой близости. Тонкий знаток юношеской психологии, А.Моруа считает, сто «первая любовь накладывает отпечаток на всю дальнейшую жизнь мужчины. Если эта любовь была счастливой, если женщина или девушка, пробудившая чувство юноши, ответила на них и была верна , ощущение доверия, ясности станет спутником всей его жизни» (Иностранная литература, 1977, № 1, с.153-154.)

Таким образом. Трудовой народ старался по-своему осмыслить и определить признаки хорошей, даже совершенной семьи как источника счастья.

На опыте многих поколений он убеждался , что счастливая семья- это добровольный союз юноши и девушки, объединенных по любви, с равными правами и обязанностями, готовых помочь, а когда надо и уступить друг другу.

Все эти наблюдения и мысли народа нашло свое адекватное выражение в национальных традициях семейного воспитания.

Главная задача семьи – воспитание детей – достойной смены старших поколений. И здесь решающая роль принадлежит родителям матери и отцу.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Ўзбек фольклори очерклари, 2-том. –Тошкент, 1989, 43-б.
2. Шомусаров. Ш. Асҳобул Қаҳф афсонаси сюжетининг туркий версиялари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1997
3. Кириничная Н.А. О жанровом специфике преданий и принципы их систематизации// Русский фольклор, том X проблемы свода русского фольклора», Л.: 1977. 77 с.

## O'ZBEK XALQ DOSTONLARIDA TABU

*Z.J.Axmedova,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti f.f.f.d (PhD), dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taqiqlarning folklorshunoslikda o'rganilishiga katta e'tibor beriladi. O'zbek xalq dostonlaridagi taqiqlar haqida ilmiy mulohazalar bayon etiladi va tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** tabu, taqiq, shomoniylik, dostonlardagi taqiqlar, "Alpomish", "Rustamxon".

**Аннотация.** В данной статье большое внимание уделено изучению запретов в фольклористике. Представлены и проанализированы научные комментарии о запретах в узбекских народных эпосах.

**Ключевые слова:** табу, запрет, шаманизм, запреты в былинах, «Алпомиш», «Рустамхан».

**Annotation.** In this article, much attention is paid to the study of prohibitions in folklore. Scientific comments on prohibitions in Uzbek folk epics are presented and analyzed.

**Key words:** taboo, prohibition, shamanism, prohibitions in epics, "Alpomish", "Rustamkhan".

Qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari tarkibidagi tabu va irimlar dastlab turkiy tilning yirik tadqiqotchisi, XI asrning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchraydi. Turkiy tillar folkloridagi taqiqlar dastlab D.A.Zolotaryov, F.V.Plesovskiy, A.Gadjiev, A.A.Burikin tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, ammo turkiy xalqlarning qadimgi dunyoqarashi bilan bog'liq taqiqlarning o'ziga xos xususiyatlarini A.Vildanov, V.I.Rassadin, N.A.Alekseevlar ochib berishga uringan. XX asrda boshqird olimlaridan R.Faxretdinov, F.A.Nadrshina, G.R.Xusainova, R.A.Sultangareeva, A.M.Suleymanov, F.Xisamitdinova va A.S.Mutina kabi olimlar ham tabularning turli jihatlarini o'rganishgan. Boshqird olimasi Gaysina Fanira Faxsetdinova esa taqiqlarni alohida, mustaqil janr sifatida tadqiq etadi. Taqiqlar ko'proq antropologiya va etnografiya doirasida keng o'rganilgan bo'lsa-da, folklorshunoslikda nisbatan keyingi davrlarda tadqiq etilmoqda.

O'zbek folklorshunosi K.Imomov "O'zbek xalq nasri poetikasi" kitobida qadimgi mifologik ritual-marosimlardan biri "initsiatsiya"da balog'at yoshiga yetgan bo'z o'g'lon - o'smirning urug'-qabila tartiblarini buza boshlashi (ya'ni tabu-taqiqni buzishi) haqidagi fikrlari mavjud[1]. "Alpomish" dostonida o'smir Alpomishning otasi Boybo'ri o'g'lining Barchinni izlab safarga chiqishini xohlamaydi va mamlakatdan ketmaslik taqiqini qo'yadi. Chunki bu safar juda xatarli bo'lishi, qahramonga biror kor-hol yuz bersa mamlakat taqdiriga ta'sir etishi mumkin edi. Qaldirg'ochning so'zlaridan uyalgan Alpomish bu taqiqni buzishga majbur bo'ladi va safarga o'tlanadi, turli xil qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Taqiqni buzganlar har doim turli mashaqqatlarga duchor bo'lishi tabularning o'ziga xosligidir. Alpomishning Barchinni izlab safarga chiqqanida qorong'uda chiltanlarga duchor bo'lishi, Shohimardon pining muridi ekanligini bilgan chiltanlar ilmi karomat bilan Chilbir cho'lidan, Oyna ko'lidan, baxmal o'tovda uxlab yotgan Barchinning ruhini tanidan olib kelib qahramonning ruhi bilan uchrashtirishi voqealari zamirida ham qadimda mavjud bo'lgan e'tiqodiy qarashlar mavjud. Alpomishning Barchinga bergan javoblarida ham haqiqiy mard, halol yigitning qiyofasi gavdalanadi. Chiltanlar davrasida bo'lgan Alpomishning ruhidagi o'zgarishlar uning kamolotiga xizmat qiladi.

O'zbek xalq dostonlari tarkibida taqiqlarni ko'plab uchratish mumkin. Ma'lumki, baxshichilik san'atining qadimiy ildizlari shomonlarga borib taqaladi. "Xalq orasida baxshi so'zi

turli xarakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo‘llanilgan. Ko‘pchilik yerlarda professional dostonchi, ayrim joylarda afsungarlik, folbinlik, shamanlik qiluvchi shaxsga nisbatan ishlatilgan (qushnoch, duoxon, kinnachi, afsungarlik yordamida kasal boquvchilik vazifasi ham shunga kirgan). Uzoq o‘tmishda bu ikki vazifani bir shaxs bajargan”[2]. Shomonlarga borib taqalganligi sababli ham ayrim baxshilarning hozirga kunda ham o‘z san‘atlarini sir tutib “ilohiylashtirishlari” baxshichilikning qadimiy san‘atlardan biri ekanligidan dalolatdir. Aslida sir tutishdan maqsad – insonni xavf-xatardan asrash bo‘lgan. Chunki, e‘tiqodiy tushunchalarga ko‘ra, g‘ayritabiiy kuchlardan faqatgina xos kishilar foydalanish xususiyatiga ega. U oddiy odamlarni halokatga olib keladi deb tushunilgan. Demak, dostonchilik san‘atida muhim rol o‘ynovchi baxshilar shomonlikdan kelib chiqqan va keyinchalik baxshining vazifasi o‘zgargan. Ma‘lumki, shomonlikda turli xil taqiqlar mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, balog‘at yoshiga yetish, nikoh, bola tug‘ilishi bilan bog‘liq muhim hayotiy hodisalarga aloqador taqiqlar ko‘proq vujudga kelgan. Insonlarni g‘ayritabiiy kuchlar – xudolar va shaytonlarning g‘azabidan yoki tug‘ilmagan, kichik yoshdagi bolalarni turli xavf-xatarlardan himoya qilish maqsadida turlicha taqiqlar paydo bo‘lgan. Olimlarning fikriga ko‘ra, insonlarni jazolashning birinchi tizimi tabular bilan bog‘liq. Dostonlardagi voqealar ham kundalik hayot bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularda tabularning doimiy va vaqtinchalik, ya‘ni sof va shartli taqiq turlari uchraydi. O‘zbek xalq dostonlarida ko‘proq sof taqiqlarni uchratish mumkin. Folklorshunoslikda sof taqiqlarga nikoh bilan bog‘liq, sotsial-ijtimoiy, tabaqaviy, hudud (maydon) bilan bog‘liq, irimlar va so‘z magiyasiga aloqador tabular kiritilgan. Keyinchalik marosim folklorining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan bu tabular o‘zbek xalq dostonlarida urug‘-sulolani saqlab qolish, yot kuchlardan tusilish, kuch manbai bo‘lgan urug‘-sulola sirini boy bermaslik uchun o‘rnatilgan taqiqlarning yaratilishiga asos bo‘ladi. Masalan, nikoh bilan bog‘liq taqiqlar qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Shuningdek, feodal-patriarxal davrlarda qiz va o‘g‘il bolalar juda yoshlikda – hali belanchakligidayoq bir-birlariga unashib qo‘yilgan, ya‘ni “beshikkerti” urf-odatiga qabila oqsoqollari tomonidan amalga oshirilgan. Bu unashuvni buzishga hech kimning haqqi bo‘lmagan. “Beshikkerti”ni buzish taqiqlangan, chunki qabila oqsoqollarining fikrini hurmat qilmaslik baxtsizlikka olib keladi deb tushunilgan. “Alpomish” dostonida ham Shohimardon purning “Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshkirti qilib: Bu ikkovi er-xotin bo‘lsin, Hakimbekka hech bir kishi barobar bo‘lolmasin, omin ollohu akbar”, - deb betiga fotiha tortishi shu unashuvni bajarish lozimligini, buzish taqiqlanganligi anglatadi[3]. Ammo, o‘rtadagi tortishuvlar – nizolardan so‘ng bu marosim amalga oshiriladi. “Tohir va Zuhra” ertagida esa olma bergan nuroniy chol vasiyatiga amal qilmaganligi uchun sevishganlar halok bo‘ladi. Davrlar o‘tishi bilan taqiqlar ham o‘zgarib, zamonga moslashib borgan. “Ertak va dostonlarda qahramonning yor qidirib yo‘lga chiqishi va sevgilisini qidirib topib, uni qo‘lga kiritishi ekzogamiyaning (o‘z qabilasidan o‘ylanish mumkin emasligi)”[4] taqiqi natijasida paydo bo‘lgan va ko‘pchilik dostonlarda qahramonlar bu taqiq tufayli safarga otlanadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda ham bu holatni uchratish mumkin. Go‘ro‘g‘lining Ko‘hiqofda yashovchi Yunus va Misqol parilarga o‘ylanishi, Ravshanning Zulxumorni izlab safarga chiqishi motivi shu taqiq asosida yuzaga kelgan. Shuningdek, bola tug‘ilishi bilan bog‘liq taqiqlar ham keng tarqalgan. Ibtidoiy jamoada oila, urug‘, elat boshliqlari sehrli, jodu kuchiga ega sanalgan. Shoh –kohin tabiat bilan sirli aloqa bog‘lagan, g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan. Shoh xalqni tinchlik-omonlikda saqlash uchun qonun-qoidalarga so‘zsiz amal qilishga majbur. Shohning yoki keksaygan befarzand otaning homilador ayolidan uzoqlashuvi qorindagi bolaga sirli ta‘sir etishdan qo‘rqish oqibatida yuzaga kelgan. Demak, bolani sehrli ta‘sirdan asrash, xavfsizligini ta‘minlash uchun undan uzoqlashish taqiqi mavjud bo‘lgan. “Rustamxon” dostonida ham Oqtosh viloyatining podshosi Sulxonxon xotini

Huroyimning oy-kuni yaqin qolganda Qurudim mamlakatiga yo‘l olishi shu taqiqlar sababli yuz beradi. Bola tug‘ilishi bilan unga ism qo‘yish taqiqlangan, bola shartli nom bilan atalgan. Bu odatning zamirida mifologik e‘tiqod yotadi. Nom qo‘ymaslik taqiqi bolani ins-jinslar ta‘siridan saqlash, yovuz ruhlardan himoyalash natijasida kelib chiqqan. Bola nomining sir tutilishi orqali uning hayoti saqlab qolinadi deb o‘ylashgan va bolaning biror belgisi laqab sifatida qo‘llanilgan. Hakimbek ismining ham Shohimardon pir tomonidan qo‘yilishi, yeti yoshida botirligi uchun Alpomish deb atalishi zamirida ham mana shu e‘tiqodlar bilan bog‘liq qarashlar yotadi. Ba‘zan sir saqlash bola 17-18 yoshga yetgunga qadar ham davom etgan. “Rustamxon” dostonida ham shunday o‘rinlar mavjud: “Huroyim o‘g‘il tug‘di; otini Rustam qo‘ydi...Tilga engandan madrasadan bir mullani olib keldi, mulla bilan Rustamxonni tagizaminga solib, o‘qitib yotaberdi” [5]. Uni himoyalash va kundoshlaridan asrash uchun hech kimga ko‘rsatmadi. Huroyim jallodlar qo‘liga tushgach kanizi Ximchaga Rustamxonni xabardor qilishni va tagizamindan chiqarishni so‘raydi. Bunday taqiqlarni yana ko‘plab boshqa dostonlarda ham uchratish mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash zarurki, taqiqlar kishilik jamiyatining ilk davrlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, insoniyat taraqqiyoti bilan o‘zgarib, mukammalashib bordi. O‘zbek xalq dostonlari tarkibidagi taqiqlar ham axloqiy qarashlar bilan bog‘liqdir. Dostonlar tarkibidagi taqiqlarni o‘rganish insoniyat taraqqiyoti davomida yaratilgan axloqiy qarashlarning rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi va xalqimizning ma‘naviy qadriyatlarini haqida ma‘lumot beruvchi manba sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Imomov K. O‘zbek xalq nasri poetikasi. - Toshkent: Fan, 2008. -B. 143-144.
2. Imomov K va boshqalar. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Toshkent.,”O‘qituvchi”. 1990. -B. 228-229.

#### “DILDA DARDING BO‘LMASA, DARDI SARIMNI KAVLAMA!..”

*Boltayeva Gulchehra Shokirovna,*

*NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yetuk vakili Zokirjon Furqatning ulug‘ ijodkor Boborahim Mashrabning “Kavlama” radifli g‘azaliga yozgan taxmis-muxammasi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** muxammas, muxammasnavislik an‘anasi, taxmis-muxammas, adabiy ta‘sir.

**Аннотация.** В данной статье анализируется тахмис-мухаммас известного узбекского поэта Закирджона Фурката, к газели «Кавлама» Боборахима Машраба.

**Ключевые слова:** мухаммас, традиция мухаммасописания, тахмис-мухаммас, тахмис-мухаммас, литературное влияние.

**Abstract.** This article analyzes the tahmis-mukhammas of the famous Uzbek poet Zakirjon Furkat, to the gazelle “Kavlama” by Boborakhim Mashrab.

**Key words:** mukhammas, tradition of mukhammas writing, tahmis-muhammas, literary influence.

Furqat g‘azal, musaddas, mustazod, muxammas kabi o‘nlab she‘riy janrlarda qalam tebratgan rang-barang she‘riy meros egasi. Uning ijodiy xazinasida taxmis- muxammaslarning o‘ziga xos o‘rni bor. Furqat asosan Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Boborahim Mashrab singari Sharq she‘r dunyosining ulug‘ ijodkorlari yaratgan asarlariga o‘zgacha hurmat va yuksak

ehtirom bilan qaraydi. Shoirning Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langan “Vasl orzusi”, “Do‘st”, “Ko‘rub” kabi muxammaslari, Fuzuliy g‘azaliga ergashib yozilgan “Sadqasi” va “Kavlama” radifli muxammasi Mashrab g‘azaliga taxmis tariqasida yaratilganligi fikrimizni isbotlaydi. Bular orasida “Kavlama” radifli taxmis-muxammas Furqatning ishqi mavzudagi eng sara asarlaridan biridir.

Dastlab she‘rning tuzilishi haqida. Mashrabning ishqi ilohiyga bag‘ishlangan bu g‘azali 9 baytli bo‘lib, ramali musammani mahzufda yozilgan (Foilotun foilotun foilotun foilun) [1;15]. Ammo muxammas yetti bandli, Furqat g‘azalning ikki baytini (5-6-baytlar) tushurib qoldirgan. She‘rda asosan, ijtimoiy-falsafiy va tasavufiy mazmun aks etgan. Asarning bosh g‘oyasi ishqi majozidan yuksalgan Allohga bo‘lgan ishqdir.

Oshiqi dildodadurman, dilbarimni kavlama,  
Axgar o‘ldi g‘am o‘tida paykarimni kavlama,  
Sayr qildim bahr-u bar xushki tarimni kavlama,  
Ey sabo, g‘ambodadurman, bistarimni kavlama,  
Chun shafaq oludaman, xokistorimni kavlama! [2;105]

Ikki shoir qalamiga mansub ushbu baytlar bir o‘tli qalb egasining nolasiday jaranglaydi. Bu ikki ijodkorning qalban va ruhan o‘zaro yaqinligiga dalildir. Taxmis muhammaslar yoki o‘zga shoir asaridan ilhomlanib she‘r bitish ikki insonning fikrda, g‘oya va his-tuyg‘uda ma‘naviy tutash jihatlari borligining samarasidir. Shu boisdan ham ushbu misralar sizda bir shoirning asariday taassurot qoldiradi. Mashrab va Furqat boshqa-boshqa davrlarning ijodkori bo‘lsa-da, oralarida bir yarim asrdan ziyod vaqt masofasi tursa-da, ularning lirik qahramoni dardi ishqda yakdil, kuygan ko‘ngil nolalarida hamohang. Ularning ikkisi ham oshiqi dilso‘zlar, g‘am o‘tida yonganlar. Taniqli navoiyshunos olim I.Haqqul o‘rinli ta’kidlaganidek, “Sharqlik oshiqning kuni ham, tuni ham g‘am-g‘ussa, qayg‘u va hasrat bilan o‘tgan. Kuni uning tunidan, kechalari kunduzidan azobliroq. Biroq shu so‘ngsiz azob-uqubat ichida visolga intilib, har xil holat, har turli tasavvurlarda u o‘zligini mushohada qiladi” [7]. Bu esa Furqatning aynan dardli ko‘ngil aks etgan ushbu g‘azalga diqqat qaratishi tasodifiy bo‘lmay, bu iztiroblar unga ham begona emasligining isbotidir.

She‘rning ta‘sir kuchi faqatgina qalbdan chiqqan tuyg‘ularning jo‘shqinligida emas, balki ijodkorning badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanishida hamdir. Jumladan, “axgar”, “g‘am o‘ti”, “paykar” singari so‘zlar “yonmoq”, “ishqida kuymoq” ma‘nosi ostida birlashib, tanosub san‘atini yuzaga keltirgan. Yoki “bahr-u bar”ni “sayr qilgan” lirik qahramonning “xushki tarimni kavlama” xitobidagi o‘zaro zid ma‘no misralar ta‘sirchanligini yanada oshirgan. Nazarimizda bu misralarda yana ikki xil mazmun mujassam. Bir jihatdan qaralsa, “Sayr qildim bahr-u bar” ifodasi muallif biografiyasi bilan aloqador bo‘lib, shoirning sarguzashtlarga to‘la hayotini o‘zida aks ettiradi. Furqat o‘zining mashhur “Sayding qo‘yaver, sayyod” musaddasida “sayyora ekan mendek” deb yozganida bu shunchaki e‘tirof emas edi. Bu umrining katta qismini Toshkent, Samarqand, Buxorodan tortib, Qashqar, Xo‘jand, Bulg‘oriya va Yunonistongacha, Kichik Osiyo, Saudiya Arabistoni va Hindistondan tortib, Sharqiy Turkiston, Kashmir, Tibet va Yorkentgacha borgan jahongashta shoirning o‘ziga xos ta‘kidi edi.

Keyingi mulohazaga ko‘ra esa ijodkor taxayyulning keng ufqlaridagi sayohati, botin olamidagi sayrini ifodalaydi. Zero, “chin shoirda koinot bilan qalban sirlashadigan til, fazoviy kengliklarda parvoz etadigan ruhiy yuksalish bo‘lishi kerak. Mashrabning “Ruhi jonim arshg‘a yetdi, men o‘zim osmoniman”, deyishi shunchaki gap bo‘lmagan” [6]. Ijod dunyosida Mashrab singari Furqatning ham bunga yetgulik ruhiy quvvati bor edi.

Charxi kajraftordin behad alomatlar kelur,  
Bu sabab ko‘zdin yuza ashki nadomatlar kelur,

Gar yurakni qo‘zg‘asam shirin hikoyatlar kelur,  
Har zamone Laylidan menga kitobatlar kelur,  
Sanki Majnun bo‘lmasang, sardaftarimni kavlama!

Misralardagi ulug‘vor mazmunning yuzaga chiqishida sifatlash (charxi kajraftor, ashki nadomat, shirin hikoyatlar), talmeh (Layli va Majnun), tanosub (kitobat, sardaftar) singari badiiy tasvir vositalarining alohida o‘rni bor. “Charxi kajraftor” – bevafo dunyo timsoli. U dard-u g‘am, g‘urbat, iztirob va anduhlarga to‘la. Dunyo yaralibdiki, hali undan hech kim mukammal baxtni topgan emas. Lirik qahramon ko‘zidan “ashki nadomatlar”ning kelishi shundan. Ammo chin inson hayotda faqat moddiy uchun yashamaydi. Uning qalbida har doim umid bor. Bu umid hidoyat umidi, nega yorug‘ dunyoga kelganligini anglash umididir. Shu o‘rinda banddagi uchinchi va to‘rtinchi misralar mazmunan bir-biriga juda yaqin ekanligini ta’kidlash lozim. Furqatning “gar yurakni qo‘zg‘asam” ifodasini ko‘nglimga nazar solsam, ishq mohiyatini anglashga intilsam singari ma’nalarda tushinish mumkin. Inson farzandi shunday qilsagina yashashning ma’nosi o‘zgaradi. Nega dunyoga kelganini ravshanroq anglaydi. Aslida biz – insonlarning yer yuzidagi maqsadimiz boshqa yaratilarnikidan bo‘lak. Biz ongli mavjudot sifatida botinni anglashimiz, o‘zligimizni bilishimiz, Yaratuvchimizni tanishimiz lozim. Shoir keltirgan “shirin hikoyatlar” ifodasi esa o‘zida juda katta irfoniy, ma’naviy yuk tashiydi. Bu “shirin hikoyatlar” oriflar yo‘lidan so‘zlaydi. Ollohgacha yaqinlar hayotidan bahs etadi. Qalban va ruhan botin kishilarini, ilm-u irfonda saodatga erishganlar yo‘lini anglatadi. Bunday baxtga esa ISHQ orqali erishiladi. Bu ishq bizni o‘rab turgan borliq, undagi mavjudotlarga bo‘lgan mehrdan boshlanib, olamni yanada yaxshiroq bilishga undagan ilm sevgisidan Yaratuvchini tanish darajasiga qadar o‘sib borgan ishq ilohiydir! Mashrabdan olingan to‘rtinchi misrada yozilgan Laylidan “kitobatlar”ning kelishi ham tasodifiy emas. Bu yerda Layli – ma’shuqa – Olloh. Ulug‘ Yaratuvchi qalbi ilohiy ishq bilan yonayotgan solih bandasiga o‘z hidoyat eshiklarini ochadi, ilohiy sirlarni ayon qiladi, o‘zini tanitadi. Ammo buyuk Ma’shuqaning marhamatiga erishish uchun kamida Majnun ishqiga sohib bo‘lish lozim. Tahlil qilayotganimiz asarning lirik qahramonlari esa buyuk ishq egalari.

G‘amdin ozoda bilur ozodalarni(ng) holini,  
Yoqsa miskin na bilur shahzodalarni(ng) holini,  
Xurdadonlar bilmadilar soddalarni(ng) holini,  
Xonavayronlar bilur aftodalarni(ng) holini.  
Eyki mahram bo‘lmasang chashmi tarimni kavlama![2;105]

Misralarda darddosh bo‘lmasang, ko‘z yoshlarim sababini so‘rama degan mazmun tazod (miskin va shahzoda, xurdadon va sodda) va tanosub (xonavayron – aftodalar; mahram – chashmi tar) san’ati vositasida mohirlik bilan ifodalangan. Biror kishining iztiroblarini anglash uchun unga ruhan yaqin bo‘lmoq lozim. Aftodalarning holini xonavayronlar yaxshi bilganidek, oshiqlar dardini ishq o‘tida kuyganlar anglaydi. Fuzuliy ta’kidlaganidek, “ishq zavqin zavqi ishq vor o‘landan so‘r”[4;93]. Muxammasning keyingi bandida ham yuqoridagi fikrlar davom ettiriladi:

Ishq savdosi tushub boshimg‘a, ahvolim xarob,  
Jonim aylar tan aro siymob yanlig‘ iztirob,  
Ta’na qilma, zohido, ko‘nglumda g‘amlar behisob,  
To kishig‘a dard tegmay, bo‘lmadi bag‘ri kabob,  
Dilda darding bo‘lmasa, dardi sarimni kavlama! [2;106]

Ko‘rinadiki, muxammasda tasavvufiy she’rlarda uchraydigan bir qancha obrazlarni uchratish mumkin. Ana shunday obrazlardan biri bu zohiddir. Zohid – zuhd yo‘liga kirgan,

tarkidunyo etgan kishi. Tasavvuf she'riyatida ko'p hollarda ular oshiq'larga qarshi qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ibrohim Haqqul Mashrab shaxsini g'am quyuni ichidagi bir daraxtga qiyoslagan edi [5;173]. Qalbi ilohiy ishqdan barhayot bu shoir dardsizlarga, ishqsizlarga o'z g'am-u hasratlarining boisini anglamasliklarini uqtiradi. Mashrabni anglash uchun dilda dard bilan, Majnun ishq bilan, siyrat ahliga mahram-u do'st bo'lib yashamoq lozim. Dildagi ishq dardi insonning eng buyuk gavharidir.

Necha kunlar hamdam o'zga vahshi-yu tayr ayladim,  
Bilmadim bu yo'lda shar qildim va yo xayr ayladim,  
G'am hujum etti, aning-chun maskanim dayr ayladim,  
Lomakonni(ng) shahrini bir hu bila sayr ayladim,  
Jabroili ishqman, bol-u parimni kavlama! [2;106]

Bu bandda "lomakon" tushunchasiga diqqat qaratmoq lozim. "Lomakon"-makonsiz, joysiz; bo'shliq [339] degan ma'noni bildiradi. Ma'lumki, Mashrab she'rlari ifoda va mazmun jihatidan o'ziga xos durdonalardir. Ularda buyuk va juda murakkab falsafa mavjud. Shoir ijodida biz ko'rib turgan olam emas, lomakon, faqat Alloh mavjud bo'lgan olam bor. Lomakon – ruhiyat dunyosi. Insonning moddiyat olamidani voz kechib, faqat Olloh mavjud olamda, uning ishq bilan yonish va Haqqa birlashishi nazarda tutiladi. Lomakonda inson "undan nima istalishini bexato tushunib, Ibn Arabiy so'zlari bilan aytganda, "Haq bilan zotiy birligini tahaqqiq etish" holiga borib yetadi. Va moddiy emas, ruhoni makon hamda zamon shuuriga sohib bo'lganligini butun teranligi bilan fahmlaydi" [6]. Misrada qo'llangan "lomakon" va "Jabroili ishq" birikmalari shu mazmuni ta'kidlashga xizmat qilgan.

Gah o'zimni suvga urdum, goh o'tga dam-badam,  
Bo'lmadi davron safosi lahzaye boshimg'a kam,  
To shariatni tutub qo'ydim tariqatga qadam,  
Bahri rahmatga kirib qildim vujudimni adam,  
Ma'rifatdin bexabarsen, gavharimni kavlama! [2;106]

"Tasavvufiy maslakda ishq – sevgining eng oxirgi darajasi va mukammal ko'rinishi. Ishq maqomiga ko'tarilgunga qadar oshiq yana yetti daraja qalb va ruhni kamolga yetishtirishi kerak" [4;38]. Bu misralarda oshiqning ma'naviy-ruhiy dunyosidagi evrilishlardan so'z boradi. Bu jarayonda inson ishq vositasida o'zini isloh qiladi, nafs, qalb va ruhni bosqichma-bosqich tarbiyalaydi. Bu bosqichlar tasavvufiy manbalarda turli daraja va maqomlar bilan ifodalanadi. Furqat o'z muxammasida ulug' shoir Mashrab fikrlariga ergashib kishini kamolot cho'qqilari sari yetaklaydigan tariqat maqomlarini ketma-ketlikda sanaydi. Nafaqat sanaydi, balki bu jarayonda kishida sodir bo'ladigan ziddiyatli ruhiy holatlarni ham keltirib o'tadi. Shariatda moddiyat yukidan ozod qalb, tariqatda riyozat vositasida tarbiyat topgan ruh, ma'rifat yog'dusi bilan kamolga yetgan shaxsiyat oxirida haqiqat gavharini qo'lga kiritishi bu bandda o'zining go'zal badiiy ifodasini topgan.

Chun qadam qo'ydung bu yo'lg'a, bo'lma bematlab vale,  
Faqr-u zillat bul, talashma g'urbati mansab vale,  
Furqatiy, sargashta bo'lsang, yig'lagil har shab vale,  
Durri daryoyi maoniy bo'ldi chun Mashrab vale,  
Diyda bino bo'lmasang ko'z javharimni kavlama! [2;106]

Ta'kidlash o'rinliki, ayrim o'rinlarda ikki shoir fikrlarida o'zaro tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. So'nggi band fikrimizning isbotidir. Furqatga tegishli bo'lgan dastlabki uch misrada ruh, botin dunyosi holatlaridan biroz uzoqlashish, insonning zohiriy olamdagi mavjud kayfiyatlarini

tasvirlash kuzatiladi. Uning faqirona hayotni tanlash, mansab talashmaslikka da’vati yoki sargashta hayotning zalvorli yukidan ozorda bo’lgan qalb nolasi, ko’z yoshlari tasviri fikrimizni dalillaydi. Mashrab qalamiga mansub misralarda esa bunga zid holatni ko’ramiz. Mashrab g’azalining maqtasida qo’llangan “diyda biyno” so’zi Navoiy asarlari lug’atida “ko’ruvchi, ko’zli, o’tkir ko’zli, ziyrak, ko’zi ochiq” (117) ma’nolarini anglatadi. Ya’ni Mashrabning lirik qahramoni maoniy daryosining durini qo’lga kiritgan buyuk shaxsiyat egasi. U moddiyat olamining voqeligidan ancha yuksakda. Botin olamining bebaho hazinalarini qo’lga kiritgan bu ilohiy ishq sohibi ma’rifatdan bebahralarga, ko’ngil ko’zi so’qirlarga o’z asrorini ochmaydi!

#### ADABIYOTLAR

1. Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б.15.
2. Furqat Zokirjon. Ishqingda kuyib jono... – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B.105.
3. Фузулий. Девон. – Тошкент: Ўзбекистон давлат бадий адабиёт нашриёти, 1959. – Б.93.
4. Ҳаққулов И. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.38.
5. Ҳаққул Иброҳим. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б.173.
6. Ibrohim Haqqul. O’lmas ohanglar.  
<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-olmas-ohanglar-furqat-haqida.html>
7. <https://www.facebook.com/318732171624581/posts/ibrohim-haqqul-matn-manodorligi-va-talqin-masuliyati-ibrohim-haqqul-buxoroning-s/8239090877735>

#### SO’Z LEKSIK MA’NOSINI TIL TARIXI BILAN BOG’LAB O’RGANISH

*Ra’no Sharopova,  
NavDPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya.** Tezida o’zbek tilshunosligida leksik ma’noning kengayishi va torayishiga oid qarashlar, bu hodisaning bugungi talqinlari, hodisa mohiyati hamda tarixiy davrlarga mansub ayrim lug’atlar asosida misollar tahlili amalga oshirilgan.

**Abstract.** In the thesis, the views on the expansion and narrowing of the lexical meaning in Uzbek linguistics, today's interpretations of this phenomenon, the essence of the phenomenon and the analysis of examples based on some dictionaries belonging to historical periods are carried out.

**Аннотация.** В тезисе осуществлены взгляды на расширение и сужение лексического значения в узбекском языкознании, современные трактовки этого явления, сущность явления, а также анализ примеров на основе некоторых словарей, относящихся к историческим периодам.

**Kalit so’zlar:** leksik ma’no taraqqiyoti, ma’no kengayishi, ma’no torayishi, qadimiy lug’atlar

**Key words:** development of lexical meaning, expansion of meaning, narrowing of meaning, ancient dictionaries.

**Ключевые слова:** развитие лексического значения, расширение значения, сужение значения, древние словари.

Tilshunoslikda, jumladan o’zbek tilshunosligida ham so’zning leksik ma’nosi, uning taraqqiyoti, yangi ma’nolarning hosil bo’lish yo’llari bilan bog’liq masalalarda turlicha yondashuvlar, tahlillar kuzatiladi. Xususan, leksik ma’noning kengayishi va torayishi masalasida



ham adabiyotlarda ayrim chalkashliklar ko‘zga tashlanadi. Umuman, ma’no kengayishi va torayishi hodisasiga ikki xil munosabat mavjud. Birinchidan, so‘z ma’nosi kengayishi so‘z leksik ma’nosining yangi hosila ma’nolar hisobiga avvalgiga nisbatan ortishi, ma’no torayishi esa ma’noning miqdor jihatdan kamayishi, ma’no strukturasi ayrim ma’nolarning chiqib ketishi sifatida qaraladi [4, 260]. So‘nggi davrlarda chop etilgan ba’zi darslik va qo‘llanmalarda ham yuqoridagi kabi qarash o‘zgarmagan, hatto so‘zning leksik ma’nosi kengayishi natijasida ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlar paydo bo‘ladi degan fikr ilgari suriladi [1, 171]. “O‘zbek tili semasiologiyasi” kitobi muallifi M.Mirtojiyev bunday qarashlarga munosabat bildirar ekan, shu qarash asosida “leksik ma’no taraqqiyoti turlari belgilanadigan bo‘lsa, hosila ma’no yuzaga kelishi bilan ma’no kengayishi o‘rtasida farq qolmagan va ma’no torayishi so‘zning ayrim leksik ma’nolari arxaiklashib turishiga aylanardi. Shuningdek, so‘z ma’nosi tarkibi tushunchasi bilan leksik ma’no ifodasi tushunchasi o‘rtasidagi farq yo‘qqa chiqarilardi” deb ta’kidlaydi [3, 114].

Keyingi qarashga ko‘ra, “leksik ma’noning kengayishi va torayishi faqat bir leksik ma’no hajmida ekstralingvistik sababga ko‘ra sodir bo‘lib, leksik ma’noning mavjud referenti hajmida o‘zgarish bo‘ladi, ya’ni u kattalashadi yoki kichiklashadi” [3, 113]. M.Mirtojiyev bu qarashning tilshunoslar tomonidan allaqachon tan olingani, biroq uning bir leksik ma’nodan boshqa hosila ma’no yuzaga kelishiga o‘xshab ketadigan o‘rinlari ham borligi, ba’zan ular bir-biriga qorishtirilishini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Olim leksik ma’no kengayishiga oyoq leksemasini misol qilib keltirar ekan, u dastlab kursi qismini bildirgani, keyin xuddi shunday qismga ega xontaxta, eshak, havoza, stol, stul, shkaf kabilar paydo bo‘lgani, ularning ‘tayanch qismi’ ham shu nomda shu ma’no orqali ifodana boshlaganini yozadi. Aytish joizki, ‘tayanch qism’ ma’nosi o‘zgarmagani holda oyoq so‘zi bir necha turli atalmish (referent)lar uchun nom bo‘lgani hosila ma’no yuzaga kelishiga o‘xshash tasavvurga sabab bo‘lgan. Biroq, bu holatda mohiyatan bir keng ma’no yuzaga kelishi ko‘pda hisobga olinmaydi.

Tilning tarixiy taraqqiyot jarayoni nafaqat so‘zga xos ma’nolar miqdorining ortishiga, balki so‘zning muayyan leksik ma’nosining o‘zgarishiga, ya’ni uning ma’no hajmining kengayishi yo torayishiga olib kelishi mumkin. Bunday o‘zgarish polisemiyaga sabab bo‘lmaydi, balki so‘z semantikasining muayyan bir ma’nosi doirasida kechadi. Leksik ma’noning kengayishi leksemaning muayyan leksik ma’nosi hajmi tor ma’nodan keng ma’noga qarab o‘zgarishidir. Bunda leksik ma’no ifodalagan voqelik doirasi hajman ortadi. I. V. Arnold qayd etganidek, hosila ma’no yuzaga kelishi oniy daqiqa, kechim anglangan daqiqadayoq kuzatilsa, leksik ma’no kengayishi va torayishi sekin-asta yuzaga keladi [3, 116]. So‘zning leksik ma’nosida yuz bergan bu o‘zgarishni tarixiy davrga mansub yodgorliklar, xususan lug‘atlarda qayd etilgan ma’nolarining tahlili asosida kuzatish mumkin. Bugungi kundagi so‘z boyligimizni tilimiz tarixi bilan bog‘lab o‘rganish unda kechgan, kechayotgan semantik jarayonlarni to‘g‘ri anglash va talqin qilishga yordam beradi. So‘z leksik ma’nosida kechadigan mazkur jarayonga hosila ma’no darajasida bo‘lmasa-da anchagina misollarni keltirish mumkin. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy yashagan davr – XI asrda yemish leksemasi faqat daraxt mevasi, ho‘l mevani anglatganligini “Devonu lug‘otit turk” asari orqali bilamiz (2, II,19). Shuningdek, muallifi noma’lum XIV asrga oid lug‘at “Tarjumon”da ham “umuman ho‘l meva” deb izohlangan [5, 34]. Hozirgi kunda uning leksik ma’no hajmi kengayib, “oziq-ovqat bo‘ladigan har bir narsa, ovqatlik”ni anglatadi (6, II, 9).

Ma’no kengayishi singil so‘zi semantikasida ham yuz bergan. Ilgari singil faqat erkaklarning o‘zidan kichik qiz ukasini ifodalagan (2, III, 377), ayollarning o‘zidan kichik qiz ukasi baldiz deb nomlangan (2, I, 426). Hozirgi kunda baldiz leksemasi iste’modan chiqib, qiz uka ma’nosida singil leksemasining ma’no hajmi kengaygan – erkaklarniyam, ayollarniyam qiz ukasiga nisbatan

qo‘llanaveradi. “Devonu lug‘otit turk” yo‘lak so‘zi dastlab “dashtdagi kichik yo‘l” ma‘nosida qo‘llanganidan guvohlik beradi [2, ]. Yo‘lak hozirda “ko‘cha, hovli, bog‘ va h.da yurish uchun mo‘ljallangan maxsus tor yo‘l” [6 ].

Leksik ma‘noning torayishi deb leksemaning muayyan leksik ma‘nosi hajmi keng ma‘nodan tor ma‘noga qarab siljishiga aytiladi. Bunda leksik ma‘no ifodalagan denotat (predmet, voqelik) doirasi hajman kamayadi. Uzoq tarixiy taraqqiyotni boshidan kechirgan so‘zning nafaqat ma‘nosi, tovush tomonida ham o‘zgarish kechishi tabiiy, albatta. “Devonu lug‘otit turk”dagi öryk so‘zi bizga o‘rik shakliga aylanib kelgan. Bu so‘z ilgari shaftoli, o‘rik, olxo‘ri mevalarining umumiy nomi bo‘lgan. Shaftoli – tölög öryk, o‘rik – sarīg öryk, olxo‘ri – qara öryk deb aniqlovchi qismi bilan farqlangan [2, I, 99]. Bugungi kunda o‘rik leksemasi shu mevadan birinigina ifodalab qolgan. “Devonu lug‘otit turk” asarida yonoq (qadimiy shakli yaňaq) so‘zi “har narsaning yoni” deb izohlangan (2, III, 386). Hozirda yonoq faqat yuzning bo‘rtiq qismini ifodalaydi. Eski turkiy manbalarida o‘g‘lon so‘zi umuman bola ma‘nosida qo‘llangan: yosh qiz – qiz o‘g‘lon, yosh bola – kich o‘g‘lon [5, 55]. O‘g‘lon so‘zining bugungi kunda qo‘llanish doirasi torayib, faqat “o‘g‘il bola” ma‘nosinigina ifodalaydigan bo‘lgan.

Leksik ma‘nolarning hajman kengayishi va torayishi doimiy yuz beruvchi jarayonlardan biri ekanligini hozirgi kundagi tildagi o‘zgarishlar bilan ham izohlash mumkin. Osh so‘zi qadimdan ovqat, taom ma‘nosida qo‘llanib kelgan [2, I,109]. Hozirgi kunda bu so‘zning qo‘llanishi oshning bir turi bo‘lgan palovga xoslanib bormoqda. Kuzatiladiki, ma‘noning kengayishi va torayishi leksik ma‘no taraqqiyotiga olib keladigan hodisa sifatida belgilansa-da, bu o‘zgarish ma‘no miqdoriga ta’sir etmay, faqat leksik ma‘no hajmida sodir bo‘lishiga ko‘ra semantik taraqqiyotning boshqa ko‘rinishlaridan farq qiladi. Ma‘no hajmining o‘zgarishi ma‘lum jinsdagi narsalar turining ortishi yoki kamayishiga qaramay jins tushunchasini atovchi so‘zning aynan saqlanishi va boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Umuman, so‘z leksik ma‘nosiga xos taraqqiyot va o‘zgarishlarni o‘tmish yodgorlik, lug‘atlar tahlili asosida o‘rganish so‘zning semantik tuzilishiga xos masalalar mohiyatini yaxshi anglashda katta yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. (Darslik). Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish) – T.: «Barkamol fayz media», 2018. 171-bet.
2. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I – III. Toshkent, 1960 – 1963.
3. Mirtojdiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2010
4. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. – T.: O‘qituvchi, 1970. 260-bet.
5. “Tarjumon” – XIV asr yozma obidasi. Nashrga tayyorlovchi A. Yunusov. –Toshkent, 1980.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1, 2, 3, 4, 5-jildlar. – T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – 2008

#### O‘ZBEK MAROSIM FOLKLORINING O‘RGANILISHI TARIXIGA AYRIM CHIZGILAR

*Murodova Matluba,*

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti*

**Annotatsiya.**Ushbu maqola o‘zbek marosim folklorining o‘rganilish tarixiga oid bo‘lib, maqolada o‘zbek xalqining o‘ziga xos turmush tarzi va milliy an‘analar va og‘zaki badiiy ijodining shakllanish tarixi va genetik asoslari va murakkab taraqqiyot bosqichlari haqida so‘z yuritiladi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari hamda sharqshunos olim N.N.Pantusovning "Ili okrugi taranchilarining lahjasini o'rganishga doir materiallar" nomli asarida keltirilgan manbalardan misollar keltirilgan.

M.Murodovaning maqolasi yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, izlanuvchi-tadqiqotchilar hamda san'atshunoslik fanlarini o'rganuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Аннотация.** Данная статья посвящена истории изучения узбекского обрядового фольклора, в статье рассказывается об уникальном образе жизни узбекского народа, истории формирования и генетических основах узбекского народа, национальных традициях и устном художественном творчестве, сложных этапах разработки. Примеры источников приведены в работе Махмуда Кошгари «Девону Луготит Турк» и в работе «Материалы для изучения диалекта таранчи Илийского региона» ученого-востоковеда Н.Н.Пантусова

**Ключевые слова:** узбекский обрядовый фольклор, свадебный обряд, жанр "бўта солди" ("пўта солди"), песня, поэтический контекст, этнофольклористика, фольклорные материалы.

**Abstract.** This article is devoted to the history of the study of Uzbek ritual folklore, the article tells about the unique way of life of the Uzbek people, the history of the formation and genetic foundations of the Uzbek people, national traditions and oral art, complex stages of development. Examples of sources are given in the work of Mahmud Koshgari "Devonu Lugotit Turk" and in the work "Materials for the study of the Tanchi dialect of the Ili region" by the orientalist N.N.Pantusov

**Key words:** Uzbek ceremonial folklore, wedding ceremony, genre "buta soldi", poetic context, ethnofolkloristics, folklore materials.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish - xalqning turmush tarzi, buguni va kelajagi, o'y-kechinmalari hamda ruhiyatini o'rganish demakdir, chunki bunda millatning o'zligini anglashi, o'zini namoyon etish tamoyillari, ko'p yillik hayot tarzi va dunyoqarashi aks etgan bo'ladi. Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida har bir xalqning milliy o'zligini anglatadigan marosim folklori va bu folklor janrlar tarkibining o'ziga xos jihatlari, tarixiy-genetik asoslari, marosim qo'shiqlarining struktural-semantik xususiyatlari va poetikasini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin milliy mentalitetimizni belgilaydigan ma'naviy qadriyatlarni, shu jumladan, marosim folklori materiallarini barcha hududlar bo'yicha to'plash va tadqiq etish folklorshunoslikning ustuvor tamoyillaridan biri bo'lib qoldi.

O'ziga xos turmush tarzi va milliy an'alariga ega bo'lgan xalqimiz qadim zamonlardan buyon xilma-xil janrlardan iborat og'zaki badiiy ijod namunalarini yaratgan. Ajdodlarimizning badiiy iqtidori va ijodiy salohiyati keng qamrovli bo'lganligi tufayli g'oyat ulkan folklor merosi yuzaga kelganki, bu bebaho qadriyatlar silsilasi ma'naviyatimizning taraqqiy etishini ta'minlagan muhim omillardan biri vazifasini o'tab kelmoqda.

"O'zbek folklori xalqimiz badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, so'z san'atining og'zaki turi hisoblanadi. U uzoq tarixga, murakkab taraqqiyot bosqichlariga ega"[1] - deb yozadi akademik To'ra Mirzayev. Xalqimizning kundalik mehnati va turmushi bilan bog'liq holda shakllangan folklor ijrochiligi an'analari uzoq davrlarni o'z ichiga qamrab olgan izchil tarixiy-folkloriy jarayon natijasida muttasil takomillashib, taraqqiy etib kelgan. Natijada, xalq ijodiyotining u yoki bu namunalarini (masalan, qo'shiq, folklor raqs ijrochiligi, doston, rivoyat, ertak va boshqa) aytishga, ijro etishga ixtisoslashgan professional ijrochilar tipi yuzaga kelgan. Xalq ijodiyotida voqelikni badiiy idrok etish va talqin qilish usullarining takomillashib borishi jarayonida hayotiy-maishiy

funksiyasi va qamrovining o'ziga xosligi, muayyan poetik tizimga egaligi hamda badiiy ifoda usulining originalligi bilan bir-biridan farqlanib turuvchi folklor janrlari tarkibi ham doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib boravergan. Ayniqsa, xalqimizning milliy o'zligini ifodalovchi urf-odat va marosimlari bilan bog'liq xilma-xil folklor janrlarining shakllanishi xalq ijodiyotining tarixiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Chunki marosim folklori benazir nomoddiy madaniy meros namunasi bo'lishi bilan bir qatorda, yosh avlodning badiiy-estetik didini o'stirish, ularda milliy qadriyatlarga bo'lgan e'tiborni shakllantirish hamda millatning ma'naviy birligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ham xarakterlanadi.

O'zining shakllanish tarixi va genetik asoslariga ko'ra marosim folklori janrlari badiiy tafakkurning eng qadimiy namunalari sirasiga mansub bo'lib, unda o'tmishda yashagan ajdodlarimizning mifologik qarashlaridan tortib, turli rasm-rusumlari va ibtidoiy rituallarigacha bo'lgan etnomadaniy qatlamning izlarini uchratish mumkin.

Xalqimizda azaldan muqaddas sanalib kelinayotgan odatlaridan ayrimlari haqida so'z yuritganda ularning naqadar qadimiy ekanligidan vofiq bo'lamiz. Masalan, xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelinagan odatlardan biri – sovchilik bilan bog'liq bo'lgan “sovchi” so'zining kelib chiqish tarixi haqidagi ayrim ma'lumotlar XI asrda yashagan mashhur tilshunos, folklorshunos olim Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida ham uchratish mumkin. Devonda “sav” so'zi “maqol, matal, biror voqea-hodisani aytib bermoq, hikoya qilib bermoq, hikoya, yozma xabar, xat, kelin bilan kuyov o'rtasida xat-xabarlar yetkazib turuvchi kishi” ma'nolarida ishlatilganligini qayd etgan[2]. Boshqa manbalarda ham “sovchi” atamasi qadimgi turkiylar tilida “so'z”, “xabar”, “hikoya” ma'nolarida qo'llanilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Folklorshunos olim Z.Husainova tomonidan 1962 yilda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidan yozib olingan marosim folklori janrlarigi oid bo'lgan “bo'ta soldi” o'yinida uchraydigan “bo'ta soldi” udumi qo'shig'ining mazmuni bu udum qadimiy udumlardan biri ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Bo'ta solay, kimga solay,  
Chochi uzun qizga solay,  
Osmondagi oyga solay,  
Chochi uzun qizga solay,[3] –

Uyg'ur xalq lirikasi yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan O.Boqiyev o'zining monografiyasida 1873 yilda Sharqiy Turkistonda bo'lgan sharqshunos olim N.N.Pantusov Ili tumanida yashovchi uyg'urlarning “maylis o'yini”da qiz va yigitlar bir-birlariga po'ta solish asnosida bayt aytganliklarini qayd etgan ekan[4]. Biz N.N.Pantusovning “Ili okrugi taranchilarining lahjasini o'rganishga doir materiallar” nomli asarining elektron nusxasini internet manbalaridan izlab topib ko'rganimizda, darhaqiqat, Ilida istiqomat qilgan uyg'urlar orasida “po'ta soldi” udumi mavjud bo'lganligiga amin bo'ldik. Qiz va yigitlarning to'ylardagi bayt, ashula, naqsh, o'lang aytishish udumi uyg'urlarda “maylis” deb yuritilgan ekan.

Yigitlar qizlarga po'ta solib turib shirin so'z bilan bayt aytgan:

Eshik ochib to'rga boqsam, bir go'zal yor o'ltirur,  
Qoshlari qiygan qalamdek, ko'zlari nor o'ltirur.  
Sochlari belga tushibtur, bellari bir qilcha yo'q,  
Ishqimiz sizga tushibtur, o'zgalar bir pulcha yo'q.

“Bo'ta soldi” udumi qo'shiqlari o'ziga xos vazn va qofiya tuzilishiga ko'ra ajralib turishi, ishq-muhabbat, sof sevgi, vafu va sadoqat, oila muqaddasligi, inson qadr-qimmatining ulug'ligi, do'stlik, o'zaro ahllik va mehr-oqibatni tarannum etishi bilan xarakterlanadi. “Bo'ta soldi” udumi

qo‘shiqklarini aytish an‘anasi boshqa turkiy xalqlar, xususan, uyg‘urlar va o‘zbeklar orasida ham mavjudligi bu tip marosim qo‘shiqklarining qadimiyligini hamda qo‘shiqning poetik folklori tili asosan qorluq-chigil dialektiga mansub bo‘lgan uyg‘ur va o‘zbeklar og‘zaki badiiy ijodida mavjudligi bu janrga mansub marosim qo‘shiqklari o‘troq dehqonchilik va shahar madaniyati rivojlangan hududlarda shakllanganligidan dalolat beradi.

Mazkur udum o‘zining etnografik talqini hamda verbal qismi – poetik matndan iborat an‘anaviy folklorini hozirga qadar saqlab kelganligi bilan xarakterlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. T.3. – Toshkent: Fan, 1960. – B.214-215.
2. Mirzayev T. Kirish // O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1988. – B.3.
3. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv.№1561/24. Bulung‘ur tumani Niyozmat qishlog‘ida yashovchi 40 yoshli Xadicha Isoqovadan Z.Husainova yozib olgan.
4. Ro‘ziyeva G. “Bo‘ta soldi” udumi ayimlari va uning etnofolkloristik tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004.
5. Boqiyev O. Uyg‘ur xalq lirik she‘riyati. – Toshkent: Fan, 1978. – B.142.
6. Пантусов Н.П. Материалы к изучению наречия таранчей Илийского округа. – Казань, 1907. – С.27-28.

#### “XAMSA” STRUKTURASIDA “HAYRAT UL-ABROR”NING O‘RNI

*Sharipova Nigora Nuriddinovna,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
NavDPI doktoranti (DSc)*

**Annotatsiya:** Maqolada akademik Botir Valixo‘jayevning xamsachilik an‘anasiga oid mulohazalari Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi dostonlar misolida tahlilga tortilgan. Shuningdek, ilk dostonning “Xamsa” poetik strukturadagi muhim pozitsiyasi xususida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Xamsa”, an‘ana, ilk doston, muqaddimaviy ishoralar, poetik talqin, struktura, pozitsiya.

**Аннотация:** В статье анализируются мысли академика Батира Валиходжаева о традиции «Хамса» на примере эпоса Алишера Навои «Хамса». Обсуждается важная место первого дастана в поэтической структуре «Хамсы».

**Ключевые слова:** «Хамса», традиция, первый эпос, первый признаки, поэтическая интерпретация, структура, позиция.

**Abstract:** The article analyzes the thoughts of academician Botir Valikhodjaev about the tradition of “Hamsa” using the example of Alisher Navoi’s epic “Hamsa”. The place of the first dastan in the poetic structure of “Hamsa” is discussed.

**Key words:** “Hamsa”, tradition, first epic, introductory gestures, poetic interpretation, structure, position.

Akademik B.Valixo‘jayevning xamsanavislikning uch muhim xususiyati haqidagi qarashlari Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi har bir dostonning poetik xususiyatlari va g‘oyaviy-badiiy mohiyatini teran anglash imkonini beradi [Valixo‘jayev B, 1961: 92-97]:

1) «Xamsa»ning birinchi poemasi muallifning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifoda etuvchi asar bo'lib, bu qarashlar «Xamsa»ning keyingi poemalarida obrazlar orqali kengaytirilgan tarzda ko'rsatiladi.

«Hayrat ul-abror» «Xamsa»ning muqaddimaviy dostoni sifatida keyingi dostonlardan farqli ravishda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Aytish mumkinki, ilk doston keyingi dostonlarning annotatsiyasi, tezisi. Undagi qator masalalar keyingi dostonlarda rivojlanadi. Ilk dostonda muqaddimaviy ishoralar keyingi dostonlarda obrazlar va masalalar talqinida badiiy yechim topadi.

Mumtoz adabiyotda ishq – umumbashariy mavzudir. Ilohiy ishq – komillik belgisi. Dostonda eng muhim masalalar qatorida Navoiy ishqqa ham maxsus maqolat bag'ishlaydi. Dostonning to'qqizinchi maqolatida shoir bu ilohiy tuyg'uni g'oyat ulug'laydi, mislsiz qudratini e'tirof etadi. «Hayrat ul-abror»da muallifning ishq iztirobi dardi va yuki borasidagi qarashlari quyidagicha ibtido topadi:

Qaysi ko'ngulniki, makon etti ishq,  
O'tdin ani la'lg'a kon etti ishq. [H.A. –B.166]

Ilk dostonda boshlangan ishq masalasi keyingi dostonlarda uzviy rivojlantiriladi. «Farhod va Shirin» dostonidan olingan quyidagi misralarda ilk dostondagi ulug'vor g'oyalar mantiqiy davom ettirilganini sezish qiyin emas:

Ki inson ko'nglin etti gulshani ishq,  
Bu gulshanning harimin maxzani ishq. [F.Sh. –B.308]

Shoir mazkur baytlarda marom, ohang, ritm, g'oya va mazmuniy mushtaraklikni shunchalik mukammal shakllantira olganki, bu baytlarning mavzu, yo'nalish, vazn jihatidan bir-biridan tamoman farqlanuvchi turli dostonlardan olinganligi sezilmaydi.

Ilk dostondagi quyidagi misralarda shoir haqiqiy oshiq qanday bo'lishi lozimligi borasidagi o'z nuqtai nazarini bayon etadi:

Oshiq ani bilki, erur dardnok,  
Ham tili, ham ko'ziyu ham ko'ngli pok. [H.A. –B.168]

«Hayrat ul-abror»da Navoiy so'z ochgan haqiqiy ishq va chin oshiqlik mezonlariga mos keluvchi obraz «Xamsa»ning keyingi dostonlaridan biriga kiritilishi tabiiy edi. Shu dostonda ibtido topgan haqiqiy oshiqlikning sifat va nisbatlari masalasi Farhod obrazi tasviri va talqinida to'liq bo'y ko'rsatadi. Farhod – ko'nglida ilohiy ishq jilvalangan haqiqiy oshiq ekanligi, mazkur obrazning ruhiyati, teran qarashlari, tadbiru a'moli vositasida namoyon bo'ladi, ilk dostonda ko'zda tutilgan shoir ideali – Farhod ekanligi ilk dostonga hamohang, «Farhod va Shirin» dostonidan olingan quyidagi misralarda ayonlashadi:

Demon, ham ko'ngli poku ham ko'zi pok,  
Tili poku so'zi poku o'zi pok. [F.Sh. –B.366]

«Hayrat ul-abror»ning O'n to'rtinchi maqolatida charxning osmon kabi chiroyli bo'lsa-da, ishi makru-fusun ekanligini aytadi. Navoiy fikricha, charx qo'g'irchoqboz, u chodirxayolida odamlarni qo'g'irchoqday o'ynatadi. So'ng istagan vaqtda Xusrav va Farhod kabi zotlarni yo'q qiladi:

Xusravlar qatli uchun tezhush,  
Xusravi ham demaki, Farhodkush...  
...Salmu Manuchehr ila Navzar qani?  
Bahmanu Dorovu Skandar qani? [H.A. –B.215;221]

Navoiy «Hayrat ul-abror»da Farhodni esga olar ekan, «Farhod va SHirin»dagi mashaqqatli sarguzashtlariga, ishq yo'lidagi fojeaviy hayotiga ilk ishoralar beradi.

«Hayrat ul-abror»da odob-tavoze' masalalarida alohida maqolat kiritilishi bejiz emas. Chunki keyingi dostonlardagi barcha bosh qahramonlar xarakterida shu fazilatlar mustahkam o'rin olgan. Odob masalalariga bag'ishlangan oltinchi maqolatda shoir odobning kichiklarni saodatmand, ulug'larni sarbaland qilishini, nafsu havo (takabburlik) o'tlarini o'chirishini tasvirleydi. Husni ta'lil san'ati orqali hilol (yarim oy)ning har kuni egilib turgani uchun kamol topganini, yuksaklikka ko'tarilganini ta'kidleydi. Odobning beqiyos ahamiyatini shunday e'tirof etadi:

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,  
Lek sharaf keldi hayovu adab. [H.A. –B.134]

Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning xakteri, ta'lim-tarbiyasi, kamol topishida odobning mustahkam poydevor ekanligi, bu dostonida ma'rifat masalalarining birinchi o'ringa ko'tarilishi ilk dostonidagi shu mavzudagi maqolatning badiiy takomilidir. Ilmu adab bobida ko'p zahmatlar bilan kamol topgan Farhod ma'shuqasi vasliga yetolmasa ham Majnun bo'lib, dashtu sahroda darbadar kezmeydi, tog' kesib, ariq o'tkazib, elga naf' yetkazadi. «Hayrat ul-abror»da Navoiy shunday asl insonlarni – naf'rasonlar, ya'ni elga foyda yetkazuvchilar deb ulug'leydi.

«Hayrat ul-abror»dagi ishq mavzusidagi maqolatda aks etgan g'oyalar «Xamsa»ning uchinchi dostoni «Layli va Majnun»da ham o'z takomiliga yetadi. Shoir ishqni ta'riflab, «axgari (cho'g'i) balokash ko'ngul pargolalari durur va mehnat qaro shomi aning tutuni» deya e'tirof etar ekan, bu yerda mehnat so'zini mashaqqat ma'nosida qo'llaydi. Ishaq oliy insoniy fazilat bo'lish bilan birga oshiqni aqlu-hushidan ayirib, Majnunga aylantirishi, bu yo'lda xavfu-xatar, sinov va kulfatlarning ko'pligini ta'kidlab o'tadi:

Qaydagi ishq o'ti bo'lub shu'lakash,  
Aql o'lub ul o't uza xoshokvash. [H.A. –B.166]

Majnunning aftoda holati, ruhiy iztiroblariga ishora berib, ko'z oldimizda Majnun siymosini gavdalandiradi:

Dard yukidin bo'lubon xam qadi,  
Darddagi «dol» aning hamqadi...  
...Nuktada moyil tili har so'zga yo'q,  
Jonida jonon g'amidin o'zga yo'q.  
Balki bo'lub o'zlugi ham bartaraf,  
Ko'zki solib, yor ko'rib har taraf. [H.A. –B.168;169]

Ilk dostonida keltirilgan ishq haqidagi muqaddimaviy fikrlar: oshiqning cheksiz ko'ngil iztiroblari, ishq yo'lining mislsiz mashaqqati va uqubatlari «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun»da muayyan syujet va obrazlar vositasida aniq-ravshan rivojlantiriladi.

«Hayrat ul-abror»ning O'n to'qqizinchi maqolatida mayparastlarni tanqid qiluvchi bob davomida shoh Bahromning maishatparastligi sababli mulki vayron bo'lgani haqida hikoyat keltiriladi. Bu mavzu shoirning salaflarida ham mavjud. Biroq Navoiy bu hikoyatda shoh va raiyat, hokimiyat va xalq masalasini keskin qo'yadi. «Hayrat ul-abror»da bu boradagi debocha fikrlarga o'rin ajratilib, «Sab'ayi sayyor»da badiiy takomiliga yetkaziladi. Ikki dostonidagi shoh Bahrom obrazi mushtarak xususiyatlarga ega. Ilk dostonida bir bobda so'z yuritilsa, «Sab'ayi sayyor»da yaxlit dostonida fikr rivojlantiriladi. «Hayrat ul-abror»da Bahrom fuqaro ahvolidan ogoh bo'lib, xatolarini tushungan hukmdor sifatida ideallashtirilgan bo'lsa, «Sab'ayi sayyor»da Navoiy tarixiy haqiqatni tasvirleylab, ta'sir kuchiga erishdi. Ikkinchidan, agar podshoh xatolarini o'z vaqtida anglab, to'g'ri yo'lga yuz bursa, saodatga erishishiga («Hayrat ul-abror»dagi singari –N.Sh.); buning aksi

bo'lsa, hayoti fojea bilan yakunlanishiga («Sab'ayi sayyor»dagi singari –N.Sh.) zimdan ishora beradi, ogohlantiradi.

Bundan tashqari, «Hayrat ul-abror»dagi bir qator masalalar «Sa'bayi sayyor»dagi hikoyatlarda ham rivojlantiriladi. O'ninchi maqolatdagi rostlik, to'g'rilik g'oyalari «Sab'ayi sayyor»dagi Oltinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir tilidan aytilgan «Muqbil bilan Mudbir» haqidagi hikoyatda davom etadi. «Sher va durroj» hikoyatida yolg'onchilik durroj umriga yakun yasasa, «Sab'ayi sayyor»da bu illat Mudbir umriga nuqta qo'yadi.

«Hayrat ul-abror»ning O'n to'rtinchi maqolatida dunyo qo'g'irchoqboz ekanligi, uning ishlarida chalkashliklar ko'pligi, Xusrav, Farhod va Iskandar singari buyuk shaxslarga ham rahm etmasligini yozadi. Shu maqolat tarkibida berilgan hikoyatda «Iskandarning yetti iqlim mamolikin panjayi tasarrufiga kiyurgani va xoli ilik (bo'sh qo'l) bila olamdin rihlat markabin surgoni» haqida yozadi. «Hayrat ul-abror»da Navoiy ilgari surgan g'oya – jahon ahlini o'zi tobe' qilib, hatto o'zini xudoga teng deb, ne-ne xalqlarni urushlarda halok etib, ba'zi podshohlarni taxtdan ag'dargan buyuk tarixiy shaxslar ham o'lim kelganida ojizligi g'oyasi «Saddi Iskandariy» dostonida keng ko'lamda talqin etiladi.

2) xamsanavislikning ikkinchi xususiyati shundaki, keyingi poemalar g'oyaviy-badiiy jihatdan birinchi poema bilan chambarchas bog'langan.

Bizningcha, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ayi sayyor» dostonlari ishqiy mavzuda bo'lsa-da, bir-biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil asarlardir. Biroq keyingi dostonlarning barchasi ilk dostondagi Olam, odam, iymon, islom, vafo, sabru qanoat, ishq, to'g'rilik, hayo, dinu diyonat, ko'ngil pokligi singari azaliy va abadiy mavzular bilan hamohangdir.

3) xamsanavislikning uchinchi xususiyati – «Xamsa»da qadimgi tarixiy shaxslar haqida boblar bo'lishidan tashqari buyuk tarixiy shaxs (Iskandar) haqida alohida doston mavjud bo'lishidir.

Bu fikrlarga qo'shilganimiz holda, xamsanavislikning yana bir necha xususiyatlari kuzatilishini ta'kidlamoqchimiz:

– barcha «Xamsa»larning birinchi dostonlarida munojotlar va na'tlardan so'ng so'z san'ati, she'riyatning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni, badiiyat mezonlari haqida boblar bo'lib, birinchi dostondagi bu estetik qarashlarga keyingi dostonlarda ham amal qilinadi. Shoir salafllari ilk dostonlarida ham so'z san'ati, she'riyat haqida boblar mavjud;

– birinchi dostonlarning maqolatgacha bo'lgan qismida ma'naviy ustozlarga madhiyalar yozishi, salafllarga ta'zim bildirish – xamsanavislikning yana bir jihati bo'lib, keyingi dostonlarda ham shu xususiyatlar aks etgan.

Inson ko'ngli, uni barcha mavjudotlardan aziz va mukarram qilib turuvchilar ruhiy olami manzaralari, koinot va inson, jamiyat va shaxs munosabatlari, Tangri insonga in'om etgan hayot ajoyibotlaridan hayratlanish – «Hayrat ul-abror» dostonining g'oyaviy-badiiy mazmunini tashkil etadi. Mazkur dostonidan har qanday zamon va makon uchun benihoya ahamiyatli bo'lgan – buyuk Xoliq tomonidan bu olamning yaratilishi, insonning bu olamdagi o'rni, mavqei, burchlari, vazifalari haqida ijtimoiy, axloqiy, falsafiy fikrlar o'rin olgan. Bu dostonida shoirning falsafiy-tasavvufiy qarashlari Alloh–Olam Odam birligi doirasida talqin etiladi.

Akademik B.Valixo'jayev e'tirof etganlaridek, «Hayrat ul-abror» «Xamsa» dostonlari uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajargan. Xuddi maqolaning tezisi kabi butun «Xamsa» mohiyati aslida javhar sifatida ilk dostonda mujassam. Bu yerda «Farhod va Shirin»ga ham, «Layli va Majnun»ga ham, «Sab'ayi sayyor»ga ham, «Saddi Iskandariy»ga ham ishoralar mavjud. «Xamsa»ning birinchi dostonida maqolatlar, hayratlar, hikoyatlar va ayrim boblarda ilmiy talqin etilgan masalalar keng ko'lamli bo'lib, ularning eng muhimlari keyingi dostonlarda poetik talqin



etiladi. Xususan, «Hayrat ul-abror»da chuqur talqin etilgan, inson aqli idrok eta olmaydigan hayratlar, ko'ngil (xoja)ning g'ayb olamiga sayrlari keyingi, real voqelik tasvirlangan dostonlarda mavjud emas. Biroq qahramonlar ruhiyati, ko'ngil kechinmalari va ishq hayratlarida ilk dostonida tasvirlangan hayratlar teran ifoda topadi, rivojlanadi, ilk dostonidagi muqaddimaviy ishoralar keyingilarida obrazlar va masalalar talqinida mukammal yechim topadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. TAT. O'n tomlik. Oltinchi tom. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. TAT. O'n jildlik. Oltinchi jild. – T.: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. Valixo'jayev B. Xamsachilik traditsiyasining ba'zi bir xususiyatlari haqida mulohazalar. // O'zbek adabiyotining ayrim masalalari. – Samarqand, 1961.

#### ATOV GAPNING O'ZBEK VA RUS TILI DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALARIDA O'RGANILISHI

*M.A.Ubaydullayeva,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti*

*Axtamova Muxlisa,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** O'zbek tilining fonetikasi, leksikasi, umuman olganda grammatikasi azaldan boy bo'lgan. Fikrni ifodalashning turli xil ko'rinishlari, shakllari va usullari mavjudki, ularning har birini ilmiy jihatdan tadqiq etish tilshunoslar zimmasida turgan masalalardan sanaladi. Xususan, o'zbek tili sintaksisi bo'yicha qilingan ko'plab ilmiy-nazariy tadqiqotlarda gap, so'z birikmasi, gap bo'laklari bo'yicha yangiliklar, tadqiqotlar ko'p, lekin aynan atov gap, so'z gap, to'liqsiz gap kabi sintaktik birliklarga oid batafsil tadqiqotlar ko'lami biroz kamdek. Ushbu maqolada "Sintaktik tarkibi qisqargan gaplar" degan umumiy nom bilan ularning tadqiqi va ta'limiga doir qarashlarimizni ifoda etdik.

**Kalit so'zlar:** sintaksis, atov gap, so'z gap, to'liqsiz gap sintaktik birlik.

**Аннотация.** Фонетика, лексика и грамматика узбекского языка всегда были богаты. Существуют разные взгляды, формы и способы выражения мысли, и научное изучение каждого из них считается одной из задач лингвистов. В частности, во многих научно-теоретических исследованиях, проводимых по синтаксису узбекского языка, имеется немало новостей и исследований по предложениям, словосочетаниям, фрагментам предложений, но именно по именованным предложениям, по словосочетаниям. Степень детального исследования таких синтаксических единиц, как поскольку независимое предложение кажется несколько ограниченным. В данной статье мы изложили свои взгляды на их исследование и образование под общим названием «предложения с редуцированной синтаксической структурой».

**Ключевые слова:** синтаксис, именованное словосочетание, словосочетание, неполное предложение, синтаксическая единица.

**Annotation.** The phonetics, vocabulary and grammar of the Uzbek language have always been rich. There are different views, forms and ways of expressing thoughts, and the scientific study of each of them is considered one of the tasks of linguists. In particular, in many scientific and theoretical studies conducted on the syntax of the Uzbek language, there is a lot of news and

research on sentences, phrases, sentence fragments, but specifically on nominal sentences, on phrases. The degree of detailed exploration of syntactic units such as the independent clause seems somewhat limited. In this article, we outlined our views on their research and education under the general name “sentences with a reduced syntactic structure.”

**Key words:** syntax, noun phrase, phrase, incomplete sentence, syntactic unit.

Ta’kidlash lozimki, “Sintaktik tarkibi qisqargan gaplar” atamasi o‘zbek tilshunosligida keng ko‘lamda qo‘llanilmaydi, darsliklarda ham mazkur jumlagga ko‘zimiz tushmaydi. Atov gap, so‘z gap va to‘liqsiz gaplarga nisbatan bunday umumiy qo‘llanish, dastlab, V.G.Gakning “Теоретическая грамматика французского языка” (“Fransuz tilining nazariy grammatikasi”) kitobida qo‘llanilgan hamfa fanga olib kirilgan. Olim ushbu tasniflashni atov gap (nominativ gap yoki bir bo‘lakli gap), so‘z gap (so‘z-jumla), to‘liqsiz gap (bir qismli tuzilma yoki tugallanmagan gap) shaklida keltiradi[1.228.].

Ma’lumki, gaplar gap bo‘laklarining ishtirokiga ko‘ra ikki tur: bir bosh bo‘lakli gaplar va ikki bosh bo‘lakli gaplarga ajraladi. Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so‘z bilan ifodalanib, predmet yoki voqea-hodisalarning hozirgi zamonda yoki zamondan tashqarida mavjudligini tasdiqlovchi bir bosh bo‘lakli gap **atov gap** deyiladi.

O‘zbek tilshunosligida atov gap nominativ gaplar ham deb yuritiladi. Tarixiy nuqtayi nazardan qaralganda Abdurauf Fitrat ushbu atamani eksik gaplar deb nomlaydi: “O‘yning bo‘laklari bo‘lg‘an ma’nolarning bir-ikitasi gapdagi so‘zlardan emas, boshqa vositalar bilan anglashilsa, shuning uchun shu ma’nolarni ifoda qilg‘uchi so‘zlar gapda aytilmay qolsa, shunday gap “eksik gap” bo‘ladir. Kel, ketma, o‘tir, bordim kabi so‘zlar yolg‘izg‘ina aytkada eksik gap bo‘ladirlar. Ahmat keldimi? Deganda – Keldi; Kelgan kim? Deganda – Ahmat so‘zlari ham eksik gaplardandirlar”[2.202.]. Ushbu kitobning so‘ngida ba’zi so‘zlarning tarjima variantlari keltirilgan bo‘lib, unda eksik gaplarni atov gaplar deb izoh berilgan. Lekin Fitrat keltirgan ta’rif va misollarning mazmuni ko‘proq to‘liqsiz gaplarga to‘g‘ri keladi. A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida, O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham ham ushbu terminning izohi, ma’nosi keltirilmagan. Internet materiallari ko‘rib chiqilganda eksik gaplar- bu to‘liqsiz gaplar ekanligi aytilgan. Mana shu o‘rinda biroz atama qo‘llash bilan bog‘liq nomuvofiqlik kuzatiladi.

Tilshunos N.Abdurahmonov “Qadimgi turkiy til” kitobida atov gaplarni bir sostavli gaplar tarkibiga kiritadi. “Qadimgi turkiy tilda bir sostavli gaplar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bularga shaxsi aniq gaplar, shaxsi noaniq gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar, infinitiv gaplar, nominativ gaplar va so‘z gaplarni ko‘rsatish mumkin. Bular bir-biridan struktura va mazmun jihatdan farq qiladi.”[3.104.] Ushbu kitobda deyarli atov gapga misollar keltirilmagan. Birgina misol bilan chegaralanamiz: qan bartы (To‘nyuquq).

Atov gap haqidagi ilk ma’lumotlar dastlab 1933-yilda tilshunoslar A.Yo‘ldoshev va N.Said tomonidan nashr etilgan «Grammatika. Nahv» deb nomlangan maktab darsligida uchraydi. Unda atov gaplar va egasiz gaplar to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan bo‘lib, ular bir tarkibli gaplar sifatida izohlangan, «bunday gaplarda ega anglashilmaydi, qo‘shni gaplardan ham uni topib bo‘lmaydi», deyilgan[4].

A.Ma’rufov va G‘.Abdurahmonovlarning o‘zbek tilidan o‘rta maktablarning yuqori sinflari uchun nashr qilingan qo‘llanmasida bir sostavli gaplar ilk bor tizimlashtirilgan: shaxsi topilmas, shaxsi umumlashgan, atov gap. Ular orasidan atov gaplarning turlari va xususiyatlari ancha yaxshi yoritilgan.

S.Sanaqulov tomonidan tayyorlangan magistrlik ishida bir tarkibli gaplarning bir guruh olimlar tomonidan tasniflari keltirilgan. “Masalan: Gvozdev A.N.: bir sostavli gaplar, bosh bo‘lagining formasi va ma’nosiga ko‘ra, turli ko‘rinishdagi gaplarni birlashtiradi, bunga quyidagilar kiradi: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, shaxssiz, infinitiv, atov gaplar. Reformatskiy A.A.: bir sostavli gaplar shunday tiplarga ajraladi: 1) kesim bazasida paydo bo‘lgan bir sostavli gaplar; 2) ega bazasida paydo bo‘lgan bir sostavli gaplar. Birinchi tip bir sostavli gaplarga shaxssiz, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan va imperativ gaplarni kiradi. Ikkinchi tip bir sostavli gaplarga atov (битийное), turli korxonona, muassasa, asarlar nomi (називные: Булочная, «Ревизор»), ko‘rsatish (указательное: Вот мельница) va undov (восклицательное: Пожар!)gaplarni kiradi. Galkina-Fedoruk E.M.: bir sostavli gaplar ikki katta guruhga bo‘linadi: egasiz gaplar, kesimsiz gaplar. egasiz gaplar shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, shaxssiz gaplarga bo‘linadi. Kesimsiz gaplarga nominativ gaplar kiradi. Babaytseva V.V.: bir sostavli gaplar unda ifoda qilingan hukm predmetining xarakteri hamda bosh bo‘lagining ifodalanish usuliga ko‘ra fe‘l bir sostavli gaplar hamda ot bir sostavli gaplarga ajraladi. Fe‘l bir sostavli gaplarga shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, shaxssiz, infinitiv gaplar, ot bir sostavli gaplarga esa nominativ va vokativ gaplarni kiradi. Javodov A.M.: ozarbayjon tilidagi bir sostavli gaplar quyidagicha tasniflanadi: shaxsi noaniq gap, shaxssiz gap, shaxsi umumlashgan gap, masdar gap, atov gap, so‘z-gap. Zakiev M.Z.: tatar tilida bir sostavli gaplar bosh bo‘lagining ifodalanishiga ko‘ra, uch guruhga bo‘linadi: fe‘l gaplar, ot gaplar, so‘z-gaplar. G‘oziev H.: bir sostavli gaplar: egasi topilmaydigan, egasi aniqmas, egasi umumlashgan va atov gaplarga bo‘linadi. G‘ulomov A.: bir sostavli gaplar: shaxssiz, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, atov gaplar. «Bir sostavli gapning shunday turlari bor: shaxsi aniq gaplar, shaxsi noma‘lum gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar, shaxssiz gaplar, infinitiv gaplar, nominativ gaplar, undash gaplar. Ma‘rufov A., Abdurahmonov G‘.: bir sostavli gaplar: shaxsi topilmas, shaxsi umumlashgan, atov gaplar. Kononov A.N.: bir sostavli gaplar: shaxssiz gap, shaxsi noaniq gap, shaxsi umumlashgai gap, atov gap, vokativ gap[5.82.] kabi turlarga bo‘lganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Dunyo tilshunosligiga nazar tashlasak, atov gaplar bo‘yicha rus tilshunosligida bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. N.A.Baskakov, O.A.Volgova, N.V.Dumsheva kabi tilshunoslarning qilgan ishlari bu jihatdan xarakterlidir[6.182].

N.M.Dumsheva atov gaplarga quyidagicha ta’rif beradi: “Atov (nominativ) gaplar shunday tarkibli gaplar bo‘lib, unda faqat bitta bosh bo‘lak - subyekt mavjud. Ular ma’lum vaqtda sodir bo‘lgan qandaydir hodisa yoki obyekt haqida xabar beradi. Ular predmet yoki hodisalarning mavjudligini tasdiqlaydi: “Qish. Mana qor. Naqadar qattiq sovuq!”

Demak, atov gaplarda nutq so‘zlanib turgan paytda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar, mavjud bo‘lgan predmetlar tasvirlanadi. Bunday gaplar quyidagi ma’noviy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin: Aniq predmetlarning mavjudligini, mavhum tushunchalarning mavjudligini, turli tabiat hodisalarining mavjudligini, o‘rin-joyning mavjudligini, aniq paytini, hayot voqealarini, ko‘rsatishni ifoda qiladi. Masalan, Nim qorong‘u. Zaxkash hujrada “ulfati chor” ning suhbatlari uzilmas edi (Oybek “Navoiy”, 10-bet); Payshanba - maosh kuni edi. (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”, 5-bet.); Qiy-chuv, to‘polon... (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”, 12-bet.)

O‘zbek tilshunosligida atov gap yig‘iq va yoyiq bo‘lishi mumkin. Yig‘iq atov gap bosh bo‘lakning o‘zidan iborat bo‘adi: Bilaman. Shomurod tog‘amga osonmas. (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”, 15-bet). Yoyiq atov gap bosh bo‘lakdan tashqari ikkinchi darajali bo‘laklardan tashkil topadi. Masalan:Faqat qish edi. Qahraton qish... Tor ko‘cha. O‘rtasiga qor uyib qo‘yilgan


katalakdek hovli. Chaqmoq telpakli odam. Sovuq vokzal. Yo‘ldoshxon aka. Tog‘oradagi osh. Qon yig‘lab qolgan onam. (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”, 15-bet.)

Demak, Nominativ gaplarda fikrning nisbiy tugalligi predikativlik, ohang orqali ifodalanadi. Ohang mazkur gaplarda alohida ahamiyat kasb etadi. Ohang tufayli oddiy so‘z gapga aylanadi: Oftob botib ketgan. Nimqorong‘ilik cho‘kkan, havoda jo‘xori kabob hidi kelardi. (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”, 31-bet). Nominativ gap, odatda, yakka holda qo‘llanmaydi, undan so‘ng ko‘pincha boshqa bir gap keladi: Chigirtka chirillaydi... Hammayoq suv quygandek jimjit. (O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi”, 42-bet).

Atov gaplarning o‘ziga xos kognitiv ma‘nolari ham mavjuddir. Bitta so‘z ko‘rinishida bo‘lsa ham uning tub mohiyatida tafakkurdan anglashiladigan mazmun, turli konseptual ma‘nolar jamlanmasi aks etadi. Masalan, bahor mavzusida insho, matn yoki ma‘ruza tayyorlanadigan , yoziladigan bo‘lsa, jumlar boshlanishini atov gap bilan boshlash, ko‘pincha, odat tusiga aylangan.: Bahor. Atrof yam-yashillikka burkana boshlagan fursat.... Birgina bahor so‘zi zamirida ushbu faslning bor go‘zalliklari, nafasoti, tarovati, umuman olganda, u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ma‘nolar anglashiladi.

Ma‘lum bo‘ladiki, tilshunoslikning sintaksis bo‘limi tarkibiy qismi sifatida o‘rganiladigan atov (nominativ) gaplar birmuncha sinxron va diaxron jihatdan tadqiq qilingan. Yuqorida ularning izohiga qisqacha to‘xtalib o‘tdik. Ifoda ko‘lami keng bo‘lgan o‘zbek tilida ijod qiladigan barcha ijodkorlar o‘zlarining asarlarida gapning turli ko‘rinishlaridan foydalanadilar. Aynan atov gaplarga keladigan bo‘lsak, ifodaning ta‘sirchanligini, kognitiv tabiatini, so‘zlovchining ruhiyatini, emotsiyasini, tasvirlanayotgan predmet yoki holatning mohiyatini ochishga xizmat qiladi. 2014-yilda tilshunoslar M. Qodirov, H. Ne‘matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayevalar tomonidan ishlangan 8-sinflar uchun mo‘ljallangan maktab darsligida atov gaplar sodda gapning tarkibiy qismida o‘rganilgan va quyidagicha ta‘rif berilgan: “Atov gaplar so‘zlovchi ko‘z o‘ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavdalanitirishga, uning xotirasi yoki xayolida ular bilan aloqador bo‘lgan voqea-hodisalarni tiklashga xizmat qiluvchi muhim tasviriy vositadir. Atov gaplar, asosan, xabar maylining hozirgi-kelasi, ba‘zan esa o‘tgan zamon shakllaridagina keladi. Atov gaplar bitta so‘zdan iborat bo‘lishi ham, aniqlovchilar bilan kengayib kelishi ham mumkin”[7.73.]. Shundan so‘ng, keyingi darslarda yoyiq va yig‘iq atov gaplar haqida to‘xtalgan hamda mavzuga doir mashq va topshiriqlar berilgan.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida atov gaplarning quyidai sxemasini yaratish mumkin:



## ADABIYOTLAR

1. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. - М.: Высшая школа, 1981. - С.228.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar: Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar / Mas’ul muharrir B. Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. — T.: «Ma’naviyat», 2009. — B.202.
3. Абдурахмонов. Н Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б.104.
4. Ёўдошев А, Саид Н. Грамматика. Наҳв. – Тошкент, 1933.
5. Sanaqulov. O‘zbek tilida egasi topiladigan gaplarning stilistik xususiyatlari. Magistrlik dissertatsiyasisi. – Samarqand, 2012. – B.82.
6. Баскаков. Н.А, Содиков. А.С, Абдуазизов. А.А. Умумий тилшунослик. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б.192; Болгова, Ольга Алексеевна. Назывное предложение в тексте : на материале современного английского языка : диссертация ... кандидата филологических наук : 10.02.04. - Москва, 1988. - 182 с; Думшева Надежда Валентиновна. Назывные предложения в художественной литературе. [issledovatelskaya\\_rabota\\_0.doc \(live.com\)](#) .
7. Qodirov M. va boshqalar. Ona tili. /8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B.73.

## O‘ZBEK FOLKLORIDA MOMO KULTIGA ISHONCH IZLARI

*Narzullayeva Dilfuza Saitovna,*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasii  
dotsenti (PhD)*

**Annotatsiya** - Maqolada ayol ajdodlar ruhining homiyligi nazarda tutilgan momo kulti tushunchasi, unga ishonchning o‘zbek taqvimiy va oilaviy-maishiy marosimlar folkloridagi badiiy talqini, momolar ruhining ayollarga, ularning faoliyatida, shug‘ullanadigan kasb-korida hamisha yoru madadkor bo‘lishi, u bilan bog‘liq motiv va obrazlarning mifdan marosimga, marosimdan folklorga ko‘chishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** momo kul’ti, “momo” – рух, кўзга кўринмас сирли кучлар, аёл ҳомий рух, эзгу ёки ёвуз руҳлар, momo руҳлар ва уларнинг вазифаси, халқнинг мифологик қарашлари.

**Аннотация** - В статье рассматривается понятие культа momo, в котором речь идет о покровительстве духа предков женского пола, художественной интерпретации веры в него в фольклоре узбекских календарей и семейно-бытовых обрядов, о том, что дух “Момо” всегда добра и отзывчива к женщинам, в их деятельности, в их профессиях, с ней обсуждается передача родственных мотивов и образов из мифа в ритуал, из ритуала в фольклор.

**Ключевые слова:** культ momo, «momo»-дух, невидимые таинственные силы, женский дух-хранительница, добрые или злые духи, духи momo и их миссия, мифологические воззрения народа.

**Annotation** - The concept of the cult of momo, which refers to the patronage of the spirit of female ancestors in the article, the artistic interpretation of belief in it in the folklore of Uzbek calendar and family-household rituals, the fact that the spirit of momos is always kind and helpful to women, in their activities, in their professions, with her the transfer of related motifs and images from myth to ritual, from ritual to folklore is discussed.

**Key words:** momo cult, "momo" - spirit, invisible mysterious forces, female guardian spirit, good or evil spirits, momo spirits and their mission, mythological views of the people.

Dunyo xalqlari marosim folklorida momo kultiga ishonch bilan bog‘liq rudimentlarning hozirgacha saqlanib kelayotgani alohida e‘tiborni tortadi. Qadimgi insonlarning “homiy kuchlar” haqidagi e‘tiqodiy qarashlari ta‘sirida shakllangan marosimlar folklori, urf-odatlarining estetik mohiyati, xalq og‘zaki badiiy ijodida obrazlarning badiiy talqini folklorshunoslar orasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo, Qashqadaryo vohasida kinnachilik va emchilik bilan shug‘ullanadigan ayollar, odatda, “momo” deb yuritiladi. O‘zbekistonning bir qator joylarida doyalik qiluvchilar ham “momo” yoki “momo-doya” deb ataladi. Momo-doyalarning muhim xizmati shundan iboratki, ular momolar ruhini shomon qiyofasida tug‘ilish yuz berayotgan joyga chaqiradilar. Bu uchun ular chiroq – nukcha yoqqanlar. Nukcha moyga botirilgan paxtani qamishning boshiga o‘rab tayyorlanadi. Momolar buni “chiroq eshish” deydi. Shu chiroq-nukcha yondirilganda, moyga botirilgan paxtaning hidi atrofga taraladi. Atrofga taralgan yoqimli moy hidi esa momolar ruhiga yetib borib, ularni shu chiroq yoqilgan joyga yetaklab kelishiga ishonilgan. Samarqand viloyatining Xo‘ja qishloq guzarida homilani qabul qilish, ayolni tug‘dirib olish jarayonida uchta momo: katta (Mmoi Kalon), o‘rta (Mmoi Miyona) va kichik (Mmoi Xurd) bevosita ishtirok qilishgan.[1] Bunda momo doylalar jamoa bo‘lib harakat qilib, tug‘ruq davomida chaqaloqni qabul qilishda birgalashib ish yuritganlar. Ulardan Mmoi Kalon deb yuritiluvchi doya xonaning o‘ng burchagidan, Mmoi Miyona esa xonaning obrezli tomonidan, Mmoi Xurd esa eshik oldidan joy olganlar. Momo ruhlarning yordamga kelish-kelmasligi nukcha – chiroqlarning yonishiga qarab aytilgan. Jumladan, nukchanning lovillab yonishi homiy momoning yetib kelgani, past yonishi yoki o‘chib qolishi homiy momoning hali yetib kelolmagani alomati sanalgan.

Xorazmda ayolni tug‘dirib oluvchi doyani “enaka momo” yoki “elti momo” deb ataydilar. Ammo bu vohada Elti momoning vazifalari ko‘p. Masalan, u yangi tug‘ilgan chaqaloq bilan bog‘liq irimlarni ado etadi, uni ilk bor beshikka bog‘lab beradi, shuningdek, to‘ylarda ayollarga boshchilik qiladi. Motam marosimlarida go‘yandalik vazifasini bajaradi.[2] Bunda Elti momo nomini olgan ayolning yoshi muhim sanalmaydi. Chunki shomonlik va doyalik qiluvchi ayolga nisbatan momo so‘zi ishlatilganda, uning yoshi inobatga olinmaydi.

Momo ruhlar ko‘pincha nukchatalab va bo‘ytalab, ba‘zan xuntalab bo‘lib qolishi aytiladi. Shunda ularga atab qurbonlik uyushtiriladi. Hech bo‘lmasa, so‘yilgan molning kallasi sotib olinib, kallasho‘rva (xomsho‘rva) qilinadi. Momolar ruhiga bag‘ishlangan taomlarga achchiq narsalar solinmagan. Sababi, achchiq narsalar ruhlarni haydovchi vosita hisoblanadi.

Xalq orasida momo ruhlarga atab maxsus ritual taomlar pishirish o‘ziga xos an‘ana tusini olgan. Jumladan, ayollarning ko‘zi yoriganda atala, “Bibiseshanba” marosimida o‘moch pishiriladi. Bu taomlar **momo oshi** deb yuritiladi.[3]

Momolar oqlikni ko‘ra oladilar deb, “Bibiseshanba” marosimida oq matodan supra yoyib, unga avvalo un qo‘yadilar. Shuningdek, yana biror kutilmagan ko‘ngilsizlik yoki xastalik yuz bersa, baxtsiz yo kasal odamning boshidan oq paxta uch marta aylantirib olinadi. Bu xatti-harakat xalq orasida “paxta silash” deb yuritiladi. Shundan so‘ng boshidan paxta silab olingan kishiga momolik bilan shug‘ullanuvchi professional ayol “shamol chiroq” yoqadi. Unda ma‘lum miqdorda maxsus tayyorlangan nukchalar o‘ziga xos aytimlar jo‘rligida birin-ketin yoqiladi va bunda, albatta, silab olingan paxta ham nukchalarni tayyorlashda ishlatib yuboriladi. Nukchalar faqat pok momo ruhlar nomiga ataladi. Bosh nukcha ayollarning birinchi vakili, Odam Atoning umr yo‘ldoshi – Momo

Havo nomiga yoqiladi. Momo Havoga bag'ishlangan nukcha yetti donadan iborat bo'ladi. Bu nukchalarni yoqayotganda, odatda: "Avval xudo, keyin hazrati Momo Havo va Bibi Mushkulkusho, o'zing qo'llab-quvvatla!" deya olqish aytiladi.

Nukchalar xuddi odam (momo ruhning antropomorf qiyofasi) ko'rinishida tayyorlanadi. Bir bog'lam qilingan yetti nukchanning o'rtasidagi cho'p ikki yonidagi boshqa cho'plarga nisbatan uzunroq bo'ladi. Shuning uchun uning yonidagi cho'plar xuddi tanadagi qo'llar ko'rinishini beradi.

Momolarga bag'ishlab uch xil nukcha yoqiladi. Birinchisi, uchta bir xil o'lchamli, ikkinchisi esa, ikkita bir xil o'lchamli cho'pdan yoqiladi. Uchinchisi, ikkita bir xil o'lchamli cho'pni bitta uzun cho'pning ikki tomonidan birlashtirib, uni xuddi odam ko'rinishida tasvirlab ko'rsatish usulida yoqiladi. Momo ruhlarga chiroq yoqish ba'zan bir kishi tomonidan, ba'zan jamoa ko'rinishida amalga oshirilgan.

Momolarga bag'ishlab ayollar – xonadon bekalari tandir yoki o'choq ichida bot-bot chiroq yoqib turishi hozirgi kunda odat tusiga kirgan.

Momolik xalqona kasblardan biri hisoblanadi. Momo kasbini olgan ayollar, odatda, inson badaniga kirib, o'rnashib olgan yovuz ruhlarni haydab, ma'lum ob'ektlarga ko'chirish bilan shug'ullanadi. Folklorshunos A.Musaqulov yozishicha: "Shomonlik e'tiqodiga ko'ra shomonlar o'z iqtidorini ajdodlaridan meros sifatida yoki yer, suv ilohalari va turli yovuz ruhlardan oladilar. Shu sabab ziyon keltirgan ruhlarni aniqlash, ularni yengib, bemorlarni davolash o'zbek shomonlarining ham asosiy belgisidir".[4]

Momo ruhlar ruhiy vositachi sifatida tanlab olingan ayolga ko'zi yoriydigan xotirlarga qanday qilib doyalik qilishni, ya'ni tug'ruq vaqtida qay usulda ayollarga yordam ko'rsatish, chaqaloqni qabul qilib olishga o'rgatib turishga ishonilgan.

Momo ruhlar hech qachon o'zlarini tanlagan vositachilariga qattiq ozor yetkazmaganlar. Faqat o'zlarini eslatish, unutmazlik va o'zlariga xizmat qildirib turish kerakligini bildirish uchun ularga ogohlantiruvchi zararlar yetkazib turganlar. Agar kimki, ularga bo'ysunmasa, ularni rad etsa, ruhlar bu xil odamlardan o'ch olishga intilganlar. O'sha odamning o'zini yoki farzandini biror xastalikka yo'liqtirganlar. Ko'pincha shol yoki ko'r qilib qo'yanlar.

Ezgu ruhlar insonga homiylik qilsa, yovuz ruhlar raqib bo'ladi. Pari, momo, muakkil, chilton, qirqqiz, sariqqiz, mullo qiz, Bibi Seshanba, Bibi Mushkulkushod, arvoq, pir, mozor kabilar ezgu ruhlar qatoriga kiritiladi. E'tiqodlarga ko'ra, bu ezgu ruhlar odamlar orasidan o'ziga kimnidir vositachi sifatida tanlab oladi va unga qandaydir bir san'atni yoki kasbni o'rgatadi. Masalan, ishonchlarga ko'ra, parilar o'zi tanlagan kishiga shomonlikni – folbinlikni, momolar esa doyalikni, ya'ni tug'dirish ishlarini, muakkil – devlarga qarshi kurashishni, devbandlikni, azayimxonlikni o'rgatarkan.

Momolar tanloviga tushgan ayollar xalq orasida momo, momo doya, momodor, kinnachi, suqchi, chiroqchi deb yuritiladi.

Odatda, homiy ruhlar tomonidan tanlanganlar qo'l olish marosimida biror jonivorni qurbonlik qilishadi. Bunda quyidagi murojaat aytimi ijro qilinadi:

Qon so'rasang, qon berdi,  
Jon so'rasang, jon berdi.

Qo'l olish marosimi Surxondaryo va Qashqadaryo hududida "chilton suvi ichish" deb yuritiladi.

Momolarga bag'ishlangan ritual tadbirlarda qon chiqarish uchun tanlangan jonzotlarning rangiga jiddiy e'tibor qilinadi. Masalan, suv bo'yida shikast topganlar Suvchi momo nomiga oq

tovuq ataydi. Qora momoga esa yo qora tovuq, yo qora qo'y, yo qora echki-uloq; sariq momoga sariq, ko'k momoga ko'kish, kul momoga kulrang tusdagi jonzotliklar ataladi.

Momolik meros kasb hisoblanadi. Hatto umri davomida momolik qilib o'tgan ayrim ayollar keksayganda o'zi yaxshi ko'rgan biror ayol qarindoshiga (qiziga, keliniga yoki qiz nevarasiga) tirikligimda qo'limni ol deb, yo kaftlariga, yo og'ziga "tupurib" qo'yishgan. Bunda momolik qiluvchi ayol ish boshlashdan oldin "Maning qo'lim emas, shu kasbi korni qilib o'tganlarning qo'li, maning qo'lim emas, momo pirlarimning qo'li" deb aytadilar.

Bolalar va ayollarga xizmat ko'rsatuvchi ayollar momolik kasbini, odatda, oilasidagi katta ayollar – onasi yoki buvisidan, ammasi yoki xolasidan meros sifatida qabul qilib oladilar va uni ixlos bilan ado etishga urinadilar. Aks holda momo ruhlar ranjib, o'ziga ozor yoki shikast yetkazishi mumkinligiga ishonadilar.

Momo kasbi haqidagi qarashlar turkiy xalqlarning, shu jumladan, o'zbek urug'larining qadimiy shomonlik e'tiqodlarini ham o'zida yorqin aks ettiradi. Xalqimiz orasida momolar haqida turli shomon hikoyalari tarqalgan. Ularda qanday qilib ayol-shomonning momo tasarrufiga tushib qolgani, momo unga nima uchun homiylik qila boshlagani hikoya qilinadi.

Shomonlarni hozirgacha xalq orasida folbin, qushnoch, baxshi, paridor, **momodor**, muakkildor, sohibdor deb yuritishlari ma'lum. Xullas, momo shomonlar homiysi hisoblanadi. Odamlar momolar shomonlarga xizmat qiladi, uning turli topshiriqlarini bajaradi, deb hisoblaganlar.

Momo-shomonlar, odatda, yo tug'dirish, yo kasallikni davolash bilan shug'ullanadilar. Ular kasalning boshi atrofida alas qiladilar. Kinna, suq haydaydilar, bolalarni "qo'l-oyoq" qiladilar. Ko'z og'rig'ida xaf-uchuq, kinna-pufuchuq qiladilar, tomoq bosadilar, yurak ko'taradilar. Bular bilan ba'zi momolar alohida-alohida kasb sifatida shug'ullanadilar. Yurak ko'taruvchilarni Buxoroda "dilbardor", kinna haydovchilarni Surxondaryoda "kinnakash", tomoq bosuvchilarni "gulagir" deydi.

Momo – doyalik bilan o'tmishda faqat ayollar shug'ullanishgan. (Hozir esa tug'ruqxonalarda erkaklar ham akusher-ginekolog kasbida ishlamoqdalar.) Lekin kinnachilik, badikxonlik bilan ayollar bilan bir qatorda erkaklar ham shug'ullanaverishadi.

Momo doiyalar bolani ajina va alvastidan himoya qilish, saqlab qolish uchun turli irimlarni bajaradilar: a) ona ko'kragi og'rib qolsa, uni o'lik yuvilgan qo'lqop bilan emlaydilar;[5] b) bolaga qo'yilgan birinchi ismni o'zgartiradilar; v) bolaga atab chiroq yoqadilar; g) bolani tol yoki mevali daraxt novdalari orasidan o'tkazadilar; d) alas qiladilar; ye) isiriq tutadilar va hokazo.

Doira momo-shomonlarning ekstaz holatga tushishidagi asosiy vosita sanaladi.[6] Shuning uchun xalq qo'shiqlarida ba'zan doira obrazining yonida momo obrazi ham qo'llanganligi kuzatiladi:

Doirani chaling, jon momo,  
O'yinga tushsin qiz bola.[7]

M.S.Andreev, O.A.Suxareva, Yu.V.Knorozov, G.P.Snesarev Bibi Seshanba, Bibi Mushkulkushod, Jo'mard qassob, Ambar ona, Hubbi kabilarni O'rta Osiyolik muqaddas personajlar qatoriga kiritadilar.[8] Darhaqiqat, xalqimiz orasida ularga sig'inishning alohida an'analari mavjud bo'lib, hatto bizgacha saqlanib kelayotir.

O.Murodov Bibi Seshanba hamda Bibi Mushkulkushodni kult deb ko'rsatadi va ularga ishonch O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan keng yoyilganligini alohida ta'kidlab o'tadi.[9]

Matriarxat (onalik hukmronligi) davrida qabilalarda kekxa ayollar urug'ga boshchilik qilgan va urug'ning shomoni sifatida tan olingan. Hamma ularning maslahati va yo'l-yo'rig'iga ko'ra ish



yuritgan. Xususan, qabiladagi qizlar ularning nazorati va ko‘magi ostida katta hayotga yo‘llanma olishgan. Shuning uchun o‘sha davrlarda shakllangan marosimlarda momo kultiga sig‘inish yetakchilik qiladi. Shomon murojaatlarida ham momo obraziga alohida urg‘u qaratiladi.

Bibi yoki momolar ruhiga sig‘inib o‘tkaziladigan marosimlarining kelib chiqish ildizlari qadimgi animistik tushunchalarga hamda magik, shomonistik qarashlarga borib taqaladi. Bundan esa ularning islomgacha shakllangan qadimiy marosimlardan biri ekanligi, faqat islom hukmronligi davrida ularning mazmuniga islomiy tushunchalar singdirilganligi va shu tarzda bu marosimlarning ma‘lum o‘zgarishga uchraganligi ravshanlashadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek folklorida Momo kultiga ishonchni ifoda etuvchi bir qator mifologik obrazlar mavjud bo‘lib, ular qadimgi ajdodlarimizning momo homiy ruh, ona ajdod kultiga mifologik ishonchini ifoda etadi. Momo kulti tushunchasida ayol ajdodlar ruhining homiyligi nazarda tutiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Басилов В.Н. Культ святых в исламе. – М.: Мысль, 1970. – С.10.
2. Фирштейн Л.А. О некоторых обычаях и поверьях, связанных с рождением и воспитанием ребенка у узбеков Южного Хорезма // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978. – С. 190.
3. Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зерафшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.105.
4. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.79.
5. Наврўз: Наврўз билан боғлиқ қўшиқлар, афсоналар, одатлар ва иримлар / Тузувчилар: Т.Мирзаев, М.Жўраев. – Т.: Фан, 1992. – Б.29.
6. Қаямов О.С. Ўзбек шомон маросимлари фольклори (спецификаси, генезиси, жанрлар таркиби ва поэтикаси): Филол. фан. доктори (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б.100.
7. Сухарева О.А. Духи момо (момохо) // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.18-19.
8. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклорининг жанрий таркиби, генезиси ва бадийяти: Филол. фан. док-ри...дисс. – Т., 2005.

#### NOSIR FOZILOV O‘ZBEK BOLALAR PROZASINING ISTE‘DODLI VAKILI

*Jaxongir Lutfullayev,  
JDPU v.b dotsenti, (PhD)*

**Аннотация.** Ushbu maqolada o‘zbek bolalar prozasining iste‘dodli vakili Nosir Fozilov ijodining oziga xos xususiyatlari, adabiy-estetik qarashlari, adib ijodining o‘zbek bolalar adabiyotida tutgan o‘rni kabi masalalar tadqiq qilingan.

**Калит so‘zlar.** Bolalar adabiyoti, badiiy ijod, ijodiy yondashuv, qissa, biografik metod.

**Аннотация.** В данной статье изучаются уникальные особенности Насира Фозилова, талантливого представителя узбекской детской прозы, его литературно-эстетические взгляды, а также роль писателя в узбекской детской литературе.

**Ключевые слова.** Детская литература, художественное творчество, творческий подход, повесть, биографический метод.

**Annotation.** In this article, the unique features of Nasir Fozilov, a talented representative of Uzbek children's prose, his literary and aesthetic views, and the role of the writer in Uzbek children's literature are studied.

**Keywords.** Children's literature, artistic creativity, creative approach, story, biographical method.

“Yozuvchi shaxsini, fe'l-atvorini uning asariga qarab bemalol bilish mumkin. Muallif qanchalik sofdil, samimiy bo'lsa, kitobi ham shunchalik hayajonli, ta'sirchan bo'ladi.

Buning ajablanarli joyi yo'q. “Farzand” “otasi”ga tortadi-da!” [3.187]

Ana shunday samimiy, sofdil inson, o'zining qator hikoya, qissalari bilan o'quvchilar qalbiga hayajon sola olgan ijodkorlardan biri, shubhasiz, bolalar yozuvchisi Nosir Fozilovdir.

Yozuvchi asarlarini o'qir ekansiz, asar qahramonlarining samimiyligi, mehnatkashligi, hayotga bo'lgan intiluvchanligi diqqatingizni tortadi.

Badiiy asar yozish, xalqni shu asarlari orqali ergashtira olish ijodkordan teran tasavvur, mushohadakorlik, kuzatuvchanlik, tinimsiz mehnat, mashaqqatni talab etadi. Chunki badiiy asarda tilga olingan mavzu real voqelik bilan mos kelishi, qahramonlar xarakteri, ichki dunyosi tasviri obraz mantig'iga mos kelishi lozim. Kattalar uchun ijod qilish qanchalik mas'uliyatli bo'lsa, bolalar uchun asar yaratish yana-da mashaqqatni talab etadi. Chunki biror qiziqarli voqeani tasvirlab qo'yishning o'zi bilan bolalarni ishontirib bo'lmaydi. Bolalar yozuvchisi bo'lish, ular uchun asarlar yozish uchun bola bo'la olish kerak. Jilla bo'lmasa, bolalarcha tasavvur qilish, bolalarcha fikrlash lozim bo'ladi. Shunday yozilmagan asar, hech shubhasiz, “adressiz” asar bo'lib qoladi.

Bolalar uchun yartilgan asarlarda qiziqarli sujet bilan birga, shu asardan kutiladigan tarbiyaviy jihat ham ustuvor bo'lishi kerak. Bola asarni o'qish orqali undan nimadir olishi, ma'naviy ozuq ola olishi kerak.

Yozuvchi o'z tarjimai holidi: “Mening tavallud topgan yillarim mamlakatimiz tarixining eng alg'ov-dalg'ovli kezariga to'g'ri keldi. Ya'ni, 1929 –yili kamina yorug' dunyoga kelgan davrda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish tadbiri avj olgan ekan. Undan buyog'i ocharchilik (1930-33), mamlakatni yot unsurlardan tozalash bahonasida qama-qama (1937-38), Ikkinchi jahon urushi (1941-45) yillari... Bundan keying davrlarda ham odamlarimizning kundalik hayoti ancha yillargacha vayronaligicha qolaverdi. Urushdan charchab chiqqan mamlakatni qayta tiklash, (1950) tag'in mamlakatni yot unsurlardan tozalash bahonasida millatimizning guli hisoblanmish ziyolilarni qatag'on qilishdi. Mana shu suronli davrlarga qarab, bizning bolaligimiz qanday kechganini tasavvur qilsangiz bo'ladi” [1],-deya eslaydi.

Ana shunday ayanchli bolalik Nosir Fozilovni yozuvchi bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas. Aytishadi-ku, yaxshi ijodkor bo'lish uchun ayanchli taqdir kerak deb. Qolaversa, Nosir Fozilovda qishloqning qalbi ham mavjud.

Nosir Fozilov 1929-yil Turkiston shahrining biqinida joylashgan Koriz qishlog'ida dunyoga kelgan. Yozuvchining “Adabiyot yasalmaydi, yaratiladi” nomli maqolasida “Men o'n yoshga to'lganimda, ya'ni 1932-33 –yillari qishlog'imizning yarim aholisini ilgari chorvamiz yoyiladigan yoyilma joyga ko'chirib, kolxozlashtirildi”,-degan jumla keltirilgan. Yozuvchi haqiqatdan ham 1929-yil dunyoga kelgan bo'lsa, 1932-33-yillarda 3-4 yosh bo'lishini e'tibordan qoldirmaslik zarur. Demak, yozuvchining tug'ilgan yili aslida hujjat bo'yicha shunday bo'lsa-da, aslida biroq ilgariroq tug'ilgani ehtimoldan holi emas.

Yozuvchi boshlang'ich ta'limni o'zi aytganidek, bolaligi kechgan shahardan yigirma chaqirimlar narida joylashgan biyday dalada- jonajon qishlog'ida oldi.

Nosir Fozilov oilasi bilan ko‘chib o‘tgan Yoyilma degan qishloqda 70-80 chog‘li xonadon ahli chorva bilan shug‘ullangan. Ijtimoiy hayot og‘ir bo‘lganligi sababli maktab yoshidagi bolalar maktabga borishga havasdan ko‘ra qorin qayg‘usi bilan qattiq bog‘langan. Hamma ana shu dardda kimdir mol boqqan, yana kimdir eshak karvon tuzib, shaharga don tashigan.

Yozuvchi asarlarida ana shu lavhalar o‘z izini qoldirgan. “Saraton” qissasidagi To‘ra, Kamolalar hayoti buning yorqin dalilidir. Asarda front orti hayoti tasvirlangan. Ishchi kuchi yetishmasligi natijasida Kamola G‘iyos aka, To‘ralar bilan birga chang yutib, molning orqasidan yurishi, eski pufaykaga o‘ralib yuraverganidan G‘iyos aka uning qiz bola ekanini unutib, Kamol deb chaqiradi, hatto To‘ra ham uning bo‘y qiz ekanini bilmasligi tasvirlanadi.

Nosir Fozilov ana shunday og‘ir sharoitda ham kitobga bo‘lgan mehri bo‘lakcha bo‘lganligini shunday eslaydi: “Biroq kitobxonlik tuyg‘usi kuchli edi. Odamlar o‘qish-yozishni deyarli bilmasalar-da, menga o‘xshagan 7-8 yoshdan maktabga borib, sharillatib o‘qishni qoyillatadigan bolalarga kechalari xalq dostonlari – “Go‘ro‘g‘li” turkumidan “Hasanxon”, “Ravshanxon”, “Avaxxon” dostonlarini takror va takror o‘qitishdan, sel bo‘lib tinglashdan charchashmasdi. Keyinchalik angladimki, ular shu dostonlarda ushalmagan armonlarini ko‘rishar, ular bilan birga tug‘ilib, birga yashab, g‘am-hasratlarini unutishar ekan. Adabiyotning kuchini qarang-a!” [1]

Ana shu dostonxonliklar yosh Nosir Fozilovni ijodkor bo‘lib shakllanishida dastlabki pillapoya bo‘lib xizmat qilgan.

Fashizm urushi boshlanganida Nosir Fozilov o‘n ikki yoshda bo‘lgan. Front orqasidagi xalq ahvoli, fidokorona mehnati, jasoratini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, jangchilarning mardona kurashini yurakdan his etgan, o‘rta maktabni bitirib kelgan Nosir Fozilov urushdan keyin to 1949-yilgacha tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ida goh suvchi, goh kultivatorci, goh tabelchi, goh o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. Yozuvchining ko‘pgina qissa va hikoyalarining mazmunini o‘zi ko‘rgan, bilgan, his qilgan voqealar, odamlar tashkil etadi. Yozuvchi bilmagan, his qilinmagan narsa haqida yozsa, yolg‘on bo‘lib qoladi, deb hisoblaydi. Fikrimizni “Qorxat” qissasi bilan dalillaymiz. Asar asar qahramoni Sog‘indiq yozuvchi bo‘lmoqchi ekanligini aytishi bilan boshlanadi. Diqqatimizni asarning “O‘zim haqimda” deb nomlangan bobiga qaratamiz. “Gapni chozib o‘tirishni yoqtirmayman. Qisqa qilib aytib qo‘a qolay: yozuvchi bo‘lmoqchiman. To‘g‘risi, ilgari yozuvchilikdan sal ko‘nglim qolgan edi”. [2.8] Ko‘ngli qolishining sababi asar qahramoni Sog‘indiq o‘ziga “Shoir Sog‘indiq Qurboniy” deb taxallus qo‘yib, bir necha she‘rlarini nashryotga yuboradi. Bosilmaydi. Kutadi, kutadi bosilmaydi. Redaksiyadan she‘rlari bosilmasligi haqidagi xatni olib, hafa bo‘lib, shoirlikdan ko‘ngli soviydi.

“Qorxat” qissasidagi ba‘zi fikrlar yozuvchining ijodiy prinsipiga, konsepsiyasiga o‘xshaydi.

Asarda tasvirlangan o‘zini jurnalist Jo‘ra Parpiyev deb tanishtirgan dadasining do‘sti bilan bo‘lgan suhbatga diqqatimizni qaratamiz.

“- She‘rni tuzuk yozar ekansiz,- deb qoldi. Yalt etib u kishiga qaradim.-Ha, tuzuk yozar ekansiz. Prozangizni ham ko‘rib chiqdim. To‘g‘risini aytsam, poeziyangizdan ham prozangiz ma‘qulroq ko‘rindi menga. Nazarimda bir kamchiligingiz bor: o‘zingiz bilmagan, his qilmagan narsalarni yozar ekansiz. Mana: kosmodrom haqida she‘r yozibsiz. Qani, ayting-chi, sis uni ko‘rganmisiz?

-Yo‘q...

-Mana ko‘rdingizmi? Ko‘rmagan, bilmagan narsani yozsangiz, yozgan asaringiz qo‘polroq qilib aytganda, yolg‘on bo‘lib qoladi. To‘g‘ri, ko‘rmay turib yozilgan asarlar adabiyotimizda ko‘p. Buning uchun avval bilim, mahorat, o‘tkir tasavvur kerak” [2.12].

Bu soʻzlar yozuvchiga, asarlariga ijodiy prinsip deb aytilish mumkin. Chunki yozuvchi barcha qissa va hikoyalarda tasvirlangan voqealar, qahramonlar xarakteri koʻrgan, kuzatgan, chuqur tasavvur qilingan ijodiy mehnat samarasidir. Yozuvchi Oʻtkir Xoshimov aytganidek, kuldirish uchun kula olish, yigʻlatish uchun yigʻlay olish lozim.

Biror kitobdagi retsept orqali shirinlik yoki taom tayyorlash mumkin, kitob orqali mashina tuzatishni, biror chet tilini oʻrganish mumkin, lekin yozuvchi biror kitobni oʻqib yozuvchi boʻla olmaydi. Chunki yozuvchilikni oʻrgatib boʻlmaydi. Yaxshi asar yozuvchining tinimsiz mehnati, izlanishlari, mahorati orqali yaratiladi.

“Qorxat” qissasida Sogʻindiq ham shunday xulosaga keladi: “Ishonsangiz, shu kundan boshlab, nuqul yozgim keladi. Ammo nimani, qaysi koʻrgan narsamni? Boshim qotdi. Keyin yozishni oʻrganish maqsadida besh- oltita kitob oʻqib chiqdim. Afsuski, birontasida ham “mana bunday qilib yozgin!” degan gapni topolmadim” [2.13].

Yozuvchi biror narsadan ilhomlansa, shu narsa yozuvchini qiynasa, yozmasa tura olmaydigan dardga aylansa, ana shunda yaxshi asarlar yuzaga keladi. Nosir Fozilov asarlari ham ana shunday asarlardir.

“Saraton” qissasidagi Toʻra, Kamolalarning qoʻsh haydashi, suvchilik qilishi, gʻoʻza chopishi, oʻroq oʻrishi, xirmon yanchishi, mol boqishi, eshak karvonlar tuzib, shaharga gʻalla tashishi, tabelchilik qilishi- xullas hammasi yozuvchining boshidan kechirganlari, his qilganlaridir.

Nosir Fozilov “Adabiyot yasalmaydi, yaratiladi” nomli maqolasida shunday yozadi: “Goʻdakligimiz ham, bolaligimiz ham, oʻsmirligimiz ham oʻsha davrlarning turmush tashvishlari bilan omuxta kechdi. Koʻrgan-bilganlarimiz murgʻak qalblarimizda bir umrga muhrlanib qoldi. Ozmi-koʻpmi hayotning qadriga yetadigan, uni eʼzozlaydigan odamlar boʻlib ulgʻayganimiz uchun oʻsha davrlarning mashaqqatli saboqlaridan minnatdor boʻlishimiz zarur. Negaki, bolalikda chekkan aziyatlarimiz-u, koʻrgan-bilganlarimiz – hammasi yozgan va yozilajak asarlarimizga material boʻlib xizmat qilyapti va bundan keyin ham shunday boʻlajak” [1].

Nosir Fozilovning adabiyotga boʻlgan qiziqishi boʻlajak yozuvchini 1949-yil Oʻrta Osiyo davlat dorilfununining filologiya fakultetiga boshlab keldi. 1954-yil oʻqishni tugatgach ish faoliyatini “Gulxan” jurnalida, “Yosh gvardiya”, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyotlarda, “Sharq yulduzi” jurnalida turli lavozimlarda ishlagan. Adabiy xodim, kata muharrir, boʻlim mudiri boʻlgan, jurnallarda masʼul kotiblik vazifalarini bajargan.

Yozuvchining birinchi kitobi 1959 -yil “Irmoq” degan nom bilan bosilib chiqqan. Shundan soʻng ketma-ket “Oqim” (1962), “Robinzonlar” (1964), “Qush qanoti bilan” (1965), “Qorxat” (1968), “Koʻklam qissalari” (1970), “Saraton” (1975), “Kichkina demang bizni” (1977), “Diydor” (1979), tanlangan asarlarining ikki jildligi (1983-84), “Shum bolaning nabiralari” (1885), “Ustozlar davrasida” (1988), “Bolaligim – poshsholigim” (1989), “Bir otar toʻpponcha” (1995) kabi kitoblari chop etilgan. Nashr etilgan kitoblari oʻzga tillarga tarjima qilinganlari bilan qoʻshilganda oʻttiztadan oshib ketadi. Boshqa tillardan tarjima qilganlari va oʻzi yozganlarini qoʻshganda yetmish beshdan koʻproq.

Nosir Fozilov qozoq adiblaridan Abay, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Gʻabit Musrepov, Gʻabiden Mustafin, Abdulla Tojiboev, Abdijamil Nurpeisov, Sherxon Murtazoev, Taxani Axtanov, Qaltoy Muhammadjonov, Qalnubek Tursunqulov, Xoldorbek Naymanboev, Sayn Murodbekov kabilarning mashhur asarlarini, bulardan tashqari talaygina qirgʻiz, qoraqalpoq yozuvchilarining kitoblarini oʻzbek tiliga tarjima qilib kitobxonlarga hadya etgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Nosir Fozilov. Adabiyot yasalmaydi, yaratiladi. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

2. Nosir Fozilov. Saraton. Qissalar. Qorxat. Toshkent. Sharq. 2006-yil.
3. O‘.Xoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. T.: Sharq. 2005-yil.

## ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ВНЕДРЕНИЯ SMART ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*Тухфатуллина Диляра Темуровна,*

*Руководитель отдела методической службы при национальном центре обучения  
педагогов новым методам*

**Аннотация:** В статье освещены вопросы использования SMART технологий, предполагающих реализацию требований Национальной программы по подготовке кадров в Республике Узбекистан.

**Ключевые понятия:** SMART технологии, SMART-образование, педагогический процесс, современное образование, мультимедийная презентация, реализация, гармонически развитая личность.

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini amalga oshirishni ko‘zda tutuvchi SMART texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** SMART texnologiyalar, SMART-ta’lim, pedagogik jarayon, zamonaviy ta’lim, multimediyali taqdimot, amalga oshirish, shaxsning uyg‘un rivojlanishi

**Annotation:** The article describes the use of SMART technologies, which provides for the implementation of the requirements of the national personnel training program of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** SMART technologies, SMART education, pedagogical process, modern education, multimedia presentation, implementation, harmonious development of personality.

Широкое использование новых образовательных и информационных SMART программы по подготовке кадров в Республике Узбекистан. Для анализа педагогической работы требуется знать критерии педагогического мастерства, которые помогают учителям - новаторам качественно осуществлять педагогический процесс.

Любые образовательные концепции и новшества в системе требуют для своей реализации определенной системы действий. Если же эта система достаточно вариативна, многопрофильна и гибка, ее чаще всего называют – методической, если же она задается в более или менее алгоритмической последовательности с расчетом на получение точного результата, ее называют – технологией.

Если проанализировать любую технологию обучения, то можно заметить, что в них используются различные методы обучения. Но особенность SMART технологии в том, что все это соединено вместе и дает эффективный и интересный результат работы не только учителей, но и учеников.

К основным принципам SMART-образования относятся:

1. Использование в образовательной программе актуальных сведений для решения учебных задач: скорость и объем информационного потока в образовании и любой профессиональной деятельности стремительно нарастает, существующие учебные материалы необходимо дополнять сведениями, поступающими в режиме реального времени, для подготовки учащихся к решению практических задач.

2. Организация самостоятельной познавательной, исследовательской, проектной деятельности учащихся. Данный принцип является доминирующим при подготовке детей к творческому поиску решения поставленных задач, самостоятельной информационной и исследовательской деятельности.

3. Реализация учебного процесса в распределенной среде обучения. Образовательная среда не должна ограничиваться территорией учебного заведения или пределами системы дистанционного обучения. Процесс обучения должен быть непрерывным.

4. Гибкие образовательные траектории, индивидуализация обучения. Многообразие образовательной деятельности требует предоставления широких возможностей для учащихся по изучению образовательных программ и курсов, использованию инструментов в учебном процессе в соответствии с их возможностями здоровья, материальными и социальными условиями.

В школах и других образовательных учреждениях Smart Education (умное образование) – концепция, которая предполагает комплексную модернизацию всех образовательных процессов, а также методов и технологий, используемых в этих процессах, что позволяет по-новому построить процесс разработки контента, его доставки и актуализации.

Что обеспечивает?

- ❖ Обучение в режиме онлайн
- ❖ Обучение в неформальной обстановке
- ❖ Дистанционное обучение
- ❖ Мобильное образование

В целом, SMART-образование - образовательная парадигма, которая предполагает адаптивную реализацию образовательного процесса, возможную на основе использования информационных SMART-технологий. На пути создания системы SMART-образования много трудностей, которые предстоит преодолеть, прежде всего силами преподавателей, имеющих глубокие знания в области IT технологиях и в предметных областях.

Как могут помочь обучению смартфоны, мобильные телефоны, планшеты и другие умные устройства?

В образовательной практике школьников мобильные технологии используются для:

- ✓ получения информации из интернет-энциклопедий;
- ✓ поиска необходимой информации;
- ✓ перевода слов или фраз через программу-переводчик;
- ✓ визуализации информации;
- ✓ просмотра видеолекций
- ✓ тестирования или анкетирования в режиме онлайн;
- ✓ проведения различных лабораторных экспериментов.

Широкое распространение SMART-обучения связано, **во-первых**, с совершенствованием интернет-технологий.

**Во-вторых**, с развитием беспроводных технологий, таких как Wi-Fi, 3G, 4G, 5G ... и, в-третьих, широкой распространённостью в сети интернет интерактивных обучающих ресурсов.

Основой формирования Smart Education послужило также развитие технологий Web 2.0 (Приложение 1.), таких как Facebook, YouTube, Twitter и блоги, которые позволяют людям создавать собственный интернет-контент.

А как применять возможности технологии Web 2.0 в педагогической практике?

На этот вопрос есть ряд ответов:

- ✓ самостоятельное создание учебных материалов;
- ✓ общение с родителями своих учеников (ЭЖ, соц. сети);
- ✓ профессиональное развитие и обучение (Интерактивная доска SMART Boards, ПО SMART Notebook, Smart Classroom Suite - программное обеспечение, помогает учителям и ученикам создавать материалы для интерактивного обучения с использованием пакета программ, специально разработанного для совместной работы).

Уже стало нормой проведение учебных занятий с использованием мультимедийных презентаций, сделанных в таких программных пакетах, как Microsoft Power Point или Macromedia Flash. Однако, наряду с привычными презентационными технологиями (Microsoft Power Point, Macromedia Flash), в сферу образования проникают новые, так называемые, интерактивные технологии, которые позволяют уйти от презентации в виде слайд-шоу.

Новая форма подачи материала с помощью интерактивного оборудования, например, интерактивной доски SMART Boards, представляет собой презентацию, создаваемую докладчиком во время своего выступления - презентацию, создаваемую здесь и сейчас. На интерактивных досках SMART Boards можно писать специальным маркером, демонстрировать учебный материал, делать письменные комментарии поверх изображения на экране. При этом все написанное на интерактивной доске SMART Board передается учащимся, сохраняется на магнитных носителях, распечатывается, посылается по электронной почте отсутствующим на занятии. Учебный материал, созданный во время лекции на интерактивной доске SMART Board, записывается встроенным видеорекордером и может быть многократно воспроизведен.

Таким образом, педагог и ученики становятся равноправными участниками образовательного процесса: всем в одинаковой степени доступна необходимая информация и каждый дополняет общий вывод исследования результатами своей работы.

Современное образование без использования гаджетов в своих новых подходах преподавания сложно представить. Для того чтобы создать из гаджета SMART-инструмент для обучения необходимо установить дополнительное программное обеспечение. При этом возникает ряд вопросов: Какое программное обеспечение необходимо установить в смартфон или планшет? Как это сделать?

Для решения этих вопросов система Google предлагает приложение «Play Маркет», с помощью которого устанавливается любое SMART-приложение на мобильное устройство.

Play Market – это приложение, установленное в стандартных средствах мобильной операционной системы Android смартфонов и планшетов. Для того чтобы пользоваться данным приложением необходимо зарегистрировать аккаунт в системе Google. Зарегистрированные пользователи получают доступ ко всем сетевым приложениям системы Google. Приложение предлагает пользователю широкий спектр категорий, как для досуга, так и для обучения.

Для каждого учебного предмета существует огромное количество приложений.

Действительно, в формате мобильного обучения можно сделать очень многое, но, чтобы мобильное обучение было по-настоящему успешным, учебный контент нужно либо специально создавать для этого формата, либо тщательно адаптировать. В процессе принятия решений по использованию компьютеров, планшетов или других технических средств обучения необходимо руководствоваться правилом: учит не устройство, а преподаватель. Гаджет же только помогает и делает процесс обучения более эффективным и интересным. Их главный потенциал состоит в простой адаптации к учебной программе и возможности его использования учителем на уроке.

Применение Smart-технологий в обучении школьников неоднозначно. Много проблем связанных с отсутствием единого подхода, концепции, технического обеспечения, наличия платного контента и т.д. Но время таково, что отношение к Smart – технологиям как к чему-то фантастическому должно смениться серьезной работой и практическими шагами по использованию полезных ресурсов Сети в образовательных целях.

#### ЛИТЕРАТУРЫ

- Алексеева, Л. Н. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л. Н. Алексеева// Учитель. - 2004. - № 3. - с. 78.
- Тихомиров В.П. Мир на пути Smart Education: новые возможности для развития // Открытое образование. 2011. - № 3. - С.22-28.

#### MATN – NUTQNING MUKAMMAL IFODASI SIFATIDA

*Sanoyeva Muhtabar Nabiyevna,*

*Navoiy shashar 12-IDUM*

*ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,*

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Аннотация.** Bugungi o‘quvchining kasbiy kompetentligi fanga oid innovatsion texnologiyalar, darsni tashkil etishning zamonaviy shakllari, metod va usullaridan xabardorligi, pedagogik faoliyat jarayonida to‘g‘ri qarorlar qabul qilish layoqatiga egaligi bilan belgilanadi.

**Калит so‘zlar:** iqtisodiy, texnik-texnologik, ijtimoiy, madaniy sohalar, ta‘lim, didaktika, matn, matn mazmuni.

**Аннотация.** Профессиональная компетентность сегодняшнего школьника определяется его осознанием инновационных технологий в науке, современных форм, методов и приемов организации урока, умением принимать правильные решения в процессе педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** экономическая, технико-технологическая, социальная, культурная сферы, образовательная, дидактическая, текстовая, содержание текста.

**Annotation.** The professional competence of today's student is determined by his awareness of innovative technologies in science, modern forms, methods and techniques of lesson organization, the ability to make the right decisions in the process of pedagogical activity.

**Keywords:** economic, technical and technological, social, cultural spheres, educational, didactic, textual, text content.

Matn kabi yirik lisoniy birlikda ifodalanayotgan fikrning mantiqiyliги, har bir mulohazaning bir-birini to‘ldirgan holda berilishi va bir butun g‘oyani ifodalashga xizmat qilishi nutq maqsadining bosh sharti hisoblanadi. Bu, odatda, matn uchun tanlangan mavzudan kelib chiqadi.



Albatta, bunda matnda bayon qilinayotgan axborot-ma'lumotlarning grammatik jihatdan qanday bayon etilishiga ham bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, matn ma'lum bir shaxs tomonidan ayrim voqea-hodisa, ko'rinish, narsa-buyumni izchil tasvirlash yoki tavsiflash maqsadida tuzilgan gaplardan, shuningdek, biron-bir voqea-hodisa, narsa-buyum yoki shaxs haqida oddiy axborot bayonidan yoki ularga nisbatan o'z munosabatini ham bildiradigan ijodiy-tasviriylikdan iborat bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra matnlar mazmunan **bayoniy matn** va **tasviriy matnlarga** bo'linadi. Bayoniy matnda voqea yoki buyum haqidagi axborot izchil bayon qilinadi. Tasviriy matnda esa muallif voqea, buyum yoki qiyofani ijodiy yondashib, o'z munosabatini bildirgan holda badiiy vositalar yordamida tasvirlyadi. Shuningdek, mulohaza yuritishni talab qiluvchi alohida matn turi ham mavjud bo'lib, bunday matnlar **muhokama matnlar** deb ataladi. Bunday matnlarda asosiy fikr turli dalillar bilan isbot qilinishi va oxirida xulosa qismi berilishi kerak bo'ladi.

Ko'rinadiki, matn turlari mazmuniga ko'ra farqlansa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat fikrning yakka shaxs tomonidan bog'lanishli izchil bayon etilishidir. Shu bois matn barcha tadqiqotlarda monologik nutq turi sifatida tavsiflanadi. Biroq nafaqat monologik nutq turlari, balki ularning funksional xususiyatlari, monologik nutqqa oid ko'nikma, malakalar to'g'risidagi qarashlar ham bir xil emas. Jumladan, I.L.Bim bog'lanishli monologik nutqning quyidagi to'rt turini ajratadi:

1. Axborot berish – biror xabar yoki ma'lumotni gaplarni mantiqiy izchillikda bog'lagan tarzda va turli dalillar vositasida bayon etish.

2. Hikoya qilish – muayyan nutqiy qurilmalardan foydalangan holda o'zi, do'sti, maktabi, shahri, qishlog'i haqida so'zlab berish.

3. Tasvirlash – sifatlovchi iboralardan foydalanib, tabiat, joy-makon, qiyofani tasvirlash.

4. Tavsiflash – fikrini asoslagan holda biror shaxsga tavsif berish<sup>1</sup>.

L.V.Volkova esa monologik nutqni xarakteri va kommunikativ-nutqiy maqsadiga ko'ra olti xil: bayon etish – biror narsa-buyum yoki shaxsning belgi-xususiyatlarini bayon qilish; tavsiflash – kimningdir yoki nimaningdir ayrim jihatlarini sifatlab berish; axborot berish – biror voqea-hodisani dalillar yordamida xolis bayon etish; hikoyalash – biror voqea-hodisani syujet asosida hikoya qilish; taqriz – kimningdir asari, tadqiqoti, kashfiyoti haqida o'z fikr-mulohazasini bildirish; hisobot – bajarilgan ish haqida daliliy ma'lumot berish turlariga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi va ularni ifoda maqsadiga ko'ra ikki turga guruhlaydi:

1. Axborot tipidagi monologlar. Ularga qaysidir xabarni tinglovchiga yetkazishga qaratilgan monologik nutq turlarini kiritadi.

2. Ishontirish xarakteridagi monologlar. Ushbu turga tinglovchini aytilayotgan fikrning to'g'riligiga ishontirishga undovchi monologik nutq turlarini kiritadi<sup>2</sup>.

Metodik tadqiqotlarda ham monologik nutq turlari keng o'rganilgan va ularning turlari ancha chuqur tavsiflangan. Jumladan, Yu.S.Zagrayskaya monologik nutq turlarini to'rt guruhga ajratib, ularning har biriga quyidagicha ta'rif beradi:

1. Monolog-bayon (bayoniy monolog) – o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lgan o'zaro mazmuniy bog'liqlikdagi gaplar vositasida muayyan obyekt belgilarini sanab ko'rsatish orqali bayon etish.

2. Monolog-hikoya – bog'lanishli gap tuzilmalari yordamida voqea-hodisa va harakatlarning muayyan vaqt ichidagi izchilligini bayon etish.

<sup>1</sup> Бим И.Л., Леонтьев А.А и др. Общая методика обучения иностранным языкам. – М., Изд. Русский язык, 1991. – 215 с.

<sup>2</sup> Волкова Л.В. Обучение грамматически правильной речи литературно-разговорного стиля на 2 этапе языкового вуза (франц. язык): дисс. канд. пед. наук. – М., 1985. – 27 с.

3. Monolog-ishontirish – tinglovchida muayyan harakat-holatga nisbatan ayrim mulohazalar, fikrlar uyg‘otishga qaratilgan bog‘lanishli gap tuzilmalari.

4. Monolog-muhokama - ayrim bir voqea-hodisani dalillashga qaratilgan sabab-natija ma’nolarini ifodalovchi bog‘lanishli gaplar<sup>1</sup>.

O‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, monologik nutqni mazmuni va nutqning tayyorlik darajasiga ko‘ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

I. Nutq mazmuniga ko‘ra:

1. Bayon – shaxs, narsa-buyum, voqea-hodisani tasvirlash.

2. Xabar (axborot) – biron-bir ijtimoiy-siyosiy mavzudagi fikrni bog‘lanishli ifodalash.

3. Hikoya – voqea-hodisalarni ma’lum izchillikda tushuntirish, sabab-natija munosabatlarini ham aks ettirish<sup>2</sup>.

T.Ziyodova monografiyasida 5-9-sinflar ona tili darsliklarida o‘rganiladigan matnlarni quyidagi turlarga bo‘lishni tavsiya etadi:

1. Rivoyat matnlar (ular Sharq faylasuflarining ilmiy merosi, dunyoqarashi aks etgan ma’naviy-ma’rifiy matnlarni qamrab oladi).

2. Tasviriy matnlar (ularga tevarak-atrofnii, narsa-buyumlar, shaxsning tashqi ko‘rinishi va psixologik-ruhiy holatini nazmiy va nasriy ko‘rinishda tavsiflovchi matnlarni kiritadi).

3. Muhokama matn (turli mavzularda yaratilgan ilmiy va badiiy matnlarga munosabat bildirish aks ettirilgan matnlar).

4. Ilmiy-grammatik matnlar (ona tili fanidan egallangan bilimlarning nazariy talqini va egallangan BKMLarni mustahkamlashga qaratilgan matnlar).

6. Ma’rifiy matn (mashhur shaxslar hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati, madaniy merosi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan matnlar).

7. Ixtisosiy matn (muayyan kasb-hunar, ilm-fan, texnikaga oid atamalar ishtirokida shu soha yo‘nalishida yaratilgan matnlar).

8. Munshaot matnlari (rasmiy ish yuritishga oid hujjatlar matnlari).

9. Nazmiy matnlar (muayyan qofiyalangan tuzilma asosida yaratilgan she’riy asarlar matni)<sup>3</sup>.

Biroq ushbu tasniflashda matnning mazmunii va tuzilmavii turlari aralashib ketganligini ham qayd qilib o‘tish joiz, deb o‘ylaymiz.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta’minlash – so‘z boyligini oshirish, nutqii mahoratini shakllantirish, turli mazmun va shakllardagi badiiy, ma’rifiy, munshaot matnlari ustida ijodiy ishlashga o‘rgatish, egallagan bilim, ko‘nikma, malakalari asosida mustaqil matn yaratishga yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, bu ona tili ta’limi samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri sanaladi. Zero, mustaqil yaratilgan matn – o‘quvchi tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqelanishi, uning ijodiy fikrlarining yuzaga chiqishi va muayyan mavzuga bog‘liq shaxsiy qarashlari aks etgan mustaqil g‘oyalarining kashf etilishidir. Boshqa tomondan, o‘quvchini mustaqil matn yaratishga o‘rgatish, matn ustida ishlash orqali ta’lim oluvchilarda kommunikativ savodxonlik layoqatini shakllantirish natijasida boshqa fanlardan o‘zlashtirayotgan bilim, ko‘nikma, malakalarini to‘liq anglab yetish va boshqalarga mustaqil tushuntira bilish, o‘z ijodiy fikrlarini, g‘oyalarini yetkaza olishdek kreativ xislatlarni tarbiyalashga ham yordam beradi.

<sup>1</sup> Заграйская Ю.С. Методика интегрированного обучения английскому языку и зарубежной литературе на занятиях по домашнему чтению: дисс.... канд. пед.наук. – Иркутск. 2009. –134 с.

<sup>2</sup>Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fan. b-cha fals. dokt. (PhD) .... dis-yasi. –Toshkent, 2019. – 29-b.

<sup>3</sup> Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. –Toshkent, Fan. – 2008. – 38-b.

O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va erkin muloqot yurita olishga o‘rgatishda aynan ona tili ta’limining o‘rni, ahamiyati nihoyatda ulkanligi, ona tilidan olingan bilim, ko‘nikma, malakalar barcha fanlarni o‘rganishda mustahkam zamin bo‘lishi, nutq madaniyatini shakllantirishning muhimligi umumiy o‘rta talim maktablarida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi oldiga o‘quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish va kommunikativ savodxonligini ta’minlash borasida quyidagi o‘ta dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda:

- o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, o‘rinli ifodalashga o‘rgatish;

- ona tili ta’limi mazmunini takomillashtirish, darsliklardagi o‘rganilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash mashqlari va ularning shartlarini o‘quvchida ijobiy o‘quv motivlarini hosil qiluvchi lingvopsixologik topshiriqlar darajasiga ko‘tarish;

- muammoli o‘quv topshiriqlari orqali o‘quvchini izlanish va kashf qilishga yo‘naltirish, o‘quvchi lug‘at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy mahorati va nutq madaniyatini shakllantirish;

- so‘zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

Aytish lozimki, matn ustida ishlash va matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o‘quv amaliyotiga izchil joriy etish, o‘quvchilarda mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning intensiv-universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan matn yaratishning bosqichli tizimini ishlab chiqish masalasi alohida o‘rin tutadi.

**4-SHO‘BA**  
**ZAMONAVIY FILOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI**

---

**ЭРКИН ВОҲИДОВ БАДИИЙ МАҲОРАТИГА ДОИР БАЪЗИ КУЗАТИШЛАР**

*Мамадов Ҳомиджон,  
Файзуллоев Бахтиёр Бобожонович,  
академик Бобожон Фафуров номидаги ДТМ Хўжанд ДУ доцентлари , филология  
фанлари номзодлари  
(Тоҷикистон)*

**Аннотация:** Мақолада Эркин Воҳидов бадиий маҳоратини кўрсатувчи муҳим воситалардан бири поэтик метафоранинг шоир шеъриятидаги ўрни ҳамда вазифасига эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** бадиий санъатлар, метафора, анъана, адабий таъсир, маҳорат, ғазал, қофия, ташхис, ҳис-ҳаяжон.

**Аннотация:** В статье основное внимание уделяется роли и функции поэтической метафоры в поэзии поэта, одного из важнейших инструментов, демонстрирующих художественное мастерство Эркина Вахидова.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, метафора, традиция, литературное влияние, мастерство, ғазал, рифма, диагноз, эмоциональное возбуждение.

**Abstract:** The article focuses on the role and function of poetic metaphor in the poet's poetry, one of the most important tools demonstrating the artistic skill of Erkin Vakhidov.

**Keywords:** fine art, metaphor, tradition, literary influence, mastery, gazel, rhyme, diagnosis, emotional arousal.

Маълумки, маънонинг ўхшашлик принципи асосида кўчиши метафоранинг муҳим белгисини ташкил этади. Ўхшашлик икки жиҳатдан бўлиши мумкин: Биринчиси:Ташқи ўхшашлик, иккинчиси: Ички ўхшашлик. Ташқи ўхшашлик асосида кўчирилган маънолар: булоқнинг кўзи, чойнакнинг оғзи, тоғнинг бели, дала этаги, ариқ лаби, сувнинг бети, кўчанинг боши ва б., инсон тана аъзоларининг ташқи кўринишига нисбатан метафора усулда ном кўчирилган. Бунда сўзнинг метафорик қўлланиши борлиқ ходисаларининг маълум бир ташқи белги, хусусият-ларини образли англатиш тақозаси билан содир бўлган. Бадиий адабиёт-даги образлилик эса ҳар қандай метафорик қўллашга хосдир.

Ташқи ўхшашлик предмет (кенг маънода) ва унинг белги, ҳаракат- ҳолатларига нисбатан қиёсланган ҳолда содир бўлади. Масалан: Эркин Воҳидовнинг “Манзара” шеърида инсонга хос белги-ҳаракатлар булутдан ёмғирнинг ёғилишига, қушлар учиб кетгач, мажнунтол шохининг енгиллашиб кўтарилишига нисбатан берилган:

Раҳми келиб булутнинг йиғлаб тўкар ёшини,

Қушлар қочар, мажнунтол кўтаради бошини [1;6].

Раҳим қилмоқ, йиғламоқ, кўз ёши тўкмоқ, бош кўтармоқ кабилар инсонга хос ҳаракат – ҳолатлар бўлиб, улар бадиий тасвирда табиат манзарасига кўчирилган. Янада аниқроғи, бундай ходиса мумтоз шеърятда ташхис (жонлантииш) бадиий санъати номи билан аталган. ”Ташхис ҳайвонот ва ноботот, ҳатто жонсиз табиат оламидаги ашёларга инсон учун хос бўлган хусусиятларни( кечинма ҳис-туйғу, ҳатти-ҳаракат) бахш этиб

тасвирлашдан иборат” [2;239]. Ички ўхшашлик предмет – объект ва унинг ҳаракати номларини характерловчи сўзлар онгли равишда инсонга нисбатан унинг табиати ва ҳаракати белгиларини тавсифлашга мўлжаллаб ишлатилиши натижасида ҳосил бўлади. Масалан инсонга нисбатан: ифлос, ярамас, жасур, сахий, шер, арслон, булбул, тўти, эшак, ит, чаён, қарға, илон, махов, мараз, пари, фаришта, сайрамоқ, акилламоқ, бўкирмоқ б. каби лексик бирликлардаги ўхшашлик ташқи белгилар асосида эмас, балки ақл- идрок характер-хусусият ва шу асосида ҳосил бўлувчи белги-ҳаракатлар натижасида юз беради.

Она тилим, сен борсан шаксиз,  
Булбул куйин шеърга соламан.  
Сен йўқолган кунинг, шубҳасиз,  
Мен ҳам тўти бўлиб қоламан [ 9;95 ].

Шеърий парчадаги куй-сайраш, тўти-гўёлик ҳолатлари ташқи ўхшашлик асосида эмас, балки ички ўхшашлик асосида метафора усулида ном кўчирилгандир. Метафора усулида ном кўчиши икки хил кўринишга эга: биринчидан, баъзи метафоралар асосида вужудга келган ном кўчиш ҳодисаси барқарор-турғун бўлса, иккинчидан, баъзилари ўзгарувчан – беқарордир. Ана шу хусусиятларига кўра метафоралар икки турга ажратилгади: 1. Лингвистик метафора, 2.Поэтик метафора.

Лингвистик метафора. Тилшунослик фанида қўлланувчи, умуман халқ онгига сингиб кетган лингвистик метафоралар ифода асосига кўра поэтик метафорага ўхшаса-да, тилдаги ўрнига кўра улардан фарқ қилади. Лингвистик метафора асосида ном кўчиш усуллари маънолари ўзгарувчан эмас, барқарор, доимий характерга эга бўлади. Уларнинг кўчма маънода эканлиги сезилмайди ҳам. Масалан инсоннинг тана аъзоларини ифодаловчи: бош, тиш, оғиз, соч, қош, пешона, бўйин, қўл, оёқ, қорин ва б., предметлар учун тўғридан - тўғри ном бўлиб саналиши мумкин.

Масалан, оёқ лексемаси: сўрининг оёғи, машинанинг оёғи, стулнинг оёғи бирикмаларида шу предметларнинг маълум бир қисми учун махсус ном бўлиб, одамнинг оёғига нисбатан қўлланилган ва лингвистик метафора усулида ном кўчирилган. Инсоннинг оёғи шакл ва функционал ўхшашлиги туфайли юқоридаги предметларнинг қисми ҳам шу ном билан аталган. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да оёқ сўзи:

Одам, ҳавон, қуш ва умуман жонли организмлар гавдасининг таяниб туриши ва юриши ёки ўрмалаши учун хизмат қиладиган аъзо.

Стол,стул, сўри, каравот каби буюмларнинг ерга таяниб турадиган қисми, пояси.

Охир, одоқ маъносида: қиш кунларининг оёғи, кўча оёғи.

Фасл, давр ва ш.к.нинг охири,тугаётган вақти. Куз кунларининг оёғи ва қиш кунларининг боши эди. А.Қодирий, “Ўтган кунлар”.Чет, чекка; қуйи томон; этак. Экинзорнинг оёғи. Ернинг оёғи. Уйнинг, хонанинг эшикка яқин ўрни; пойгак; зид. тўр.

Шунингдек, фразеологизм таркибида турли маъноларни ифода этади:

Бир оёғи тўрда, бир оёғи гўрда (мақол) – жуда қариган. Оёғи олти, қўли етти –ғоят хурсанд. Ёлғиз оёқ – бечора. Оёғи осмондан келмоқ – қуламоқ, йиқилди, иши чаппа. Оёғи куйган товукдай - безовта, ўзини ҳар томонга урмоқ ва бошқа маънолари қайд қилинган.

Шавкат Раҳматуллаевнинг “�збек тилининг фразеологик луғати” [Тошкент – 1992] да оёқ сўзи қатнашган эллиқдан ортиқ фразеологизм маънолари изоҳланган. Лингвистик метафора усулида қўлланган сўз маъноси бошқа сўзлардан иборат бўлган биркма ичида келгандагина сезилади. Чунончи оёқ дейилганда одам ва бошқа жониворлар гавдасини кўтариб юриши ёки ўрмалаши учун хизмат қиладиган тана аъзоси тушинилади. Юқорида келтирилган бошқа маънолар эса: сўри оёғи, қиш оёғи, уй пайгаки маънолари хаёлга ҳам келмайди. Оёқ сўзининг метафора усулида ном кўчиши нутқ жараёнида матн ичида янада аниқроқ намоён бўлади.

Метафора асосида ном кўчиши – нарса, белги ёки ҳаракатга хос атаманинг (сўзнинг) ўзаро ўхшашлиги бўлган бошқа нарса, белги, ҳаракат ҳақидаги тушунча учун ҳам қўлланиши, шу тушунчанинг ҳам номига ўтиши(айланиши)демақдир.

Икки қошинг ўсма бирлан бўлди жуфт наргисли барг,

Икки баргинг қошида мен титрайман мисли барг [5;255].

Биринчи мисрадаги қош охириги мисрадаги барг сўзлари ўз маъносида қўлланган. Иккинчи мисрада эса ёрнинг қоши наргис гулнинг япроғига ошиқнинг эса ёр олдида ҳаяжонга тушиб титраши шаббодада баргнинг титрашига ўхшатиш ҳамда метафора усулида ном кўчирилганлиги кўзга ташланади. Яна қошларнинг бир-бирига яқин, ёнма-ён туришига кўра бу сўз кўмакчилашиб ён, олдига, ҳузурда, ихтиёрида маъноларида қўлланиб метафора усулида ном кўчирилган.

Шунингдек, қош сўзи яна: эгарнинг олдинги баланд қисмига ўйиб солинган гул: баъзи нарсаларнинг олд қисми, туртиб чиққан жой ( айвоннинг қоши ), узук, исирға каби буюмларга ўйиб солинган ёйсимон гул – безак (тиллақош) ташқи кўриниши жиҳатдан инсоннинг қошига ўхшашлиги туфайли қош деб аталади ва шу йўсинда ном кўчирилади. Мумтоз шеъриятда фаол қўлланувчи булбул, тўти, товус оҳу, парвона каби зооморфизмлар ҳам кўчма маънода ишлатилиб, ёрга ўхшатиш кўзга ташланади. Жумладан, булбулдаги хушхонлик, тўтидаги гўёлик, товусдаги гўзаллик, парвонадаги мубталолик, оҳудаги нозиклик ҳамда чирой ёр(маъшуқа)га нисбат берилиб, метафорик усулда ном кўчирилади ва ёр сўзининг ўзига хос синонимик қаторини юзага келтиради.

Лингвистик метафора тилда муҳим ўрин тутди. У бир жиҳатдан бадий адабиётда, халқ оғзаки ижодида, оддий сўзлашув тилида таъсир-чанликни ошириб эмотсионал-экспрессив восита саналса, иккинчи томондан, тилнинг луғат таркиби ва унинг маъно қамровларини бойитиб борувчи асосий манба ҳисобланади.

Поэтик метафора. Поэтик метафора асосида ном кўчиши икки предмет ёки ҳодисанинг одат тусига кирмаган, уларнинг яқинлиги ва ўхшашлигини сезиш анча қийин бўлган шакли, рангли характерлар – хусусияти ва шу каби ички ва ташқи ҳолатларига қараб ўхшатиш принципи ётади. Шоирлар, ёзувчилар, халқ бахшилари – бадий сўз усталари поэтик метафорадан санъаткорона фойдаланиб, жозибадор, таъсирчан, кишида ҳис – ҳаяжон кўзғатувчи сўз ва иборалар орқали эмотсионал-экспрессив белги аниқлаш тил бирликларини ҳосил қилади. Масалан, ғазалнавис шоир Эркин Воҳидов ўз ижодида поэтик метафорларга кенг ўрин бериб, кишида ҳис ҳаяжон, завқ ва шавқ уйғотувчи ҳиссиёт пайдо қилишга эриша олганлигига гувоҳ бўламиз:

Рост, ғазал авжида барча ой ила Зухра эмас,

Кўп эрур сомончилар ҳам шеърият осмонида [5; 238].

Байтда кўзга кўринган, халқ орасида танилган ҳамда эътироф этилган шоирларни Ой билан Зухрага ўхшатса, ҳали ўз ижоди билан танилмай, обрў- эътибор топмаган шоирлар

ҳам анчагина бўлиб, уларни коинотдаги – “сомончилар йўли” даги хира юлдузларга ўхшатади ва аъло даражада поэтик метафора яратади. Яна бир мисол:

Сенга юлдузли самон совға айларман десам,

Нозланиб, ўлдимми дейди бу чўтир рўймол учун [5 ;292].

Байтда самога рўймолни, юлдузларга чўтирликни ўхшатиб, шеърхон хаёлига келмаган шоир ўзига хос оригинал метафора ярата олган. Бу мисоллардан маълум бўлдики, поэтик метафора предметлар, белги ва ҳаракат – ҳолатларнинг яқинлиги ёки ўхшашлигини сезиш бир қарашга анча мураккаб бўлган, қандайдир ташқи ёки ички белги, шунингдек сифат ўхшашлигига асосланади. Кейинги байтда маъшуканинг ўз ёрига нозланиб, юлдузли самонинг чўтир рўймолга ўхшатиш шоир услубига хос, муаллиф томонидан яратилган индивидуал поэтик метафорадир.

Поэтик метафора усули билан янги маънони вужудга келтириш сўз устасидан жуда нозик, аммо кучли эҳтирос, объектнинг энг нозик томон-ларини сеза билиш, ҳис қилиш ва тилда мавжуд бўлган барча эмоционал-экспрессив белгилардан ўринли фойдаланиш каби хислатларни билиш талаб қилинади. Қуйидаги байтда:

Шеър ипи ногоҳ қаламнинг, игнасида қочадир [5; 314].

Шеър тизимини (шеърдаги сўзлар қаторини) ипга, қаламни эса игнага ўхшатиб кучли эҳтиросли ўзига хос поэтик метафора ҳосил қилинган. Поэтик метафора шаклида қўлланган сўз маъноси бадий асар матнида, нутқ жараёнида вужудга келиб, ўша матн ёки нутқ жараёнидаги маъноси тушунилади халос, бошқа вақтда сезилмайди. Шунинг учун ҳам у ўз яратувчиси (муаллифига) эга. Уларни алоҳида шахслар - бадий сўз усталари томонидан яратилган метафоралар ҳам деб юритилади. Бу хил метафораларда маъно беқарор бўлиб, ўзгариб туради. Уларнинг баъзилари вақт ўтиши билан халқ тилига сингиб яъни лингвистик метафора қаторига ўтади. Улар миллий тил нутқ жараёнда маъно камровининг кенгайиши туфайли умумистеъмолда қўлланивчи кўп маъноли сўзлар қаторидан ҳам ўрин олиши мумкин.

Шуни алоҳида таъкидаш лозимки, лингвистик ва поэтик метафо-раларнинг вужудга келиш йўллари ва уларни бир – биридан фарқлаш масаласи анча мураккабдир. Кўпгина тилшунос олимларимиз лингвистик метафора билан поэтик метафорани бир биридан фарқлаш лозимлигини уқтириб ўтиш билан бирга, бу икки ҳодиса жуда шартли ва нисбийлигини таъкидлайдилар. Поэтик метафоранинг энг яхши намуналари давр ўтиши билан умумхалқ тилига сингиб, лингвистик метафорага айланиши мумкин деган тўғри ва ўринли фикрни қайд қилиб ўтадилар.

#### АДАБИЁТЛАР

1. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: ” SHARQ “, 2019.
2. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014.
4. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
5. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Тошкент: Ёзувчи, 2001.
6. Воҳидов Э. Сайланма, Муҳаббатнома, Икки жилдлик, 1-жилд. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986.
7. Воҳидов Э. Сайланма, Садоқатнома, Икки жилдлик, 2-жилд. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986.
8. Воҳидов Э. Сайланма, Ишқ савдоси, Биринчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000.

9. Орипов А. Йиллар армони. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, Учинчи жилд.—Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
11. Шарқ мумтоз поэтикаси. Биринчи китоб (Х.Болтабоев талкинида).—Тошкент: “ЎМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2008.
12. То қуёш сочгайки нур. Эркин Воҳидов: ҳаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида. – Тошкент: “OZBEKISTON”, 2018.
13. Воҳидова Гулчеҳра Қалбим ардоғи. Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Эркин ВОҲИДОВ рафиқаси наздида. – Тошкент: “MASHHUR-PRESS“, 2020.

## ЦЕННОСТНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ КОНЦЕПТОВ

*Раъно Уришевна Маджидова,*

*доктор филологических наук, профессор*

*Узбекского государственного университета мировых языков*

**Аннотация.** Аксиологический подход в изучении языковой пословичной картины мира характеризуется тем, что ценностное восприятие окружающего мира присутствует у каждого индивида и направлено на отражение своего отношения с точки зрения тех ценностей, которые существуют в конкретной национально-культурной общности; ценности конкретной национально-культурной общности складываются в течение длительного исторического периода и определяют пути развития этноса и др.

**Ключевые слова:** аксиологическое восприятие, поговорка, аксиология, стереотип, модель поведения, пословичная языковая картина мира.

**Abstract.** The axiological approach to the study of the linguistic proverbial picture of the world is characterized by the fact that the value perception of the surrounding world is present in every individual and is aimed at reflecting his attitude from the point of view of those values that exist in a particular national-cultural community; the values of a particular national-cultural community develop over a long historical period and determine the path of development of the ethnic group, etc.

**Key words:** axiological perception, proverb, axiology, stereotype, model of behavior, proverbial linguistic picture of the world.

**Annotatsiya.** Dunyoning lingvistik maqol rasmini o‘rganishga aksiologik yondashuv atrofida dunyoning qadriyat idroki har bir shaxsda mavjudligi va uning o‘sha qadriyatlar nuqtai nazaridan munosabatini aks ettirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. muayyan milliy-madaniy hamjamiyatda mavjud; muayyan milliy-madaniy jamoaning qadriyatlari uzoq tarixiy davr mobaynida rivojlanib, etnik guruhning rivojlanish yo‘lini belgilaydi va hokazo.

**Kalit so‘zlar:** aksiologik idrok, maqol, aksiologiya, stereotip, xulq-atvor modeli, dunyoning maqol lingvistik tasviri.

Аксиологический подход активно развивался в лингвистических исследованиях Ю.Д. Апресяна, Н.Д. Арутюновой и др. В настоящее время широко распространен тезис об аксиологической природе сознания человека, при этом основой когнитивной деятельности является оценка, а ценности отражают сущность культуры.

Ценность носит антропогенный характер и является результатов деятельности и оценки человеком. Ценность представляет собой положительное или отрицательное



значение объектов окружающего мира для отдельного человека, социума, их интересов и потребностей, формируемых в рамках социального взаимодействия (Большой энциклопедический словарь). При этом система ценностей отражает культурно и социально обусловленное восприятие мира, и отношение к нему в соответствии с нормой или отклонения от нее. Объектом аксиологического подхода при изучении языковой картины мира является совокупность понятий «языковое сознание-культура-носители языка», предметом – язык как средство формирования, развития, выражения и передачи ценностей в рамках социальных групп и их представителей.

Аксиологический подход предусматривает выявление системы ценностей носителей языка в контексте определенной культуры, ее национально специфичных характеристик. Используя ценностное видение мира, человек формулирует оценочные суждения в отношении реалий его повседневной жизнедеятельности, осуществляет поиск моральных, нравственных, эстетических и этических принципов, что отражается в языке. Оценка не рассматривается вне ценностной системы и имеет культурное, национальное или историческое основание.

В работах Ю.Д. Апресян, В.Н. Телии, Н.А. Авгановой рассматривалась ценность с точки зрения возможности ее оценивания: надежность, сомнительность, достоверность, полезность, важность, эстетичность, этичность и т.д. в сравнении со стандартом, идеалами [1, с. 20]. Таким образом, в результате отношений языковое сознание-ценность-носитель языка-стандарт/идеал формируется конечная оценка объекта.

В национальной картине мира представлены ценностные установки, которые отражают отношение той или иной общности к явлениям действительности. Соответственно, картина мира есть результат познания человеком окружающей действительности, а познание включает в себя не только восприятие, переработку информации, но и оценку. У каждой национальной общности есть фоновые знания, концепты, стереотипы, которые закрепляются на уровне сознания и языка как общности, так и конкретного этноса [3, с. 33].

Аксиологический подход позволяет определить структуру и содержание процесса взаимодействия человека и окружающего мира, поскольку данный процесс социально обусловлен. Окружающий мир структурируется человеком с точки зрения его ценностного отношения к добру и злу, хорошему и плохому и т.п., что и отражается в языковом содержании [4, с. 78].

Аксиологическая составляющая взаимодействия человека и окружающей его действительности закрепляется в сознании личности и на языковом уровне в виде целостной картины мира, содержание которой отражает совокупность знаний, представлений, стереотипов определенного народа об объектах и явлениях внешнего, а также взаимоотношений с ним и зафиксированных с положительной оценкой, а также с точки зрения существующих в конкретном этносе ценностей [5, с. 21].

Исходя из данных определений, формирование ценностной картины мира осуществляется посредством взаимосвязи оценочных суждения на основе ассоциативной связи и концептуальных смыслов.

Следует отметить, что система преобладающих ценностей в сознании и языке складывается на протяжении разных исторических периодов и определяет пути развития отдельного народа, в процессе которых ценности способствовали его выживанию как единого целого, формировали культурные границы и модели поведения.

В современной языковой пословичной картине мира широко распространена оценка социально-политических событий и реалий на государственном уровне. Общественно-политические ценности отражают отношение народа к своему социуму, к реалиям действительности [6, с. 89].

Оценка в языковой пословичной картине мира является основным средством отражения аксиологической составляющей в культурной сфере. При этом сама картина мира идеализируется, трансформируется и соотносится со шкалой оценок [2, с. 20].

В языке отражается национальная культура и традиции народа, видение мира, развитие и сохранение которых формирует совокупность ценностей и принципов жизни ее представителей. Мыслительная деятельность представительной национально-культурной общности отражает специфичность менталитета народа и проявляется в языке.

Исходя из того, что пословицы имеют долгую историю развития, сочетая в себе богатство литературы, искусства, языка, можно сделать вывод о том, что они аккумулируют культурные и языковые особенности. При этом стоит отметить, что высказывание переходит в категорию пословицы в том случае, когда соотносится со взглядами, мыслями, образом жизни общества.

Səməd: - Səndən bunu gözləməzdim. Məgər bilmirsənmi? Kimdir məni incidən? Saatlarla yanımda əyləşib şeir, qoşma dinləməyin sirri, mehriban baxışların, işarəli sözlərin, doğrudanmı indi istehzaya döndü?

Leylanın səsi: - Niyə elə deyirsən Səməd?

Səməd:—başqasına könül verən sevgiliyə bundan əskik nə demək olar? Leylanın səsi:—Mən atamın xahişini yerinə yetirmişəm.

Səməd: - Demək sən öz istəyin, öz iradəni yox imiş.

Pyesdə cəlbedici cəhətlərdən biri də odur ki, Özbək müəllifi əsərin milli koloritinin təsvirini elə məharətlə canlandırmışdır ki, Səməd Vurğun dövrünə, onun ədəbi mühitinə elə həssaslıqla yanaşmışdır ki, sanki o, özü də S.Vurğunla bir yerdə uzun illər boyu oturub-durmuş, bu respublikada yaşamışdır. Elə bil ki, o əsl azərbaycanlıdır. Əlbəttə, bu xalqın etnoqrafiyasına, adət-ənənəsinə belə yaxından bələd olmaq Rəzzaq Əbdürrəşidın yaradıcılıq təcrübəsinin zənginliyinə, ədəbi erudisiyasının genişliyinə dəlalət edir. Pyesin maraqlı cəhətlərindən biri də Bədi nənənin Vurğunla söhbətidir. Belə ki, bu lövhədə Bədi nənə Səmədə müraciət edərək onun sağlması üçün həkim çağırmağı məsləhət bilir. Lakin Səməd öz bildiyindən əl çəkmir. Öz fikri üzərində ısrar edərək nənəni eşitmək istəmir: “Bədi nənə:—Səməd, canım, gözüm, bu ahdan nalədən əl çək. Çıxart o qızı könlündən. Səməd:—mümkün deyildir nənə. Bədi nənə:—Səməd bala, mən səndə doğrudan da dəlilik əsəri görürəm. Həkim çağırtdım ki, sənə şafa versin. (Səməd heyərlə) həkim? Hansı həkim? Bədi nənə:—qonşu kənddə yaxşı bir həkim var. Loğman nəfəsi ilə yüz min bəlanı aradan qaldırıb. Səməd:—nənə, heç bir loğman mənə əlac edə bimiz. Mənim yeganə təbibim Leyladır. Bədi nənə:—yetər, onu yada salma. Onun öz adaxlısı var. Səməd:—(narazılıqla) dinc buraxın məni, nənə. Bədi nənə: — sənə dərman vermək gərək. Belə qalsan əhvalın yamanlaşar.”<sup>1</sup>

Əsərdə təsvir olunur ki, bunların söhbət etdiyi zaman həkim gəlir. Lakin Səməd haqlı olaraq həkimi heç cür qəbul eləmir. İnadkarlıq göstərərək, qəbristanlığa—anasının qəbri üstə gələrək başını onun qəbir daşına söykəyir və ona şeir söyləyir. Sanki anasının məzarını belə öz dərdinə əlac bilir. Bu əflatuni məhəbbətin çarəsinin xilaskarı olan ana ruhunda tapır. Əsərin leytmotivi məhz bu iztirablı şair günlərinin ayrılıq məqamlarının acı iniltiləri idi: “Orman yaxasında qəbristanlıq, ağacların rüzgar səsi, ququşunun kəsik-kəsik nidası, bayquşun ara-sıra fəryadı, qəbristan vahiməsinə yeni bir vahimə qoşur, qəbirdaşı yanında Səməd başını əymiş gözü yaşlı dayanmışdır.

Sənə baş əyməyə gəldim ana can,  
Nə min əsri udan bu vəhşi orman,  
Nə bu daşsükutlu dilsiz qəbristan,  
Nə kimsəsiz səhra, nə boş asiman.  
Döndərə bilmədi məni yolumdan.  
Əymədim başımı heç bir tufana,  
Çünki bu torpaqda sən varsan ana.  
Qoca qarağacın sirli səsi də,  
Ququşunun, bayquşun ah-naləsi də,

<sup>1</sup> Rəzzaq Əbdürrəşid “Şeirə dönmüş ürək” səh

Sirdaş kəsilibdir sənə haçandı,  
Heç bilsən bu səda nə mehribandır.  
Üzümü üzünə hələ qoymamış,  
Südündən bir içim əmib doymamış,  
Yanında bircə yol hələ yatmamış,  
Qoynunda göz açıb əl-qol atmamış,  
Mən sənə, sən mənə heç alışmadan,  
İtirdim görmədim səni ana can.”<sup>1</sup>

Anasının məzarını ziyarət etməkdə özünə təsəlli tapan, ana ruhunu məlhəm edib, Leylanın vurduğu yaralara çəkməklə, onun sağlmasına güman edən Səməd, yerdə, göydə özünə bir yer tapmayan Səməd, anasının qəbrinə, onun baş daşına sığınaraq bir hovur da olsa qəlbinin həsrətini ovutmağa cəhd edir. Pyesin romantik axarına düşən sevənlərin intim dünyasını sahmanlayan özbək şairi öz qələm həmkarının obrazını səhnəyə gətirməklə, Səməd Vurğunun həyatının ən incə detallarını belə mənalandırmağı bacarır, öz bədii təxəyyülünün qüdrəti ilə onu müxtəlif istiqamətlərdən nizamlaya bilir. Vurğunun intim dünyasını aşkar edir.

Pyesin məzmununda elə də ciddi məsələlər qoyulmasda bir Azərbaycan şairinin avtobioqrafiyasını, həyat və yaradıcılıq fəaliyyətini özbək xalqına tanımaq baxımından əhəmiyyətli dərəcədə xidməti vardır. Onu da xüsusi olaraq vurğulamaq lazımdır ki, əsərdə bu pyesi Azərbaycan dilinə tərcümə edən Xəlil Rza Ulutürkün məxsusi olaraq yaradıcılıq üslubu, danışq leksikonu açıq-aydın nəzərə çarpmaqdadır. Görünür müəllif pyesi dilimizə çevirərkən bədii dünyagörüşünün zənginliyindən lazımınca istifadə etmişdir. Bu əsəri zənnimcə mənzum pyes də adlandırmaq olar. Çünki həm əsərin nəsr dili ilə yazılan hissəsi poetik nəsrdən, həm də bir çox səhnələri şeirlə qələmə alınmışdır. Demək olar ki, pyesin təxminən yarısı şeir dili ilə yazılmışdır. Məhz bu da, bu pyesə mənzum pyes deməyə imkan verir. Pyesdəki bir səhnə daha maraqlıdır. Belə ki, səhnədə Səmədlə Mehdiyin dialoqu oxucuda xüsusi bir təsir qüvvəsi yaradır. Bu dialoq söhbətdə Səmədin Qazaxdan çıxıb Moskvaya getməsi, eləcə də şairin müəllim işləməsi burada təsvir olunur. Bu səhnədə Səmədin ilk sevgilisi Dürrə ilə küçədə rastlaşması göstərilir. Bu epizodun, bu səhnənin bir neçə versiyası vardır. Rəzzaq Əbdürrəşid belə versiya göstərsə, başqa bir versiyada təsvir olunur ki, Səməd Vurğunla görüş gecəsi keçirilərkən Dürrə də əri ilə bu tədbirdə olur. Onlar zalda ön cərgədə əyləşmişlər. Tədbirin gedişatı zamanı Dürrə xanım yanında əyləşən həyat yoldaşına pıçıldayır: — Bunu mən şair etmişəm. Bunu eşidən Səməd:—Əgər mənə sən etmişənsə, bəs yanındakını niyə şair edə bilmirsən?

Əlbəttə, bədii əsərdə bəzi detalları dəyişməklə həmin əsərə heç bir xələl gətirmir. Pyesin şeirlə verilən hissələrində şübhəsiz ki, poetik ruh, bədii ovqat daha zəngin və daha realdır. Bu da əsərin bədii estetik qayəsinin zənginliyə, yüksək şeiriyyətin canlı və təbii ab-havasının yaranmasına xidmət edir. Amma bu janrın xüsusiyyətləri bu poetik lövhələrdə özünü ehtiva edərək saxlaya bilmişdir. Dramatizm, poetik fikirlərin ovqatında bir gərginlik və digər bu janra məxsus olan yaradıcılıq çalarları bu şeirlərdə nəzər diqqəti cəlb edir. Məzmununda pyesin ünsürləri daha qabarıq özünü büruzə verir: “Mehdi:—Səməd sənə dair bir rəvayət var. Bilmirəm gerçəkmi danışılanlar?

Vurğun:—Buyur söylə görək.

Mehdi:—Deyirlər Bakıda bir yaz axşamı

Yaxından görmüsən o güləndəmi.

Görmüsən yol gedir yanında əri,

Salamsız keçmişən inciyib pəri.

<sup>1</sup> Rəzzaq Əbdürrəşid” Şeirə dönmüş ürək” səh



Gerı qanrılıb ki, Səməd mi sənsən?  
Yox, Səməd deyilsən, Vurğun deyilsən.  
Sən Vurğun olsaydın salam verərdin  
Üç kəlmə sözünlə şənləndirərdin.  
Axı, ömrün boyu borclusan mənə.  
Nə borc? Mən şairlik vermişəm sənə.  
Sən mənim eşqimlə söz yaratmısan  
Şairlik qatına gəlib çatmısan.  
Deyirlər qımışıb gülmüsən onda.  
Cavabın qılınc tək sıyrılıb qından  
Leylacan, səndə ki, bu bacarıq var.  
Bəs o yanındakı qəssabı neyçin,  
Sənətkar etmədin şair etmədin.

(Vurğun xəyaldan ayrılaraq)

Görünür biraz da sərt olmuşam mən  
Bəlkə də haqlıdır o şux gülbədən.  
Məhəbbət bir sağlam toxuma bənzər  
Münbit, saf torpaqda dərhal göyərər.  
Yalnız vüsala yox, şəksiz-şübhəsiz  
Böyük hicrana da minnətdarıq biz.  
Möcüzə yaratmış hicranın dili,  
Sübutdur sözümə dahi Füzuli:  
Gözlər od qaynağı, çiyinlər qaya  
Əsrlər ardından baxır dünyaya.  
Nurani, Pirani, Müəzzəm, Mətin,  
Məhəbbət bulağı bəşəriyyətin

Pyesin digər hissəsi daha böyük maraq kəsb edir. Belə ki, bunları bir qadın səsi şirin xəyallar qoynunda pərvazlanan Mehdi ilə Səmədi səsləyərək yemək otağına çağırır. Bu hissədə Səməd Vurğun Aşiq Şəmşirlə qarşılaşdırılır. Rəzзақ Əbdürrəşidin həssaslığı buradadır ki, Səməd Vurğunu onu əhatə edən ədəbi mühitlə bir yerdə göstərir. S.Vurğunla Aşiq Şəmşirin dostluğu özbək şairin nəzər-diqqətindən yayınmamışdır. S.Vurğunla Aşiq Şəmşirin şeirləşməsi, eyni zamanda məhz Səməd Vurğunun Aşiq Şəmşirə həsr etdiyi şeiri pyesdə verməsi, onu göstərir ki, özbək müəllifi həmçinin Azərbaycan şifahi xalq ədəbiyyatına, onun folkloruna, xüsusilə bu xalqın aşiq sənətinə yaxından bələd olmuşdur. Bu təsvirlər, bədii poetik lövhələr fikrimizi bir daha təsdiq edir:

Aşiq Şəmşir:

Elimin, günümün böyük şairi  
Gətirdin dağlara səfa, xoş gəldin.  
Baxardın yoluna gözdə intizar,  
Eylədin əhdinə vəfa xoş gəldin.

Vurğun:

Aşiq Şəmşir Dəlidağdan keçəndə,  
Kəklikli daşlardan xəbər al məni.  
Ceyran bulağından qızlar içəndə,  
Saz tutub, söz qoşub yada sal məni.

Aşiq Şəmşir:

Dillərdə dastana dönən adın var,  
El, oba tanıyır uca dağ səni.  
Yanır yolumuzda sənət çırağı,  
Dünyaya göstərir bu çaraq səni.

Vurğun:

Vaxt məni bu yerə qonaq göndərdi  
Gedirəm, yamandı ayrılıq dərdi.  
Demə, Səməd Vurğun gəldi-gedərdi.  
Unutmaz bu oba, bu mahal məni.

Özbək şairinin Səməd Vurğunla Qafur Qulamın dostluğu da diqqətindən kənarda qalmamışdır. Pyesdə bu iki şairin qardaşlıq və dostluğu mühüm yer alır, diqqət mərkəzində dayanır:

“Qadın səsi: - Səməd. Məktub var sənə.

Səməd: - Kimdən?

Qadın:—Qafur Qulamdan. (Vurğun məktubu açaraq):

Bəli, Qafur Qulam əziz qardaşım,  
Gör hansı məqamda qarışdı başım.  
Daşkəndə çağırır gedə bilmirəm,  
Ömür dar, görməli işlər bir aləm.

Bax budur qardaşlığın əsl təntənəsi, poetik mənzərəsi.

Pyesin hissələrinin birində isə Rəzəq Əbdürrəşid S.Vurğunun populyar bir şair olmasından bəhs edir. Ona neçə yerdən məktub gəldiyini göstərir. Hətta Özbək şairi bir yerdə qeyd edir ki, S.Vurğunun öz etirafına görə ona bir səhər çağı hansı bir gündəsə 17 yerdən məktub gəlmişdir. O məktublardan hamısında şairin sənətkarlıq qüdrətindən, isdedadlı bir şair olmasından fəxarət hissi ilə söz açırlar. Səməd Vurğun isə yenə öz təvazökarlığını əldən vermir, ümmana bənzəyən sənət dünyasında özünü kiçik bir ırmağa bənzədir:

Bu səhər on yeddi məktub almışam,  
Yollar ayrıcında heyran qalmışam.  
Kimsə şeir umur, kimsə məhəbbət  
Kimsə dəvət qılır, kimsə nəsihət.  
Bir ömrün həddinə sığışmırıq biz,  
Neçə həyat umur diləklərimiz.  
Bizim Qafur Qulam bu böyük şair,  
Heç bilsən nə qədər cazibəlidir.  
Görüşsək bəlkə də dərdim sağalar,  
Bu nədir deyəsən bir şeir də var.  
Dinlə, dilimizə uyğunlaşdırır.

(Qafur Qulamın şeirini oxuyur.)

Qarındaşım, qardaşım,  
Qandaşım Səməd Vurğun.  
Qəlbə təsəlli üçün  
İnan demirəm bunu.  
Sən xalqın öz oğlusan,  
Xalq da əbədi sütun.  
Xalq heç zaman unutmur  
Böyük şair oğlunu.

Bəli, xalq nəhəng bir ormana bənzər,  
Biz onun zoğları, pöhrələriyik.  
Xalq ucsuz-bucaqsız ümməna bənzər.  
Biz onun bərkə də ləpələriyik.  
Mən bir ırmağ kimi axdım, duruldum,  
Hiss etdim ümmanlar ləpəsiyəm mən.  
Dünən bir Leylanın Vurğunu oldum.  
Bu gün min Leylanın dəlisiyəm mən.

Əsərin bu bölümündə Səməd Vurğunla Mehdi Gəyğöl səfərindən də söz açılır. Deməli, Rəzzaq Əbdürrəşid S.Vurğunun ən xırda, ən kiçik həyat detallarına belə yaxından bələd idi. Məhz əsərin Göygölə səyahət lövhəsində bu cizgilər bir daha aşkar şəkildə üzə çıxır. Belə ki, 1954-cü aprelin 22-də Azərbaycan Yazıçılarının II Qurultayına gələn nümayəndələrindən bir dəstəsi ilə Göygölə gəzməyə çıxanda 48 yaşlı Səməd Vurğun qonaqlardan birinin gözəl qadınına bir dəstə bənövşə verir və qadın ona təşəkkür edib deyir: - Mən bu bənövşəni saxlayacağam. Anadan olmağınızın 100 illiyində gətirib sizə verəcəyəm. Məhz bu epizodu Özbək şairi Rəzzaq Əbdürrəşid öz təxəyyülünün gücündən istifadə edərək dəyişmiş, real hadisəni bədii don geydirərək, tamamilə başqa bir versiyada öz əsərinə gətirərək, oxuculara təqdim etmişdir:

Dinlə əziz Mehdi bir söhbətim var,  
Göygölə çıxmışdıq biz keçən bahar,  
Kəpəzin nəfəsi üzümə dəydi,  
Dərələr inan ki, gül beşiyi idi,  
Bənövşə yığırdı növrəstə bir qız,  
Dedim:—Ay insafsız bənövşə yalnız  
Qoxulamaq üçündür birazca gəndən.  
O körpə baharı neyçin üzürsən?  
Dedi: Əziz şair əhdim var mənim,  
Nəfəsim, canımdır sənətkar mənim.  
İki min altıda bu böyük vətən,  
Sənin yüz yaşını bayram edərkən,  
Sənə verəsiyəm bənövşələri  
Yığıram o əziz gündən ötəri  
Mən onda bəlkə də ağ saçlı qarı,  
Siz Ələsgər yaşlı el sənətkarı.  
Bu şeytan qızdakı arzulara bax,  
Şən, qaynar gözləri bir cüt saf bulaq  
Baxdım əlindəki bənövşələrə,  
Qovuşdum elə bil al səhərə,  
Böyük addımlarla gəlir gələcək,  
Dünyaya çox gözəl günlər gələcək.  
Heyif o günlərdə olmayacağıq,  
Solmuş bənövşəni, ya bir tər gülü  
O qızın əlindən almayacağıq.  
Neylədik ikinci həyata layiq,  
Yaşaya bildikmi birazca ağır.  
Bircə nəğməm səslənsə,

Onun gül dodağında.  
Sanaram mənəm gəzən,  
Göygölün qırağında.

Pyesdə istər onun şeiriyət cəhətdən, istərsə də bədii təsvir vasitələri baxımından bir sıra iradlar nəzərə çarpmaqdadır. Çox güman ki, bu iradların meydana çıxması tərcüməçinin əsəri tərcümə edən zaman ortaya çıxan qüsurlarıdır.

Beləliklə, deyə bilərik ki, türk xalqları ədəbiyyatında Rəzzaq Əbdürrəşidın “Şeirə dönmüş ürək” pyesi S.Vurğun haqqında yazılan ən məşhur bir sənət nümunəsidir.

**Məqalənin aktuallığı:** Səməd Vurğun poeziyasında bir sıra milli-mənəvi dəyərlər tərənnüm olunduğu kimi, Özbək şairi Rəzzaq Əbdürrəşid yaradıcılığında da bu tendensiya müşahidə olunur. Bu mənada hər iki sənətkarın yaradıcılığının milli-mənəvi ideallar kontekstində araşdırılması bugünkü ədəbiyyatşünaslığımızın aktual problemlərindən biridir.

**Elmi yeniliyi:** Bu məqalədə Özbək şairi Rəzzaq Əbdürrəşidın Səməd Vurğuna həsr etdiyi “Şeirə dönmüş ürək” əsəri ilk dəfə olaraq ədəbiyyatşünaslıq müstəvisinə çıxarılmış və ətraflı şəkildə araşdırılmışdır. Bu məqalədə Səməd Vurğun və Türk xalqları ədəbiyyatı tədqiqi işində mühüm yeniliklər əldə edilmişdir.

**Məqalənin praktik əhəmiyyəti və tətbiqi:** Tədqiqatın başlıca müddəə nəticələrindən ali məktəblərin Şərqsünaslıq və Filologiya fakültələrinin proqram, dərslik və dərs vəsaitlərinin tərtibində faydalanmaq mümkündür. Həmçinin bu tədqiqat işindən Azərbaycan və Özbək ədəbi əlaqələri sahəsində çalışanlar istifadə edə bilərlər.

#### **Ədəbiyyat:**

1. Arzumanlı Vaqif. Ədəbiyyata qovuşan sənət. B., “Gənclik”, 1976, 112 s.
2. Aripov Abdulla. Qardaşlıq əlaqələri bayramı. “Kommunist”, 2 oktyabr 1975.
3. Cəfərzadə Əzizə. Ustad Qafur Qulamla görüş. “Ədəbiyyat və incəsənət”, may 1979.
4. Kəyumov Ləziz. Böyük dostluq. “Kommunist”, 30 may 1979.
5. Rəzzaq Əbdürrəşid. “Şeirə dönmüş ürək”. Bakı, “Yazıçı”, 1979, s.141.

## **МАҚСУД ШАЙХЗОДА АДАБИЙ МЕРОСИНИНГ ТИЛ ХУСУСИЯТЛАРИ**

*Норова Гулсанам Махсумовна,*

*Навоий давлат педагогика институти катта ўқитувчиси,*

*Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),*

*Озарбайжон Миллий Фанлар академияси қошидаги*

*Низомий Ганжавий номидаги адабиёт институти докторанти*

**Аннотация.** Мақолада Озарбайжон ва Ўзбек адабиётининг ёркин намунаси бўлган Мақсуд Шайхзода адабий мероси ва асарларининг тил хусусиятлари ёритиб берилган.

**Аннотация.** В статье литературное наследие и языковые особенности произведений Мақсуда Шайхзода, яркого образца азербайджанской и узбекской литературы.

**Abstract.** In the article, the literary heritage and linguistic features of the works of Maqsud Shaykhzoda, a bright example of Azerbaijani and Uzbek literature.

**Калит сўзлар.** Ўзбек ва озарбайжон адабиёти, Октош шаҳри, драматур, драма, Ўн шеър”, “Ундошларим”, “Учинчи китоб”, шеърлий тўпламлар, “Мирзо Улуғбек” драмаси, “Жалолиддин Мангуберди” драмаси, Ватан озодлиги, мустақиллик, ватанпарварлик, тарихий образ, тўқима образ, боскинчи, валиахд, ҳоким, поетик асар, теранлик.

**Ключевые слова:** узбекская и азербайджанская литература, город Окташ, драматург, драма, Десять стихотворений, «Согласные», «Третья книга», поэтические сборники, драма «Мирзо Улугбек», драма «Джалалуддин Мангуберди», свобода Родины, независимость, патриотизм, исторический образ, текстильный образ, захватчик, князь, воевода, поэтическое произведение, глубина.

**Key words.** Uzbek and Azerbaijani literature, Oktash city, dramatist, drama, Ten Poems, "Consonants", "The Third Book", poetry collections, "Mirzo Ulugbek" drama, "Jalaluddin Manguberdi" drama, freedom of the Motherland, independence, patriotism, historical image, textile image, invader, prince, governor, poetic work, depth.

Тафаккур ва фикрлашларимиз миллий ғоя асосида такомиллашаётган бир даврда ўз даври ижодкорларининг санъат ҳисобланган бадиий асарлари тилини эндиликда тадқиқ этиш ишлари янгича услубда бошланди. Мақсуд Шайхзода ижодига муносабат, асарлари мазмуни ва моҳиятини тушуниш ҳар бир асарнинг ўзига хос сержило, пурмаъно, эмоционалликка бой жиҳатлари каби қирраларини очишга асосдир.

Озарбойжон ва Ўзбекистоннинг моҳир сўз санъаткори Мақсуд Шайхзода меросини унинг назмий ва насрий асарларн каби етук мутафаккирлар ҳаёти ҳамда ижоди уларнинг илмий, тарихий, фалсафий, диний, ахлоқий қарашлари, ғояларига илмий муносабати каби масалалар ўрганилиши ниҳоятда зарур эканлигига ишоратдир.

Она тилини пухта ўрганиш ғоявий-тарбиявий ишлар орасида энг асосий масалалардан ҳисобланади. Ўз навбатида миллий тилни чуқур ўзлаштириш, унинг адабий манбалари тилини махсус тадқиқ этиш тилшунослик фанининг асосий вазифаларидан биридир. Шу маънода турли даврларда яратилган етук ижодкорлар асарлари тилини миллий тил манбаи сифатида чуқур ўрганиш, унда қўлланган ҳар бир сўзнинг бош луғавий ва кўчма, яъни матний маъноларини аниқлаш, сўзнинг эскириши, фонетик, грамматик, лексик архаиклашиши, даврлар ўтиши билан маънонинг кенгайиши ва торайиши, янги маъно касб этиши, асар руҳиятига хос ижодкор ички туйғуларини тушуниш каби тил билими билан боғлиқ масалаларни илмий асослаш муҳим тадқиқотлардан биридир.

Ижодкорнинг турли мавзуга бағишланган бадиий асарларида бадиийликни ошириш, шу билан бирга ўқувчида реал тасвирий ҳолатни ишонтира билиш, эмоционал-бўёқдор сўзлардан фойдаланиш, турли соҳаларга оид сўз ва атамаларни соҳа мутахассиси даражасидан ҳам ортиқ ўзига хос услубда адабий тил нормаси сифатида тасвирлай олиш сўз санъаткоридан катта маҳораг талаб этади. Мақсуд Шайхзоданинг бадиий асарларида ҳаётнинг турли жабҳаларига тааллуқли бўлган сўз ва атамалар ижодкор услубига хос ўз бадиий ифодасини топган. Бу эса, албатта, сўз санъаткорининг дунёқараши бинлан боғлиқ кузатувчанлик, турли соҳаларга бўлган қизиқувчанлик, айниқса, гуманистик ғоялар билан йўғрилган ижтимоий, табиий соҳаларга нисбатан чуқур мулоҳазакорлигидан дарак беради.

Аслида қондош озарбайжон наслдан бўлиб, кейинчалик ўзбек халқининг чинакам севимли шоири, ёзувчиси, драматурги, забардаст олими сифатида донг таратган Мақсуд Шайхзода 1908 йили Озарбайжоннинг Ганжа вилоятига қарашли Оқтош шаҳрида туғилди. Отаси Маъсумбек элу-юртда катта обрўга эга шифокор эди.

У санъат ва адабиётни севар, тарих ва фалсафага қизиқарди, Оқтош зиёлилари билан турли масалаларда суҳбатлашарди. Ёш Мақсуд Низомий ва Фирдавсий, Навоий ва Фузулий, Пушкин ва Шекспир каби буюклар номини илк дафъа ана шу гурунгларида эшитди ҳамда бу муҳит унга адабиётга бўлган қизиқишини уйғотади.

Мақсуд Шайхзода Оқтошда ибтидоий мактабни битиргач, 1921 йили Боку дорилмуаллиминига ўқишга киради ва уни тугатгач Доғистоннинг Дарбанд, Бўйноқ шаҳарларида муаллимлик қилган. У 1926 йили Адҳем Файзий ташкилотига аъзо этилган “Миллий фирқа” ташкилотига аъзо бўлиб, мусовотчилар ҳаракатида фаол қатнашгани учун 1928 йили ҳибсга олиниб, Тошкентга сургун қилинган. Умрининг охирига қадар шу ерда яшаб, ижод қилган. Албатта, шўро ҳукумати Шайхзодани Ўзбекистонда ҳам таъқиблир ва таҳқирлардан бенасиб қолдиргани йўқ. Муҳими шундаки, Шайхзода “толеъ доим эркаламаганига” қарамай, умрининг охирига қадар ўзбек халқининг садоқатли фарзанди сифатида фаолият кўрсатди ва Ўзбекистон унинг иккинчи ватани бўлиб қолди.

Шайхзода Тошкентга келгач, аввал Наримонов номидаги техникумда дарс беради, кейин “Шарқ ҳақиқати”, “Қизил Ўзбекистон”, “Ёш ленинчи” газеталарида ишлайди. 1929 йили ёш шоирнинг ўзбек тилидаги дастлабки шеъри “Шарқ ҳақиқати” газетаси саҳифаларида босилиб чиқади. Орадан кўп ўтмай, Шайхзоданинг биринчи тўплами “Ўн шеър”, кейинроқ “Ундошларим”, “Учинчи китоб”, “Жумҳурият” каби тўплamlари нашр этилади.

Мақсуд Шайхзода “халқимизнинг меҳнат қаҳрамонлиги, кураш ва жанг, озодлик ва дўстлик, бахт ва алам, юртнинг гўзал манзаралари ва инсоннинг маънавий жамоли менинг қаламимга ошно, дилимга мазмун бўлиб келди” деб таъкидлаган эди. Шоирнинг бу фазилатлари, энг аввало, ҳаётдаги, воқеликдаги ва одамларимизнинг руҳий оламидаги ўзгаришлар, ҳолатларни ифодалашга қодир янги, бетакрор образларида намоён бўлди.

Шоирнинг ўзи “Инсон умри чекланган муҳлатли дафтар”, демак бу дафтарни фойдали, эзгу ишлар – “ёзувлар” билан тўлдириш лозим дейди. “Рақамлар” шеърида эса шундай сатрлар бор: “Мен на мунажжимман ва на ҳисобдон ва лекин кўраман сонлар мағзида осмонча маънолар, юртни ободон”...

Мақсуд Шайхзода ижодий балоғатидан далолат берувчи асарлардан бири “Тошкентнома” достонидир. Адабий жамоатчилик ўз вақтида бу достонни шоирнинг адабиётимизнинг йирик ижодий муваффақияти сифатида баҳолади. Чиндан ҳам, “Тошкентнома” Шайхзода достонлари ичида энг баркамоли бўлиб, унда шоир шахсиятининг ўзига хос қирралари анча ёрқин намоён бўлган.

Шайхзода умрининг сўнгида ёзишга киришган, лекин тугатиб улгурмаган “Беруний” драмасини ҳисобга олмаганда ҳам, унинг “Жалолиддин Мангуберди” ва “Мирзо Улуғбек” драмалари аллақачон халқимизнинг бадиий мулкига айланиб қолди.

Шуни таъкидлаш жоизки, Мақсуд Шайхзода асарлари тили лексикаси ҳанузгача ўрганилмаган. XX аср 30-йиллар ўзбек адабий тили хусусиятларини ўзида мужассамлаштирган ёзувчи насрий асарлари лексикасини ўрганиш ўзбек тили тараққиётининг ўзига хос жиҳатларини ёритиш учун аҳамиятлидир. Сўз санъаткорининг насрий асарларида фалсафий, ахлоқий, таълимий мушоҳадалар ёритилгани боис, халқнинг ўша муҳитдаги дунёқараши, эътиқоди, миллий урф-одатлари, тафаккури ҳақида маълумот берувчи манба ҳамдир. Ёзувчи асарларида ўзбек адабий тилининг тўлиқ шаклланиш жараёнларини акс эттирувчи лексик бирликлар, ёзувчи томонидан ҳосил қилинган ўзига хос эмоцинал-бўёқдорликлар, айниқса қадимги туркий эски ўзбек тилига хос тил бирликларининг фаол ишлатилгани кўринади. Унинг насрий асарлари тили лексикасини махсус ўрганишда қуйидаги масалаларни ёритиш мақсадга мувофиқ:

- 1) насрий асар тили ҳақида умумий маълумот бериш;
- 2) бадиий асар тили лексикасини ўрганишнинг ўзига хос тамойилларини белгилаш;

3) сўз санъаткорининг ўзига хос сўз қўллаш услубини аниқлаш, ундаги жонли халқ тилига хос хусусиятларни топиш;

4) насрий асарлардаги бўёқдорлик тил бирликларини таҳлил этиш;

5) асар тилида эскирган, архаиклашган сўзлар семантик тараққиёгини аниқлаш;

6) асар лексикасини тематик гуруҳларга ажратишдан иборат.

Мақсуд Шайхзода насрий асарлари тили лексикаси ҳанузгача махсус ўрганилмаган.

Этакчи ёзувчилар асарлари тилини ўрганмай туриб, шу ёзувчилар мансуб бўлган халқнинг тарихини мукамал билиб бўлмайди. Масалан, Россия тарихини Пушкин асарлари тилисиз, Англия тарихини Шекспир, Байрон асарлари тили таҳлилисиз тушунарли бўлмайди. Ўзбек халқининг тарихини чуқур билиш эса Навоий, Бобур ва бошқа етук ижодкорлар тилини ўрганиш билан боғлиқдир. Ўзбек адабий тили ўтмиши, ҳозирги ҳолати, ижодкор яшаган давр тилининг умумий йўналиши ва ривожланиш қонуниятларини белгилашда, тилда рўй бераётган жараёнларни ўзида акс эттирган моҳир сўз санъаткори Мақсуд Шайхзода асарларидаги ўзига хослик, Абдулла Қодирий, Ойбек, Абдулла Қаҳҳор асарлари тили каби миллий адабиётимиз учун керакли сўзларни танлай билишда конкрет тасвирдан кенг умумий планда фойдаланишда намоён бўлган. У ўз асарларида жозибатор манзара яратиш мақсадида сўзнинг ҳиссий кучини ошириб, кишида ҳис-ҳаяжон уйғотиб ҳайратда қолдирадиган реал ҳаётий ва жонли лавҳалар тасвирида намоён этади. Мақсуд Шайхзода прозаси ўтган асрнинг 30-йилларидан эътиборан миллий тил элементларидан маҳорат билан фойдаланишга бадиий тасвирни индивидуал бўёқлар асосида ҳиссиётни конкрет деталлар билан беришга эриша олган эди. Унинг бу даврларда яратилган “Мерос”, “Тупроқ ва ҳақ”, “Овчи қиссаси”, “Искандар Зулқарнайн”. “Ўн бирлар”, “Аҳмаджоннинг ҳикматлари”, “Учинчи ўғил”, “Нурмат отанинг туши” сингари лиро-эпик асарларидаги образлилик, реал тасвирийлик ўқувчини ўзига сирли тортади, сеҳрлайди. Улкан ёзувчи ўз асарларида ҳар бир сўзни, иборани ўринли қўллаб воқеа тафсилоти, қаҳрамон ҳатти-ҳаракати, унинг исми-шарфи, жой номи, манзара тасвирларида аниқлик бўлиши билан бирга чуқур бадиийлик устунлик қилган. Бунда барча учун умумий, кундалик ҳаётда зарур нарса ва ҳодиса тафсилотларини англатувчи сўзлар халқ жонли тили асосида бадиий фойдаланган. Ўзбек тилининг луғат таркиби ниҳоятда бойдир. Шунинг учун ижодкорлар ўзбек тили лексик бойлигидан керакли сўзларни эркин, танлаб олиш имкониятига эгадирлар.

Мақсуд Шайхзода насрий асарлари тили лексикасининг тарихий этимологик қатламлари жиҳатдан кузатилса, дастлаб генетик жиҳатдан сўзлар 2 гуруҳга - ўз ва ўзлашган қатламга бўлинади. Тил луғат составини тарихий-этимологик нуқтаи назардан текширганда, аввало тарихан келиб чиқиши нуқтаи назаридан ўзбек тилининг ўзиники бўлган сўзлар белгилаб олинади. Бундай сўзлар ижодкор асарлари лексикасининг асосини ташкил этган. Ёзувчи асарида соф туркий сўзларни ўринли ишлатгани тилнинг кенг имкониятларидан унумли фойдаланганлигидан далолатдир. Шоир ҳар бир сўзни қўллашда асар матни руҳидан келиб чиқиб бадиий тасвир воситаси сифатида адабий тилнинг лексик имкониятлари ҳисобланган омоним, синоним сўзлардан маҳорат билан фойдаланган. Бадиий асар лексикасининг кўп қирралиги ёзувчининг сўз бойлигини намоён қилувчи ёрқин мисоллардан биридир.

Мақсуд Шайхзода насрий асарлари лексикасини мавзуй гуруҳларга бўлиш шуни кўрсатадики, ижодкор ўз асарларида турли соҳаларга оид сўзлардан кенг фойдаланган. Бадиий асарнинг тематик жиҳатдан ранг-баранглигини кўрсатиш мақсадида уларни қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

1. Атокли отлар. киши исмлари;
2. Уруғ этник номлар;
3. Қавм-қарин дошлиқ терминлари;
4. Инсон аъзолари;
5. Кийим кичик атамалари;
7. Жой номлари;
8. Дарёлар номи;
9. Сон-саноқ, ҳажм, вақт билан боғлиқ масофа, томон, оғирлик, ўлчовли, бирликларини билдирувчи сўзлар;
10. Коинот ва табиатга оид атамалар;
11. Инсон ҳолаги ва кайфияти билан боғлиқ сўзлар;
12. Махкама, унвон, даража ва ҳуқуққа оид сўзлар.

Шайхзоданинг иккинчи жаҳон уруши йилларида ёзган “Жалололидин Мангуберди” (1944) ҳамда “Мирзо Улуғбек” (1961) драмаларида бу жиҳатларни кўриш мумкин. Хусусан, халқни душманга қарши бирлаштириш ва юрт ҳимоясини уюштириш йўлидаги Жалололидин кўрсатган жонбозликларини саройдаги Бадриддин сингари мунофиқ кимсалар ва улар таъсирида дастлаб отаси Хоразмшоҳ ҳам тўғри тушунмайди. Шунда Жалололидин “Менга қошонадан чодир яхшироқ” деб чиқади ва юрт ҳимояси учун кўшин беришларини талаб қилади.

Драматург Чингизхон образини маҳорат билан яратади. Шуниси муҳимки, у бу образни қора бўёқларга чаплаб ташламайди. Тарихий ҳақиқатга риоя қилган ҳолда, бу шахснинг Жалололидин ва Темур Малик қаҳрамонлиги жасоратига тан берганлигини фодалашни унутмагани ҳолда, унинг табиатидаги босқинчилик, ёвузликни, покиза инсоний туйғуларни оёқ ости қилиш сингари хусусиятларни тўлақонли бадий гавдалантиради:

Адолат ё инсоф? Нимадеган у?

Тупурдимбуларга, мингкатта тфу!

Бу фикр унинг дунёқарашини жуда аниқ очиб бера олганидек, мана бу мулоҳазалари унинг руҳий дунёсига бир очқич бўла олади:

Муҳаббат! Бу сўзни кимлар тўқиган?

Гўлшоирёзган-у, тентакўқиган.

Юқоридаги қаҳрамонлар, асосан, тарихий қаҳрамонлардир. Асарда улар билан ёнма-ён драмада муаллиф бадий тахайюлининг маҳсули бўлган Элборспаҳлавон, Яроқбек, Навқар, Нўъён, Табиб чол сингари тўқима қаҳрамонлар ҳам иштирок этадилар.

“Жалололидин Мангуберди” ва “Мирзо Улуғбек” драмаси бадий жиҳатдан теранасардир. Асар монолог ва диалоглари пишиқишлангани, ҳар бир қаҳрамон характерининг ҳам тилбойлигини, ҳам руҳий дунёсидаги ўзига хосликни фодалай оладиган йўсинда экани билан ажралиб туради. Қаҳрамонлараро конфликтларда сунъийлик йўқ, улар воқеаларнинг табиий оқими ва характерлар курашидаги мақсаднинг ҳаётийлиги ва ҳаққонийлигидан келиб чиқади.

Ўзбек адабий тилининг бугунги тараққиёт даражаси унинг тарихий-тадрижин ривожланиш босқичлари билан белгиланади. Ўзбек тилининг лексикаси бойиши жараёнини кузатиш бадий асар тили ва унинг услубий хусусиятларини диахроник ва синхроник йўналишда ўрганиш тилшуносликнинг асосий вазифаларидан биридир. Наср тили маълум даражада назм тилидан фарқ қилади. Наср тилида маълум жой хусусиятларини акс эттириш



жараёнида қахрамонлар нутқи орқали диалектал сўзлар касб-хунарга оид атамалар, жаргонлар ва шунга ўхшаш лексик воситалардан фойдаланилади.

### АДАБИЁТЛАР

- ✓ Асарлар [8 ж.ли], 1 бж., Т. 1969— 74; Хиёбон, Т. 1968.
- ✓ Адабиёт Зокиров М. Мақсуд Шайхзода. Адабий танқидий очерк, Т. 1969;
- ✓ Юсуф Шомансур, Шайхзода — бунёдкор шоир, Т. 1972;
- ✓ Ғафуров И. Ўртоқ шоир. Мақсуд Шайхзода ижодиёти, Т., 1975;
- ✓ Мақсуд Шайхзода замондошлари хотирасида, Т. 1983;
- ✓ XX аср ўзбек адабиёти тарихи, Т. 1999.
- ✓ Шайхзода Мақсуд. Атоқли халқ шоири. “Ленин учкуни”, 1956, 18 май (ўзбекча)
- ✓ Шайхзода Мақсуд. Шоир қалби дунёни тинглар (Танланган асарлар) Тошкент, „Ниҳол“, 2008. 28 б. (ўзбекча)
- ✓ Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситапар. Т / Фан, 1982.
- ✓ Ўзбек тили лексикологияси, Т., 1981.
- ✓ Абдурачмонов Ғ., Шукуров Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, Т.: Ўқитувчи.
- ✓ Ўзбек классик абиёти асарлари учун қисқача луғат. Т.: 1953.
- ✓ Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тилининг стилистик нормалари нутқ маданияти масалалари. Т.: 1973.

### MAQSUD SHAYXZODANING “MIRZO ULUG‘BEK” FOJIASIDA QUSH NOMLARI USLUBIY VOSITA SIFATIDA

*Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna,*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri, filologiya  
fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent*

**Аннотация.** Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri faylasuf shoir, dramaturg, mohir tarjimon, publitsist ijodkor Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasida qush nomlari (ornitonimlar) qo‘llanilishi, ularning funksional-uslubiy xususiyatlari, o‘zbek ornitologik tasavvur imkoniyatlarini kengaytirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

**Калит со‘злар.** Maqsud Shayxzoda, fojia, badiiy asar, qush, boyo‘g‘li, zog‘, qumri, tovuq, boyqush, laylak, bulbul.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается использование названий птиц (орнитонимов) в трагедии «Мирзо Улугбек» Мақсуда Шайхзады, одного из крупнейших представителей узбекской литературы XX века, поэта-философа, драматурга, искусного переводчика, публициста-творца, анализируются их функциональные и стилистические особенности, узбекское орнитологическое видение, его роль в расширении возможностей.

**Ключевые слова.** Мақсуд Шайхзаде, трагедия, художественное произведение, птица, ворона, курица, сова, аист, соловей.

**Abstract.** In this article, the use of bird names (ornithonyms) in the tragedy "Mirzo Ulug'bek" by Maqsud Shaykhzoda, one of the great representatives of Uzbek literature of the 20th century, the philosopher poet, playwright, skilled translator, publicist creator, their functional and stylistic features, Uzbek ornithological vision its role in expanding its capabilities is analyzed.

**Keywords.** Maqsud Sheikhzadeh, a tragedy, a work of art, a bird, an owl, a crow, a hen, an owl, a stork, a nightingale.

Maqsud Shayxzoda - faylasuf shoir, usta dramaturg, zabardast olim, mohir tarjimon, ehtirosli publitsist. U XX asr o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'rin egallaydi.

M.Shayxzoda avvalo shoir sifatida mashhur va manzur, uning she'riyati hozirjavobligi, yangi fikrlarga, chuqur falsafiy umumlashmalarga va jozibali lirizmga boyligi, notiqlik uslubiga xos bo'lgan ko'tarinki ruhi bilan ajralib turadi. [1, 238].

Ma'lumki, katta yoki kichik hajmdagi badiiy asar yaxlit kommunikativ-estetik butunlik sanaladi, shunga binoan uning syujet zanjiridagi voqealar, g'oyalar, fikrlar bir-biri bilan qanchalik uzviy va chambarchas bog'lanib ketgan bo'lsa, bu butunlikning badiiy-shakliy, emotsional-estetik poydevorini tashkil etuvchi lisoniy birliklar ham o'zaro shunchalik yaxlitlanib, o'sha badiiy asarning obrazlilikini, emotsional-ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan badiiy asarlarni, ayniqsa, poetik matnlarni tahlil qilish, uning yaxlit obrazli xususiyatini ochib berish ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalaga ana shu jihatdan qaraganda, she'riy matnlarni yaxlit, lingvopoetik tahlil qilish filologik tahlilning boshlang'ich nuqtasi deyish mumkin.

Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi adolatli podshoh va buyuk astronom olim Ulug'bek boshchiligidagi ilg'or ziyolilar, taraqqiyparvar kuchkar bilan qora niyatli guruhlar o'rtasidagi keskin kurash asosiga qurilgan. Tragediyaning bosh qahramoni salkam qirq yil podshohlik qilgan hukmdor va buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bek. Asarda Ulug'bek hayotining asosan so'nggi ikki yili aks etgan. M.Shayxzoda Ulug'bek obrazini katta mahorat bilan yaratgan. Bunda u o'sha davr uchun xos bo'lgan hayotiy ziddiyatlarni, to'qnashuvlarni ustalik bilan ochib bergan. [1, 246-247].

"Mirzo Ulug'bek" tragediyasi tili – boy, shirali aniq va obrazli. Pyesadagi monolog va dialoglar katta mahorat bilan yozilgan. Ayniqsa, undagi qush nomlaridan *qush, boyo'g'li, zog', qumri, tovuq, boyqush, laylak, bulbul* kabi 10 dan ortiq ornitonimlarning ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Sayid Obidning Ulug'bekka qarata aytilgan so'zlarida "qush" so'zi uslubiy vosita sifatida qo'llanilgan:

*Hazrat sulton, har qiz ota uyida bir qush.*

***Qushdan** kim ham so'rab turar uning maylini?*

*Bizlar uni asrasak ham oltin qafasda,*

*Fursat topgach cho'lga uchib ketar birpasda. [2.36].*

*Parvardigor amri bilan shu zamonada*

***Davlat qushi** Abdulatif boshiga qo'ndi.*

*Shahozdayi juvonbaxtning takliflari shu:*

*Yo Samarqand darvozasi ochilib kushod*

*Saltanatdan voz kechadi sulton Ulug'bek,*

*Yoki tag'in shiddatlanib bosqin va qurshov,*

*Urush davom etgusidir beayov, berahm. [2. 205].*

Izohli lug'atlarda "boyo'g'li" va "boyqush" ornitonimlari "tunda ov qiladigan yirtqich qush, bexosiyat, salbiy yoqimsiz voqea-hodisalar, darakchisi, sababchisi" degan ma'noni anglatadi. Sakkokiy va Ulug'bek tomonidan aytilgan quyidagi misralarda "boyo'g'li" va "boyqush" ornitonimlarini salbiy ma'no anglatganini ko'rishimiz mumkin.

*Bu kechani quvonchiga shumlik keltirgan*

*Shu badnafs **boyo'g'lini** daf eting, lutfan! [2. 39].*

*Uh... Bu manfur **boyo'g'lilar**, nur dushmanlari,  
Umrimizga egov bo'lgan haromi qurtlar...  
Bu kishining sayidligini ayasam...Attang... [2. 42].*

*Ha, eslayman, shu **boyqushning** xurujlarini,  
Ifitirochi, o'g'ridan ham battar bir maxluq.  
Chunki, o'g'ri muhtojlikdan shu yo'lga tushar  
Biroviga g'arazi yo'q unga non kerak. [2.149].*

Ulug'bekning suyuqli xotini Firuzaga qarata aytgan so'zlarida ayrim ornitonimlar uslubiy vosita sifatida qo'llanilgan:

*Senga kelayotib edim xayrlashgani,  
Muhabbatning oshyoniga qo'nishdi **zog'lar**.  
Isyonchilar talon-toroj, ig'vo qasdida  
Hujum qilib qurshab olgan Toshkant qo'rg'onin.... [2. 47].*

“Qumri” ornitonimi kaptarlar turkumiga mansub bo'lgan sayroqi qush ekanligini izohli lug'atlarda uchratganmiz. Asarda ham Ulug'bek tomonidan suyuqli xotini Firuzaga qarata aytilgan oshiqona gaplarida erkalash ma'nosi qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin:

*Oh, mehribon **qumriginam**, dono mahbubam.  
Parvardigor ayollarni jang uchun emas,  
Balki, jangni bo'ldirmaslik uchun yaratgan.... [2. 48].*

Ulug'bek tekinxo'r darveshlar, johil sayidlar, murid ovlovchi eshonlarning nopok harakatlariga chek qo'yish maqsadida aytgan so'zlarida “tovuq”, “laylak” va “bulbul” ornitonimlarining qo'llanilganini uchratish mumkin:

*Qismatlarning eng og'iri sulton qismati,  
Elni boqib, cho'pon bo'lmoq uning xizmati.  
Saltanatda lozim erur shunday bir usul:  
Marg'ilonda **tovuq** yitsa, shoh bo'lsin mas'ul. [2.63].*

*Nega shunday, siz mavlono, quyonni ko'zlab,  
O'q uzsangiz borib tushar **laylak** iniga. [2.170].*

*Sizning yurtda qolishingiz kerak, Sakkokiy,  
Shoirsiz, yurt bir bog'dirki, **bulbuli** o'lgan,  
Yurtda qoling, yaxshilikni tarannum aylang,  
Baytingizda bizlarni ham goho yod eting. [2.244].*

“Mirzo Ulug'bek” tragediyasi chuqur mazmunli aforizmlarga, obrazli tarzda yorqin ifodalangan falsafiy fikrlarga boy. Tragediyada bosh qahramon tilidan berilgan bunday teran ma'noli hikmatli so'zlar va falsafiy-badiiy umumlashmalar Mirzo Ulug'bekka xos muhim bir sifatni – uning dono inson va buyuk mutafakkir bo'lganini ochib berishga bevosita xizmat qilgan. Shu bilan birga, asarning tarbiyaviy-estetik qimmatiga qimmat qo'shgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2006. 238-250 betlar.
2. Maqsud Shayxzoda. Asarlar, olti tomlik, uchunchi tom. – Mirzo Ulug'bek (besh pardali tarixiy fojia). – G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent – 1972. 270-bet.

3. Yuldasheva D.B. O‘zbek tili ornitonimlarining strukturaviy-semantik tadqiqi. – filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand - 2020. 128-bet.
4. Yuldasheva D.B. O‘zbek tili ornitonimlarining strukturaviy-semantik tadqiqi. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand - 2020. 52-bet.

## MAKSUD SHAYKHZODA'S ROLE IN LINGUISTICS AND LITERATURE

*Ibatova Amira Shaavkatovna,  
Acting Associate Professor (PhD) of the  
Department of "Languages" of Samarkand branch  
of Tashkent University of Information Technologies*

**Annotatsiya.** Maqolada Maqsud Shayxzodaning tilshunoslik, adabiyot, tarix, falsafaga qiziqqan serqirra iste’dod egasi va mohir tarjimon ekanligi, uning asarlari ma’naviy merosimiz, boyligimiz hisoblanishi, hamda u kishining tilshunoslik va adabiyot sohalarida katta ahamiyat kasb etganligi xususida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** til, adabiyot, lug‘at, tadqiqot, asarlar, mumtoz, she’riy to‘plamlar, tarjima kitoblar, falsafa, dinamik til, tizim, tilshunoslik.

**Annotation.** The article discusses the fact that Maksud Shaykhzoda is a talented translator interested in linguistics, literature, history and philosophy, his works are considered our spiritual heritage and wealth, and that he has gained great importance in the field of linguistics and literature.

**Key words:** language, literature, vocabulary, research, works, classic, poetry collections, translated books, philosophy, dynamic language, system, linguistics.

One of the opportunities given by independence was the opportunity to carry out extensive research on our rich spiritual heritage in order to revive it. Among other social sciences, spirituality, national pride and national idea as a research object of linguistics materials are being selected [3, 164]. In particular, Maksud Shaykhzoda contributed to the development of linguistics and Uzbek literature.

Maksud Shaykhzoda described the expansion of the circle of literary knowledge, the enrichment of his work with the artistic experience of classical world writers, as a person not only a mature creator, but also a deeply educated researcher. His services in the field of literary studies are invaluable. How many strives he taught the sciences the secrets of literature. From the point of view of the great scientist, a matter of literary studies, of the history of literature has not been left out [1, 25].

One of the important tasks facing our linguistics is to turn the lexical layers related to the spirituality of our people and our national traditions into research objects. Maksud Shaykhzoda has extensively researched the period of Uzbek literature, from folk oral creativity to modern literature, issues of the literary process, species and genres, art. The work of the talented scientist devoted to the study of classical literature, in particular the creative heritage of Alisher Navoi, has not yet lost its value. They are distinguished by their scholarship, and this teaches us the methods of research, giving us a wide range of information. Initially, focusing on the research of Maksud Shaykhzoda on folk oral creativity, let us think about his activities in folkloristic. He studied folk oral creativity in detail [1, 44]. In addition to preparing this epic for publication, The Scientist also writes a large

preface to it. In the article at the beginning of the word, the ideological and artistic features of the epic, carefully analyzing their images in all respects. Until this time, the absolute negative image gives a new interpretation to the character as stamped. Maksud Shaykhzoda correctly noted at his time that a special examination of folk mythology, which is an artistic treasure to Eastern mythology and, among other things, Uzbek folklore, requires a huge amount of time and scientific training. It is interesting that for many years the image of the giant has come without comment in our folklore studies. The function of the image of the giant is understood by many to this day as a negative, a symbol of evil.

At the turn of the XX-XXI centuries there is a desire in linguistics for an integrative understanding of the essence of language as a dynamic system, in the center of which there is a person. In accordance with the anthropocentric trend, modern linguistics shows a special interest in the problems of the revival of national culture, to the study of individual fragments of the linguistic picture of the world, to the role of language as one of the most important means of expressing the specifics of the national worldview [2, 12]. Maksud Shaykhzoda made the first bold opinion that it is necessary to evaluate this image according to the direction of events in each work, that Giants in many cases are not evil enemies of man, but rather their solution is interpreted as a powerful supporter of mankind, revealing the secret of difficult talismans, proving his opinion with characteristic evidence taken from his epics. In addition, he singled out one feature of the epic "sugar with sugar": "... this epic in our hands is a certain legendary work. Indeed, in this epic, one can find some kind of educational and ethnographic information worthy of study for a historiographer [4, 54]. It is natural for him to absorb the real lines of an absolutely certain historical period, no matter how imaginative, mythical it may be." It is known that the works of folk oral creativity are passed down from language to language, from generation to generation. As a result, these works undergo various changes, some of their places, characteristic only of certain historical conditions, new events and views come into play [6, 74]. Consequently, in some works of folk oral creativity, especially in epic and fairy tales, we see that events, customs, opinions and views related to various historical conditions are reflected "Alpomish" is also one such century. A folksy "Alpomish" in both content and form, we see in itself a unique appropriation of poetic rules, forms, methods in the oral poetry of the people. That is why a researcher interested in the history of literature is qualified by the command to maintain a deep thought about the development of the literary process, forms and methods, image art, without coming to certain ideas and conclusions about this huge artistic heritage [5, 71]. Maksud Shaikhzoda's 1956 study of some of the poetic features in the epic "Alpomish" provides a broad overview of the weight, artistry, ideological-artistic character, content, world of images of this epic. Therefore, Maksud Shaykhzoda studied works of folk oral creativity in comparison with classical literature. After all, the first basis of any word, image, artistic idea that has found its development in written literature is folk oral creativity. Maksud Shaykhzoda, however, was able to contribute to folk oral creativity with his articles "sugar with sugar", "Alpomish" epics, "Bakhshi's way of Creation", which holni scientifically correctly understood and based on in his articles [5, 68].

It is natural for him to absorb the real lines of an absolutely certain historical period, no matter how imaginative, mythical it may be." It is known that the works of folk oral creativity are passed down from language to language, from generation to generation. As a result, these works undergo various changes, some of their places, characteristic only of certain historical conditions, new events and views come into play. Consequently, in some works of folk oral creativity, especially in epic and fairy tales, we see that events, customs, opinions and views related to various

historical conditions are reflected "Alpomish" is also one such century. A folksy "Alpomish" in both content and form, we see in itself a unique appropriation of poetic rules, forms, methods in the oral poetry of the people. That is why a researcher interested in the history of literature is qualified by the command to maintain a deep thought about the development of the literary process, forms and methods, image art, without coming to certain ideas and conclusions about this huge artistic heritage.

In addition, Maksud Shaykhzoda specifically touched on the poetic features found in the epic: rhyme, radif. The scholar quotes: "in the epic, the adherence to rhyme and the tendency to it is so great that even the poetic passages included in the middle of the poems rhyme, "as an example, he quotes the same passage:" Barchinoy lay down from his horse, grew five hundred sepals, the forty concubines took everyone to a velvety House, put clean clothes into this house,.. "This is prose (prose), not poetry. But the rhyme is prose, which is called Sage in classical literature. So this method also has deep roots in folk poetry. Therefore, Maksud Shaykhzoda studied works of folk oral creativity in comparison with classical literature. After all, the first basis of any word, image, artistic idea that has found its development in written literature is folk oral creativity.

So, it's like passing on all the riches of our language to the next generation it is necessary for every intellectual to understand mentally and emotionally that there is an important task and to try to follow it during his life [6, 37]. In conclusion, it can be said that Maksud Shaykhzoda is one of the most outstanding poets and writers of Azerbaijan and Uzbek folk literature.

#### REFERENCES

1. History of 20th century Uzbek literature, T., 1999. - 25 p.
2. Ibatova A.Sh. "The concept of non/bread in modern linguistics." Collection of scientific articles of SB TUIT, "Languages" department. 2020, January, 12 p.
3. Ibatova A.Sh. "Notes on bread and its types". Actual problems of philology. International scientific and practical conference. FarSU, October 21, 2019, 164 p.
4. Maksud Shaykhzoda in memory of his contemporaries, T., 1983.
5. Naim Karimov, Maksud Shaykhzoda: an educational-biographical novel. - T.: The East, 2009.
6. Nurmonov A. History of Uzbek linguistics. - Tashkent: Uzbekistan, 2002.

#### ЎЗБЕК-ОЗАРБОЙЖОН АДАБИЙ АЛОҚАЛАРИ: ТИЛШУНОСЛИК, АДАБИЁТШУНОСЛИК, БАДИИЯТ

*Норова Гулсанам Махсутовна,*

*Навоий давлат педагогика институти катта ўқитувчиси,*

*Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),*

*Озарбайжон Миллий Фанлар академияси қошидаги*

*Низомий Ганжавий номидаги адабиёт институти докторанти*

**Аннотация.** Ушбу мақолада ўзбек ва озарбойжон тилшунослигига доир батафсил маълумотлар, уларнинг бир тил оиласига мансублиги, этник жиҳатдан умумийлиги, лексик қатламлари борасида сўз юритилади. Шунингдек, озарбойжон адабиёти ва уларнинг серқирра вакиллар ижодий мероси хусусида тўхталиб ўтилади.

**Калит сўзлар.** Тилшунослик, адабиётшунослик, "Девони луғотит турк", туркий тил оиласи, лексема, тил бирликлари, озарбойжон тили, луғат, Низомий Ганжавий, "Хамса", Алишер Навоий, Машраб, Воқиф, шеърят, "Турналар", "Ўйғлайсан", "Манас", "Алпомиш".

Тилшунослик фанининг тадқиқот объекти бўлган тил жамият маҳсули, жамият қуроли сифатида ўз таърифига, тавсифига, мантиқий изоҳига эга. Бу –табиий. Чунки таърифланиши зарур бўлган ушбу ижтимоий ҳодиса тараққиёт мезони, ҳаёт кўзгуси сифатида, миллат руҳию тарих таржимони сифатида жамиятга хизмат қилиб келмоқда.

